



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MUXTOR
AVEZOV

74



MUXTOR AVEZOV



“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.122-3

KBK 84(5Qoz)

M 93

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova,
Umid Hayitov, Tursinali Ahmedov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Risolat Haydarova

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehтиromining ramzidir.

MUXTOR OG‘A HAQIDA MUXTASAR SO‘Z

Muxtor Avezov, qozoq xalqining ulug‘ yozuvchisi, uni bizlar ardoqlab “Muxtor og‘a” deb o‘zimizga yaqin olamiz.

Muxtor og‘a 1897–1961-yillarda yashab ijod qildi. U akademik, adib, romannavis, go‘zal hikoyalar muallifi, drama asarlari to‘qson yildan beri sahnadan tushmay kelayotgan dramaturg, mohir tarjimon, adabiyotshunos olim, folklorchi, pedagog, ko‘plab ssenariylar, operalarga librettolar yozgan, bir so‘z bilan aytganda, adabiyotning qariyb barcha janrlarida qalam tebratgan ulkan talant sohibi, salohiyati o‘quvchilar ko‘nglini chuqur zabt etgan so‘z san‘atkori.

Adib juda murakkab davrda yashadi. Hamma davr ham, aslida, o‘ziga xos murakkabdir. Ko‘p o‘qidi, o‘rgandi, quvildi, qamaldi, erkinlikka chiqdi, ammo bir lahza bo‘lsin ijoddan to‘xtamadi, tanlagan yo‘lidan qaytmadi, o‘zidan xalqiga ulkan meros qoldirdi. Qozog‘istonning Semey (Shamay) viloyati Chingiztog‘ mavzeyida, bugungi Abay tumanida tavallud topgan. Uch yoshida otadan, o‘n besh yoshida onadan ajralgan. Qosimbek amakisi qo‘lida katta bo‘ldi. Ulug‘ shoir va mutafakkir Abay bilan bir urug‘dan, to‘biqtidan. Bu tuyg‘u unga katta madad, g‘urur berardi.

1917-yilda Muxtor og‘a o‘zining ilk sahna asari “Yenlik-Kebek” pyesasini yozadi va uni Abayning yostiqdoshi Aygerim momo o‘tovida qo‘yishga muvaffaq bo‘ladi. Keyinchalik go‘zal qiz Aygerim epopeyaning yorqin obrazlaridan biri sifatida tasvirlanadi. Qizning asl ismi Shukimon edi, lekin uni ilk bor ko‘rganda mahliyo bo‘lib qolgan yosh Abay hayrat ichra: “Aygerim” deb atab yuboradi! Qiz shoir yigit ko‘nglini zabt etgan edi...

Muxtor og‘a taqdir taqozosiga ko‘ra Abayning nabirasi Komila Magauiya qizi bilan turmush quradi.

Muxtor og‘ani O‘zbekistonda, asosan, “Abay yo‘li” roman-epopeyasi orqali yaxshi biladilar. Bu roman O‘zbekistonda mashhur. Nafaqat bizda, balki dunyoning boshqa mamlakatlarida ham shundoq.

Taqdir azaldan ulug‘ mutafakkir shoir Abay haqida asar yozish, uni dunyoga yoyish vazifasini Muxtor Avezov peshonasiga bitib qo‘ygan ekan. Muxtor Avezov buni chuqur anglab yetdi, butun kuchini, shijoatini ulug‘ maqsadga qaratdi. O‘z vaqtida suhbatlardan birida safdosh do‘sti, otashin shoir Ilyos Jonsug‘urov unga, siyosiy ishlarini bir chetga qo‘y, qarindoshing bo‘lgan buyuk shoir Abay hayoti va ijodini o‘rganishga kirish, deb maslahat bergan edi. Bilib aytgan ekan. Shu qutlug‘ niyatni qattiq tutgan Muxtor Avezov 1933-yilda Qizilo‘rda shahrida lotin alifbosida “Abay Qunanbay-uli. Tolik jinak” — shoirning to‘liq she‘rlar to‘plamini nashr etdirdi... Bu shoir asarlarining keyingi nashrlariga ham asos bo‘ldi. Abay merosini o‘rganish, izlanishlar davom etdi.

“Abay” va “Abay yo‘li” deb atalgan romanlar, umuman, bu epopeya chindan ham qozoq adabiyotining dovrug‘i dunyoga taralib ketgan durdonalaridandir. Ulug‘ mutafakkir shoir Abay va uning qizg‘in hayoti bahona, Muxtor og‘a qozoq xalqining turmush tarzini, sahrularday keng fe‘l-atvorini, qalbini ta‘riflab dunyoga ko‘rsata oldi. Yanada aniqroq aytsam, adib o‘zining ona xalqi — qozoq xalqini olamga tanitdi! Bugungi kunda yigirmadan ortiq jahon tillariga tarjima qilingan (bu jarayon to‘xtamaydi, balki davom etadi) “Abay yo‘li” epopeyasini jahon adabiyotining yetuk asarlaridan biri, deya olamiz. Bejiz emas, rus tilida nashr etilgan mashhur “Jahon adabiyoti kutubxonasi”da Muxtor og‘a epopeyasiga ikki tom ajratildi.

Muxtor og‘a 1927–29-yillarda Toshkentda O‘rta Osiyo davlat dorilfununida aspirant bo‘lgan, o‘zbek tilini mukammal bilgan, o‘zbek do‘stlarining kitoblarini asliyatda mutolaa qilgan. Aslida u 1922-yildayoq Toshkentdagi O‘rta Osiyo Turkiston universitetiga erkin tinglovchi bo‘lib o‘qishga kirgan, ayni paytda “Sholpan” jurnalida hamkorlik qilgan. Ayni shu yillarda bo‘lajak yangi qozoq adabiyotining asoschilaridan biri olovli shoir va pedagog Mag‘jon Jumaboyev ham Muxtor og‘aga o‘xshab Toshkentda yashar, ishlardi. Mag‘jonning onasi Gulsum degan o‘zbek ayoli bo‘lgan.

Muxtor Avezov Abdulla Qodiriy bilan shaxsan tanish edi, Oybek bilan do‘st bo‘lib qalinlashib ketgandi. Ularni go‘yo bir-biridan havo olib, bir paytda o‘z xalqlari tarixini yaratishga birdan ki-

rishishgan adiblar deyish mumkin edi. Muxtor og‘a “Abay” romanining birinchi kitobini 1942-yilda yozdi, ikkinchi kitob esa 1947-yilda dunyo yuzini ko‘rdi. Umuman, adib epopeyani yaratishga yigirma yil umrini berdi... Oybek ham xuddi shu paytda mashhur “Navoiy” romani ustida qattiq ter to‘kardi... Oybek Muxtor og‘aga “muallim” deb murojaat qilganini, Muxtor og‘a esa o‘z navbatida Oybek akani “domla” deb ardoqlaganini hali-hali eslashadi.

Men Muxtor og‘a asarlarini yaxshi ko‘raman. Ayniqsa, “Abay yo‘li” epopeyasiga munosabatim boshqacha. Buning sababi bor. Esimda, 1953-yil, maktabda to‘rtinchi sinfda o‘qir edim. Bir kun otam Ahmadqul so‘fi Beknazar so‘fi o‘g‘li qayerdandir xizmat safaridan qaytib keldilar. Qo‘llarida menga atalgan bir sovg‘a... ko‘rindi. Odatlari shu edi. Sovg‘a — o‘zbekchaga Zumrad tomondan yangi tarjima qilingan “Abay” romani ekan!

Darhol kitobni o‘qishga kirishdim va tugatmaguncha qo‘ldan qo‘ymadim! Roman butun xayolimni qamrab oldi, men qozoq sahrolarida yurardim, ona qishlog‘im atrofi ham cho‘l joylar edi, shundanmi, roman manzaralari ko‘nglimga yaqin tuyulardi. Ayniqsa, yosh Abayning go‘zal qiz Tug‘jonga bo‘lgan tong-saharda yog‘gan yomg‘ir tomchisiday tiniq va pokiza muhabbati tasvirlarini ko‘z uzmay o‘qirdim...

Iztiroblarini dilimda tuyardim. Mening yosh qalbimda tarixga bo‘lgan qiziqishimni uyg‘otgan Muxtor og‘a, “Abay” romani bo‘lgan esa ajabmas...

1964-yilda Olmaotada Muxtor Avezov qabri ustida Y.V.Vuchetich loyihasi bo‘yicha o‘rnatilgan marmar taxtada shunday so‘zlar o‘yib yozilgan: “Kimki dunyoda o‘lmas so‘z qoldirgan bo‘lsa, u manguga tirikdir”.

Oradan bir yil o‘tib, 1965-yilda tog‘ ekspeditsiyasi vakillari Tiyonshonga ko‘tarilib, tog‘ning salkam olti ming metrlik baland cho‘qqisiga Muxtor Avezov nomini berdilar.

Chindan ham buyuk adib Muxtor Avezovning joyi bundan quyi bo‘lishi mumkin emas, albatta!

Muhammad Ali,
O‘zbekiston xalq yozuvchisi

ABAY

(romandan parchalar)

Maqulboyning yettisi o'tguncha, Qunanboy Takejonning uyida bo'lib, Nurg'onimning ovuliga bormadi. Shu kunlarda uning yosh xotini uyidan yiroqlashishi, Nurg'onimning boshida ko'p mojaro-larni tug'dirayotgan edi. Bu sir tutiladigan, lekin ko'p og'ir va chigal mojaro. Qunanboy ovulining sha'nida bo'lmagan og'ir bir tortishuv ketayotir. Bu tortishuv O'spon bilan Nurg'onim o'rtasi-da ketayotir. Ikkovining shu kunlarda bir-biriga bo'lgan qasdligi noiloj pinhon tutilib, izhor qilinmay kelayotgani uchun yana ham keskinlashgan.

Kecha O'spon Abayga yetkazgan xabardagi ahvol bugun ham o'zgarmagan edi.

Bozorali Qunanboyini ko'rgani keldi. Qunanboy uni To'buqti yigitlari ichida hammadan ko'ra boshqacharoq hisoblab, ortiqroq ko'rar edi. O'z bolalariga, inilariga qilmaydigan iltifotlarni qilar edi. Yosh yigitning suhbatini yaxshi ko'rardi. Qunanboy Makka-dan kelgandan buyon Bozorali bilan uchrashgani shu edi. Shuning uchun ham bemalol o'tirib, undan hol-ahvol so'radi. Uning ota-onalari shu kunga qadar ham yo'qchilik changalidan chiqolma-ganini, ayniqsa, shu kunlarda juda qattiq muhtojlikka tushib qol-ganlarini ham eshitdi.

Bozorali azamatligi, mardligi orqasida kam-ko'sti, faqirligini birovga aytmay kelardi. Lekin Qunanboydan biror sirni yashir-madi. Haydalib ketgan Bolag'ozining bola-chaqalari, to'rg'aydek to'zib, sargardon bo'lib yurganigacha yashirmadi. Uning esi kirib qolgan bolalari kunlarini o'tkazish uchun o'zlariga to'q qardosh-larining eshigida xizmat qilib yurganliklarini, uyidagi go'daklari-ning bir qoshiq obi-yovg'onga zor ekanliklarini ham qoldirmadi.

Eri hurmat qiladigan bu azamat yigitdan Nurg'onim ham o'zini tortmasdi. U Bozoraliga atab, turli-tuman kiyim-kechaklar tiktirayotir. Nurg'onim hali ham Bozoralining go'zal siymosiga, uning sherdek, kelishgan va ko'rkam qaddi-qomatiga o'sha qizg'in do'stlik bilan boqardi. Uning hayotidagi, hech qachon qadri yo'qolmaydigan birdan bir aziz odami — shu mehmon. O'zining bunday qilishiga bu ovuldagi o'zga odamlarning nima deyishi, qanday qarashiga parvo ham qilmas edi. O'sponning jini qurishib, orqasidan so'yib-sotib yurganini bir necha bor eshitgan bo'lsa ham e'tibor bermay lablarini cho'chchaytirib, “vos-vos” deb qo'ya qolardi, xolos.

“Bozoraliga kiyim tiktirgani nimasi? Bu qanday rasvolik? Jo'rttaga bilsin deb qilayotgandir-da? Bundan ham zo'r shohid bormi?” degan gaplari yetib kelganda ham Nurg'onim qisilib-qimtinmadi. “Nima desa der, qo'lidan kelganini qilsin!” deb battar o'chakishdi. Ensasi qotib, Qunanboyning buyrug'i bilan tiktirayotganini aytishga ham erindi.

Nurg'onim kecha kechqurun Aqlboyni ko'l bo'yiga yuborgan-da ham O'sponni sinamoqchi bo'lib, uning jiniga tegish uchun o'smoqchilab jo'rttaga yuborgan edi.

O'sponning dag'alligini Aqlboy oqizmay-tomizmay yetkazdi. Lekin baland qomatli tannoz Nurg'onim na xafa bo'ldi-yu, na siqildi. Ko'ngliga ham keltirmay, sirtiga ham yuqtirmay, boyagisidek yuraverdi. Garchi O'sponning Abay oldida ham uni kesatib-nuqatishini eshitgani shu bo'lsa-da, undan ham xijolat qilmadi. Ichidan: “Abay jilovini O'sponning qo'lga berib qo'yadigan bo'lsa, uni ham ko'rarman!” deyayotgandek bir vaziyat oldi, xolos. Shu kayfiyatda ikki-uch kun o'tdi. O'spon hali ham alamiga chidolmay, g'ijinib yurardi. Bugun ertalab sug'organi olib kelingan molga suv quydirish uchun o'tib ketayotib, Nurg'onim bilan Bozoralining uyda hazillashib, qattiq kulishayotganini eshitib qoldi. Shu bahona bo'ldi-yu, Nurg'onimning uyidan chiqib suv olmoqchi bo'lib kelgan yosh kelinchakka hayqirib:

— Qayt hozir! Bu quduqdan Nurg'onimga suv berilmaydi. Oлдirmayman, qudug'imni harom qildirmayman. Yo'qol, borib ayt!

Bundan buyon shu quduqqa Nurg'onim uchun suvga kelgan kishining bo'ynini uzib tashlayman! — dedi.

Buning ustiga, haligi kelinchakka eshildirib, novga suv quya-yotgan Masoqboy, Darqon kabi bir necha erkaklarga qarab: "Kecha-yu kunduz shu quduqning boshidan nari ketmay, qo'riqlab turinglar! Nurg'onimga bir qultum suv bermanglar!" dedi.

O'spon kun bo'yi hormay-tolmay quduq boshida yurib, o'z buyrug'ini joyiga qo'ydi. Shu kuni Nurg'onimning ovuli bir tomchi suv ololmadi. O'spon qo'liga yo'g'on qamchi olib, goh quduq boshida o'tirar, goh katta to'riq otiga minib, Nurg'onim ovulidan suvga kelayotgan bitta-yarimta odam ko'rinib qolsa, o'shqirgani-cha oldiga solib haydardi. Ba'zilarini qamchi bilan savalab, quvlab ham yubordi. Kechga tomon ovuldan ancha naridagi katta suvga tuya bilan borib, bochkalab suv olib kelayotgan ikkita kekxa xotinni ko'rishi bilanoq, O'sponning o'zi ularning yo'lini to'sib, tuyaga ortilgan suvni bochkasi bilan ag'darib yubordi-da:

— Nurg'onimga borib ayt. Bozoralini jo'natmasa, bir tomchi suv tottirmayman, tashnalikdan qotirib o'ldiraman. Joni borida hozir Bozoralini jo'natsin. Bir katta mojaro chiqishini istamasa, endi bas qilsin! — dedi.

Kechasi ham suv bermadi. Tong otishi bilan yana shu ahvol boshlandi. Bugun O'spon tutoqib, qop-qora uniqib ketgan, o'tirgani joy topolmas, titroq bosib, yorilib ketguday bo'lib yurgan edi. Nurg'onimning uyi bilan butun ovuli endi haqiqatan ham, bir qatara suvga zor bo'ldi. Uning ustiga, O'sponning bu qiligi ishning ochiqdan ochiq dushmanlikka yuz tutganini ko'rsatardi. G'iybatlar kimning bo'lsa-da, nomini bulg'ab, obro'yini to'kadi. Ikki taraf ham xatarga qadam qo'ydi.

G'ayratli Nurg'onimning g'azabi ham bugun O'sponning g'azabidan qolishmasdi. Bozoralini jo'natmadi. Jo'natish uyoqda tursin, mehmonga kechadan buyon bo'layotgan yovlashishning sharpasini ham sezdirmedi. Eshikda yurganda joni halqumiga kelib, qovog'ini solsa, uyga kirganda hech gapdan xabari yo'q kishidek, gul-gul yonib, chaqchaqlab kulardi. Bozoralini yer-uko'kka qo'ygisi kelmay, atrofida parvona bo'lardi. Bozoralini esa eshikda bo'layotgan mojarolarning hammasini oqsoch xotindan

allaqachon bilib olgan edi. Lekin u ham o'zining tepsa tebranmasligi, sabotligiga borib: "Qani nima qilar ekan?" degandek Nurg'onimning qilayotgan ishidan zavqlanib, uning avzoyiga zehn solib o'tirardi-yu, yorilib gap ochmasdi. Shunday qilib, ichki dard sirtga tepib, ora buzilayotganda, choshgohga borib Nurg'onim bunday paytlarda uncha-muncha ayolning qo'lidan kelmaydigan bir keskin qarorga keldi.

Bu ovul ko'm-ko'k maysali sozloq yerga joylashgandi. Qayerni qazilsa, o'sha yerdan suv chiqib, quduq bo'lardi. Nurg'onim shuni o'ylab, xizmatdagi qo'shnilardan uchta yigitchani boshlab keldi-da, oshxona o'toviga kirdi. O'sha yerdagi kelinchakka aytib, o'tovning o'rtasidagi o'choqni oldirib tashladi. Haligi yigitchalarga:

— Xuddi mana shu yerdan quduq qazinglar! — deb buyruq berdi.

Yigitlar Nurg'onimning rad etib bo'lmaydigan buyrug'ini bajo keltirib, aytgan yerdan quduq qaziy boshlashdi. Nurg'onim bamaylixotir yurar, kosasidan xiyol irg'ib chiqqan qop-qora shahlo ko'zlarini o'ynatib kulardi. Hech narsa kor qilmaydigan nurli yuzida qasos va masxaralash ochiq aks etgani holda:

— Qo'dar quldek¹ zo'rvonligiga, kuchiga ishongan O'spon, o'zining ahmoq bo'lib qolganini tezroq bilsin. Quduqni tez-tez qazib, samovar qo'yib yuboringlar! — dedi.

Oshxonadan chiqdi-da, ko'rkam va sumbatli qomatini ko'z-ko'z qilib, o'zgacha bir tannozlik bilan kerilganicha oyog'ini bitta-bitta bosib, o'z uyiga qarab ketdi. Uning sochidagi og'ir cho'lpsi, go'yo O'spondan kulayotganday, salmoq bilan shildirshildir qilib borardi. Nurg'onimning shunchalik mardlik va chin sadoqatni ko'rsatadigan bu ishi keyinchalik shu atrofdagi xotinalarning og'zida afsona bo'lib qoldi.

Shu kunlarda Qo'riqdagi ovullardan o'n besh chaqirim narida xuddi shu Qo'riq singari tekis dala, salqin qo'nis Eralida muhim voqealar ro'y berayotgan edi. Ashshisuning suvga serob joyini Erali deb ataydilar. Erali bu yil ko'klamda o'z sohiliga g'oyat

¹ **Qo'dar** — "Qo'zi-ko'rpesht va Bayan sulu" dostonidagi zo'rvon, o'zining kuchiga ishonib ish tutadigan shaxs.

gavjum elni, yuzdan oshiq ovulni chorlagan edi. Bu yerda: Irg'iz-boy Bo'kenshi, Jigitek, Kotibaqlar bor. Bu yerga yaqin joydagi, uzoqdan ko'rinib turadigan baland O'rda tog'ida qishlaydigan Mamaylar ham bu yil Eralida. Mana bu Eralidagi elning ustiga saylov keldi. Bu — bo'lis¹ saylovi edi. Ko'p ovullardan chetroq yerga qatorlashtirib yigirma-o'ttizga yaqin oppoq o'tovlar tikildi. Uylarning shunday bir tartibda tikilishi ularning badavlat ovulning uylari emas, balki to'y yoki osh berish uchun hozirlik ko'rayotgan yo bo'lmasa katta bir amaldor — ulug'ning kelishiga atab tikilganligini ko'rsatib turardi.

Tikilgan oq uylarga bu gal kelib tushib, saylov o'tkazadigan ulug', shunchaki saylov o'tkazib ketadigan "krestyan nachalnigi"² emas, Semey uyezdining³ nachalnigi edi. O'yaz⁴ yoniga bir to'da strajnik⁵, uryadniklarni⁶, ikki krestyan nachalnigini olib keldi; bular bir qancha izvoshlarga tushib, qo'ng'iroqlarini jaranglatib, oldi-orqalarida rus qozoq yasovullari ot o'ynatganlari holda, as'asa, dabdaba bilan kelishdi. Shu o'lkaning bir chetiga qadami yetishi bilan yo'lda duch kelgan: Qizil adir bilan Ching'iz uyezdlarining ikki starshiniga⁷ yaxshilab darra urdiripti. Elga uning o'zi bilan birga xalqning yuragini orziqtiradigan dag'dag'asi ham yetib keldi. Hozir Eralida o'tirgan ikki bo'lisga qarashli elning qumi-tuproqdek xalqi o'rtasida bu o'yaz: "Tentek O'yaz" degan nom chiqardi.

¹ **Bo'lis** — Chor Rossiyasi qishloq joylardagi ma'muriy-hududiy bo'linishning eng quyi birligi sanalgan volostning mahalliy xalq tilida aytilishi.

² **Krestiyani nachalnigi** — mahalliy dehqonlar ustidan ma'muriy nazoratni amalga oshirgan, volost va qishloq sudlari va hay'atlarining ishi ustidan tekshiruv yurituvchi chor Rossiyasi mansabdor shaxsi.

³ **Uyezd** — Qadimgi Rus, xususan chor Rossiyasi davrida ham ma'muriy-hududiy birlik.

⁴ **O'yaz** — uyezd boshlig'ining mahalliy xalq tilida aytilishi.

⁵ **Strajnik** — chor Rossiyasining uyezd politsiyasidagi quyi lavozimlardan biri.

⁶ **Uryadnik** — chor Rossiyasida qo'shin, flot va politsiyadagi unter-ofitserlik mansabi.

⁷ **Bolost starshini** — chor Rossiyasida dehqonlarning o'zini o'zi boshqarish ma'muriy birligi bo'lgan volostning saylangan mansabdor shaxsi.

Abay Oqsho'qidan kelayotganda, Erali bo'yida ulug'larning uyiga yaqin yerda turgan bir qashshoq ovulning qoshiga kelib to'xtadi.

Bu ovul badavlat ovullarga qaraganda, ko'rinishi boshqacha, tuzilishi bo'lakcha ko'p uylik ovul. Uylarning deyarli hammasi qurum bosgan, yirtiq-yamoq namat bilan yopilgan ko'hna uylar. Bir qarashdayoq bir parcha yerda tiqilishib turgan muhtoj el ekanligi ko'zga tashlanib turardi. Bu atrofdagi ovullarning ichida uyining soni ko'p bo'lgan ovul shu. O'ttiz-qirq xonadondan iborat. Atrofida bog'loqlik turgan qulun ham ko'rinmaydi. Qo'tan o'rtasidagi qo'y yotadigan joy ham kichkinagina. Ovulning atrofida qoramol ham siyrak. Kambag'allikning shafqatsiz changalida siqilgan ovul ekani yaqqol ko'rinib turardi.

Abay bu ovulning ko'p ellardan tashkil topgan, "ko'p jotoq" deb ataladigan ovul ekanligini bilardi. U erda ko'klam qistov solgani Oqsho'qiga ko'chib kelganda, qishdan qiynalib chiqqan o'sha jotoqlarning: Dandiboy, Erenoy degan keksalari Abaydan yordam so'rab kelishib, ozroq oziq-ovqat olib ketishgan edi. Shunda ular Abayga o'zlarining kimligini, hol-ahvollarini ham aytishgan edi.

— Jotoq degan bir toifa elmiz. Bir chetimiz — qishda Boyg'abil, Miyalida qishlaydi. Bir to'pimiz — mana bu o'zingga yaqin Kindik, Sho'lponning panohiga tiqiladi. Bu jotoqlar qirq urug'dan quralib, tashkil topgan edi. O'rdadagi Mamay elidan ham, Ching'izdagi Ko'kshe elidan ham bor. Yo'qchilik qanotini sindirib, qip-yalang'och go'sht bo'lganlarning ko'pi shu yerda. Qish kunlarida ko'pincha soy-soyning bag'riga tiqilib, biqinib tirikchilik qilamiz. Ko'klam chiqib, yilt etib kunning ko'zi ko'rindi deguncha, uch-to'rt uy birlashib, bor kuchimizni sarf qilib, yer tirmalaymiz, yer ko'kragini emsak, mehnat zoye ketmas, hech bo'lmaganda tamaddiq topilar deb, ekin ekishni kasb etdik. Qoshimizga kelib qistov solganingda, ellik qilib ko'maklashsak bo'lar edi. Ishga yaraydigan yigit-yalanglarimizni xirmon sovirish, loy qilishdek xizmatiga bo'lsa yuboramiz. Agar kerak bo'lsa, ay-taver! — deyishgan edi.

Abay Dandiboyning gaplaridan odamgarchiligi joyida ekan, deb baho bergan bo'lsa ham u vaqtda ulardan ko'mak olmadi.

— Jotoq bo‘lganingizdan keyin tirikchiligingiz ekin ekish bilan o‘tar ekan. Bahor fasli sizlarning og‘ir mehnat qiladigan paytingiz. Ekinigingizni ekib oling. Usiz ham ozgina kuchingizni men bo‘lmayin. Odamgarchiligingiz uchun rahmat. Qo‘rani bo‘lsa, shu yerdagilarning o‘zi solsa ham bo‘lar. Lekin men o‘zimni sizlardan chetga tortmayman. Yer biroz selgigandan keyin ovulingizga ham borib kelaman. Esonchilik bo‘lsa, totuv qo‘shni bo‘larmiz. Qarindosh-urug‘larga salom ayting! — deb yuborgan edi.

O‘sha gapdan keyin Abayning bu yerga kelgani shu edi. Saylov bo‘layotgan joyga bormay, avvalo shularni ko‘rib ketay, deb jotoqlar tomoniga qayrilgandi. Erbo‘l ikkovi qiyalab yo‘l solib kelayotib, bir-biriga: “Bunchalik ko‘p el kimlar ekan?” deb, kelishayotgan edi.

— Jotoqlar shular bo‘lsa kerak. Yopirim, yo‘qchilik qanday ahvolga solgan-a, bu elni. Ovulning chetidagi ana u to‘p-to‘p bo‘lib sochilib yotgan nima ekan? — deb, Abay otining boshini tortib, Erbo‘lni ham to‘xtatdi.

Abayning ko‘zi tushgan chetdagi uylarning o‘rnida to‘p-to‘p bo‘lib uyilib yotgan uvadalar g‘oyat g‘arib va ayancli ahvolda turgan edi. Kichik-kichik, qop-qora qurum bosgan kapachalar ham ko‘rinardi. Ba‘zi yerlarda eski kajanalar, siniq egarlar, siniq karavotlar, churuk-choriq uy anjomlari boshpanasiz sochilib yotardi. Mana shu uyilib yotgan uvadalarning orasida qiltirab boshlari ko‘rinib turgan bolalar, yirtiq-yirtiq qo‘sqi to‘n va chakmonlardan qolgan eski-tuskilarga chulg‘anib yurgan rangi somondek chol-kampirlar ko‘zga chalinardi. Bu ko‘rinishga Erbo‘l o‘zicha ma‘no berdi.

— Eralida dovul juda qattiq bo‘lar edi. Shu ovulning ko‘pchilik uylari yiqilib tushganmi deyman. Ana u tomoniga qara, deyarlik hammasi boshpanasiz qopti-ku! — dedi.

— Qani yur-chi, borib bilib kelaylik. Bularga nima bo‘lgan o‘zi! — deb, Abay o‘sha ko‘p uyli qashshoq ovulga qarab ketdi. Bularning oldidan uzun hassa tutgan, soch-soqollari oppoq keksa bir odam chiqdi. Uning yalang‘och etiga kiygan chakmon ilma-teshik bo‘lib ketgan, ozg‘in yuzini behad ajin bosgan edi. Bu chol Darkemboy ekan. Yigitlar uni tanishlari bilanoq otdan tushib,

salom berib so‘rashganlaricha, yaqin yerdagi bir kapa yoniga kelishdi.

Darkemboy shu jotoqlarning ichida ekanligini Abay bilmas edi.

— Darkemboy, sen ham jotoqlarning ichida edingmi? Nechuk bu ishdan men bexabar qoldim? — dedi.

Darkemboy avval indamasdan turib, keyin so‘z qotdi.

— Sen xabarsiz qolishingning sababi shuki, men bularga yaqinda kelib qo‘shildim. Endigi qolgan hayotimda makonim ham, yurtim ham shu el! — deb, boshladi-da, gapga tushib ketdi...

— Shu yerda o‘tirgan qirq uyli qashshoqlarni so‘rasang, hammasi ham menga o‘xshaganlar ekan. Suyundik bilan Sugirning moli bor deb, ularning ko‘chiga ergashib ko‘chaman deb yurib, ko‘p umrim sarsongarchilik bilan o‘tdi, lekin biron naf bo‘lmadi. “Kuch-quvvating borida so‘yilimni ko‘targan edi, ovulimning chetida o‘tirgan soqchi edi, qish bo‘lsa molimning qo‘riqchisi edi, endi keksayib, puturdan ketganda, mehnatining rohatini ham ko‘rsin. Keksaligi ham kam-ko‘stlik, muhtojlik bilan o‘tmasin”, degundek odam topilmadi. Mana endi qaragam, har kimning o‘z yo‘li o‘ziga ekan. Endilikda siniq egarimni orqalab tentirashni qo‘yib, mana shunday el orasidan panoh izlab keldim. Shular qanday tirikchilik qilayotgan bo‘lsa, men ham shunday tirikchilik qilishga qaror qildim! — deb, o‘zining g‘arib ahvolini g‘amginlik bilan izhor etdi.

Erbo‘l:

— Bu elning ichida birorta qarindosh-urug‘ing bormi yoki yo‘qmi? “Zahar yutsang ham el-urug‘ing bilan birga yut”, degan gaplar bor edi. O‘z to‘pingdan ayrilib, bu yerga kelganda, kimga orqa qilib kelding? — dedi.

Erbo‘l ham Bo‘kenshilardan bo‘lgani uchun Darkemboydan qardoshlarcha koyigan bo‘lib gapirdi.

Darkemboy Erbo‘l bilan gap talashib o‘tirmadi. Abayga qarab:

— Bo‘kenshi bilan Bo‘rsoq elida mening jonkuyarim ham, yaqin odamim ham yo‘q. Jonkuyarni bu yerdagina emas, o‘sha tumonatdek serjamo Bo‘kenshining o‘rtasida o‘tirganimda ham ko‘rganim yo‘q. Endi qarindosh deganimda, shu yerdagi qirq uy-

likning hammasini nazarda tutaman. Bular bir otadan tarqamagan bo'lsa ham, tirikchiligi bir xil bo'lgan qarindoshlarim. Bularning hammasi ham ko'rgan kuni, chekkan jafosi bilan menga qarindosh bo'lgan odamlar, — dedi.

Erbo'l yalt etib, Darkemboyga qaradi-da:

— U nima deganingiz? — dedi.

Darkemboy yana Abayga qarab:

— U shunday deganim-da. Xuddi shunday, Abay! — dedi.

Yana bir nafas jim qolgach, qo'lidagi hassasi bilan qator turgan kulbalarni bir sidra ko'rsatib chiqdi. Darkemboyning endigi so'zlarida ba'zan istehzoli kesatliq eshitilardi. Lekin uni ham sovuqqonlilik qilib, vazminlik bilan so'zlardi.

— Bu yerda jamiki Irg'izboylar ichida hozir boyib ketgan Oqberdisiga, Mirzatoiyiga, Qunakengning ovuliga — o'zlaringaga, qishin-yozin cho'ponlik, xizmatkorlik qilgan bir to'p Anet, Qorabotirlar bor. Bir vaqtlar Bo'jey, Boydali, Tusiplarga molboqar, xizmatkor bo'lgan bir qancha odam ham bor. Kotibak elidan — Boysolning xizmatini qila-qila baraka topmay, eldan ayrilib, tentirab kelganlar bor. Ko'kshedan, Mirza, Mamay elidan to'pini tashlab, pand yeb kelganlar bor. Bularning hammasi ham mening o'zimga o'xshash ikki qo'li bir tepa bo'lganlar. Ota-onasi, ota-bobosi, avlod-ajdodidan tortib, umri bironing eshigida o'tgan bir umr yolchimaganlar. Shu jihatdan ham bular menga qarindosh. Bu elda kim bor desang, keksa Darkemboy, eti borib ustixoniga yopishgan chol Dandiboy, dard majruh etgan keksa Erenoylar bor. Hammasi ham kuch-quvvatdan qolgan bechoralar. Ko'pchilikning mehnatga yararlik o'g'li ham yo'q. Azamatlari boylarning moli orqasida yurib dardga chalinib notavon bo'lib qolishgan. Umr bo'yi kuch va g'ayratlarini oq qorda, ko'k muzda, dahshatli bo'ronlarda sarf etganlar. Boydan maqtov eshitish, boyvuchehadan bir kosa yovg'onni ortiq ichish uchun jon-jahdi bilan xizmat qilib, nihoyat holdan ketib, qiltirab qolganlar. Birining o'zi notavon, birining kampiri. Boshqa birining bolasi kasalmand bo'lib ishdan chiqqan. Shu uylarning ko'piga kirib qarasang, biri qarib cho'kib qolgan, biri yoshligi so'nib, xazon bo'lgan. Bittasi bod kasaliga yo'liqqan, bittasi sil dardiga

mubtalo. Biri koʻzdan ayrilgan, yana biri siniq kemtik boʻlib qiyshayib ketgan, mayib-maymoqlar. Qisqasi, mana shu xilqaxilqa namatlik, koʻhna kulbalardek toʻzib, ado boʻlgan yuzlarcha hayotni koʻrasan. Haligi Qunanboy, Boʻjey, Boysol, Suyundik, Sugir, Qoratoylarning koʻchiga ergasholmay, xizmatiga yaramay qolganlar. Oʻshalar koʻchganda tashlab ketadigan siniq egar, teshik chelak, eski toʻqimlari boʻlar edi-ku, bular ham shunday bir gap-da! — deb, askiya qilib kuldi.

— Xoʻsh, mening oʻshalardan nima farqim bor? “Zahar yut-sang ham el urugʻing bilan yut”, deding-ku hali, Erboʻl. Hozirgi ahvolimda mening qarindoshlarim shular. Urugʻim ham, uronim¹ ham shular bilan bir! — dedi.

Abay Darkemboyning gaplaridan qattiq oʻylanib qolib, dam qovogʻini solar, dam gʻazab ichida toʻlgʻonib, tumogʻini qoʻliga olar, oʻtirgani joy topolmayotgan kishidek tipirchilardi. Darkem-boy tomon xiyol engashib:

— Ey, Darkemboy! Yoʻqchilik bilan yovuzlik butun elning ichini kemirayotir-ku. Sening koʻzingni shunqor-qironning koʻzi-dek ochib qoʻygan ana shu gaplar ekan-da. Qozoqning soʻzamol-lari, ustiga suv quysang, toʻkilmaydigan yoʻrgʻalari, qizil tildan asal tomizadiganlarning nima keragi bor! Soʻzning quvvati haqiqatda deydilar-ku. Mana shu, sen aytayotgan — oʻtdek yondirib yuboradigan haqiqatlarga qaysi Qunanboy, qaysi Suyundiklar javob bera oladi? Yuragida oʻti boʻlgan bir mard odam boʻlsa, “Bularning hammasini yigʻib turib, yolgʻiz Darkemboyning oʻzi yengdi”, demasmidi? Boʻynini qimirlatmay turib, yulib oldi, deb edi-ku. Oʻzingning koʻzing ochilishi bilan birga, mening ham koʻzimni ochding, desam boʻladi! — dedi.

Shu choq bularning oldiga bir toʻp odamlar kelishdi. Uy-uydan: baʼzilar qurum bosgan kapalardan, baʼzilar boshpanasiz sochilib yotgan churuk-choriq uvada orasidan chiqib birgalashib kelishdi. Shular kelgandan keyin, Abay bu ovulning shu ahvolga tushishining sababini soʻradi.

¹ Uron — ilgari qozoqlarda har avlodning oʻz uroni boʻlard; bu oʻsha avlodning sulolasidagi mashhur, hukmronlik qilgan odamning nomi boʻlib, oʻsha nom aytilganda, uning avlodidan boʻlganlarning hammasi oyoqqa turishi kerak.

— Xo'sh, mana bu ro'zg'ori har yer-har yerda to'p-to'p bo'lib, boshpanasiz qolganlar kimlar? Bir uylik emas, bir qancha uylikning ahvoli shunday ko'rinadi-ku. Bu uylarni dovul qoqib ketganmi? Ana u go'daklar, chol va kampirlar mutlaqo boshpanasiz qolipti-ku! Nega bunday bo'ladi? — dedi, yangi kelgan jotoqlarga qarab.

Kelganlarning ichida Abay avvaldan taniydigan Dandiboy, Erenoy singari keksalar, yana ozg'in, rangi-ro'yini oldirib qo'yan, kiyimlari titilib ketgan, ikki-uchta o'rta yoshli odamlar og'ziga nosvoy solgan, rangi zahil, qovog'i soliq yigitlar ham bor. Bularni Abayning yoniga boshlab kelgan jotoqlar emas, shu yerga mehmon bo'lib kelgan Abulg'ozni ekan. U Abaylar bilan so'rashib bo'lgandan keyin, hammadan oldin kelib, uning yoniga o'tirdi. Abayning haligi savoliga Dandiboy javob berib:

— Dovul qoqqanmi deyapsan-ku, chirog'im Abay! — deb, istehzo bilan bir kulib qo'ydi. — Chindan ham dovul qoqdi. Dovulga uchramasa, shuncha uy birdaniga shu zaylda vayron bo'larmidi?! O'sha, dovulga uchradi-da. Lekin Xudoning dovuliga emas, ulug'larning, bo'lisning dovuliga uchradi. Ana u yerdagi, O'yazga atab tikilgan oq uylarning bu tomonida, alohida turgan o'ntacha ko'hna uyni ko'rayotirsanmi? — deb, iyagi bilan ulug'lar uchun tikilgan uylarning chap tomoniga ishora qildi. Abay bilan Erbo'l endigina payqashdi. O'sha oq uylardan ovloqroq yerda bir necha ko'hna uy, go'yo bosh qo'shib maslahatlashayotgandek, kichkina yaydoq yerda to'planib turardi.

Abaylar o'sha uylarni ko'rishgandan keyin, Dandiboy ulug'ni boplab bir haqorat qilib oldi-da:

— Yotish-turishiga oq uy kerak. Oyoqosti qilib, masxaralashga bizlarning ko'hna kulbalarimiz kerak bo'lipti-ku.

Erbo'l bu gapga tushunolmay:

— Oyoqosti qilgani, masxaralagani nimasi? — dedi.

Erenoy boshliq to'planib turgan kambag'allarning hammasi tevarak-atrofdan:

— Bu oyoqosti qilmaganimi, jazolagan odamlarini qamaydigan avaxta qilamiz, deb ba'zi bir uylarimizni oldi.

— Ba'zi uylarni oshxona qilamiz, deb oldi.

— Unisi ham mayli-ya, xuddi butun boshli Erali dalasi kamlik qilgandek, ulug'larga hojatxona qilamiz, deb yana bir qancha uylarimizni oldi.

— Bu ishlarning hammasini bo'lis bilan choparlar, bir-biridan muttaham starshinlar qilayotir.

— Bu muttahamlar to'dasi qachon yo'qolishini it biladi. Kasal kampirlarimiz, mayib-maymoq, oqsoq-to'qsoq otalarimiz bor edi. Churuk-choriq uvadaga chulg'anib o'tirishlari ana u. Hammasining boshpanasini yig'ishtirdi-yu, oldi-ketdi-ya! — deyishdi.

Abulg'ozni Abayga bu yerdagilarning arzi-dodini ochiqroq qilib gapirdi.

— Xuddi endigi bo'lis bilan biy mana shu jotoqlardan saylanadigandek, bor og'irlikni shularning ustiga tashlashipti. Hatto bularning roziligini so'ragan kishi ham bo'lmapti. Moybosar buyuripti-yu, choparlar kelib hamma yoqni ostin-ustun qilib, yulib-yulqib, olib ketaverishipti, — dedi.

Abay atrofida o'tirganlarga qarab:

— Tuhmati o'ziga edi, sizlar nega berdingiz? — dedi.

Shu on bular o'tirgan yerda, sochilib yotgan eski-tuski uy ro'zg'orlarining narigi chetida yirtiq chakmonga o'ralib yotgan, chakka tomirlari ko'm-ko'k bo'lib qabarib chiqqan ikkita kichkina bola bezovta bo'lib ingrashdi. Ikkovi ham kasal ekan. O'sha, hurpaygan qo'ng'ir sochlari orasidan bosh terisi sarg'ayib ko'rinayotgan to'rt-besh yoshlardagi bolalarga Abayning ko'zi tushdi. Bolalar inqillab-inqillab yana tinchlanganda, ularning ikki ko'ziga, lablarining chetiga, quloqlarining ichiga kirib, uymalashayotgan pashshalarni ko'rdi, shunga qarab turib:

— Ko'zlarini pashshaga talatib... usiz ham holatdan ketgan och, yalang'och xalqqa shunchalar zulm qilishga nima haqqi bor ekan-a, baraka topmagurlarning? Darkemboy, sening avvalgi g'ayrating, g'azabing qayerga ketdi? Choparlarini bosh-boshiga urib, haydab yuborsang bo'lmasmidi, — degan edi, jotoqlar:

— Iye, u nima deganing... Unga quloq solay deb turiptimi?

— Tepamizga kelib o'dag'aylab tursa-chi?

— Choparmon emas, savarmonlar-ku! — deyishdi.

Jotoqlarning hammasi birdan gap boshlab, Abayga arzi-hol aytishlarining tagida gap bor edi. U gapni hayron bo'lib turgan Abay bilan Erbo'lga Darkemboy yotig'i bilan batafsil aytib berdi.

Bundan o'n kun avval Abulg'ozini yoniga olib Bozorali shu yerga kelgan ekan. Aftidan, u Qunanboyning ovuliga shu Eralidan borgan bo'lsa kerak.

Shunda Darkemboy Bozorali bilan xo'p hasratlashib, Eralida o'tirgan ko'p jotoqlarning hol-ahvolini unga aytib beripti. Bozorali bilan Darkemboy, birining yoshi ulug', birining yoshi kichik bo'lgani bilan ikkovi ham mard, hamiyatli yana o'tkir zehni odamlar bo'lgani uchun uchrashdi deguncha bir nafasda topishib, suhbatlashib ketishar ekan. Darkemboy:

“Kimsasiz sahroda bo'ri yo'lg'iz bo'lsa ham tap tortmaydi”, deganlaridek u ham yigitlarning sheri bo'lgandan keyin, men ham unga yaqinlashib, ko'nglimdagi bor gapni o'shanga yetkazaqolgim keladi!” der edi.

Bozorali uch kun shu yerda turib, Jigitek, Bo'kenshi, Kotibaq, Mamay, Ko'kshe ellaridan chiqqan jotoqlarning hammasining uyiga birma-bir kirib, ularning hol-ahvolidan xabar olib chiqipti. Betoblarning ko'nglini so'rab, sog'larga yo'l-yo'riq ko'rsatib maslahat beripti. Birining uyidan ayron, birining uyidan pishloqning zardobini ichsa ham o'zini go'yo ziyofatda bo'lgandek tutipti. Hammasi bilan suhbatlashib, ko'p hasrat va qayg'ulariga quloq solib, hammad bo'lipti. Serjamoja jotoqlarning ko'nglini ko'tarib, yaxshi-yaxshi kuylardan kuylab beripti. Shunday qilib, shirin suhbatlar o'tkazib, yupun ko'hna kulbalarning yaqin do'sti bo'lib ketipti.

Bozorali doimo ot ustida yurgani uchun Darkemboyga To'buqtining bir necha yerida shularga o'xshash jotoqlar borligini aytib beripti. Do'g'olong bag'rida Soqto'g'aloq, Tosbo'lat elining jotoqlari borligini, Bilda, Kindikda — Anet, Bo'kenshi, Kotibaq-lardan chiqqan jotoqlar, O'rdada — Mamay jotog'i, Miyali Boyg'abilida — qirq urug'dan quralgan jotoqlar borligini ham aytib beripti. Yana Ching'izning narigi tomonida, Boqonos bo'yidagi Kerey elidan chiqqan jotoqlar borligini ham bilarkan. Ko'kenda — Uoq elidan chiqqan, “Qirq uyli” deb ataladigan, yana Semeydan bir bekat beridagi Jalpoqda, Bolto'roqda son-sanoqsiz

jotoqlar borligini ham aytib beripti. Bozorali bularni shunchalik aytib berishlik uchun emas, bularga o'sha jotoqlarning turmushidan misol keltirish uchun gapirgan edi. Uning aytishiga qaraganda, Kerey-Uoqdan, Bura-Motoydan, Irtish bo'yidagi ellardan chiqqan jotoqlarning deyarlik hammasi dehqonchilik bilan shug'ullani-shar, qishin-yozin tinmay mehnat qilib, dehqonchilik orqasida kun ko'rishar ekan. Bu yerdagi jotoqlarga ham Bozorali shunday qi-lishni maslahat ko'riпти.

— Yer ko'ragini em. Ikki-uch xonadon birikib, bir yer-ikki yerga¹ dehqonchilik qilsalaring ham yer tirmalab bor kuch-quv-vingni shunga sarf qil. Shu yerda bo'sh turgan kuzaklar, buloq boshilari, turli qo'nislar ko'p-ku. Yoz bo'yi yolg'iz o'roq bilan bo'lsa ham pichan o'rlaring... Aslida, Ching'izdan ko'chib, Se-meyga yaqinroq yerga borib tursanglar yana ham yaxshi bo'lar-di. Chunki bozorga yaqin bo'lgandan keyin ortiqcha pichaning bormi, somoning bormi, bozorga tashmalab, choy puli chiqarib turar eding. Senlardek qashirg'a tirmog'i yo'q qashshoqlar uchun o'sha yerdan durustroq joyni otang ham topib bermaydi. “El orasi oltin beshik, oltin beshik” deb, umidvor bo'la-bo'la, mana bor kuch-quvvatdan ham ayrildinglar-ku. U — borlarga beshik. Hukmron bilan zo'raonlarga beshik. Qardoshlar ochimizdan o'ldirmas, bir kun bo'lmasa, bir kun ko'zim ochilar” deb, behuda umidlar bilan tinkasi qurib, o'zini oldirib qo'rganlaring ozmi? O'z elim — Jigitekdan marhamat ko'rmay, bir umr yorib-yolchimay, shu yerga kelib o'tirgan Jigitek jotoqlarini men bilmaymanmi? Shu ko'p uyli jotoqlar, hammang ham ota-onangdan tortib, har bi-ring har elning bir kiboriga bor kuching, bor quvvingni, sog'liq va navqiron yosh umringni hadya qilib bo'lding. Endi tunalib, qip-yalang'och, notavon bo'lib qolgan chog'ingda, esing o'zingga kelib, shu yerga kelibsan. Kelganda ham haqqa tayanib kelibsan. “Falon yerda tilla bor, borsang, bir paqirlik jez ham yo'q”, de-gan gapning ma'nisiga hammang ham xo'p tushunding, shunday emasmi? Endilikda bir-biringga suyanchiq bo'lib, shu yerda bir tirikchilik qilib, o'lmaslikning chorasiga kirishinglar. “Zahar yutsang ham el-urug'ing bilan yut”, deb otliqning orqasidan yu-

¹ Bir desyatina, ikki desyatina yer ma'nosida.

gurgan piyodadek, halloslata-halloslata, oqibat, har kimning o'z yo'li o'ziga, deb ketadigan, bir otadan tarqalganlardan bez. Endi senlarga men Jigitek, men Bo'kenshi, Ko'kshe, Mamay deb ota taglaringni surishtirishning hojati ham yo'q. Endi otangning nomi "Eralining jotog'i" bo'lib qo'yaqolsin. Endi bir-biringga mana shu o'tirgan o'zlaringdan boshqa mehribon yo'q, ko'yi birning — kuni bir, dini ham bir bo'lsin. Shu birlikni yo'qotmanglar! — deb nasihat qilib ketipti.

Bu gaplar Darkemboyga ko'p ma'qul tushganidan uni xuddi kitob so'zidek yodlab olipti. Biror joyini o'zgartirmay, Abayga batafsil aytib berdi. Abay bilan Erbo'l ham Bozoraling hayotni shunchalar sinchiklab ko'rib, achchiq haqiqatlarni ochib tashlovchi gaplariga diqqat bilan quloq solishdi.

Abay ichida:

"Obbo, Bozorali qurmag'urey, agar o'qimishli bo'lganida bormi, bir To'buqti elininggina emas, butun qozoq xalqining peshonasini silab, og'ir kunda dardlashuvga qo'ldoshi, yaxshi kunda hamiyatli yo'ldoshi bo'lar edi!" — deb o'yladi.

Bu — Darkemboy aytmoqchi bo'lgan gaplarning boshi ekan. Nihoyat, gap aylanib, ko'p jotoqlarning "choparmon-savarmon" degan so'ziga keldi.

Bozorali bu yerda uch kecha yotib, endi jo'nay deb turganida, jotoqlarning ustiga bir necha choparlar bostirib keladi. Tevarakatrofdan turnaqator ko'ch kelib, ular bir qancha uylarni ortib kelishgan ekan. So'yiladigan mollargacha haydab kelishti. Haligi choparlarni: "O'yaz keladi, uy tikiladi, bor janjal-to'polon shu yerda bo'ladi", deb Moybosar bilan Takejon yuborgan ekan.

Darkemboy ertalab, Bozorali, Abulg'ozilar bilan uch kishi bo'lib nonushta qilib o'tirishganda, choparlardan uchtasi kelib, jotoqlarga yovdek hujum qilipti. Garchi Darkemboy ovulning narigi chetida shov-shuv bo'layotganini eshitib turgan bo'lsa ham Bozoralinga aytmay o'tiraveripti, lekin Bozorali ham bo'lis tomondan bo'layotgan barcha hangomalarni bilib turgan ekan.

— Oqsoqol, nima balo bo'ldi, ovulingni bo'ri bosib ketdimi, nega u tomonda shovqin-suron ko'tarilib ketdi? Yana ulug' bilan bo'lisning g'alvasimi? — deb so'rapti.

Xuddi shu onda Darkemboy tanimaydigan choparlardan uchta yosh yigit otini tasirlatganicha kelib, Darkemboyning eshigi oldida to'xtab:

“Hoy Darkemboy, qayoqdasan, chiq bu yoqqa!” deb hayqiripti. Darkemboy ha deganda chiqavermapti. Halloslab, nafasi bo'g'ziga tiqilib borayotgan hovliqma yigitlar: “Iye, chiq deyapman senga, chiq tezroq, ko'p kattalik qilma! Bo'lis bilan starshin tiqilinch qilayotgan paytda gerdayib o'tirishni sen kambag'alga kim qo'yipti?” deb haqorat qilib o'shqira boshlapti.

Bozoralingning rangi o'chib ketganicha Abulg'oziga qarab, bir imlab, qo'yipti-da, Darkemboyga: “Chiqma, javob ham qilmay tura tur-chi, nima qilar ekan”, deb, o'zi o'tirgan joyida haligi yigitlarga: “Hoy yigitchalar! Kimsan o'zlaring? Gaping bo'lsa otdan tushib aytaqol-da!” deпти muloyimlik bilan. Lekin yigitlar asov otlari bilan bostirib kelishib, Darkemboyning uyini qulatayozib: “Chiq deganda chiq!” deb, haqorat qila boshlashipti. Buning ustiga, qo'llaridagi katta qamchilari bilan o'tovni savalab, kegay-yog'ochlarini qasirlatib sindirayozishipti.

Ish shunga yetganda, Darkemboy ortiq toqat qilib turolmay, otilib uydan eshikka chiqsa, quturgan choparlarning ikkitasi ikki tomondan kelib, otasidek odamni qamchi bilan tortib-tortib yuboripti. Shu on zardasi qaynab, g'azabiga chidayolmagan Bozorali bilan Abulg'ozini, biqinib yotib, to'satdan tashlangan yo'lbarsdek, hayqirganlaricha uydan otilib chiqishipti. Bozoralingning yolg'iz o'zi ikki choparni yoqasidan olib, bir siltashdayoq oyog'ining ostiga olipti. Yana bittasini Abulg'ozini yumaloq-yostiqlik qilib ketipti.

— Ikkovi uch choparning boshiga minib o'tirib, etaklarini tugib qo'yib: “Ol, savala-ya!” dedi, — deb Darkemboy ko'zini shingaraytirib kulib qo'ydi. Ko'pdan buyon bir huzur qilib alamdanda chiqqan kishidek, zavq qilib gapirdi.

— Asti qo'yaver! Bola-chaqa, qiz-qirqini bilan chuvalashib kelgan jotoqlar haligilarning atrofini qurshab turib, xo'p alamdanda chiqib tomosha qilishdi-ku. Uchovining o'rtasiga tushib, biror og'iz so'z qotgan odam bo'lmadi. Bozorali bahodirim, tobilg'i sopliq qamchinning sopi sinib ketguncha, toza savaladi. O'zi ham

yigitlarning sardori-da. Azamatim! — deb, Darkemboy soʻzini tamom qildi.

Shundan keyin Darkemboy bir nafas jim qolgan edi.

— Xoʻsh, nega endi uylaringizdan ayrilib qoldingiz? Biratoʻla boshpanasiz qolibsiz-ku, — dedi Erboʻl sabrsizlik bilan ishning oqibatini bilishga qiziqqanidan.

Bu savolga Darkemboy qisqagina javob berdi. Bozorali yana ikki kun shu yerda boʻlipti. Choparlar ketib, jotoqlar ham tinchib qolgan ekan. Shundan keyin Bozorali otlanib Qoʻriqqa ketipti. Ertasigayoq boʻlis tomonidan starshin, ellikboshilar boshliq oʻttiz kishi kelipti-da, jotoqlarning mana shu hozir boshpanasiz ochilib qolgan uylarining hammasini dast koʻtarishipty-yu, olib ketishipty.

Darkemboy endi Abayga qarab:

— Boʻlisning, ulugʻning orqasida yurgan itlar “hayt” desa, otasining goʻrini titkilaydigan itlar emasmi? Sen hali, Darkemboy, nega koʻnding, deding. Darkemboyda had bormi, Abayjon?! Chirogʻim, azamatim! Undan koʻra qoʻlingdan kelsa, ularga oʻzing gapirib, uylarimizni oʻzing olib ber. Nima, jotoqlarning uyi boʻlmasa, shuncha vaqtdan beri osh ham icholmay, hojatga ham borolmay yurgan ekanmi, bu oʻngmagur ablahlar! — dedi.

— Uylarimizni olib ber. Hech boʻlmasa shularning masxara qilib, xoʻrlashidan qutqar! — deyishdi shu yerdagilarning koʻpchiligi Abayga iltimos bilan murojaat qilib.

Endigi soʻz qisqa, maslahat qilib oʻtirtgudek ish ham yoʻq edi. Abay etagini qoqib, qamchisini ikki buklab, biqiniga tiradi-da, Darkemboy bilan oʻtirgan odamlarga qarab:

— Yur, yuringlar, hammang ham yur! Abulgʻozi, sen ham yur! — deb, bir toʻda jotoqlarni ergashtirib oldi. Erboʻl ikkovi ham otlariga minmay yetaklab olishdi. Jotoqlar bilan soʻzlashib, ulugʻlarning uyi tomon piyoda ketishdi.

Bular bir toʻp boʻlib, bir qancha koʻhna kulbalarning orasidan yurib, qoʻtan chetiga chiqishguncha, uyilib yotgan har bir uy roʻzgʻorlarining orasidan, kulbalardan chiqqan yana bir qancha erkaklar ham bularga qoʻshilishdi. Ular jadallab Abaylarning toʻpi orqasidan kelib qoʻshilgan sayin, soni orta bordi. Orqadan yetib kelib soʻrashayotganlar ichida baland boʻyli, sergʻay-

ratliligi ko‘rinib turgan o‘rta yoshlardagi kishilar ham bor edi. Boshiga chambarak qilib, ro‘molcha tang‘ib olgan, quyoshda kuyib, qop-qorayib ketgan, to‘shi ochiq yigitlar qam ko‘rinardi. Qovog‘idan qor yog‘ilib, tishini tishiga qo‘yib, indamay g‘azabini ichiga yutib kelayotgan mosh-guruch soqolli, oq soqolli, tund yuzli keksalar ham bor edi.

Abaylar bu yerga kelishayotganda, erkaklari saylovga ketgan oilalar bo‘lsin, shu atrofdagi ellar bo‘lsin, zo‘r tahlika ostida edi. Chunki O‘yaz faqat saylov o‘tkazish uchun emas, katta bir tergov olib borishni ham o‘z zimmasiga olib kelgandi.

Takejon ham shu saylov tahlikasi ostida bolasining o‘ligini nari-beri chiqarib bo‘lishi bilan o‘z ovulida qolishning ilojini qilolmay, ichidan zil ketib, hayajon ichida Eralida yurgan edi. Ching‘iz elining e‘tiborli odamlaridan: “O‘rozboy, Jirenshe, Aslbeklar ham jon titrog‘ida. Kecha Abayga xat yozib chaqirtirgan Takejon emas, Aslbek edi. U Abayga Bozorali haqida xabar qilib, uning salomini yetkazdi. Bozorali qo‘lga tushib, qamoqqa olingan edi. Kuni kecha qamoqqa olingan Bozorali, Abulg‘ozi orqali Aslbekka: “Meni Takejon ushlatdi, shuni Abay bilsin!” deb, aytdirib yuboripti.

Aslbek, Abayga xabar qildi-yu, lekin Abulg‘oziga: “Bu gapni hech kimga izhor qilmay tura tur, yana falokatdan falokat tug‘ilib, ish ulg‘ayib ketmasin”, deb qo‘ydi. Shuning uchun Abulg‘ozi, Bozoraling qamalanganini jotoqlarga bildirmadi. Bu masalaga kelganda O‘rozboy, Jirinshelar ham o‘z mulohazalari yuzasidan Bozoraling yonini olishayotgan edi. Aftidan, shu saylovda Takejon bilan ularning orasi buzilib qolgan ko‘rinadi. Chunki Takejon bularning ham nomini Bozoraliga qo‘shib ulug‘ga chaqipti. Shuning uchun ham ular endi noilojlikdan Bozoraling tarafdorlari tomoniga o‘tishga hozir edi. Abayning yo‘liga ko‘z tikib turganlar o‘shalar.

Abay kelishi bilan uni xoliroq yerga olib borib, ahvolni anglatishdi. Ularning biri olib, biri qo‘yib gapirgan gapidan Abayning anglagani shu bo‘ldi.

Bu yerga Tentek O‘yaz bilan O‘r Naymon elidan bir to‘p da‘vogarlar ham kelipti. Ular bir katta ishni qo‘zg‘atmoqchi bo‘lib

kelishi. “Mana shu o‘tgan qish O‘rolboy boshliq To‘buqtining bir qancha qaroqchi yigitlari, o‘sha Naymon elining Qudaysugir degan bir katta boyining ovulidan yilqi olgan emish”, — deyishayotir. O‘rolboy o‘tgan yil Kerimbolaning dardi bilan ketganicha yana qaytib elga kelmay, dom-daraksiz ketgandi. Butun g‘azabi va qayg‘usini ichiga yutib, o‘ch olishga ahd qilgan yosh yigit, atrofiga kuch to‘plab, qo‘liga qurol olgan holda bir yildan buyon To‘buqtining Kerey, Sibon ellaridan, yana o‘sha O‘r Naymon elidan juda ko‘p mol olipti. U har qaysi elning ustuni hisoblanadigan, o‘ziga to‘q ovullarni ko‘zlab borib, olgan o‘ljalari bilan dengiz tomondagi Kerey elining bir qancha och-yalang‘och ovullari ichiga kelib joylashgan ekan. Qudaysugirning ulug‘ga bergan arizasida O‘rolboyni: “Ulug‘larga ham qarshi, elning boylari va yaxshilariga ham qarshi, fitna boshi odam” sifatida ko‘rsatipti. Ana shu ariza, bir-biriga qo‘shni bo‘lgan Yettisuv va Semey jondorollarining mahkamalarini oralab, anchadan beri surgalib kelayotgan ekan. Ikki oblast o‘rtasida, xilvat-xilvat yerda harakat qilib yurgan o‘tkir, jasur, qalbi to‘la kek bo‘lgan botir yigit, podsho askarlaridan ham hayiqmapti. Shu yil qish ko‘klamga tomon Ayago‘z va Semeydan chiqib, ularning orqasidan quvlagan butun bir otryadni xo‘p ermak qilipti. Ularni ancha yergacha qorama-qora elashtirib borib, kimsasiz sahroda otryad ovqatlangani o‘tirgan chog‘ida payt poylab, hamma otlarini olib ketipti. Yigirma-o‘tiz kishini cho‘li-biyobonda bir necha kun piyoda sarson qilib, ochlik va suvsizlikdan itdek qotirib o‘ldirayozipti.

Bundan tashqari, yana bir yomon xabar ham bor edi. Uni O‘rozboy bilan Jirenshe kulgilikka olib gapirgan bo‘lsalar ham tabiatida bunday shaddodlik bo‘lmagan Aslbek betinchlanib gapirdi.

Bu ish Ayago‘z bilan Shubarog‘osh orasidagi bekat yo‘lida sodir bo‘lipti. Yonida ikki strajniki bilan Semeydan Qopolga ketayotgan krestyan nachalnigining yo‘lini kimdir to‘sib chiqib, tunab ketgan emish. Naymonlar bu ishga ham O‘rolboyni aybdor qilib ko‘rsatishgan emish. Shunday qilib, butun aybni o‘sha yigitning gardaniga ag‘darayotgan O‘yaz shu ishning tergovini boshlamochi bo‘lib turgan ekan. Naymonlar birinchidan, o‘zlarining mol-lariga da‘vogar bo‘lishsa, ikkinchidan, krestyan nachalnigining

o'chini ham oladigan bo'lib kelishipti. Qisqasi: ham guvoh, ham da'vogar bo'lib kelishgan. Besh kishi bo'lib kelgan Naymonlar O'yazning pinjidan chiqishmaydi. Aftidan, o'zlari bilan xoli yerda so'zlashib, qozoq yo'l-yo'rig'i bilan kelishishga asti rag'batlari yo'qqa o'xshaydi. Kelgan ulug' bo'lsa: "Elingdan o'sha O'rol-boydek beboshlar chiqqan, u podsho hukumatiga qarshi odam. Nega uni tutib bermading?" deyayotir. "Bo'lis, biy, starshin — hammang ham sudga berilasan. Hammang ham aybdorsan", dedi. Tushgan arizalarning ichida Bozoraling oyog'idan tortadigan arizalar ham borga o'xshaydi. Kecha Tentek O'yaz kelgan zamon Takejon bilan mana shu o'tirgan uchovimizni chaqirib olib: "O'rolboyni top, Bozoralingni hozir qil!" deb, dag'dag'a qilib, buyruq berdi. Aftidan, bularni shu taxlitda iskanjaga ol, deb unga Takejonning o'zi tayinlab qo'yganga o'xshaydi. O'rolboyni topib bo'ladimi? Agar Bozoralingning bizlardan yashirib, lattaga tugib yurgan bir siri bo'lsa, uni o'zi biladi. Bo'Imasa, otasi bir demasak, u gal Bolag'ozining ishida ishtiroki bo'Imaganidek, bu gal ham O'rolboyning ishidan u mustasno, mutlaqo chetda edi", — deyishdi.

Qolgan gaplarni Jirenshe gapirarkan, nimaningdir andishasiga borib, tutilib, dudmol qilib so'zlandi.

— Takejon bo'lisning fikri, ko'pchilikning fikridan boshqacharoq. Biz ulug'ga: — O'rolboyningni bilmaymiz. U yigit bu elning sonidan ham, sanog'idan ham chiqib ketgan. Elga ham, Bozoralinga ham bosh bermay ketgan. Qayerda yurganini, qanday ishlar qilayotganinn biz bilmaymiz. O'zini ushlab ol-da, nima qilsang, qilaver. To'buqti uning o'rtasiga tushmaydi. Uning yonini olib oqlaydigan odam ham yo'q, demoqchi edik. Avvalo, Takejon, Moybosarlar bilan birga o'tirib qilgan maslahatimiz ham shu edi. Lekin kecha kechqurun O'spon Darqon orqali Takejonga bir xat berib yuboripti. Bozorali bilan ikkovining o'rtasida bir xusumat bor ekanmi?! Har holda O'spon xatida: qanday bo'Imasin o'z boshingni oqlayver. Bozorali mening qo'limda, shuni bir iloj qilib ilintirib yubor! — deb tayinlapti. Shundan keyin Takejon Juma'ul chopar boshliq to'rtta strajnikni ovulga yuborib, Bozoralingni ushlatib, tush paytida ulug'ning qo'liga topshirdi. Endi hayron-

miz. Takejon Bozoralini gunohkor qilib haydatib yuborishlik uchungina yomonlayotirmi, nima ekanligiga tushunolmay qoldik. Shunga seni chaqirtirdik. Ulugʻ-ku biz bilan hisoblashadigan ham, soʻzimizga quloq soladigan ham emas. Buyogʻiga oʻzing bir maslahat ber! — deyishdi.

Abay bu yerda bir katta chigal tugun paydo boʻlganini payqadi. Oʻspon zimdan ishlatayotgan dushmanlikka qaraganda, mana bu sirtidan kelgan falokatning har ikkovi ham dahshatliroq edi. Juda katta fojiali ishlar roʻy berib kelayotganini Abay Aslbeklarga qaraganda chuqurroq anglardi. Siqilib ketganidan qoshlarini chimirib, qattiq xoʻrsindi. Saylovga atab tikilgan uylarning oʻrtasida uchta katta-katta, olti qanotli oʻtov bir-biriga ulanib tikilgan ekan. Abay oʻsha tomonga koʻz tashlab, oʻsha uyning atrofida yurgan qahri qattiq yasovullar bilan jonsarakka uchrab yurgan yelpatak choparlarni koʻrdi. Ularning oyoq uchi bilan avaylab bosib, yelib-yugurishlari, mumkin qadar ildam harakat qilishga urinishlari ichkarida oʻtirgan badjahl ulugʻ dagʻdagʻasining zarbidan darak berib turardi. Abayning hamon javob qilmay oʻtirganini koʻrib, Aslbek:

— Saylovga kelgan ulugʻ oʻz ishini avvalo, saylovdan boshlasa kerak edi. Bu esa, xalqni toʻplab, qamoqqa olib oʻtiripti. Boʻlis yomonlagan odamlarni surishtirmay iskanjaga olayotir. Oʻsha qattiqroq ayblangan odamga darra urdirayotir. Takejon, bular hoynahoy Bozoralining yonini oladi, deb bizlarni ham chaqqan koʻrinadi. Odamlarni ushlatib, haydatib yuboraman, deb Takejon Bozoraligacha oʻzi koʻrsatib beradigan boʻlsa, butun falokatning bosh omili oʻzi boʻladi-da, unda! Hali, begunoh odamning yonini olib, haqiqatini aytamiz, deb oʻzimiz ham aybdor boʻlib qolamizmi, nima boʻladi. Ariza bilan chaqiqni tiya olamizmi, yoʻqmi? Aftidan, bu ulugʻing hali bizlarga ham Bozoralini ayblaydigan ariza toʻpla, deb tiqilinch qiladiganga oʻxshab turipti. Shunday qilasan, deb yopishadigan avzoyi bor! — dedi. Abay hamon soʻz qotmay oʻtirardi.

Endi Oʻrozboy gap boshlab:

— Qisqasi, butun gapdan xabardor boʻlding. Sen nima desang, bizlar oʻshandan chiqmaymiz. “Elning shoxi sinmasin, yurt balodan omon boʻlsin”, degan gapni sendan boshqa oʻylaydigan odam yoʻq. Mana shu oʻtirgan uchovimiz sen bilan boʻlaylik. “Bu

yoʻldan yurma — u yoʻldan yur. Undoq qilma — bundoq qil”, degan gapingni oʻz ogʻzingdan eshitib olaylik-chi shu yerda! — dedi.

Abay bu odamlarga durustroq javob qilguncha ham yoʻq edi, ulugʻlarning uyi tomondan bir strajnik bilan bir chopar qamchisini oʻynatib: “Shoʻqa oʻgʻli! “Shoʻqa oʻgʻli!” deb Jirenshe, “Suyundik oʻgʻli” deb Aslbekni, “Oqquli” deb Oʻrozboyni chaqirgani-cha kela boshladi.

— Ana, ulugʻ bizlarni chaqirtirayotir! — dedi Jirenshe Abayga tezroq javob qil endi deyayotgandek. Abay shoshmasdan uchoviga bir qarab qoʻydi. Keskin bir qarorga kelib, mushtumini qattiq qisdi-yu:

— Ulugʻdan hayiqmanglar, qiladigan doʻqlaridan qoʻrqmanglar. Takejon Oʻrolboy uchun Bozorolini oʻtga tashlayman desa, senlar yoʻl qoʻymanglar. Oʻrolboy kerak boʻlsa, ulugʻning tuzogʻi uzun-ku, oʻzi ushlab olsin. Gap shu, deb turaveringlar. Agar Takejon boshqacha gapiradigan boʻlsa, uni ham koʻrarmiz. Ularga nima alam qilayotganini bilaman. Butun bir elning boshiga kulfat solish orqali oʻch olishlariga yoʻl qoʻyadigan boʻlsam, tiriklayin qora yerga kirganim yaxshi. Gap mening or-nomusim ustida emas, xalq qiynalmasin. Bozorolini bu balodan qutqaringlar! — dedi.

Shu on bularning yoniga haligi odamlarning nomini atab chaqirayotgan strajnik bilan chopar yetib keldi. Ular strajnikka ergashib, ulugʻning uyiga qarab ketishdi. Abay ularning orqasidan ketayotgan choparni chaqirib oldi-da:

— Ulugʻ mana bularga qanday dagʻdagʻa qiladi, sen shuning hammasini menga yetkazib ber. Bu ishni faqat senga topshirayotirman, bildingmi? Boraver! — dedi.

Chopar Abayni yaxshi bilardi. Garchi ulugʻning orqasida yurgan yigitlardan boʻlsa ham shu elning oʻzidan chiqqan boʻlgani uchun Abayning soʻzlariga darhol tushundi. Bu topshiriqni oʻziga sinovdek bilib, bajarishga vaʼda berib ketdi.

Abay Erboʻl bilan Abulgʻoziga ham topshiriq berdi.

— Tezlik bilan yaqin-yaqin ovullarga odam yugurtiringlar. Er-azamatlarning hammasi: otliq-yayov darhol ulugʻning uyi ol-

diga to'plansin. Mana bu saylovga yig'ilgan erkak-ayol, katta-kichik hamma odamlarni tezdan shu ulug'ning uyiga yaqinlashtirib, to'playveringlar! — dedi.

Abay Jirenshekar bilan dastavval o'tirib so'zlashgan yerida bir soatga yaqin o'tirgan edi, saylov o'tkaziladigan uylarning atrofiga juda ko'p xalq to'plandi. Strajniklar, choparlar xalqni uyezd boshlig'i o'tirgan uylarga yaqinlashtirmay, orqaga chekintirib, uzoqlatishga tirishardi. Hayqirishib, qilich va qamchilar o'qalishib, o'dag'aylaganicha, xalqni qo'rqitib orqaga chekintirishayotir. Lekin bugun xalqning avzoyi buzuq, qandaydir o'zgacha bir ishni kutayotgandek betinch. Bozoralinging begunohdan begunoh ushlanganini xalq endi bilgan edi. Unga achinib, Takejonga jirkanch nazar bilan boqar, g'azabi kuchli edi. Bularning deyarlik hammasi eski chopon, mehnat ahllari. Hali Abay bilan birga kelgan jotoqlar ham shu yerda. Ular, Bozoralinging qamalganini eshitib, nihoyatda qizishgan, zardasi qaynab, keskin harakatga bel bog'laganlar. Abulg'ozini ham shularning orasida. U o'zining bu yerga Bozorali uchun kelganini endi bildirdi.

Abay birozdan keyin ko'pchilik orasiga, Darkemboy, Abulg'ozini va Erbo'llar yurgan to'pning ichiga keldi.

— Men hozir mana bu ulug'ning uyiga kiraman. Hozir Bozoralinging ishi ko'rilayotgan bo'lishi kerak. Jirenshekarlarni ham javobga chaqirib ketdi-ku. Kelgan to'ralarning afti-basharasini hali ko'rganimcha yo'q. Lekin yo'lda kelayotganimda ham, shu yerga kelganimdan beri ham eshitishimga qaraganda, mana bu O'yaz bo'lislarning da'vati bilan darra urish degan bir mudhish, kishining hamiyatiga tegib xo'rlaydigan ishni boshlayotgan ko'rinadi. Agar o'sha o'rinsiz jazosini bugun ham tiymaydigan bo'lsa, bu ish bizning el uchun nomus. Bozoralinging ham qamchi ishlatadigan bo'lsa, qarab turib bo'lmaydi. Begunoh azamatning sha'niga isnod bo'lib tushadigan ishga yo'l qo'ymaymiz. Tarqalmasdan shu yerda turinglar. Erbo'l, Abulg'ozini, yur ikkoving, birga kiramiz! — dedi-da, ikkala hamrohini ergashtirib ulug'ning uyiga kirdi.

Abay uzoqlashib ketar-ketmas, pichirlab aytilayotgan bu buyruq to'planib turgan xalq o'rtasida og'izdan og'izga o'tib,

bir lahzada tarqalib ketdi. Darkemboy singari keksalarning, yana jotoq yigitlarining rangi o'chib, qovog'idan qor yog'ilib, avzoyi buzilgan. Yuzlari yana ham tundlashib, hayajon ichida, bir jiddiy to'qnashuvga hozirlanib turgandek ko'rinishardi.

Bir-biriga ulab tikilgan uch uyning birinchi xonasida el odami ko'rinmadi. Faqat qilich, yarog'-aslaha taqqan strajnik-uryadniklar bilan o'rta darajali mansabdorlar — to'ralar turishgan ekan. Aftidan, tergov o'rtadagi uyda olib borilayotganga o'xshaydi. Eshik qarshisidagi uyning o'rtasida, yashil shoyi yozilgan stol atrofida ulug'lar ko'rindi. Uzun qo'ng'ir mo'ylovi buralgan, baland bo'yli, qovog'i soliq, qorato'ridan kelgan O'yaz Koshkin o'shqirib tergov qilayotir. Uning gapini qozoqchaga tarjima qilayotgan, ko'zlari qisq-qisq, burni puchuq, semiz tilmoch oyoq ustida turipti. Boshini qimirlatib qo'yib tergov berayotgan O'rozboyga qarab u ham g'azab bilan yer tepinib, o'dag'aylab so'zlayotir. Abay hamrohlari bilan birinchi xonaga kirishi bilanoq javob berayotgan O'rozboyning yagona ko'zi ularga tushib qoldi.

Tergov qilayotgan O'yazning dag'dag'asi, qo'pol gaplari hamiyatiga tegib, zardasini qaynatganidanmi yoki Ayayning daldasi bilan jasoratlanib, yigitlik g'ururiga, keskin so'zligiga bordimi, har holda tiz cho'kib o'tirgan O'rozboy ko'tarilib, bir tizzasi bilan cho'kkaladi-da, ovozing boricha tilmochga:

— Ayt O'yazga! Men O'rolboy emasman. Elning begunoh, beozor odamiman. Mana bu Jirenshe bilan Aslbek to'g'ri so'zlayotir. Men ham shularning gapini aytaman. Bu yerda O'rolboy uchun javobgar bo'ladigan kishi yo'q. Yo'qolib ketganiga bir yil bo'lgan odam uchun el uyoqda tursin, ota-onasi ham javobgar emas. Agar butun gap shunda bo'lsa, o'shanday beboshni shu mahalgacha qo'lga tushira olmay, tiya olmay yurgan ulug'ning o'zi aybdor. Mana bu ushlab o'tirilgan Bozoralining ham hech qanday gunohi yo'q. Takejon bo'lis Bozoralini yomonlasa ham, biz — el kishilari bo'lisning so'zini quvvatlamaymiz. Bozoraida xusumati bo'lgani uchun o'tga tashlamoqchi bo'layotir. El kishilari bilan kelishib, bamaslahat ish tutsin. Ulug'ingga aytib qo'y, ko'p hayqirib, o'shqiravermasin. Shu gaplarimni batamom yetkaz hozir! — dedi.

Tilmoch bu gaplarni tarjima qilib berayotgan paytda, O'roz-boyni javobidan mamnun bo'lgan Abay Erbo'l bilan Abulg'oziga qarab, astagina:

— Haqiqiy mard yigit ekan-ku buning, gapini qara! — dedi. "Tilmoch qanday tarjima qilar ekan", deb to'rdagi uyning eshigiga intildi. Shu on eshikning ikki tomonida turgan soqchilar Abayni qattiq jerkib:

— Shoshma, to'xta! — deb qoldi.

Abay salmoqli tovush bilan ruschalab:

— Sabr qilingiz. Men uyezd nachalnigining oldiga kirishim kerak! — dedi.

Shunday bo'lsa ham ikki strajnik eshikni to'sib oldi. Shu choq o'ng tomonda turgan istarasi issiq, kelishgan va muloyim bir chinovnik, Abayning ruscha so'zlaganiga hayron bo'lgandek, strajniklarning oldiga keldi-da, kulimsirab:

— Siz kim bo'lasiz? Mumkin bo'lsa, bilishga ruxsat etsangiz, — dedi.

Abay bu odamning muloyimlik bilan qilayotgan muomalasiga yarasha hurmat bildirib, tumog'ini oldi. Lekin o'z fazilatini kamситmaydigan bir vaziyatda, teng tarbiya topgan kishilardek sipolik bilan bosh egib:

— Men Ibragim Qunanboyevman. Xalqdan chiqqan oddiy odamman, — dedi. Kulimsiraganicha maroq bilan to'raga tikilib turdi. Abay bilan so'zlashayotgan to'ra endi avvalgidan ham yoqimliroq bir vaziyat olib, yaqinroq keldi-da:

— Ha, shundoq deng. Ibragim Qunanboyev siz bo'lasizmi? Men sizni bilaman. Yaxshi bilaman. Do'stingiz advokat Andreyevich sizning haqingizda menga ko'p gapirgan edi. Qani, tanishaylik bo'lmasa, men — sovetnik Losovskiyan! — dedi.

Abay bu kishi bilan tanishib bo'lishi bilanoq ichkarigi uyni ko'rsatib:

— Bu yerda o'zi nima gap bo'layotir? Bu ishlarning hammasi biz uchun — xalq uchun qattiq ozor... — deb yubordi.

Abayning yo'lini to'sgan strajniklar Losovskiydagi vaziyatni payqab, o'rin-o'rinlariga qaytib ketishgan edi. Sovetnik Abayga yaqin kelib, bir qo'li bilan og'zini pana qilib:

— To'g'ri aytayotirsiz. Sizlargagina emas, durustroq hokimlar uchun ham ozor bo'ladigan qo'pollik. Samodurstvo¹! — dedi. So'nggi so'zlarini qizarinib ketib, g'azab bilan aytdi. — Lekin keyinchalik haqiqatga yetarmiz! — deb, orqasiga chekindi. O'sha yerdagi mayda-chuyda to'ralarga bildirish uchun ataylab namoyishkorona bir vaziyatda: “Kiringiz, marhamat”, deyayotganda, Abayning oldidan qo'lini ko'ndalang cho'zib, o'rtadagi uyga yo'l ochdi.

Biroq Abay o'rtadagi uyga boshini suqishi bilanoq, O'roz-boyni haligi javobini batafsil eshitib bo'lgan O'yaz hayqirgani-cha Bozoralini ko'rsatib buyruq qildi. Ikki strajnik Bozoralining yelkasiga chang solib, chalqanchasiga tushirib, ko'z ochib yumguncha yuztuban yotqizib, qamchi bilan solib-solib yubordi. Abay shuni ko'rdi-yu, tovushining boricha hayqirib:

— Postoy! Ne smey!² — deb qichqirib yubordi. Uyda g'ala-g'ovur ko'tarildi. Ilondek pishqirib, hamla qilib o'rnidan turgan O'yaz Abayga yaqin kelib:

— Sen kimsan o'zing? Seni kim chaqirdi? — dedi.

Uzun mo'ylovlari qaltirab, ko'zlaridan nafrat o'tini sochganicha o'dag'aylab kelib, Abayga tikilib turdi. Abayning bo'yi O'yazning bo'yidan balandroq edi. Uning ham rangi o'chgan, yuzida bir tomchi qon qolmagan. Ikki ko'zi esa qon talashib ulug'ga yuqoridan o'qrayib turardi. Uni ayblayotgandek o'shqirib:

— Hayqirmang! Meni yig'ilib turgan xalq yubordi. Mana bu beboshlikni hozir to'xtating! — dedi.

O'yaz g'azabdan tutoqib ketib, hali Abay aralashgan paytda qamchilarini ko'targanicha to'xtab qolgan strajniklarga “ur!” deb, yana buyruq qildi-da, xuddi Abayning ko'zini o'yib oladigan-dek, barmog'ini uning ko'ziga o'qtaldi. Hovliqma, badjahl ulug', Abayga ham o'shqirib:

— Seni avaxtaga qamataman! — dedi.

Abayning “Urma, tegma! Qo'lingni tort!” deb, qichqirganini ur-yiqit ichida eshitadigan ham, e'tibor qiladigan ham kishi bo'lmadi. Bozoralining ustiga qamchi yog'ildi. Endi ulug' Jiren-

¹ **Samodurstvo** (*ruscha*) — o'zboshimchalik.

² **Postoy! Ne smey!** (*ruscha*) — To'xta! Shaxtingdan qayt!

she, Aslbeklarni ham, chetroqda o'tirgan O'rozboyni ham darra ostiga oladigan bo'ldi. Atrofga yig'ilib qolgan to'rt-besh strajnikka qarab qo'li bilan haligilarni ko'rsatganicha:

— Yigirma besh qamchi, o'ttiz qamchi! Ellik qamchi! — deb, eng so'nggi qamchini Bozoraliga buyurdi. Shu tobda Abay, xuddi yonib turgan o'tga tushib ketgandek bo'ldi. G'azab ichida jasorati ortib, ko'zini chirt yumdi-yu, g'azabdan ko'ra nomus kuchli kelganidan kurashga chog'landi-da, ulug'ga qarab:

— Endi butun ishga sen javob berasan! Pomni, sam vinovat!¹ — dedi-yu, eshikka qarab otildi. Erbo'l bilan Abulg'oziga keskin buyruq qildi, tovushining boricha:

— Intil, butun elni bostirib yubor! Vayron qil hammasini! — deganicha eshikdan o'zi ham otilib chiqdi. Tashqaridan Darkemboylar qo'llariga allaqayerdan topib kelishgan qisqa cho'qmorlarini, yo'g'on qamchilarini ko'tarib, shaylanib turishgan ekan. Abayga faqat:

— Qulat! Buz hammasini! Talqonlab tashla mana bu uylarni! — deyishgina qolgan ekan. Atrofni qurshab turgan xalq Darkemboy: “Qir, yer bilan yakson qil!” deb, hayqirgan on uch uyga baravar tashlanib qamchi, cho'qmor urib, changini osmonga chiqarib yuborishdi... To'ralar boshlariga g'azabli jazo tushganini endi his etishdi. O'yaz: Jirenshe, Aslbeklarni ur, deyishi bilanoq, strajniklar qamchi ko'targan paytda, birinchi xonadagi sovetnik Losovskiyl otilib ichkariga kirdi. U O'yazga betma-bet kelib, tepa sochi tippa-tik bo'lgan holda tupugini sachratganicha qichqirdi-da, shapalog'i bilan uy o'rtasidagi stolni bir urib:

— Bas qiling bu beboshlikni! To'xtating hozir! Siz tuzatib bo'lmaydigan xato qildingiz! To'xtating darra urishni! Hozir to'xtating! — dedi.

Sovetnik Abayning g'azab ichida qanchalik tutaqib ketganini, xalqning qanchalik dahshatli harakatga borishi mumkinligini Abayning ovozi boricha qichqirib, otilib chiqib ketayotgan chog'idagi vajohatidan payqagan edi. Losovskiyl buyruq bergandan keyin uy ichiga bir nafas jimlik cho'kdi. Ko'tarilgan qamchilar ham Jirenshe, Aslbek, Bozoralilarga urilmay, ko'tarilganicha

¹ **Pomni, sam vinovat!** (*ruscha*) — Yodingda tut, o'zing aybdor bo'lasan.

qoldi. Faqat Bozoraliga avval qamchi tegib qolgani bo'ldi, xolos. Endi u ham o'rimdan irg'ib turdi. O'yazning pinjiga tiqilib, rangi murdadek oqarib, nima qilishini bilmay turgan Takejonga qarab:

— Dushmanim bo'lding, Takejon! Boshimga qamchi urdirishing — nomusimni yerga bukkaning bo'ldi! Tirik bo'lsam, axir bir kun o'chimni olaman! — dedi.

Bu uyda shundan boshqa gap bo'lmadi. Butun uylarga yopirilib kelib, tasir-tusiriga olib urilayotgan cho'qmor-so'yil, qamchilar kegay va keragalarni qasirlatib sindirib borayotgan edi.

Ulug'larning boshidagi yuqqagina boshpana, otilib hamla qilgan xalq g'azabi ostida talqonlanayotir. Endigina esi o'ziga kelgan uryadnik darhol miltig'ini olib ko'kka qarab o'q uzdi. Unga ergashib yana bir necha strajniklar ham o'q uzib qoldi. Endi O'yazning o'zi ularga: "To'xtat!", "Otma!" deb, o'shqirganicha buyruq berdi. Miltiq tovushi chiqqanda, yopirilib uyni qulata-yotgan xalq ichida faqat bir-ikkita keksalargina orqaga chekindi, xolos. Ko'pchilik uch uyni iskanjaga olib, changalidan chiqarmadi. Uydagi ulug'ning: "Miltiq otma! To'xtat!" degan buyrug'ini eshitib qolgan Abay o'sha on xalqqa qarab tovushining boricha:

— Qo'rqmanglar! Endi otolmaydi! — deb jar soldi.

Shu orada Erbo'l, Abulg'oz, Darkemboylar baravariga g'azab bilan:

— Qulat mana bu uylarni! Yiqit! Ag'darib tashla! Yulib ol boshpanasini! — deb hayqirishdi. Butun el yopirilib kelib birinchi uyni chap tomonidan hujum qildi. Bu harakatning ilg'orlari jotoqlar edi. Ko'pchilik birlashib kelib, zarb bilan urganda dahlizning kegay va keragalari qasirlab sinib ketdi. Pachoqlangan uy tobora ichkariga o'girilib, borib-borib, nihoyat qasirlab qulab tushdi.

O'rtadagi uy bilan dahliz uyni o'rtasida eshik bo'lmay, faqat bir qanot keraganing o'rni ochiq qoldirilgan ekan. Xalq g'azabidan qo'rqib, to'rdagi ikki uyga tiqilishgan ulug'lar, dahshat ichida bir-birlariga siqilishib turishgan edi. Abay O'yazga qarab:

— Ayb o'zingda. Sen elni tuzatuvchi emas, buzuvchisan! — deb bir baqirdi-da, shaxdam odimlar bilan borib, Bozoralining qo'lidan tortib: "Chiq buyoqqa", deb siltab turg'izdi. Bozoralini otilib turib, Abayning orqasiga o'tib ketdi.

Paytdan foydalanib, Jirinshe, Aslbek, O'rozboylar ham irg'ib turib, Abayning orqasidan o'tib, xalqqa qo'shilib ketishdi. Bu vaqtda Darkemboy, Abulg'oz, Erbo'l, yana shularga o'xshash ko'pchilikning g'azabi chekdan oshgan edi. Ular — biy ham, starshin ham emas, boy-badavlatlar ham emas. Lekin shu singari sinov paytlarida tavakkal qilib, el salmog'ini yelkasida dast ko'tarib ketadigan, hech narsadan tap tortmaydigan mardlar. Hozir ular O'yaz bilan Takejonga hayqirib, tevarak-atrofdan boshiga yog'dirilayotgan qamchidek, buyruqlar berishayotir. Abay endigi gapni ularning o'ziga qo'yib berdi. Erbo'l bilan Abulg'ozilar Takejon bilan O'yazga qarab ochiqdan ochiq:

— Saylov bermaymiz! Sen saylovchi emas, xalqni vayron qiluvchi. Yo'qol, tezroq! Ket hozir! Endi sening buyrug'ingga itoat qilmaymiz! — deb, ulug'larga hayqirishdi. Shu bilan birga to'planib turgan xalqqa qarab:

— Hammang uy-uyingni ko'chirib ket!

— Xalq tarqalsin bu yerdan! Kallaklangan to'nkadek sho'p-payib ulug'larning o'zi qolsin!

— Qoladigan bo'lsa, ularning pinjiga tiqilib yurgan muttahamlar, ablahlar qolsin!..

— Jotoqlar, ol uylaringni!.. Zo'rligiga ko'nma. Hech narsa qoldirma, hamma uylaringni olib ketaver!

— Tarqal hammang! Ulug'ni tashlab ket, yolg'iz o'zi qolsin!

— Dashti-sahroda yolg'iz o'tirib ko'rsin-chi bir! — deyishib, birining orqasidan ikkinchisi baqirdi.

Ko'pchilikka shunday buyruq berib yuborishdi-da, Darkemboy, Abulg'oz, Erbo'llar o'zlari oldindan yo'l ochib, jo'nab berishdi. Xalq tarqalganda ham quruq shovqin-suron ko'tarib tarqalib ketavermadi. Kimning aql-idroki idora qilganligi ma'lum emas, har holda avvalo, ulug'larning atrofidagi hamma otlarni haydab ketishdi. Shundan keyin esa ulug'lar hurmatiga tikilgan barcha uylarni xalq bir lahzada yiqitib bo'ldi. Uylarni hammadan oldin jotoqlar yiqitishdi va ko'z ochib-yumguncha olib ham ketishdi. Dam o'tmay keng vodiya dovul urib pachoqlab, bir-biriga mingashtirib ketgandek, qo'qqayib, ulug'larning yarmi qulagan ikkitagina uyi qoldi, xolos. Atrof huvullab qoldi.

Hali yaqindagina, bundan bir soat oldin, ulug‘lar makoni butun Eralida gerdayib, as‘asa, dabdaba bilan: “Men shu yerdaman”, deb turgan edi. Hozir esa ko‘l yuzidagi ko‘pikdek yo‘qolib, o‘chib ketdi. Katta va salmoqli xalq to‘lqini, g‘azabi zarb bilan kelib urildi-da, lop etdi-yu, quladi-tushdi.

Xalq birligi shuning o‘zi bilan chegaralanmadi. Eralida o‘tirgan butun ovullar, ulug‘larning uyini dashti-biyobonga tashlab, o‘sha kuni tush paytida ko‘ch-ko‘ronini ortib, duv ko‘tarilib jo‘nab ketdi. O‘z atrofidagi xalqni o‘zidan bezdirib, butun boshliq sahroda yolg‘iz o‘zi qolgan ulug‘lar to‘dasi, sharmanda bo‘lib, rosa kulgili ahvolda qoldi.

Atrof bo‘m-bo‘sh, huvullab odamni yutib yuborguday. Ko‘zga ilinarli biror narsa yo‘q, zog‘ ham uchmaydi. Eshikka chiqib bu kayfiyatga zehn solib yurgan, og‘ir tabiatli Losovskiyy ikki kaftini yozib, o‘z-o‘zidan kuldi-da:

— Hech bo‘lmasa adashgan it ham qolmapti! — deb boshini chayqadi. O‘zining haddidan oshganini endi anglab, dami ichida, g‘azab bilan boshini qimirlatib qo‘yib, gangib yurgan Tentek O‘yazga qaradi.

— Qirg‘iz¹ dalasini shuncha yillardan beri bilib yurib, shunday birlashgan elni ko‘rganim yo‘q edi. Qilmishimizga yarasha bo‘ldi. Asti kechirilmaydigan xato qildik. Bu ahvolga tushganda, xalqning begunoh vakillarini vahshiylarcha jazolashimiz orqasida tushdik. Mening sof vijdonim butun haqiqatni sizning yuzingizga aytishga majbur qilayotir. Shaharga borganda bu xatarli safar uchun siz bilan yuqoridagi ulug‘lar oldida alohida so‘zlashadigan bo‘ldim! — dedi.

Tentek O‘yaz javob qilmadi. Qo‘lini bir siltab, teskari qaradi-yu, ketaverdi. Ulug‘larning yonida faqat o‘zining ikki chopari va ikki starshini bilan Takejongina qoldi. Amri-farmonning obro‘cini yo‘qotib, majolsizlangani shunchalikki, endi bir qultum suv, bir damlam choy va bir dona bo‘g‘irsoq, bir burda pishloq to‘pishning o‘zi mahol bo‘lib qoldi.

¹ **Oktabr to‘ntarishiga qadar ikki xalqni** — qozoq va qirg‘iz xalqini qo‘shib qirg‘iz deb atalgan.

Ulug'larning saylov o'tkaza olmasligi ochiq ko'rinib turardi. Endi ko'p hayallamasdan, tuyoqni shiqillatib, Semeyga jo'nashdan boshqa chora qolmadi. Tentek O'yazning so'nggi amaldorlik kuchi faqat shunga yetdi. U Takejonga tezlik bilan ot topib, o'zlarini kechiktirmay jo'natishga buyruq berdi. Bo'lis o'zi bilan atrofidagi choparlari, starshinlarining otlaridan qo'shib-chatib, kechga yaqin to'rt izvoshni zo'rg'a yurgizib yubordi. Strajniklar piyoda ketishdi.

Tentek O'yaz jo'nash oldidan, bugun sodir bo'lgan qiziq voqeadan o'zicha xulosa chiqarib, bir qarorga keldi, uni o'ziga qarashli chinovniklariga ham aytdi. O'ylab topgani: tilmoch orqali Takejon, starshinlardan surishtirib so'rab, yoniga o'zining ulug'lik fikrlarini ham qo'shib, yuqoridagi ulug'larga yuz qilib olib borish uchun akt yozish bo'ldi.

Yozgan aktining asosiy "vazifasi" O'yazning o'z gunohini oqlashdan iborat edi. Unda: "O'rolboy katta qaroqchi. Bozorali uning el ichidagi suyanchig'i, ko'p usta makkor, aqlli yo'l boshchisi. O'rozboy, Jirenshekar bo'lsa Bozoraling yuqlovchilari. Ularning ichida mana shu Ching'iz elining bo'lisi Takejon Qunanboyevning bir tug'ishgan inisi Abay ham bor. Saylov qildirmay, arzimagan narsadan bahona topib, qo'zg'olon ko'targanlar — o'sha Abay bilan Bozorali tayyorlab qo'ygan kambag'allar, xizmatkor bo'lib yurgan fuqarolar.

Bu elning bo'lisi Takejon ham bo'lislikka loyiq odam emas. O'rolboy bilan Bozorali xusumati bo'lgani uchun ularga qarshi bo'lgani bilan ulug'ga qarshi ko'tarilgan norozilikni bosishning uddasidan chiqolmadi. Ulug'lar boshiga kelgan shunday xatar ustida xalq e'tiborga olgudek biror og'iz gap ham ayta olmadi. Ulug'larni yolg'iz dalaga tashlab ketayotgan ovullardan hech bo'lmaganda bironta ovulni ushlab qolish ham qo'lidan kelmadi. Uning xalq o'rtasida hech qanday e'tibori bo'lmaganligi orqasida shunday ishlar sodir bo'ldi, bu ishda aybli faqat — shu bo'lis. Qo'lga tushgan Bozorali qochirib yuborgan xalqqa ham hech qanday jazo berolmadi. Shu sabablarga binoan, yana xalqni saylovga tayyorlay olmagani uchun, Takejon Qunanboy o'g'li bo'lis-

lik oʻrnidan tushirildi. Uning oʻrniga kandidat Jabay Boʻjey oʻgʻli vaqtincha boʻlis qilib tayinlandi!” deb yozildi.

Bu aktini Oʻyaz izvoshga tushayotgan paytda tilmoch orqali eshittirdi.

Shunday qilib, Oʻyaz oʻz boshiga tushgan bu kulgili ahvolning jarohatini oʻz tili bilan yalab, qogʻoz bilan siypab emlagandek boʻldi. Takejonning oʻrnidan tushirilgani haqidagi buyrugʻini maxfiy topshiriqlar bilan mana shu el ichida aygʻoqchi qilib qoldirib ketayotgan tilmochga berdi-da, joʻnab ketdi.

* * *

Abay oʻn kundan buyon Semeyda, “Katalashkada” yotipti. Bu chinakam avaxta emas, lekin jazolanuvchi vaqtincha tutiladigan yer boʻlishiga qaramay, bu katalashka, oʻz asirini butun hibsonalarga xos bir siqiqda tutadi. Derazasida temir panjara, eshigi mudom qulflogʻlik. Ana shu eshik oʻrtasidagi kichkinagina teshik tutqundagi odamning tashqi dunyo — yasovullari bilan boʻladigan aloqasi uchun torgina yoʻl hisoblanadi.

Yasovul, mahbus chaqirsa, ha deganda kelavermaydi. Sariq serhasham qilich osgan, mudrab oʻtiradigan, oʻrta yoshli, yuzini ajin bosgan soqchilar oʻtiradilar. Bularning baʼzilari Tentek Oʻyaz bilan birga elga chiqqan strajniklarga oʻxshardi. Qamoqxona oʻsha Tentek Oʻyaz mahkamasining yonida. Bu yerdagi hayot Abayning ozod yurgan chogʻidagi hayotidan juda katta farq qilardi. Shunday boʻlsa ham Abay oʻzining bu ahvoliga bir qadar koʻnikib qolganga oʻxshardi. Atrofni xilma-xil kitoblar bilan toʻldirib olgan. Koʻpincha shu kitoblar ustida muk tushib oʻtirardi. Kunlarning qanday oʻtib ketganini bilmay ham qolardi.

Shu kunlarda, Abayga chin qalblaridan doʻstlik qilayotgan bir necha shahar odamlari bor. Bular ichida hammadan ham Oqbobosh deb ataladigan Andreyevichning oqibati oʻzgacha edi. U Abay katalashkaga tushgan kunning ertasigayoq keldi.

Shundan buyon ikki-uch kunda kitob keltirib beradigan boʻldi. U Abayni qamab qoʻyilgan kichkinagina xonadan soqchilar turadigan, derazasi kichik, oʻzi ham qafasga oʻxshash, pashsha bosib

yotgan uyga chiqartirib, go'yo ish bilan tanishgani kelgan kishi bo'lib, uzoq-uzoq suhbatlashib o'tirib ketardi. Kitob orqasidan kitob keltirib: "Yolg'iz tutqunga sheriklar keltirdim", deb Abayning ko'nglini ko'tarib ketardi. Andreyevich ovulda sodir bo'lgan voqeani eshitishi bilan Abayning oldiga kelganda:

— Qahri-g'azabini sochib, as'asa, dabdaba bilan borgan ulug'ni shunchalik masxaralab, obro'yini to'kishingiz oson ish emas... U — odilona g'azabning ishi. Lekin bu ish, sizning adolatparvarligingizni ko'rsatib, qimmatigingizni qanchalik oshirmasin, qonun oldida va hokimlarning nazarida ularning g'azabini qo'zg'otadigan ish. Bu to'g'ridan to'g'ri buntga¹ hozirlik ko'rish, deb qaraladigan va qat'iyman qilingan ish, — dedi.

Andreyevich Abay bilan bu to'g'rida suhbatlashishdan oldin o'zining yaqin oshnasi bo'lgan sovetnik Losovskiylar bilan ham xo'p so'zlashib, voqeani batafsil eshitib kelgan edi. Losovskiylar Andreyevichga Tentek O'yazni ermak qilib, uning ishlarini kula-kula so'zlab bergan edi. Sovetnikning o'zi Abayning ishiga azbaroyi nomus yuzasidan qilingan ish deb qarardi.

Andreyevichning uyida shu haqda yana bir gap ketganda, uchinchi bir begona odam ham bo'ldi. Bu odamning yoshi o'ttizga to'lgan, quyuq qora soqolli, ochiq va keng peshonali, serg'ayrat, chehrasida donolik aks etib turadigan Mixaylov edi. Bu odamning ko'rinishi ham, kiygan kiyimi ham bu yerdagi mahkama xodimlariga o'xshamas edi. U chinovniklar taqadigan yaltiroq tugmalar, zarhal uqalarni asti taqmas edi. O'zi allaqachonlardan beri podsho hukumati ters ko'zi bilan qaraydigan gunohkor odamlardan hisoblanib, bu tomonlarga surgun bo'lib kelgan aybdor edi.

Shunday bo'lsa ham do'stlari uni bir amallab oblast mahkamasiga xizmatga joylab qo'yishgan edi. Gerdayib bosar-turarini bilmay borgan ulug'ning moxovga oshna bo'lib qaytishini, ulug'ning boshidan kechgan kulgili sarguzashtini dastavval eshitganda, Mixaylov hech qanday savol bermadi. Faqat o'ziga xos bir kulgisidan qilib, sharaqlab kulganicha qizarinib, huzur qilib eshitdi.

¹ **Bunt** (*ruscha*) — isyon.

U keyingi kunlarda, Andreyevichdan ulug'ni rasvo qilib, kulgili ahvolga solgan o'sha sahro yigitini ko'rsatib, tanishtirib qo'yishini iltimos qildi. Andreyevich Abayning ishi Losovskiyning beradigan guvohligiga bog'liq ekanligini qayta-qayta takrorlayverardi. Nihoyat, sovetnik ham bu ish haqida odillik bilan so'zlashga rozi bo'ldi.

Abay ham Andreyevichdek do'sti shu singari g'amxo'rlik qilayotganini bilgandan keyin xotirjam bo'ldi. Uning bu kunlarda katalashka strajnikidan qiladigan yagona talabi, kechasi chiroq yoqib berishlarigina edi. Abay bu kunlarda juda kam uxlardi. Biridan-biri qiziq romanlarni kun bo'yi o'qish bilan qanoatlanmay, kechalari ham o'qigisi kelardi.

Katalashkaning xira fonari yerga qo'yilmay, baland qilib devorga osib qo'yilar edi. O'shaning tagiga borib, harflar zo'rg'a ko'rinishiga ham qaramay, kitobdan ko'zini olmaydigan Abay, sham juda xiralashib ko'zi tolgan paytlardagina borib, mushtumi bilan katalashkaning eshigini urardi. Xurрак otib mast uyquda yotgan butun strajniklarni bo'ridek cho'chitib, uyg'otib yuborardi. Uyqusi buzilganiga jahli chiqib, to'ng'illab keladigan kekса strajniklar ba'zan Abayni kesatib:

— Bu qirg'izning o'qimishli bo'lib olganini qara-ya. Bobong bilan otang uchun ham shu katalashkada o'qib olay deyayotirsanmi? Kunduzi kamlik qildimi senga? — deb, undan koyib ketar edi.

Abay ularning uyqusini bezovta qilib uyg'otgani bo'lmasa, gap talashib so'zga borishmasdi. Aksincha, ularning haligiday qattiq hazillariga zavq qilib kulardi. Sipolik bilan haligilarning bittasini Sergey, bittasini Nikolay deb, o'z nomlari bilan atab, sahroning o'ziga xos tarbiyasiga binoan muloyimgina:

— Sergey, o'zing o'ylab ko'r, katalashkang to'la qandala. Kishiga na uyqu beradi-yu, na tinchlik beradi. Shu kitobdan boshqa hamroh ham, yupanchig'im ham yo'q. Mana, katalashkangning ovqatini ham yeyayotganim yo'q. Katalashkangni shu shamdan boshqa hech narsaga chiqimdor qilayotganim yo'q-ku, axir! — deb qo'yardi. Bunga ko'pincha duch keladigan kekса Sergey, har kech avvaliga gap tashlab tixirlik qilardi-da, so'ng ikkinchi shamni keltirib, o'zi yoqib bergach:

— Durust odamlar shkolda¹ o'qiguvchi edi... Shkolda. Sening otang tyurmada² o'qi deb ta'lim berganmi deyman? Topgan shkoling shu yer ekan-da, ma! — derdi.

Abay katalashkani juda oz chiqimdor qilardi. Uning qimizi, go'shti, issiq ovqati hammasi tashqaridan keltirilardi. Unga ovqatni Erbo'l yoki shu gal Abay bilan Erbo'lning aravasini haydab, kucher bo'lib kelgan epchilgina Boymag'ambet degan yigit olib kelardi. Hozir Abayning kamerasida yarim tog'ora muzdek qimiz, yaxna go'sht, choy bilan ichish uchun keltirilgan bir dasturxon ovqatlari ham bor edi. Garchi Abay ortiqcha tashvish tortayotgan bo'lmasa ham, shaharning issig'i avjiga chiqqan paytda kichkina-gina dim uyda diqqinafas bo'lib yotavergandan ishtahasi bo'g'ilib qolgan edi. Shuning uchunmi yoki ko'p vaqtdan beri quyoshga chiqmay o'tirganidanmi, hozir rangi ancha zahil tortib, siniqib ketgan. Bu kecha ham, o'tgan kecha ham uxlamay chiqqan Abay tun oshgan qimiz bilan nahorlik qildi-da, muk tushib yana qiziq romanning voqeasiga cho'mdi. Bu "Soxatiy" degan kitob bo'lib, bir necha rus jasurlarining hayotini tasvirlaydigan qiziq sarguzashtli roman edi. Romanda nomusli haqqoniy qasoskor, odil va botir yigit Soxatiy haqida, yana goh insofga kelib, goh beomon yov singari ish tutadigan, dong'i ketgan qaroqchi Vanka-Kainlar haqida yozilgan. Soxatiylarning biqinib yurib, ba'zan kutilmagan joyda o'rmondan chiqib, ulug'larning yo'lini to'sib, o'z taqdirlari uchun ulardan olgan o'chlari ham tasvirlangan. Abay bu yil ko'klam, Oqsho'qida "Dubrovskiy"ni o'qigan chog'ida o'ylagan fikrlarini yana o'ylay boshladi. Vladimir, poraxo'rlarni o'z uyiga qo'shib kuydirib yuborganida, Abay o'sha nomusli yigitning olgan o'chiga zavq qilib, ko'p xursand bo'lgan edi. "Kiroyi yigitning g'azabi bo'lsa, shunday bo'lsa!" deb, shodlangan edi.

Keyingi kunlarda o'sha kitobdagi voqeani tez-tez eslab turardi. Bir lahzada ro'y bergan o'zgacha harakat ichida shu singari voqeani o'zi ham boshidan kechirgan edi. Tentek O'yazning uyi qasirlatib qulatib yuborilganda, qo'rqqanidan ichkaridagi uyning eshigiga borib, bir joyga to'planib turgan Tentek O'yaz bilan besh-

¹ **Shkola** (maktab) so'zining buzib talaffuz qilinishi.

² **Tyurma** (*ruscha*) — qamoqxona.

olti strajniklar-uryadniklar hozir uning ko‘z o‘ngida gavdalandi. Shafqatsiz g‘azab, lop etib yonib, so‘ngan alanga uchqunidek ko‘z oldidan o‘tdi.

“...Bir-biridan naqadar uzoq bo‘lgan qavmlar, odamlar bor. Ba‘zan bular ayamay qilingan zo‘rluk, andishasizlik bilan qilingan xiyonatni ko‘rganlarida og‘a-inidek, bir-birlariga o‘xshab harakat qilishadi. Zanjirband yo‘lbarlar g‘azabi kelganda yo‘lbarligini qilganidek yoki qalpoq kiydirib, ko‘zini bекitib qo‘yilgan tutqun qironlar g‘azabi kelganda qironligini qilganidek, or-nomus ham ma‘lum odamlarning g‘azabini bir xilda qo‘zg‘otadi. “Shunday paytlarda odamni qavmi-jinsi, martabasi emas, bir-biriga o‘xshash holat idora qilsa kerak!” degan xayolga boradi.

Hozir Abay shu singari xayollarga cho‘mib ketib, tizzasidagi kitob ochiq turganicha, parvosiz qolgan bir paytda tezlik bilan kameraning eshigi ochila boshladi.

Katalashka nadzirateli¹ Xomutovning o‘zi kirib keldi. U hamisha bu yerga Abayni advokat chaqirtirsa yoki bosh tergovchi kelgan bo‘lsa kirar edi. Abay: “Bo‘shatib yuboradigan vaqt bo‘ldimi?” deb, to‘satdan paydo bo‘lgan bir umid bilan o‘rnidan darhol turib, Xomutovga tomon qadam tashladi. Xomutov ichkari-ga qaramay, eshikda turgan joyida dag‘al tovush bilan:

— Qunanboyev, yur dejurkaga, seni ko‘rgani ovuldan otang kelipti! — dedi sovuqqina qilib.

Bu xabarni eshitganda, Abay bir tomondan hayron bo‘lsa, ikkinchi tomondan qandaydir nomusi kelib, ildam odimlar bilan politsiyaning orqasidan ketdi.

Haqiqatan ham, dejurkada eldan kelgan bir nechta odam o‘tirgan edi. Besh-olti kishi bilan bir to‘p bo‘lib kelgan Erbo‘l va Boymag‘ambet ko‘rindi. Abay shoshganicha ular bilan salomlashib bo‘lgan on ularning ichidan Qunanboyni izlay boshladi. “Kexsa ustixonini surgab, bu yerga kelib nima qilar edi”, deb, ich-ichidan ensasi qotib kelgan edi.

Shunday xayolga borgani uchun Abay o‘zini kutib o‘tirgan bu yerdagi odamlarning oldiga qovog‘ini solib, chehrasida qandaydir norozilik aks etgan holda kirib kelgan edi.

¹ Nadziratel (*ruscha*) — nozir, nazoratchi.

Kelganlar ichida Qunanboy ko'rinmadi.

— Otam keldi degan edi, qani? — dedi darrov. Erbo'l astagina uning biqiniga turtib qo'ydi-da, strajniklarning oldida Boymag'ambetga qarab so'zlayotgan kishi bo'lib:

— Otang mana bu o'tirgan Darkemboy emasmi, seni ko'rsatmaydigan bo'lgandan keyin aytilgan gap-da! — dedi.

Abay bu gapni eshitib xursand bo'ldi-da, sekin bosh egib qo'ydi. Soqoli oq bo'lsa ham hali tetik, keksalik ham yenga olmagan, zuvalasi pishiq, serg'ayrat Darkemboy qulochini yozib, Abayni mehribonlik bilan quchoqlab:

— Aylanay yolg'izim, suyangan tog'im! — deb, bag'riga bosib yuzidan o'pdi.

Bu gal Erbo'l Xomutovga porani ayamay qistirgan ko'rinadi, chunki Darkemboyning chindan ham qamoqda yotgan yigitning otasi ekanligiga qanoat hosil qilgan nadziratel, cholning Abayni sog'inib, yuragi uzilib kelgan otalardek quchog'iga olganini ko'rgandan keyin: "So'zlashib olsin", deb chiqib ketdi.

Abay Darkemboyning quchog'idan chiqishi bilan o'tirgan ikkita yigitni endigina tanidi. Dastavval kirganida, yarim qorong'i uyda ularni yaxshi payqamay qolgan ekan. Ularni tanib, hayron qoldi, lekin hayron bo'lishi bilan birga, behad xursand ham bo'lib ketdi. Shu ongacha damini chiqarmay o'tirgan barvasta, baland bo'yli yigitlarning ikkovi bilan ham qattiq-qattiq quchoqlashib ko'rishdi.

Abayni hayratda qoldirgan shu ikki yigit, xuddi shu kunlarda Semey, avaxta u yoqda tursin, hatto Qunanboy ovullarining ko'ziga ham ko'rinishlari xatarli bo'lib, elga sig'may yurgan yigitlar edi.

Eralida bo'lgan mojarodan keyin o'sha falokat sabab bo'lib Takejon o'rnidan tushdi. Abayni javobgarlikka tortib, shaharga olib kelib avaxtaga qamadi. Shundan buyon butun Irg'izboy va ularning yori-do'sti bo'lgan ellarning hammasi: "O'sha mojaroni boshlovchilar, fitnachilar" deb, butun aybni Jigitek odamlarining ustiga qo'yishgan. Aslida, bu ishlar O'rolboy, qolaversa, Bozorali tufayli bo'ldi deyishayotgan edi.

Undan keyin saylov boshida g'alayon ko'tarib, ulug'ga qarshilik qilib, serjamoa jotoqlarning ichiga g'ulg'ula solib, yana

ulug'ning uyini qulatib, ko'pchilikning boshini biriktirgan mana shu yigitlar bo'ldi, deyishdi. Ularning ustidan: Takejon va boshqa chaqimchi mansabdorlarning ko'pchiligi Tentek O'yazning mahkamasiga prigovorlar¹ tushirishgan edi. Abay bir necha bor ulug' oldiga so'roqqa borganida, tergovchi ulug'ning ayniqsa, mana shu ikki yigit ustida ko'p to'xtab, o'shalar to'g'risida toza aylantirib, qattiq surishtirayotganini ham bilgan edi.

O'z ustidagi tergov uzoqqa cho'zilishiga ham qaramay, Abay bu ikki yigit haqida, ulug'ning qo'liga hujjat bo'lib kirarlik biror og'iz gap gapirmadi. Mana endi o'sha ulug'lar tishlarini qayrab, g'azabiga olib turgan ikki yigit shaharga kelib, damiga tortishga tayyor turgan ulug'ning avaxtasiga o'z oyoqlari bilan kirib keshipti.

Abay hatto Darkemboyning kelishini ham xatarli, deb bilardi. Uning ustidan tushirilgan qog'ozlar ham ancha og'ir edi. Biroq Darkemboy uning uchun hech qanday xatardan bosh tortmasligini Abay yaxshi bilardi.

Uni g'oyat hayratda qoldirayotgan mana shu ikki yigit. Hozir ular Abayning yuziga kulimsirab, do'stona boqib turishardi. O'zlarini chin tilakdosh, ayrilmas jigarlardek tutmoqdalar. Bular Jigitek elining ikki azamati, ikki sheri — Bozorali bilan Abulg'oz. Abay ularga qarab:

— Aziz do'stlarim, g'ajib tashlagudek bo'lgan arslonning og'ziga sen ikkovingni kim keltirib ro'para qildi? Bitta-yarimtaning siqig'i bilan keldinglarmi? Yoki bizning ovullar men uchun senlarning ichganlaringni zahar, yeganlaringni zaqqum qildimi? Shuning uchun keldinglarmi? Nega keldilaring, axir? — dedi.

Bozorali Abayning bu masalada yanglishayotganini aytib berdi.

— U aytayotganlaring bir bizni emas, butun Jigitek elini sezing orqangdan chuvalashtirib shu yerga olib kelgudek sabab-ku. Lekin unday gaplar bizni shu yerga olib kela oladi, deysanmi? Shu avaxtada sen yotmay, Takejon yotganda ham shu gaplarni gapirishar edi. O'shanda ham butun balo mening boshimga tushar edi-ku. Lekin Bozorali bilan Abulg'oz u holda bu yerga kelish u yoq-

¹ Chaqiq qog'oz ma'nosida.

da tursin, “miq” etar edimi? Hech kim zo‘rlagani ham, qistagani ham yo‘q. Mana bu Darkemboy choling bilan dovyurak, shaddod Abulg‘ozing: “Sen o‘tirgan avaxtada keng qasrda o‘tirgandek, o‘kinmasdan o‘tiranman!” dedi. Qo‘yarda qo‘ymay: “O‘shandan ayrilmayman”, deb kelishdi! — dedi.

Darkemboy bilan Abulg‘ozi ikkovi ikki tomondan bu so‘zlarni quvvatlab ketishdi.

— Biz uchun sen yotma. Yo‘qlovchi bo‘lish bizning qo‘limizdan kelmaydi. Nodonmiz, uddasidan ham chiqolmaymiz! — deb, gapni Darkemboy boshlagan edi, u yog‘ini Abulg‘ozi ilib ketdi:

— Sen uchun biz yotamiz. Bizlarning nima foydamiz bor. Sen hech bo‘lmasa, elning ko‘z yoshini to‘ktirmaysan-ku. Agar yo‘qlovchi bo‘laman desang, or-nomusni erlarcha saqlay bilasan. Hammamiz ham shuning uchun keldik. Sen chiq, biz yotaylik! — dedi.

Qaysi kuni Qo‘riqda O‘span aytgan sovuq xabardan keyin Abay Bozorali durustroq ko‘rgani ham yo‘q edi. Faqat Eralida, O‘yazning uyida, tutoqqan g‘azab ichida bir ko‘zi tushgan edi, xolos. Mana bu qardoshlarni o‘linga borishdan ham bosh tortmaysan, deb, bir to‘p qilib boshlab kelgan shu Bozorali ekanligini Abay bilib turardi. U Abay oldiga: “Butun aybimni kechir”, deyayotgandek, uzr so‘rab keldi. Uning uchun o‘zini qurbon qilishga hozir bo‘lib, gunohlaridan o‘tishni o‘tinib turipti.

Abay aql yugurtirib, vaziyatga qarab, bilib bo‘ladigan bu kayfiyatni biroz o‘ylanib turib angladi. Shuni anglashi bilanoq ularning uchoviga mamnun chehra bilan qaradi. Kayfi chog‘ bo‘lib, kulimsirab turib, gap boshladi.

— Er yigit — boshga ish tushganda, nortuya — kechuvda sinaladi, deydilar. Haligi gaplaring boshimni ko‘kka yetkazdi. Men chindan ham xatarda qoladigan bo‘lsam, mana, oppoq soqoli bilan yo‘limda qurbon bo‘lishi uchun Darkemboy kelipti. Mag‘rur boshlaring bilan ikkoving ham joningni fido qilishga hozir bo‘lib kelibsan. Senlar o‘zlaringni har qanday o‘tga tashlashdan tortinmaysanlar-ku. Men nega ajaldan o‘zimni chetga olaman? — deb, kulib yubordi-da, ilova qildi. — Lekin yurt cho‘chiydigan hech gap yo‘q. Tentek O‘yazning quruq miltiqni otishidan, do‘qidan o‘ti

yorilib, o'lay deb turgan Abay ham yo'q. Menga chivin chaqqan-dek ozor yetkazadigan jazo ham, g'azab ham yo'q. Avvallari ham men ko'p minnatdor bo'lib yurgan juda yaxshi bir rus do'stim bor edi. O'sha odam o'ziga o'xshash yana bir qancha gapi o'tadigan, e'tiborli do'stlarni topib berdi. Ularning bittasi O'yazning itligini o'z ko'zi bilan ko'rib kelgan odam — sovetnik. Hozircha ahvol ana shunday. Yaqin kunlarda, O'yaz bilan meni betma-bet qo'yib so'roq qilsalar kerak. Endi u bilan da'volashishga mana bu Darkemboyni solmay qo'ya qolay! — deb, hazil qildi. Shundan keyin Bozoraliqa qaradi-da:

— Gappa qolganda-ku senga bas keladigan qozoq yo'q-a, shunday bo'lsa ham, Bozeke, bu gal gapni menga qo'yib ber. Odam qancha ko'paysa, tergov bilan da'vo ham shuncha ko'payadi. Ish tobora chalkashaveradi. Tekshirish ham, tergov ham juda cho'zilib ketadi. Har holda, bu kunlarda shu yerda senlarning hech keraklaring yo'q. Tezlik bilan elga qaytinglar! — dedi-da, ular bilan yana bir-bir quchoqlashib ko'rishib, xayrlashdi.

Abay orqasidan yo'qlab kelgan Jigitek odamlarini hibsonadan qaytarib yuborib, o'zi yana biroz vaqt o'sha yerda o'tirib qoldi. Darkemboy, Bozorali bilan Erbo'l bilan maslahatlashib, o'zlari uchun xatarli bo'lishiga qaramay, Semeyda qoladigan bo'lishdi. "Bordi-yu, Abayga kerak bo'lib qolsak, shu yerda hozir turaylik", — deb, Semeyning tatar mahallasidagi, daladan keladigan qozoqlar ko'p qatnamaydigan, xilvatroq ko'chasidan bir uyni ijaraga olishdi. Ba'zan kechalari Erbo'l bilan zimdan uchrashib turishardi. Abayning tergovni og'irlashib, qattiq jazo beriladigan bo'lsa yoki ish chalkashib ketib, kesilib ketadigan bo'lsa, hatto Erali mojarosini ham Bozorali o'z bo'yniga olishga tayyor bo'lib, Abaydan jonimni ayab qolguncha o'lganim ortiq, degan qarorga keldi.

U Nurg'onimga bo'lgan kuchli muhabbatidan kechib, undan ko'ngil uzolmadi. Shunchalar otashin his bilan berilgan yosh juvon ham yurak o'tini so'ndira olmadi. Shu taxlitda yurisharkan, Bozorali boshqalardan tortinmasa ham ichida: "Abay bilgan kuni yerga kirib ketaman-ku", deb o'ylardi. Qisqasi, bu ham ichki va tashqi jarohatdek, dard ustiga chipqon edi. Ayniqsa er boshiga sinov, el boshiga falokat bo'lib tushib, qattiq botdi. Garchi Abay

o'z oldida Bozoralingun gunohi borligini bilsa ham hozir uni mard yigitlar parvo qilmaydigan jarohatdek ustini yopib ketdi.

Avaxtaga kirib, Abayni ko'rib chiqqandan keyin Bozorali bu haqda: "Yolg'on nomus fazilat emas, or-nomusni sir saqlash fazilat, dedi-ku Abay, aqlingdan o'zim o'rgulay!" dedi. Ichidagi tosh-tumordek tugilib yurgan bir g'ashlikdan qutulib, yengil tortganini shu zayl izhor qildi.

— Yo'ldoshini topmagan er ozadi, boshlig'ini topmagan el to'zadi, desa bo'ladi. Shu bugun yo'ldoshni ham, boshliqni ham topib mehrim ortdi. Ahd shu. Yo Abayni eson-omon chiqarib olib, hammamiz birga o'ynab-kulib elga qaytamiz. Yoki Bozorali uning yo'lida bosh tikadi-da, elning betini ko'rmay, surgunga jo'naydi. Qayta kelmas yerga ketadi. Lekin bu gal zarracha o'kinmasdan ketadi! — dedi.

Darkemboy ham Bozoralingun Abay haqida gapirgan gapidan o'zicha xulosa chiqarib:

— Yovga yalinmay, do'stdan joningni ayama, degani-da bu! Barakalla! — dedi.

Avaxtada Abay yolg'iz o'zi yotdi. Uning do'stlari Bozorali, Darkemboylargina bo'lmay, shu singari tilakdoshlarning soni ortib bormoqda edi.

Abay mana shu so'nggi kunlarda o'ziga yana bir o'zgacha do'st paydo bo'lganini Erbo'ldan chala-yarim eshitdi. U do'sti Irtishning bo'yidagi "to'qay bo'yining eli" deb ataladigan g'oyat serjamo Bura elidan kelgan, Tiniboyning uyiga uchta g'oyat semiz ot qo'shilgan izvoshda kelib tushgan ko'p serzavq qiz — Saltanat edi. Tiniboy bilan bu qizning otasi — Irtish bo'yida yashaydigan boy savdogar Aldeke — quda-anda, yaqin do'st edi.

Uning ovullari sahro elidek emas. Irtish bo'yida, shaharga yaqin yerda bo'lgani uchun dehqonchilik va savdo ishi bilan shug'ullanardi. Tepasi chodir qilib solingan chiroylik-chiroylik yog'och binolarda turishardi. Shahar, bozor, yarmarkaga kattadan kichik, erkak va ayol baravar qatnardi. Ularning ko'rinishi, kiyimlari ham To'buqtillarnikidan mutlaqo boshqacha edi. Mana shunday ovullarning uzatiladigan, bo'yi yetgan erka qizi kerak-yarog'ini olish uchun kichik onasi bilan shaharga kelgan edi.

Bu bo‘y yetgan qiz — Saltanatning Tiniboy uyiga birinchi kelishi emas. U mana shu uying kelini, Abayning opasi Makish bilan ayniqsa, totuv edi. O‘tgan qish bir kelganida, Makish bilan uzoq-uzoq suhbatlashib, ko‘p sirlashgandi. Makishdan Abay haqida so‘ragan edi. O‘sha kecha Makish Saltanatning iltimosi bilan Abayning bir she‘rini kuyga qo‘shib kuylab berdi. Saltanat kuydan ham ko‘ra Abayning so‘zlariga quloq soldi.

*Yarq etmas qora ko‘nglim na qilsa-da,
Osmonda oy bilan kun barq ursa-da.
Dunyoda menga sira senday yor yo‘q,
Senga yor mendan ortiq topilsa-da!*

deb izhor etilgan yurak dardlarini eshitganda, Saltanat astagina xo‘rsinib qo‘ydi. Ikki qo‘li bilan Makishning bir yelkasiga osilib o‘tirib, tushib kelayotgan qorong‘ilikka tikilganicha, ma‘yuslanib tingladi. Gulgun yuzini bir nafasgina Makishning yelkasiga qo‘ydi-yu, keyin o‘zining bu ishidan uyalgandek, to‘satdan duv etib ikki yuzi yallig‘lanib ketdi-da, yana o‘zini tutib oldi. Biroq she‘rning so‘zlari unga umrida eshitmagan ajoyib hislarni izhor etguvchi sirdek tuyulgan edi. O‘sha kechdagi suhbatni:

— Vo darig‘o! Yurak dardlarini shu zaylda ifoda etdirgan qizning nima armoni bor deysiz? — deb tamom qilgan edi.

Ertalab mana shu mehmon qiz, Tiniboyning katta xotini, Makish, o‘zining kichik onasi bilan o‘tirib nonushta qilishayotgan edi. Shu vaqtda Erbo‘l zarur ishi bor kishidek shoshganicha to‘satdan ularning ustiga kirib keldi. Makish bilan Tiniboyning katta xotini Erbo‘ldan: “Abayning ishi qalay? Bo‘shab chiqishining iloji borga o‘xshaydimi? Advokat nima deyayotir?” deyishib ikkovi ikki tomondan savol bera boshladi.

Erbo‘l haligi mehmon ayollarni tanimas edi. Hayron bo‘lib Saltanatga qaraganicha gap boshlay olmay turdi. Nima uchundir qiz o‘z-o‘zidan bir qizarinib ketdi. Katta-katta quralay ko‘zlari porlab, Erbo‘lga muloyimgina bir nazar tashladi-da, dam o‘tmay: “Yashirmay aytaver”, deyayotgandek, yigitning yuziga tikka qaradi. Makish ham:

— Aytaver, begona odam yo‘q-ku! — degan edi, Erbo‘l gapni ko‘p cho‘zmasdi.

— Advokat bilan Abay ish ko‘p uzoqqa cho‘zilmas, deb umid qilib turishpti. Ammo hali ma‘lum emas. Undan tashqari advokat: “Bunday tergovning oxiri birovni kafilga olishi bilan tamom bo‘ladi. Shunga tayyor turish kerak. Shahar ulug‘ biladigan e‘tiborli kishilardan ming so‘m “garov” qo‘yib, Abayni kafilga oladigan odamni tayyorlab qo‘y”, deyayotir. “Ish yaxshi tomonga qarab ketsa, shu bilan tamom bo‘ladi”, deyayotir. Kafilga oladigan odam hovli-joyli savdogarlardan bo‘lsa, yaxshi bo‘ladi, deyishayotir. Shunga keldim! — dedi.

Erbo‘l Tiniboyning o‘zini, yo uning o‘g‘illaridan bittasini nazarda tutayotganligini o‘tirganlarning hammasi tushundi. Tiniboyning katta xotini bunday ishlarni ilgari ham bir necha bor ko‘rgan edi. Endi o‘kinib:

— Obbo, bo‘tam, endi buning iloji qandoq bo‘ladi? O‘zingga ma‘lum, uyda boy ham yo‘q, o‘g‘illarning ikkovi ham safarda. Qo‘limizda pul ham yo‘q. Uy egasi bo‘lib, kafilga olarli erkak oti yo‘q-ku! — dedi.

Bu ish Erbo‘l bilan Makishni gangitib qo‘ydi. Erbo‘l Abay uchun eng nozik bir payt shu bo‘lishini fahmlab, siqilib xayol surib ketdi.

— Yopirim! Shu yerga kelganda ish chatoq bo‘lmasa yaxshi edi-da! Mol olib kelishga el olis, hamma yaylovga chiqib ketdi. Kafilga oladigan mehribonlar uyda yo‘q. Shoshib qolib, eldan hech narsaga qaramay chiqib kelavergan edik. Kafilga oladigan odam xuddi shu kunlarda zarur bo‘lib qolsa, nima qilamiz? Boyvuchcha, hech bo‘lmasa, shu yerdagi o‘zlarimizga o‘xshash hovli-joyi bo‘lgan qozoq savdogarlari tanish-bilishlaringizdan birontasiga iltimos qilib ko‘rsangiz, qanday bo‘ladi. Sizning gapingizni ularga o‘zim yetkazaman! — dedi.

Shundan boshqa chora ham yo‘q edi. Tiniboyning katta xotini bilan Makish shahardagi ko‘ngli yaqin yor-birodarlaridan ikki-uch kishining nomini atashdi, lekin ularning deyarlik hammasi safarda ekanligini eslashdi. Makish qattiq kuyunib, qoshlarini chimirganicha:

— Yoz bo‘ldi deguncha aravasini g‘ichirlatib, biri “el” deb tog‘ga, biri “ildiy” deb, quyiga qarab ketishadi-ku. Tinch o‘tiradimi bular? — dedi.

O‘tirganlar gangib qolishdi. Ko‘pdan beri bularning avzoyiga zehn solib, kayfiyatni payqab o‘tirgan Saltanat shu yerdagilarning hammasini hayratda qoldirib, kutilmagan bir gap gapirdi. Erbo‘lga qarab:

— Abay mirzaning do‘sti safarga ketgan odamlargina emasdir. Do‘stlikka do‘stlik qilish — burch deyдилar-ku. Otam Abayning otasini ham, o‘zini ham, do‘stona qilgan yaxshiliklarini ko‘p ko‘rganman, der edi. Mana bu onam bilan mening nomimdan Abayga shu gapni ayting. Bu gal qanday hojati bo‘lsa, biz chiqaramiz. Kafilga Aldekenovni ko‘rsatsin! — dedi.

Shu qadar ishonch bilan aytilgan bu gapni eshitib, o‘tirganlarning chiroyi ochilib ketdi. Erbo‘l azbaroyi quvonganidan:

— Singlim, azizim, bu gapingiz er-azamatlar aytolmaydigan, bebaho gap bo‘ldi. Er boshiga ozodlik keltiradigan do‘stlikdan ortiq nima bor! Har qancha rahmat aytsam oz! Yana uni men aytdim nima-yu, aytmadim nima. Xudo xohlab, eson-omon qutilish muyassar bo‘lsa, Abay o‘z og‘zi bilan o‘zi aytsin. Men bo‘lsam bu javobingizdan o‘zimda yo‘q xursand va behad minnatdor bo‘ldim! — dedi.

Saltanatning oppoq, keng peshonasi, bejirim qirra burni, yumaloq kelgan oppoq iyagida qizg‘ish shu‘ladek to‘lqinlanib turgan nafis bir qizillik ko‘rindi. Gullab turgan beg‘ubor yoshlik. Kulimsiraganda yuzlari shafaqdek gulgun yonib ketardi. Silliq qilib taralgan qalin sochlari qo‘ng‘ir tovlanib yaltirab turardi. Ohista va qiya boquvchi katta qo‘y ko‘zlarida nozli bir joziba ko‘rinardi. Go‘zal qizning uzun-uzun barmoqlaridagi tilla uzuklar, oppoq bilaklaridagi bilaguzuklar ham o‘ziga juda yarashgan. Quloqlaridagi jimjimador tilla isirg‘alar ham har silkinganida go‘zal qizning ajoyib husniga husn qo‘shib, yaraqlab yonib turardi. Qizning ismi Saltanat ekanligini bilganda, Erbo‘l ichidan: “Kiroyi Saltanat desa degundek ekan. Ko‘rinishi ham, qalbi ham chin saltanat ekan-ku!” deb, ko‘nglida bu qizga nisbatan zo‘r hurmat paydo bo‘ldi.

Abayning ishi orqasidan yurgan do'stlari shunday choralarni ko'rib qo'yishdi. Bir tomondan advokatning harakati, ikkinchidan orqasidagi yo'qlovchilari, Erbo'llarning arizasi, uning ustiga Abayning tergovda bergan javobi — hammasi bo'lib, nihoyat tergov "Oblastnoye upravleniye" deb ataladigan jandarol mahkamasida olib boriladigan bo'ldi. Bir yarim oyga yaqin hibsonada yotib qolgan Abayning ishi sudga berilmay, ulug'larning o'rtasida ko'riladigan bo'ldi.

Ikki strajnik Abayni jandarol mahkamasiga olib kelib, ikkinchi qavatdagi katta uya kirgizdi. Uyning to'riga ko'ndalang qilib katta uzun stol qo'yilgan. Abayni o'sha stolga yaqin turgan chetdagi kursiga o'tqizishdi. Birozdan keyin stol atrofiga yaltiragan sariq tugmalar taqilgan, rasmiy uzun kiyim kiygan, yosh jihatdan teng bo'lmagan uch-to'rtta chinovniklar kelib o'tirishdi. Abayning ishi orqasidan yurgan advokat Andreyevich ham kelib Abayning orqa tomoniga o'tirdi. Uning kelganini Abay payqamadi.

Sovetnik Losovskiy ham kelib Andreyevichning ro'parasidagi bir kursiga o'tirdi. Uning yonida tepa sochi to'kilib, boshining oldi taqirlangan, quyuq qop-qora soqolli, keng yag'rinli bir odam bor edi. U, mana shu mahkamada xizmat qiluvchi ko'rkam, serg'ayrat, bama'ni odam — Mixaylov edi. O'zidan keyinroq o'tirishgani uchun Abay ularni ham payqamadi.

Stol atrofiga kelib o'tirgan ulug'larning kattasi mosh-guruch soqolli, oqarib qolgan sochini tepaga taragan keksaroq kishi edi. O'sha o'tkir moviy ko'zli chinovnik majlisni avval o'zi boshqarib bordi-da, keyin Koshkinni chaqirdi. Eraliga borgan chog'idagidek mansabdor to'ralarga o'xshab haddan oshgan, gerdaygan bir vaziyatda Tentek O'yaz kirdi. O'yaz takabburlik bilan jimjit uyda shaxdam qadam tashlab kelib, Abayning yonida turgan kursilarga o'tirmay, to'g'ri borib katta stolning yoniga o'tirdi. Eldan kelgan odamlar kirmadi.

Qulog'i chinqoq, yuzi yalpoq, ko'zlari qisq, sochi dikkaygan, siyrak sariq mo'ylovli bir tilmoqch ulug'larning stoliga yaqinroq o'tirdi. Bu tergov Abayning ishini alohida ish tariqasida ko'radigan "alohida o'tirish"ga o'xshardi. So'roq Abay shu kunga qadar tergovda aytgan gaplarni qaytadan so'rashdan boshlandi.

Javobgar Eralida bo'lgan voqeani batafsil aytib berdi. Tentek O'yazning xalqni oyoqosti qilib, qonunga qarshi qilgan harakatlari to'g'risida gapirdi. Darra urdirib, qamchini ishga solganini ham qoldirmadi. Faqat o'zining ba'zi bir rejasiga binoan, Bozorali-ning yonini olganini aytmedi. U gaplarni jo'rttaga tashlab ketib, o'zini O'rozboylar — mansabdorlarning haqorat qilinishiga toqat qila olmagan kishi qilib ko'rsatdi. Gapida butun salmoqni o'sha xalq saylab, ulug'lar manzur ko'rgan odamlarni, "xalq biylarini" — O'rozboylarni xalqning oldida Koshkinning darra urdirganiga solaverdi. Butun mojaro shundan chiqdi, deb gapirdi. "Unday O'yazni hurmat qilish xalqning vazifasi emas edi. Shunda ham xalq bu kishiga zarracha ziyon yetkazmadi. Faqat hukumatning qadri-qimmatini tushirib, obro'yini to'kishidan ranjidi-da, saylovga qolmay tarqalib ketdi. O'sha xalqning ichida bo'lganim uchun, xalqning topshirig'i bilan o'shalarning ayt, degan gapinigi-na aytgan mening tarafimdan bu kishiga nisbatan qanday xiyonat, qanday yomonlik sodir bo'lipti?" — dedi.

Abay bir qancha gaplarni advokat yozib bergan ariza bo'yicha gapirdi. O'sha arizadagi ba'zi bir esida qolgan joylarini qaytarib ruschalab aytdi.

Arizadagi tartibdan chiqib, hozir o'zidan qo'shib aytmoqchi bo'lgan dalillarga kelganda, aytishga qiynalib tutilib qolardi. Shu singari, ruschalab aytolmaydigan so'zlar kelib qolsa, o'ng tomonida o'tirgan tilmochga qarab buyruqomuz: "Shu joyini aytib yubor", deb qo'yardi. Tilmoch bir-ikki jumlani tarjima qilishi bilanoq, u yog'ini o'zi ilib ketardi. Ulug'ning huzurida birinchi marta shu qadar uzoq tergovda, o'sha ulug'ning o'z tilida so'zlay olganiga Abay ich-ichidan xursand bo'ldi. U so'zlaganda: "zer-zabari" kelishmay qoldimi, deb tortinmas edi. Faqat asosiy fikrni to'g'ri berib, so'zlarning ma'nosi buzilmasligiga e'tibor qilardi, xolos. Ba'zan o'sha onda esiga kelib qolgan bir xil chuqur ma'noli qozoqcha iboralarni o'sha on o'zi ruschaga tarjima qilib aytardi. Uning gaplari tinglovchilar uchun juda qiziq, yoqimli bo'lib chiqardi.

Bu majlisda raislik qilayotgan keksa sovetnik, aftidan, qonunga qattiq rioya qiladigan odam ko'rinadi.

Bu to‘raning hozirgi kayfiyatida ikki turli vaziyat bilinib turardi. Avvalo — oddiy dala qirg‘izini, podsho hukumatining chinovniki bilan yuzma-yuz qilib qo‘yib, ishlarini qo‘sha tergashi odatdan tashqari edi. Ikkinchidan — mana shu yuzlashtirishida ham, bu ikki odamning ishini o‘zi olib borishida ham kekxa to‘raning ma‘lum maqsadi bordek ko‘rinardi. Abayni shunchalik o‘z erkiga qo‘yib berib, istagani qadar so‘zlatishi buni ochiq ko‘rsatib turardi.

Aslida, bu sirdan adolatdek ko‘rinayotgan holatning tagida qiziq gap bor edi. Bu kekxa to‘ra hozirgi jandarolning yaqin odami, bojasi edi. Uning qayinsinglisiga uylangan jandarol, to‘rani yaxshi ko‘rar va suyab yurardi. To‘raning o‘zi bo‘lsa, o‘lardek poraxo‘r kishi edi.

Tentek O‘yaz ham shu mahkamadagi hamma chinovniklar singari, bu sovetnikning o‘sha sirini yaxshi bilar edi. Krilovning masalidagi hozirgina tovuqni tutib yegan tulkiga o‘xshatib, uni: “Hali tumshug‘ida tovuqning pati turipti”, deyishib, orqasidan hajv qilishar edi. Koshkinning o‘zi ham suyanchig‘i bo‘lmagan yolg‘iz odam emas. U mana shu oblastdagi sudlarning kattasi, okrug sudi raisining kuyovi edi. Sud raisi bo‘lsa, jandarol bilan jonajon do‘st, tili bir odamlar edi.

Jandarol bilan sud raisi Koshkinni saqlab qolish uchun avval bu ishni — qirg‘izlar orasida bo‘lgan mojaroni yopti-yopti qilib, bosib qo‘ya qolish kerak, deyishgan edi. Lekin Abayning avaxtada yotishi bilan Oqboosh Andreyevich Abayning yo‘qlovchisi bo‘lganligi ularning ko‘kragini kesib qo‘ydi. Bunday masalalarda advokatning qattiq turib oladigan odam ekanligini oblast mahkamasidagilarning hammasi yaxshi bilar edi. Advokat Andreyevich bu ishni juda osonlik bilan hatto sahro general gubernatorining mahkamasiga ham oshirib yuborishi mumkin edi. Uning ustiga, korpus mahkamasidan bu yerga yaqindagina kelgan yosh chinovnik — Losovskiy ham jandarol nomiga yozgan ma‘lumotida Koshkinning g‘ayriqonuniy ishlari haqida guvohlik berib qo‘ygan, uni ham bosti-bosti qilish endi o‘ng‘aysiz edi.

Mana shunday chigal tugun yechilarkan, ham Koshkin omon qoladigan, ham odatdagi tartib saqlanadigan qilib ustalik bilan ish

olib borish kerak. Dovruq qilmay, isini chiqarmay, ulugʻlarning oʻrtasidagina tezroq bitirish kerak. Jandarol mahkamasining ham obroʻyi saqlanmogʻi kerak. Bu ishni koʻngildagidek qilib, yotigʻi bilan hal qilishning uddasidan chiqadigan kishi, deb, mana shu kekxa sovetnik, Xarkovga topshirildi.

Biroq sovetnik ulugʻlarning eʼtiborli kishi sifatida ishonch bilan topshirgan ishini oʻz zimmasiga olish bilan birga, oʻz jigʻildonini ham unutmadi. Bunday ishlar asti uning esidan chiqmas edi. Ish bilan tanishib, Oqboosh bilan soʻzlashib koʻrib, qamoqxonada yotgan Abayga bir ayb ortmaguncha ishini tugatib boʻlmasligini angladi. Ishning borishini oʻylab, shunday xulosaga keldi. Tentek Oʻyazni oqlash uchun Abayni aybdor qilib hukm chiqarish kerak. Lekin uni qamoqxonada uzoq vaqt yotib ketadigan katta ishga aylantirib qattiq jazo bermaydi. Garchi jazoga tortildi, deb hisoblansa ham Abay qutiladi. Ishning ana shu tomonlarini Oqboosh bilan Abay fahmlasin-da, oʻzlaricha emini topsin. Gapni aylantirib kelib, shu maqsadini anglatib oʻtdi.

Oqboosh Andreyevich Abay bilan uchrashgani avaxtaga bir borganida, jirkanib, gʻazab ichida istehzo bilan kulganicha: “Sovetnikni davolash kerak. Aftidan, besh yuz soʻm retsept boʻlar va shuning bilan shifo topib ketar”, dedi. Erboʻl qirdan olib kelgan bor xarajat pulini mana shunga sarf qilib qoʻyganiga ancha boʻlgan edi.

Shundan keyin tergovchi toʻra ishni qay yoʻsinda olib borishini, qanday natija chiqarmoqchi ekanligini xoli oʻtirib soʻzlashib, tushuntirib qoʻymoqchi boʻlib, Koshkini chaqirtirganida, kutilmagan holda qattiq oʻjarlikka yoʻliqdi.

Koshkin, oʻzini terdash deganda, gʻazablandi. Oʻz ishining bir qirgʻizning ishiga qoʻshib qaralishidan nomus qildi. “Sahroning yovvoyisi bilan meni qator oʻtirgʻizib terdashdan ogʻir haqorat yoʻq”, deb, asti boʻy bermadi. Kekxa sovetnik shu haqda ikki marta uchrashgan boʻlsa ham Koshkini bu ishga sira koʻndirolmadi. Uni biroz oʻylatib qoʻyadigan gap gapirib, tilini qisib olish uchun soʻnggi dalil qilib, Koshkin qoʻllagan gʻayriqonuniy darra urish masalasini qoʻyib koʻrdi. Gap shunga kelganda, Koshkin sovetnikning oʻziga chang soldi. “Vijdon sof boʻlsa, tumshuq pora

bilan bulg'anmagan bo'lsa, qo'l bilan qilingan bir harakat hech gap emas. U ishning kimga qarshi qo'llanganini ham unutmazlik kerak. Mazmuni siz uni esingizdan chiqarib qo'ygan ko'rinaz. Avvalo, tumshug'ingizni poklab, keyin gapiring. Men siz emasman", — dedi. Hovliqma, bo'yni yo'g'on yosh to'ra, Eralida xalqqa qilgan zo'ravonligini ko'rsatdi.

Gap shunga borgandan keyin kekza sovetnikning ham jini qo'zib, suvlig'ini tishlab oldi-yu, qaysarligi tutdi-ketdi.

Bu to'g'ridagi o'ziga o'tgan alamni jandarolga ham eshitdirib qo'yib, endi o'z obro'yini o'zi bilgandek qilib saqlab olishini bildirdi. So'nggi kunlarda Koshkindek mag'rurlangan "chiranchoq to'rachaga" qaratilgan kesatiq gaplarni jandarolning xotini, uning opasi — sovetnikning xotini ham tez-tez gapiradigan bo'lib qolishdi.

Shuningdek, zimdan ishlatilayotgan qasdlashish bilan boshlangan ish oqibati yuqorida tasvirlangan o'zgacha kayfiyatni tug'dirgan edi.

Koshkin bo'lsa: "Tergov vaqtida meni allaqanday qirg'izning qatoriga o'tirg'izganingni ko'raman", deb kelgan edi. Hali uning aybdorlar kursisiga o'tirmay, tikka kelib stol yoniga o'tiraverishining boisi ham shunda edi.

Shunday qilib, sahroning inon-ixtiyori qo'lida bo'lgan mag'rur chinovniklarning shaxsiyatparastligi oqibati bo'lib, ish shu singari tartibda ko'rildi.

Kekza sovetnik o'zi chiniqqan odat bo'yicha, ko'rinishida sipolikni qo'ldan bermay, betarafdek o'tirgani bilan bugun Abayga boshqacharoq qarayotganga o'xshardi.

U Abayni istagani qadar erkin so'zlatdi. O'zi berayotgan savollarining mazmunidan: Abay "aybdorning o'zi emas, haqiqiy aybdorlarning yonini oluvchi", degan nazar bilan qarayotganga o'xshardi. Shunday savollarning birida:

— Siz xizmatdagi odam emassiz. Uyezd nachalnigi Qavme-novni ham, yana Sho'qa o'g'li, Suyundik o'g'li singari xizmatdagi odamlarni ham so'roq qiluvga haqli. Siz nega o'rtaga tushasiz? Nima sababdan aralashdingiz? Shuni aytib bering! — dedi.

Abay o'sha onda javob berdi.

— Meni xalq aralash-tirdi. Koshkin mirzaning Aqquli o'g'liga darra urdirayotganini ko'rgan xalq menga: "Aralash" deb buyruq qildi.

Abayga shunchalik erkinlik berilganini ko'rib, kelganidan buyon zardasi qaynab o'tirgan Tentek O'yaz endi toqat qilolmay qattiq jerkib:

— Siz xalqning kimi bo'lasiz? Xalqning nomidan so'zlashga kim fatvo berdi sizga? Qayerdan unday kuchga ega bo'lib qoldingiz? — dedi.

Abay uning jerkishidan hayiqmadi. Unga qarab turib, ermak qilib kulib yubordi-da, keksa sovetnikka qarab:

— Bu kishi kuch deyayotir. To'g'ri, bu kishining yonidagi strajniklarda bo'lgan kuch menda yo'q edi. Xalqning qo'lida ham qurol yo'q edi. Lekin quroldan kuchliroq quvvat ham bo'ladi-ku. Tentek O'yazning amridan zo'rroq — or-nomus amri ham bor. Bu haqda bizning xalqimiz... — deb uyog'ini tilmochga aytdirdi.

— Shu gapimning ma'nosini buzmasdan, tushuntirib ayt-ing, — dedi-da, qozoqchalab:

— Bizning xalqda: "Kuchingga ishonma, halol ishingga ishon. Xiyonatga ko'nma, boshingga qilich kelsa ham odil bo'l", dey-dilar, — dedi. Bugungi javobidagi asosiy fikr butun salmoqni shu so'zlar ichiga olib ifodaladi.

Abayning shu gaplari ruschaga tarjima qilib aytilganda, uning orqasida o'tirgan Andreyevich, Losovski, Mixaylovlar bir-birlari-ga qarab qo'yishdi.

Endi tergov qisqa-qisqa bo'lib tezlashib ketdi. Shu onda Tentek O'yaz bilan Abay go'yo betma-bet kelib, yakkama-yakka olisha-yotganga o'xshardi. Ular ikki-uch marta qisqa-qisqa gap talashib qolishdi. O'yaz:

— Qunanboyev, sen Qavmenovni himoya qilayotirsan, uning inisi qaroqchi! — degan edi, Abay:

— Men, avvalo, siz darra urdirmoqchi bo'layotgan xalq biyla-rini, do'stlarimni himoya qildim! — dedi.

— Yo'q, bu gapingga ishonmayman, maqsading faqat ularni himoya qilishgina emas. Qavmenovni ham qutqarib qolish kerak edi. Shuning uchun g'alayon ko'tarding.

— Men to‘g‘risini aytdim. Lekin Qavmenovni aralashtiradigan bo‘lsangiz, men uni ham oqlayman.

— A-a-a. Shundoq deng. Hali siz bir nafasdan keyin uning qochib ketgan razboynik¹ inisini ham oqlarsiz, — deb O‘yaz tergovchi sovetnikka qarab, — Qunanboy o‘g‘lining mana shu javobiga alohida ahamiyat berishlariingizni o‘tinaman, — dedi.

Abay ham endi sovetnikka qarab:

— Qavmenovning inisi qochib ketganiga bir yildan oshdi. Ilgarilar elda yurgan chog‘ida unday buzuq yigit emas edi. Ko‘p ma‘qul yigit edi. G‘oyib bo‘lib ketib, qayerdadir gunoh qilipti. U, eli uchun ham, qarindosh-urug‘i uchun ham yo‘qolgan odam. Mana o‘zlaringizga havola qilay. Ruslarning bir selosidan, misol uchun, Semipalat oblastidan chiqqan bir dehqon yigit, aytaylik, Orenburgga borib beboshlik qilib yursin. Qani endi uning tug‘ilgan qishlog‘iga borgan Tentek O‘yaz o‘sha yerning starostasiga, volostnoyiga, mirzasiga darra urishga ruxsat etar edingizmi? “Bu ishni xo‘p yaxshi qildingiz?” deb, O‘yazning martabasini bir pog‘ona yuqoriga ko‘tarib qo‘yar edingizmi? — dedi.

Bundan keyin so‘nggi so‘z, Tentek O‘yazning: “El odamlariga darra urdirganim yo‘q”, deb tonayotgan yolg‘on javobiga kelib taqaldi. Gap shunga kelganda, Abay Tentek O‘yazning yuziga tikka qarab, nafratli nazar tashladi-da:

— Siz faqat zo‘rlik ishlatuvchigina emas, yolg‘onchi bo‘lishdan ham toymaysiz deyman. U holda mening siz bilan bahslashgudek gapim ham yo‘q. Fuqaro yolg‘on gapirsa, uyatsizlik dey-miz. Ulug‘ yolg‘on gapirsa, jinoyat demay, nima deymiz? Hamon o‘zingiz ham aybdor bo‘lganingizdan keyin, meni tergayotganlar-niing qatorida o‘tirishga qanday haqqingiz bor? Men hayron bo‘lib qoldim! Javob berishni to‘xtataman. Biroq Koshkin mirzaning darra urdirgani rost. O‘sha ishning haqiqat ekanligiga guvohlik bersin. Sovetnik Losovskiy mirzani guvohlikka chaqirishingizni o‘tinaman! — dedi.

Abayning so‘zi shuning bilan tamom bo‘ldi-da, keksa sovetnik endi Losovskiydan qisqachagina guvohlik berishni talab qildi. U, O‘yazni og‘iz ochgali qo‘ymay, chirpirak qilib tashladi.

¹ Razboynik (*ruscha*) — qaroqchi.

— Darra urilgani to‘g‘ri. Koshkin mirza qonunga qarshi ish qildi. Mening ko‘z oldimda bir necha odamga darra urdirdi! — dedi.

Koshkin bu gapga qarshi chiqib, Losovskiyni ham qoralayotgandek:

— Vijdon sof bo‘lsa, qo‘l bilan qilgan g‘ayriqonuniy ish og‘ir gunoh emas. Men vijdonimni sotib, poraxo‘rlik qiladigan uyezd nachalniklaridan emasman. Jinoyatchilarga qarshi g‘azabim qaynaganidan, olishganim rost! — dedi.

Bu javobdan Losovskiy xandon tashlab kulib yubordi-da:

— Endi bu kishi bilan so‘zlashib o‘tirishning hojati bormi? — degandek, ulug‘larga qarab ikki qo‘lini yozib, yelkasini qisib qo‘ydi.

Abay mahkama ishlariga aloqasi yo‘q odam, sahro qozog‘i, oddiy bir kishi. Shuning uchun bundan keyingi bo‘ladigan gaplarni uning oldida muhokama qilish lozim topilmadi. Zotan, Abayning ishi ham shuning bilan tamom bo‘lgan edi.

Bu tergovdan keyin, Abay katalashkada faqat bir kecha yotdi. Ertasiga ertalab tutqun eshigi ochildi.

Lekin Abay gunohsiz topilib, oqlanib chiqmadi. “Xizmat yuzasidan ish olib borayotgan uyezd nachalnigi Koshkinga o‘sha xizmatni ado etayotganida tartibsizlik qilib, xalal bergani uchun olti oy avaxta jazosi o‘rniga Ibragim Qunanboyevga ming so‘m shtraf solinsin”, degan hukm chiqarildi.

Bunday hukm chiqarishdan maqsad podsholik mahkamalarining obro‘yini saqlash, kuchini ko‘rsatish bo‘lib, bundan tashqari saholilar oldida Koshkinning obro‘yini saqlab qolish ham nazarda tutilgan edi. Shuning uchun uning ishi qirg‘iz Qunanboyevning ishidan ajratilib, alohida ko‘riladigan bo‘lipti.

Shunday qilib, xalq ko‘ziga to‘ng bo‘yin, bezori ko‘ringan zo‘ravon ulug‘ning jinoyati ko‘rsatilmay, uning butun xalqqa bergan ozoriga qarshi odilona norozilik bildirgan odam jazoga tortildi.

Mixaylov shu haqda Oqbosh bilan o‘zaro so‘zlashganda, g‘azab va nafrat bilan:

— Qanday zo‘rlik-a! Bu yerdagi churq etmaydigan mo‘min xalqning boshida bundan buyon ham yana bir qancha Koshkinlar

kaltak sindirib, xo'rlayversin degani-da. Bu — jinoyat-ku, axir! — dedi.

Bu ishlarning tagida qanday gap borligidan, ichki sirlardan xabardor bo'lmagan Abay o'zining avaxtadan qutulib chiqqaniga xursand bo'ldi-yu, ketaverdi.

Abayning ishi haligidek hukm bilan tamom qilingan bo'lsa ham ulug'lar bu ishdan ajratib, ikkinchi bir ish tuzib qo'yishdi. Bu ish: "O'rolboy va Bozorali Qavmenovlarning ishi", deb atalib, bundan keyin alohida tergov olib boriladigan qilib qo'yildi.

Shunday qilib, Bozorali garchi qochoq bo'lmasa ham eldagi hozirgi bo'lislar orqali "nadzor" ostiga olingan odam bo'lib qoldi. Bordi-yu, O'rolboy qo'lga tushgudek bo'lsa yoki o'chakishib yurgan bo'lislardan birontasi uni qoralaydigan qog'oz tushirsa bas. Bozorali jar labidan qulay deb turgan odamning holiga tushib, ilinib qoldi.

Abay qutulib ko'chaga chiqqanda, uchta chiroyli semiz jiyron ot qo'shilgan yangi qora izvosh uni kutib turgan edi. Izvoshda o'tirgan Makish, Saltanat, Erbo'l uchovi Abayga qarab yugurishdi. Makish, Erbo'l ikkovi Abay bilan quchoqlashib ko'rishdi.

Abay Saltanatni tanimas edi. Odob saqlab har ikki qo'llarini cho'zib, bir-biri bilan eson-omonlik so'rashib qo'ya qolishdi. Erbo'l shu kunga qadar Abayga Saltanatning yordami haqida og'iz ochmagan edi. "Ko'ngliga biror gap keladimi, yana qizning pulini, kafilligini qabul qilishdan nomus qilib ko'nmay qo'yadimi?" degan xayolga borib, yashirib kelgan edi. Bu gapini Makishga ham aytib qo'ygandi. Makish endi biroz hayron bo'lib o'ylanib turgan Abayga qarab kuldi-da, unga yondashib kelib:

— Bu qizning ismi Saltanat. Sen avvallar eshitgan edingmi? — degan edi, Abay eshitganligiga ishora qilib bosh egdi. Undan keyin Makish:

— Unday bo'lsa, sening uzoqdagi dong'idan yaqindagi do'stligi ortiq bo'lgan zamondoshing shu. Seni yo'qlovchilarning biri. Yana ulug'ning oldida zalog berib, kafil turib, seni olib chiqqan ham shu! — dedi.

Abay hayron bo'lib, shoshib qolganidan nima deyishini bilmay qoldi. Shodlandimi, nomus qilib, ranjidimi, bilib bo'lmas edi.

Biror narsani soʻray boshlasa, yo shodlangani, yo ranjigani bilinib qolishini sezdi-da, indamay qoʻya qoldi. Faqat Saltanatning qoʻlini qattiq qisib, chap qoʻlini koʻkragiga qoʻyib taʼzim qildi, xolos. Saltanat qizarib ketib, biror javob kutayotgandek, nur sochib turgan shahlo koʻzlarini quyi solib indamay turaverdi. Koʻngliga kelgan gapini shartta aytib qoʻya qoladigan Makishga Abayning bu xilda indamay turishi maʼqul tushmadi, shekilli:

— Abayjon! Es-hushing joyida edi-ku. Biror ogʻiz iliq javob qilmay turganing nimasi? Bu nima qilganing? — dedi.

Shu tobda Abay ayollarga: “aravaga tushaylik”, degandek ishora qildi-da, ularni qoʻltigʻidan olib aravaga chiqarib, soʻngra oʻzi ham ularning yoniga chiqib oʻtirdandan keyin:

— Aql-farosat faqat mendami, Saltanatda undan ham koʻproqdir, deyman. Lekin qadimgilar: “Aql odamning koʻrki, sabr uning sherigi”, deganlar-ku. Hozir men shundan boshqa nima ham deyishim mumkin. Shunday emasmi, Saltanat? — dedi.

— Shodlanganda shoshilmaslik kerak. Toʻgʻri aytayotirsiz! — deb, qiz kulib qoʻydi.

Bir nafasdan keyin ikki chetidagi otlarning boshi shahar odatiga muvofiq chiroqlik qilib chetga qayirib bogʻlangan yengil va ixcham izvosh qoʻngʻiroqlarini jaranglatganicha gʻirillab, Abayni Irtish daryosining u yuzidagi Tiniboy uyiga olib ketdi.

Garchi tergov ishlari tamomlangan boʻlsa-da, Abay shaharda koʻp turib qoldi. Faqat qutulib chiqishi bilanoq eson-omonligini eldagilarga xabar qilish uchun Bozorali boshliq butun Jigitek odamlarini tezlik bilan joʻnatib yubordi. Oʻzi Erboʻl, Boymagʻambetlarni shaharda olib qoldi. Abay bu kunlarda Tiniboyning uyida emas, Irtish daryosining u yuzidagi Erboʻl bilan oʻzi sinashta boʻlib qolgan koʻp muloyim, mehmondoʻst Karimning uyida turardi.

Abay keyinchalik bilsa, Saltanatning unga qilgan xizmati ancha katta ekan. Garchi u Aldekening qizi boʻlishiga qaramay, ulugʻlar Abayni Saltanatga kafil berishga koʻnmapti. Undan keyin qiz shu shaharning hovli-joylik atoqli boylaridan boʻlgan “Namatfurush Duyseke” degan kishi bilan oʻzi borib soʻzlashib, uni Abayga kafil boʻlishga koʻndirib kelipti. Shunisi borki, namat-

furush ko‘p qo‘rroq, sermulohaza savdogarlardan edi. Uning ustiga To‘buqti eli bilan bordi-keldisi bo‘lmagan, yana o‘zini ulardan hamisha chetga tortib yuradigan odam edi. Bu namatfurush Duysekening Saltanatga tog‘a sifatida xeshligi ham bor edi. Otasining do‘stligidan tashqari, shu singari qarindoshlik jihatlarini ham o‘rtaga solib, shaharning bunday qurimsoq boyini qo‘yarda-qo‘ymay, bu ishga bosh qo‘shdirib, kafil turib Abayni olib chiqishga mana shu oliyjanob mard va irodasi kuchli qizgina majbur eta olgan. Garovga to‘lanadigan pulni bo‘lsa, Saltanat o‘z qo‘li bilan berib to‘lattiripti.

Abay Saltanatning do‘stlarcha qilgan g‘amxo‘rligini keyinchalik bilgan sayin qattiq xijolat tortaverdi. Turgan gap, shunchalik do‘stlikning evazi oson bo‘lmas, uncha-muncha bilan bita qolmas, degan xayolga bordi. Abay, endi qanday bo‘lmasin, Saltanat bilan ochiq so‘zlashmoqchi bo‘ldi. Ko‘nglidagi butun gaplarini, butun sirlarini ochib tashlab, so‘zlashishga qaror qildi.

Abay qamoqxonadan chiqqan kunning ertasiga Saltanatning kichik onasi bilan Makish izvoshga tushib, yoniga Erbo‘lni olib, Irtish daryosining ul yuzidagi magazinlarni aylanib kelgani bozorga ketishdi. Bu kunlarda uydagi kattalarning ko‘pchiligi safarda bo‘lib, bo‘sh xonalari ko‘p bo‘lgan Tiniboy hovlisida Abay bilan Saltanat yolg‘iz qolishdi.

Makish uyining ko‘kish qalin shoyi parda tutilgan derazalaridan quyoshning issiq nurlari o‘tolmay, yaxshi jihozlangan bu uyga ko‘kintir rang berib turardi. Uy g‘oyat salqin va xoli edi. Atrofga qalin qilib ko‘rpachalar solingan, shoyi avra sirilgan yostiqlar tashlangan katta to‘garak xontaxta yonida qiz bilan yigit o‘tirib odob saqlab, sipolik bilan suhbatlashmoqda.

Abay gapni dastavval qizning unga qilgan unutilmas yaxshiligidan boshlagan edi, xoli uyda o‘tirganlaridan o‘ng‘aysizlanib borayotgan serandisha Saltanat avvaliga bir durustroq javob ham qilolmadi. Lekin Abay tomonga xiyol o‘girilib, go‘yo: “Bu gaplarni qo‘ying!” deyayotgandek, g‘oyat latif bir harakat bilan qoshlarini chimirib, yalt etib Abayga qaradi. Barmoqlari uzun-uzun, oppoq, latif qo‘li bilan yuzini yashirdi-yu, javob bermadi.

Qiz o'zi qilgan ishi haqida o'ziga hisob berishdan iymanayotirmi? Yo Abayning oldida: "Senga yaxshilik qilgan, seni qutqargan men edim", deyshlik yigitning boshiga kutilmagan bir no'xta urishdek bo'lar, deb uni ayayotirmi? Yo bo'lmasa shu tarzda indamay o'tirishi bilan: "Men aytadigan gapimni aytib, qiladigan hurmatimni ham qilib bo'ldim, endi sen nima deysan, men faqat sening fikringni bilmoqchiman", demoqchimi? Har qanday bo'lganda ham Abay to Saltanat ko'nglidagi bor gapini ochiq aytmaguncha, o'z ko'nglining taskin topmasligini bilardi. Agar qizning ko'nglidagi bor gap ochiq aytilmay qoladigan bo'lsa, u o'zini aybli hisoblagan bo'lardi.

Ikkovining oldiga Boymag'ambet kichkina kumush chorada muzdek qimiz keltirib qo'ydi. Abay qimizni biroz shopirib, zarang kosaga quydi-da, qizga qimiz tutarkan:

— Saltanat! — dedi. Bo'yi yetgan, nozanin qizning shahlo ko'zlari shu o'tirishda birinchi marta Abayga to'g'ri qaradi. Indamasdan javob kutib turdi. — Hayotda er yigitning kuniga ko'pincha er yigit yarab, qarzdor qilar edi. Gardanimda og'alarning ham, yori-birodarlarimning ham shu singari qarzlari oz demayman. Lekin boshimga shunday og'ir kulfat tushib turgan paytda, hatto onam ham bo'lsa, ayol bo'latirib men uchun o'z obro'yini, o'z nomini o'rtaga solib, shu qadar o'ktamlik bilan do'stlik qiladigan yaqin odamim, birodarim bo'lar, deb o'ylamagan edim. To'g'ri so'zning aybi yo'q. To'g'risini ayting. Agar siz ko'nglingizdagi bor gapni ochib aytsangiz, sizga sofdillik bilan javob qilish mening ham burchim bo'lsin. Qanday ko'ngil, qanday maqsad bilan meni qutqarishga ahd qildingiz? — dedi.

Aftidan, Saltanat ham shunday savol tushishini kutib turgan ekan. Garchi javobi hozir bo'lsa ham ha deganda gap boshlay olmadi. Ba'zan to'lqinlanib kelib yuziga chiqqan issiq qondan oq-sariqdan kelgan chehrasi, peshonasidan tortib yanoqlari iyagi-gacha, salmoqli isirg'aning og'irtigidan cho'zilib turgan bejirim qulog'igacha, nozik qirra burnining ustigacha qizarinib borib, so'ng oqarardi. Qip-qizil g'unchadek nafis lablari xiyol titrar, qimtinib turib so'ng jilmayardi.

Abay uzatgan qimizni vazminlik bilan shoshmasdan olgan Saltanat qanday javob berishini o‘ylab o‘tirib, bir ho‘plab qo‘ydi. Chiroylik barmoqlari bilan zarang kosani ushlab turib, yigitga qaradi-da:

— Sizdan beruxsat, hech kim bilan maslahat qilmay, o‘z ixtiyorim bilan sizning shu ishingizga bosh qo‘shdim. Faqat shuni aytmoqchimanki, buni farz-qarzsiz faqat yoshlik-tilakdoshlik orqasida qilingan ish, deb bilsangiz bas. Yana bir aytmoqchi bo‘lganim... Ko‘nglingizga og‘ir olib: “Nega aralashadi”, deb, “Meni boshqa yo‘qlaydigan odamim yo‘q edimi”, deb ranjimasangiz bo‘lgani! — dedi.

Bu ishlarning hammasini qiz o‘z ixtiyori bilan qilganini Abay endi bildi. Saltanatning shu qadar jasur, sabotli va naqadar irodasi kuchli ekanligini ko‘rib xursand bo‘lgan Abay, shodligini yashira olmay:

— Ko‘p yaxshi gap gapirdingiz, Saltanat. Bu so‘zingiz hech qachon yoddan chiqmas... — deb, endi gap boshlagan paytda, bular o‘tirgan uyning eshigi ochildi.

Qirdan kelgan yo‘lovchi singari oyog‘iga qo‘nji uzun etik kiygan, qo‘liga tobilg‘i sopluk qamchi ushlagan, boshiga To‘buqti eli kiyadigan nuxada tikilgan qora elteri tumoq kiygan, yo‘g‘on gavdali bir kishi kirib keldi.

Kelgan odam qorong‘ilatib qo‘yilgan uyda ko‘zi tinib, o‘tirganlarni ko‘rolmay turardi. Abay uni tanib salom berdi-da:

— Bu yoqqa kel! — dedi.

Kelgan odam ehtiyotlik bilan qadam bosib, Abayning yoniga keldi-da, yerni paypaslab o‘tirdi. Uyning ichida bir qiz bilan bir yigit o‘tirganini endigina payqadi. Ularni ko‘rishi bilan o‘z-o‘zidan xijolat tortib, Abay uzatgan qimizni ham icholmadi. Kelgan odam Qulunshoqning o‘g‘li, o‘sha mashhur beshqashqaning bittasi — Monos edi.

U Uljonning iltimosi bilan Abayni atayin yo‘qlab eldan kelganini aytdi. El yaylovga ko‘chib ketipti. Ko‘pdan beri shahardan, Abayning hol-ahvolidan xabar eshitolmagan onaning tomog‘idan ovqat o‘tmayotgan ekan. Yo‘l uzoq, xilvat bo‘lib, yolg‘iz-yarim yo‘lovchi uchun ko‘p xatarli edi. Shuning uchun Uljon Monosni

tavakkalchi va g'ayratli yigit deb, Abaydan xabar olib kelishini shunga buyurgan ekan.

Monos bola-chaqa, ota-ona, qarindosh-urug', yori-birodarlarning Abay uchun tashvish tortayotganini aytdi.

— "Sarg'ayib yotgandir? Qafasda yuragi qon bo'lib ketgandir?" deb, hammasi ham tun uyqusini to'rtga bo'layotir, — dedi. Nihoyat, u bir qadar es-hushini yig'ishtirib olgandan keyin:

— Shukur, chirog'im. Hali kelib, shu darvozadan kirishim bilan sog'-salomagligingni eshitgan on: "Yo'limni bergan ekan", deb azbaroyi shodligim ichimga sig'may ketdi. Boymag'ambet bir kishi bilan so'zlashayotir, deb to'xtatsa ham sog'inib kelganim uchun sabrim chidamay, ustingga bostirib kirdim. Aybga buyurmaysizlar. U yerda ota-onang ko'p tashvish tortayotgani bilan sen bu yerda yallo qilib yurgan ekansan. Xursandchilikka yetkazsin! — deb, kuldi-da, qimiz icha boshladi.

Gavdasi pahlavondek Monosning gapi Saltanat bilan Abayga bir qadar dag'al ko'rinsa ham boshqa iloj yo'q. Chunki uning bor muloyimligi bilan aytgan gapi shu edi. Bo'lmasa, Monos bu dargohga hozir emas, hali — uchta jiyron ot qo'shilgan izvosh darvozadan chiqib ketayotgan paytda kelgan edi. Makishni biroz to'xtatib, ostidagi va yetagidagi qora terga tushgan qo'sh otini ko'rsatib, Abaydan xabar olgani kelganini aytdi. Abay oqlanib chiqib, hozir shu yerda ekanligini eshitdi. Keyin Boymag'ambetdan uch jiyron ot qo'shilgan qora izvosh Saltanatdek qizning izvoshi ekanini bilgach, Abayni tezroq ko'rish dardiga tushib qolgan edi. Lekin Boymag'ambet gapga tutaverib, hadeganda Abayning yoniga kirgizmadi. Shunga jahli chiqib ketgan Monos:

— Eldagilarning ichgani ichiga tushmay, qon bo'lib o'tirsin. Men bo'lsam undan xabar olaman, deb, ot horitib kecha demay, kunduz demay yetib kela-yu, u bir qizning quchog'ida bemalol tushgacha yayrab yotabermoqchimi? — deb, o'zining sahrodagi o'jarligidan qildi. Shunday paytlarda o'rinlik chiqadigan zo'ra-vonligini ishlatib, qorong'i yo'lakda timiskilab, Abay o'tirgan uyni izlay boshlagan edi. Butun uylarning eshigini ochib, birma-bir boshini suqib qarab, bu uyni zo'rg'a topgan edi. Abay Monosni ko'p gapga solmadi. Haligi gapini tamom qilar-qilmas,

tirsagini uning soniga qo‘ygan bo‘lib, salmog‘ini solib, turtib qo‘ydi-da:

— Avaxtadan kecha chiqdim. El-yurt bilan diydor ko‘rishib, hol-ahvol so‘rashayotganim ham shu. Hali butunlay qutulib chiqqanim ham yo‘q. Shuning maslahatini qilayotirmiz. Hozircha kafilga chiqqanman-ku... Gina-kuduratni elga borganda, bamaylixotir o‘tirganimizda qilarmiz! — deb qo‘ydi. So‘ngra eshikda yurgan Boymag‘ambetni chaqirdi-da, yosh yigit kirganda:

— Monos og‘angni mehmonxonaga olib bor, o‘sha yerda yaxshilab kutinglar. Uxlamoqchi bo‘lsa, qalin qilib o‘rin solib ber. Boshlab bor! — dedi.

Monosni Boymag‘ambet ergashtirib ketgandan keyin, Abay yana hali uzilib qolgan gapni davom etdirdi.

— Siz mening ranjimasligimni aytdingiz. Men ozodlikka chiqib, niyatimga yetganimdan keyin nega ranjiyman. Unday xayolga borishimning o‘rni ham yo‘q-ku. Mening endigi maqsadim — sizning ham ko‘nglingizda shu singari orzu-armonlaringiz bo‘lsa, unga erishishda jon-dilim bilan yordam berish. Sizni o‘sha niyatingizga yetkazishda foydali bo‘lishdan, ko‘maklashishdan boshqa niyatim ham, orzum ham yo‘q. Bordi-yu, foydali bo‘la olmay, ranjitib qo‘ysam, u holda mening shundan katta qayg‘um yo‘q, tashvishim ham bo‘lmas, deyman! — dedi.

Qiz bu o‘tirishda Abayning shunchalik iltifotidan xursand bo‘lsa ham gapning u yog‘ini ochgisi kelmadi.

— Qanday yaxshi gap, Abay. Shundoq bo‘lgandan keyin bugun mening boshqa tilagim sizga izhor etilmasa ham mayli. Kecha, birinchi ko‘rishganimizda: “Aqlning ko‘rki sabr”, degan bir gapni aytgan edingiz. Men shu damgacha siz bilan suhbatlashmagan edim. Biroq sizni aytdi, deb gapirgan ko‘p yaxshi gaplarni orqangizdan, Makishdan eshitgan edim. Kishining ko‘ngliga yupanch bo‘larlik gap gapirsa, shu odam gapirsin, deb yurar edim. O‘zim uchun haligi aytganlaringizning o‘zi ham qanoatlantirib, xursand qiladigan so‘zlar, chuqur ma‘noli so‘zlar. Lekin uy xoli, keng bo‘lgani bilan mening yo‘lim tor-ku! — deb kuldi-da, — endi menga ruxsat! — dedi.

G'oyat latif bir harakat bilan o'rnidan turayotgan qizni Abay bilagidan xiyol suyab turgizdi-da:

— Do'st ko'ngli parda ichida do'stlarcha ochila oladimi, Saltanat? — deb ma'noli qilib kulib qo'ydi.

Saltanatning oltin cho'lpisi goh ingichka tovush chiqarib jiringlab, goh shildirab borardi. U eshikka tomon Abay bilan birga, asta bosib kelayotib, muloyimgina kulib qo'ydi.

— “Bo'lur bir pardadin yuz parda bejo”, — deyilgan bo'lsa kerak So'fi Olloyorda? Hammadan ham o'sha pardani yirtmadingan sabrni aytaymi, Abay! — dedi. Yigit ochgan eshikdan orqasi bilan chiqib kelayotib, o'ziga tikilib turgan yigitga qarab, porloq shahlo ko'zlaridan nur sochilib, kulganicha xayrlashib ketdi.

Abay qizni kuzatib yuborib, eshik oldida gangib turarkan: “Bo'lur bir pardadin yuz parda bejo!..” — deb takrorladi.

“Yaxshi gap aytdi-da. O'zini tuta bilishi ham, aql-u farosati ham kam uchraydigan odamlarga o'xshaydi. Balki hayotimda bir duch kelgan o'zgacha qadrli odamim shudir?” — degan xalqga borish bilan birga, o'zining hali qiz bilan o'tirganda aytgan gaplaridan ko'ngli g'ash bo'ldi.

“...Buning men uchun qilgan harakati bugungi qozoq qizlarida ko'rinmaydigan xislat. Bu ishi yengiltaklikdan emas, odamgarchilikdan ekan. Hali xoli uyda o'tirganida ham shu qadar tortinib, sipolik bilan odob saqlab o'tirdi. Bunday qilish ham ko'plarining qo'lidan kelmaydi!” — deb uni boshqalardan yuqori qo'yib, ko'nglida qizga nisbatan hurmat saqladi. Abay bu qiz bilan uchrashuvni o'ziga bir sinovdek bilib, o'z-o'zini tiyib, qo'lga olishi zarur ekanini qayd qildi.

“...Bu odamga yolg'on aytishlik yaxshi emas. Chin ko'ngildan aytadigan tilagi bo'lsa, sofdillik bilan to'g'ri javob berishi kerak. Hayotda qimmatli zamondoshlarimning biri bo'larsan!” deb o'yladi. Endi Tiniboy uyida ko'p hayallamasdan, Irtish daryosining u tomoniga o'tib, o'sha yerda turishni ma'qul ko'rdi.

Erbo'l, Boymag'ambet uchovi Irtish daryosining u yuzida, Karimning uyida turishganiga bir necha kun bo'ldi. Bu kunlarda Abay kecha-yu kunduz ko'p vaqtini kitob o'qish bilan o'tkazardi.

Har kun ertalab Boymag'ambetni olib, salt ot bilan shaharning o'rtasiga borardi. Irtish daryosining bo'yidagi tor ko'chada, ikki qavatli tosh binoning oldida to'xtardi. O'zi otdan tushib Boymag'abetni qaytarib yuborar yoki qaytib chiqqanicha o'sha yerda qoldirib, o'zi tosh binoga — kutubxonaga kirib ketardi.

Bugun bir kerakli kitobni olib chiqmoqchi bo'lib Boymag'ambetni to'xtatib, yana o'sha uyga kirib ketdi. Kutubxonaning uzun katta zalida odamlar o'tirishgan ekan. Abay o'sha uyga kirganda, har stolning atrofida ikkitadan, uchtdan bo'lib, kitob o'qib o'tirganlarga ko'zi tushdi. Yoshi ulug'roq kishilar, yosh yigitlar, xotin-qizlar, o'quvchi yoshlar ham ko'rinardi.

“Shahardagi eng oliyjanob joy — shu joy-da”, deb, haligilarga qarab xursand bo'lganicha kirgan edi. Yuzini ajin bosgan, cho'qqi soqoliga ancha oq oralagan, usti-boshi yupungina keksa kutubxonachi Abayni tanir edi. U jilmayib, go'yo bir qadrli mehmoni kelgandek, hurmat bilan qarshi oldi.

Zalning berigi chetida mo'ylovlarini burab yuqori ko'tarib qo'ygan, jingalak sochli, yuzlari yiltiragan olifta bir chinovnik o'tirgan edi. U yonidagi, sochini turmaklagan, juda yaxshi kiyingan bir ayoldan kulimsirab turgan ko'zlarini olmay, shu yerda ham xushomad qilib o'tirardi.

Abay kutubxonaga kirib kelganda, o'sha yigit yonidagi ko'rkam ayolga Abayni ko'rsatdi. Zalda o'tirgan o'quvchilarning bir nechtasi eshitarlik qilib, tovushini baralla qo'yib qo'pol bir hazil qildi. Bu hazili bilan shu yerda o'tirganlardan boshqacharoq kiyimda kelgan keng choponli, sahro qozog'i Abayni kamsitmoqchi edi.

— E, ajabo! Qachondan beri Gogol kutubxonasiga tuyalar kiritiladigan bo'lgan? — dedi.

Shu tobda Abay keksa kutubxonachi bilan qo'l berib ko'rishib, o'ziga kerakli kitobni endigina so'ramoqchi bo'lib turgan edi. Haligi qo'pol gapni eshitishi bilanoq chinovnikka yalt etib sovuq va g'azabli bir nazar tashladi. Chinovnikka yaqin yerda o'tirgan bir-ikkita yoshroq o'quvchilar, uning gapini quvvatlayotgandek, beixtiyor kulib yuborishgan edi. Lekin yigitning yonida o'tirgan haligi tarbiyali, go'zal ayol kulmadi. Moviy ko'zlarida norozilik

aks etgani holda jerkigansimon chinovnikka qaradi. Qovog'ini solib, qoshlarini chimirganicha, yigitning tarbiyasizligi uchun qip-qizarib ketdi.

Abay darrov g'azabini ichiga yutib, o'zini bosib oldi-da, chehrasida ermak qilayotgandek, istehzo aks etgan holda kulimsirab chinovnikka qarab turib, darhol javob qildi:

— Chinovnik mirza, tuya kirsam nima bo'пти, bu yerda tuya emas, eshak ham o'tiripti-ku! — dedi.

Chinovnik bir qizarib, bir oqarib nafasi ichiga tushib ketdi. Uning yonida o'tirgan ayol xiyol orqasiga tashlanib, xandon tashlab kulib yubordi. U, mamnuniyat bilan Abayga ko'z qirini tashladi-da, qo'llari bilan yuzini yashirib kitobga egildi. Abayning gapini eshitgan kitobxonlarning hammasi qattiq kulib yuborishdi.

Abay keksa kutubxonachidan "Russkiy vestnik" jurnalining ma'lum bir sonini so'radi. Kutubxonachi jurnalning o'sha soni birovning qo'lida ekanini aytib ham ulgurmagan edi, ularning yoniga o'rta bo'yli, peshonasi keng, qalin qora soqolli bir odam keladi. U hali Abay kelganidan beri bu kutubxonaning sahrodan kamdan kam keladigan kitobxoniga zehn solib, tikilib turgan edi. Abay bilan yengiltak chinovnik o'rtasida o'tgan mojaroni ham boshdan oyoq eshitib turgan edi. Endi o'sha odam Abayning yoniga kelib:

— "Russkiy vestnik" menda. Men qarab chiqdim, sizga berishim mumkin. Faqat bir narsani bilmoqchi edim, sizga nima uchun kerak edi? Qaysi joyini o'qimoqchi edingiz? — dedi.

— O'sha jurnalda Tolstoyning yangi romani bosilgan ekan, o'shani o'qimoqchi edim! — dedi Abay.

— Siz Tolstoyning asarlari bilan tanish bo'lsangiz kerak? Nega faqat o'shanigina so'rayotirsiz? — dedi haligi odam.

Abay bu odamga qayrilib qarashi bilanoq uning siymosidan, ko'rinishidan sinovchi nazar bilan o'ziga zehn solib turgan bama'ni odam ekanligini payqadi. Muloyimgina jilmayib, iltifot bilan:

— Men ilgari Tolstoy asarlarini oz o'qigan edim, lekin rus xalqining haqiqiy dono va aqlli odami, deb eshitaman. O'sha aqlli odam qanday o'gitlar aytar ekan, shuni bilgim keladi! — dedi.

Abayning yangi tanishi jurnalni unga berar ekan:

— Ko‘p yaxshi istak. Men sizni bundan oldin ham boshqa bir joyda ko‘rgan edim. Oblastnoye pravleniyeda. To‘g‘ri, u uchrashuv kishini xursand qiladigan holat emas edi. Sizni men ilgari ham orqangizdan bilar edim. Bugun shu yerda uchratishim, to‘g‘risini aytsam, avvalgidan ko‘proq taassurot qoldirdi! — dedi. O‘zining kimligini bildirib, Abayga qo‘lini uzatib, — tanishaylik. Mixaylov Yevgeniy Petrovich! — dedi.

Abay darhol uning qo‘lini olib, qattiq qisganicha:

— Ibragim Qunanboyev. Men sizni yaxshi bilaman. Do‘stlaringiz menga siz haqingizda ko‘p gapirishgan edi. Tanishganim uchun behad xursand bo‘ldim! — dedi.

Shundan keyin ikkovi kutubxonadan chiqib, Irtish daryosi bo‘ylab boradigan ko‘chadan, pastlikka qarab ketishdi. Abay tumog‘i bilan qamchisini orqasiga qilib ushlaganicha, choponining barini yelpiratib borardi. Ikkovi ham gapga tushib ketib, asta-sekin ketaverishdi. Abayning “bir rus bilan so‘zlashaman deb, ko‘cha bo‘ylab piyoda ketayotganini” o‘rinsiz deb bilgan Boymag‘ambet salt ot bilan ularga ergashib kelayotir. Ular suv bo‘yida bo‘lgan oq tegirmonning yonidagi uzun tosh binoga yetishdi. Mixaylov asosiy eshikni ochdi-da:

— Qani, bizning uyga marhamat qiling, yana biroz suhbatlashib o‘tiramiz! — dedi.

Boymag‘ambet Abayning bu uyda o‘tirib qolishini bildi-da, ikki otni olib Irtish daryosining bo‘yiga tushib ketdi. Mixaylov ko‘p xonalik binoning eshikdan kiraverishdagi, ko‘chaga qaratib solingan katta uylaridan birida yolg‘iz o‘zi turar ekan.

Shu uchrashganlaricha Abay bugun kechga qadar Mixaylovning yonidan keta olmadi. Uning suhbatidan g‘oyat mamnun bo‘lganidan anchagina o‘tirib qoldi.

Abayning Mixaylovga shunchalar ixlosi ortib ketishining sababi ko‘p edi. Bu kunlarda Abay ko‘p so‘zlashib, ko‘p sirlashadigan maslahatgo‘y do‘sti advokat Andreyevich, bu odamni ko‘p ta‘rif qilgan edi. Mana shu Semey shahridagi eng o‘qimishli, ko‘p aqlli odam shu, degan edi. Andreyevichning aytishicha, Mixaylov o‘z hayotini xalq manfaatini yoqlash yo‘liga, ijtimoiy harakat yo‘li-

ga bag'ishlab kelgan. Ana shu yo'lda podsho hukumati tarafidan gunohkor hisoblanib, yoshligidayoq jazoga tortilgan. Qamoqni ham, surgunni ham ko'rgan odam. Lekin o'sha tortishuv yo'lida "Surgun bo'ldim", deb orqaga chekingan emas. Aksincha, qamoqda ham, surgunda ham umrini ruslarning bebaho asl odamlari orasida o'tkazib, ilm va ma'rifatini avvalgidan ham oshirib olgan. Zamoni kelsa, o'z xalqining ilg'or fikrli peshqadam odamlaridan biri, peshonasiga bitgan iftixori, deyishga arziydigan odam edi.

Andreyevich shunday ta'rif qilgan Mixaylovni Abay o'z ko'zi bilan ko'rgani shu edi. Mixaylov Abaydan shu kunga qadar rus tilida qanday kitoblar o'qiganini surishtirib bilish bilan birga, mustaqil mutolaaning foydasini ham, o'ziga xos qiyinchiliklarini ham aytib berdi. Uning so'zlari Abayning diliga xuddi shogirdining kayfiyatini yaxshi biladigan ustoz so'zidek o'rnashardi. U Mixaylovga bir hazil qilib:

— Mening yo'limda uchrayotgan qiyinchiliklarni shu qadar topib aytayotirsiz. Gaplaringiz bamisoli singan suyaklarni joyiga soladigan, ko'zi pishgan ziyrak tabibning singan joyni silab o'tirgan muloyim qo'lga o'xshaydi. Mening bir qancha dardlarimni o'zimga o'zim aytib ko'rmagan til bilan anglatayotirsiz! — dedi.

Abay o'zining tergovida Mixaylov ham bo'lganini endi bildi. Koshkinga o'xshash ulug'larning qozoq xalqiga qiladigan qahri-g'azablari, o'jarliklaridan shikoyat qilgan edi. Mixaylov Abayga hali chinovniklarning kirdikorini bilmasligini va haddan tashqari sodda ekanligini aytib berdi.

— Siz chinovniklarning Rossiya xalqi hayotidagi zararli, qabih to'da ekanligini bilmaysiz. O'sha Peterburgdan tortib, to sizning Semipalatinsk uyezdigacha qo'yilgan chinovniklarning hammasi bir xil qolipga urilgan desa bo'ladi! — deb qo'lini siltab qo'ydi.

— Siz ularni qilgan ishlaridangina to'la bilib ololmaysiz. Koshkinlar bilan qayta-qayta olishib, har gal bir yarim oydan avaxtada yotib, ularning kirdikorini bilib chiqish juda qiyin. Bu yo'l uzoq va mashaqqatli yo'l. Men sizga ularning hammasini urug'-aymog'idan tortib osongina bilib olishning yo'lini aytib beray. Bularni o'lguday sharmanda qilib, butun sirini fosh etib, ularga beomon hukm chiqarib ketgan Saltikov-Shchedrin degan

yozuvchi bor. Siz uning asarlarini o‘qing. Shundagina o‘zingiz ko‘rgan chinovniklarning sirlarini va haqiqiy qiyofalarini yaxshi bilib olasiz! — dedi.

Abay chinovniklarning hammasi bir xilda yomon degan gap ustida o‘ylanib qoldi. Chunki o‘zi mutlaqo boshqacha fikrda edi. U hamisha: “Odam bolasining hammasi bir xil emas, besh qo‘l baravar emas-ku? Chinovniklar ham shundaydir”, deb o‘ylar edi. Shu fikrni Mixaylovga tushuntirgan edi, u Abayga uzromiz nazar bilan qarab turib, kulib yubordi.

— Naqadar soddasiz, do‘stim, Qunanboyev. Chinovniklarning hammasi — yuqori mansabdagisi ham, past mansabdagisi ham, yosh-qarisi ham bir xilda, — dedi.

Abayning hali ham bu gapga uncha ko‘ngli bovar qilmay, tushunolmay turganini ko‘rib, Mixaylov ham fikrini misol bilan anglatmoqchi bo‘ldi.

— Bir xilda bo‘lishning boisi shundaki, ular xuddi bir zamanga sepilgan bir nav donga o‘xshaydi. Ularni sepib o‘stirayotgan qo‘l ham bitta, u hozirgi podsholik tuzumi! — dedi-da gapning u yog‘ini ochgisi kelmay, so‘zini tamomladi.

Abay Mixaylovning fikrini endi anglay boshlagandek bo‘ldi. Lekin o‘zi bilgan odamlarning hammasidan boshqacha so‘zlayotgan, yuksak g‘oyali, mulohazali yangi tanishiga fikrini ochiq-roq aytdirish uchun yana o‘sha haqda so‘z ochdi.

— So‘nggi so‘zingiz ma‘qul tushdi-ku, lekin chinovniklar orasida Losovskiya o‘xshaganlar ham bor-ku. Kechagi ishda odillik bilan gapirdi-ku?! — degan edi, Mixaylov gapni yana Abay kutmagan tomondan boshladi:

— Xo‘p, Koshkin yomon bo‘lgani bilan Losovskiy yaxshi demoqchisiz. Koshkinlar kamroq bo‘lsa, ulug‘lar faqat Losovskiy bo‘lsa, butun ish adolat bilan yurgizilgan bo‘lar edi, deysiz-da, a?

— To‘g‘ri, men shunday deb o‘ylayman.

— Losovskiy hozir ochiqdan ochiq foyda keltirdi. Agar shunday guvohlik bermaganda, ish yomon bo‘lar edi, demak, u chinovniklarning yaxshisi emasmi deyayotirsiz, shundaymi?

— Ha, foydasini ko‘zingiz bilan ko‘rib turibsiz-ku.

— To'g'ri, u mana shu ishda foyda keltirdi. Unday chakana foydani bundan keyin ham keltiraveradi. Lekin xalqqa foydali ishga yordami tegsa, bundan buyon ham foydalanish kerak. Men sizga Losovskiyga o'xshagan kishining bunday odatlaridan foydalanishning keragi yo'q, demoqchi emasman. Foydalanishga foydalaning-ku, biroq uning aslida, kim ekanligini ham unutmang, bilib yuring, demoqchiman.

— Uning ishidan boshqa yana qanday asli bor?

— Asli bor. Uning aslida, nima ekanligini bilgingiz kelayotgan bo'lsa, aytaqolay. Siz uni bunday chakana ishlarda emas, xalq hayotiga taalluqli bo'lgan jiddiy bir ishda sinab ko'ring. Aslida, nima ekanligi o'shanda yaqqol ko'rinadi-qo'yadi. Losovskiy ko'p chinovniklarning ichidagi oq qarg'a xolos, — deb Abayga qaradi. Abay bu iboraning ma'nosiga uncha tushuna olmagan edi. Mixaylov endi tushuntirib ketdi. — Bizda, rus xalqida shunday naql bor: ko'p qora qarg'a ichida oq qarg'a bo'ladi, deb misolga oladilar. Oqligiga qarab uni qarg'a emas, xosiyati zo'r qush deb o'ylamang. Ko'rinishi bilan ko'zni aldagani bo'lmasa, u ham qarg'a, u ham qarg'aning ishini qiladi. Qarg'aligini qilmay qo'ymaydi, deb biladilar, — dedi.

Abay Mixaylovning fikriga endi tushunganligini bildirish uchun qozoqlarda bo'lgan bir maqolni aytdi.

— Bizning xalqda ham "Qarg'a qarg'aning ko'zini cho'qimaydi", degan gap bor, — dedi.

Mixaylov xursand bo'lganidan xandon tashlab kulib yubordi-da, keyin jiddiylik bilan so'zida davom etib:

— Rostini aytsam, zoti qarg'a bo'lganidan keyin ko'zni bo'yamay, qora qarg'aning o'zi bo'lgani ma'qul. Xalq ishi qarg'alarning qo'li bilan tuzatilmaydi. Hamon shunday ekan, Losovskiy "oq qarg'a" bo'lib, haligi aytganingizdek sizni adashtirmasin. "Chinovniklarning hammasi shunday bo'lsa, butun ish yaxshi bo'lar edi", dedirmasin. Kishida behuda umid, aldanish tug'dirganidan ko'ra, haqiqiy qiyofasini ko'rsatib kelgani afzalroq. Koshkinga o'xshab bo'yni yo'g'onlik, yovuzlik qilib o'zining rangini aniq, ravshan ko'rsatib turgani yaxshi. Shunda xalq ularning jirkanch tusini ochiq ko'rib, kimligini tanib yuradi. Losovskiy

bo'lsa, o'zining yarim shubhali odilligi bilan behuda umid tug'diradi. Siz gap siyosiy tuzumda emas-u, odamlarda... deb o'ylaysiz-da. Bunday "yaxshi chinovniklar" podsholik deb ataladigan qarg'alar to'dasining haqiqiy qiyofasini, kirdikorini ko'rishga xalal berishadi, — dedi.

Abay bu gaplarni juda yaxshi tushundi. Ilgari eshitib ko'rmagan, xalqqa shunday g'amxo'rlik bilan aytilgan fikrni hayron bo'lib turib, sevinib tingladi.

O'ziga shunchalik ishonch bildirib, ko'ngil sirlarini gapirgan Mixaylovdan minnatdor bo'lib o'tirardi.

— Siz menga burun men bilmagan, qadam qo'ymagan yangi olamning eshigini ochib ko'rsatdingiz, shunchalik ishonch bildirib ko'rsatdingiz. Mana bu suhbatizdan juda katta saboq olganday bo'ldim, — dedi.

Mixaylov Abayning yelkasiga qoqib, o'zining unga oq ko'ngilli, ishonchli do'st ekanligini sezdiradi.

— Siz saboqni mendangina olmang, mendan ko'ra donoroq, mendan ko'ra chuqurroq o'ylaydigan rus mutafakkirlari bor. Siz saboqni o'shalardan oling. Men sizga shunday odamlarning kitoblaridan berib turay. Ruqsat etsangiz, bundan buyon o'z mutolaangizni oshirishda sizga yordam beray. O'qishga ishtiyoqingiz zo'r ekan. Sizning xalqingizda o'qimishli odamlar hali oz. Tunov kuni tergov qilingan sizning ishingiz singari ishlar yuz berganda, xalqingizga chin ko'makchi bo'lish uchun ko'p narsalarni bilishingiz zarur. Ko'p haqiqatni bilish shart. Bu yo'lda rus kitoblari sizga yaxshi do'stlik vazifasini ado etadi. Ishonchli yo'ldoshingiz bo'ladi! — dedi.

Abay Mixaylovning o'ziga ko'rsatgan shunchalik g'amxo'rligi, samimiy mehribonchiligidan g'oyat xursand bo'ldi.

— Men o'zimni sizga duch keltirgan taqdirimdan behad minnatdorman. Rahbarlik qilaman, degan va'dangiz men uchun do'stlik, juda katta do'stlik! — dedi.

Shundan keyin Abay har uch kunda Mixaylovning uyidan topiladigan bo'lib qoldi. Ularning endigi o'tirishlarida suhbat sahro hayoti, o'sha elning dardi-hasrati ustida ham bo'lib turardi. Bir kun so'zlashib o'tirisharkan, Mixaylov bu yil Eralida bo'lgan mo-

jaroning asosiy sababini bilmoqchi bo'ldi. Qochqin bo'lib yurgan O'rolboy haqida so'radi.

Abay uning ahvolini Mixaylovga juda batafsil aytib berdi. O'rolboy bilan Kerimbolaning bir-biriga bo'lgan muhabbati va elning ularga qilgan zo'rligini, ikki yoshning tortgan jabru jafosini qattiq afsuslanib hikoya qilib berdi. O'sha shafqatsiz jazo, og'ir zulm orqasida Kerimbolaning o'lib ketganini ham aytdi. O'rolboyning esa na davlati va na bir qo'llab-qo'ltiqlagudek mehriboni bo'lmay, g'ariblikda darbadar bo'lib ketganini ham aytib berdi. Har ikki yoshning o'z tengdoshlari ichida ko'zga ko'ringan san'atkor, o'lanchi bo'lganliklarini ham qoldirmadi. Yordan ajralish dog'i O'rolboyga juda og'ir ta'sir qilib, alam ichida o'ch olishga undaganini Abayning o'zi hamisha qattiq afsuslanish bilan eslar edi. Chigal tugundek ko'nglida saqlanib yotgan o'sha hislarni hech kimga izhor qilmay yurgan bo'lsa ham bugun Mixaylovga g'oyat ustalik bilan tasvirlab berdi. Nihoyat, so'zning oxirida O'rolboy ko'plarga o'mak bo'ladigan, o'zining or-nomusini himoya qila oladigan, irodasi kuchli, serg'ayrat azamatlardan biri deb baho berdi.

— Bugun uning oti bosqinchi, yo'lto'sar bo'ldi. Haqiqatda u faqat ulug'lar uchun o'g'ri bo'lgani bilan xalq uchun — haqqoniy o'ch oluvchi, jasur yigit. Mana shunday dard va alam orqasida bosqinchi bo'lib ketgan kishilar, mening bilishimcha, rus xalqining tarixida ham borga o'xshaydi. Bular ulug'larning zulmiga qarshi kurashuvchi, kiroyi maqtashga arziydigan azamatlar emasmi? Hozir barcha xalqlar faxr bilan eslaydigan odamlar emasmi? Men, qo'limdan kelsa, ularni yoqlovchi, oqlovchilardan biri bo'lar edim. Shunga siz nima deysiz? — dedi.

Mixaylov bu hikoyani Abaydan ko'zini olmay, hayajon ichida o'tirib boshdan oyoq tingladi-da, indamasdan biroz o'ylanib qoldi.

— Siz bir go'zal hikoya aytib berdingiz. Yozuvchi odam bo'lsa, shu aytib berganlaringizning o'zini butun bir kitob qilar edi. Agar hayot uchun, ayniqsa, jamiyat, ijtimoiy hayot uchun olsak, bu ko'pchilikka yo'l bo'ladigan keng maydon emas. Sizning jamiyatingiz hali yosh-ku. Shu singari, yolg'iz odamning yakka g'alayoni o'zgacha bir harakatdek ko'rinishi mumkin, uni bilaman. Biroq bir yigit bilan bir qizning ishq mojarosi xalq kurashiga

maydon bo'la olmaydi. O'ch olish uchun qochqin bo'lib bosqinchilik qiluvchilar o'rnak bo'lolmaydi! — dedi.

Uning shu gaplaridan ham Abayga qaraganda ancha chuqur o'ylashi ko'rinib turardi. Asosli, chuqur ma'noli gaplar! Abay o'zining otasi Qunanboydan tortib, butun qozoqlar ichida hech kimdan o'zining kam deb his etmas edi. Andreyevichdek advokat ham undan faqat ilm jihatdan yuqori edi. Ammo hayot va jamiyat haqidagi munozarali masalalar ustida dalillar keltirib tortishuv olib borishda Abayning o'zidan u qadar olisga borolmas edi.

Abay shu yoshga kelib, Mixaylovdek chuqur mulohazali, har narsaga aqli yetadigan, ijtimoiy ongi o'tkir va yuksak bo'lgan odamni ko'rgani shu edi.

O'rolboy voqeasidan keyin u o'zining Erali janjaliga qo'shili-shiga Mixaylovning qanday qarashini bilgisi keldi. O'zining el fuqarosini boshlab kelib, Tentek O'yaz bilan qattiq olishganini xotirladi-da, do'stining shu haqdagi fikrini so'radi. Mixaylov o'sha on javob berdi.

— Siz boplab Koshkinning ta'zirini bergansiz. Ayniqsa, ko'pchilikni yig'ib kelib, qo'l ostingizga jonli shohidlarni to'plab turib, paytini topib jazolagansiz. Bu ishni chiniquan odamning ustalik bilan olib borgan tortishuvi deb bilaman. Sizning ishingiz O'rolboyning ishidan yengil edimi? Bunga siyosiy tus berib, sizning ishingizni zo'r jinoyatga aylantirib yuborish juda oson edi. Lekin siz tomondagi guvoh va dalillar kuchli bo'ldi-yu, osongina qutuldingiz. Yana xalqingizda birlik ham juda kuchli ekan, deb o'yladim! — dedi.

Shundan keyin bu o'tirishda Mixaylov Abayga oblast va uyezd mahkamasida so'nggi kunlarda bo'lgan yangiliklarni aytib berdi. Bu kunlarda Koshkin Semey uyezdining boshlig'i vazifasidan olinib, Ust-Kamenogorskga uyezd nachalnigi qilib saylanipti. Uning o'rniga — Semey uyezdiga sovetnik Losovskiyy tayinlanipti. U, Abayga yaxshi nazar bilan qaraydigan, "adolatli" chinovniklarning biri. Oblast pravleniyesi Losovskiyyga tez kunda uyezdga qarashli ellarga chiqib, Koshkin o'tkaza olmay kelgan bo'lis saylovini qaytadan o'tkazishni topshiripti. Abaylarning bo'lisi

Ching'izda, yana ularga qo'shni bo'lgan Qo'ng'ir Ko'ksheda, Qizil Mo'lada qaytadan saylov bo'lar ekan.

Mixaylov Abayga bu xabarlarini aytish bilan birga, endi Abayning Losovskiylar bilan birga elga chiqishini loyiq topdi. Elga zarar yetkazmaydigan halol, yaxshi odamlardan bo'lis qilib saylatishni maslahat ko'rdi.

Mixaylovning Abayga bunday maslahat berishi, endi uning juda samimiy do'st bo'lganligining shohidi edi. Abayning joni achib, doimo g'amini yeb yurgan elga endi Mixaylov ham birga g'amxo'rlik qila boshladi.

Shu suhbatdan keyin Abay Andreyevich bilan so'zlashib, u orqali Losovskiylar bog'lanishdi. O'yaz saylovga chiqib ketayotganida birga chiqishga qaror qildi. Losovskiylarning o'zi ham Abayning birga chiqishini ma'qul ko'rib, Andreyevichdan aytib yuboripti. Shunday qilib, Abay kutubxona bilan Mixaylovning o'rtasida yana bir oyga yaqin yurdi. Gap shunday bo'lgandan keyin, Erbo'l bilan Boymag'ambet ham elni sog'inganini ko'p aytmaydigan, shaharning issig'i bilan changidan avvalgidan ko'ra kamroq noliydigan bo'lishdi.

Abayning ko'p kuni Irtishning u yuzidagi Kerimning uyida tinmay mutolaa qilish bilan o'tsa ham Erbo'l bilan Boymag'ambet uni ba'zan qo'yarda-qo'ymay Irtishning bu tomonidagi Tiniboy uyiga olib kelishardi. Saltanat hali ham onasi bilan o'sha yerda edi. Abay bo'yi yetgan qiz bilan ikkinchi marta yana Makishning uyida xoli uchrashdi.

Qizning onasi bilan Makishni qo'shnilar mehmonga aytib ketgan, uy xoli qolgan bir kech edi. Erbo'l Abayni jo'rttaga shu paytni mo'ljallab olib keldimi yoki tasodifan shunday bo'ldimi, har holda uyda yolg'iz qolgan Saltanat bilan bemalol o'tirib erkin so'zlashgudek fursat topildi.

Deraza oldidagi katta sandiq ustiga tashlab qo'yilgan gilam bilan qalin ko'rpachada ikkovi qator o'tirib uzoq so'zlashdi. Erbo'l bilan Boymag'ambet ularni qo'riqlab, uydagi xizmatkorlarni gapga tutib, boshqa uylarda chalg'itib yurishdi. Abayning shu qiz bilan xoli o'tirib, bir nafas erkin suhbatlashuvini Erbo'l chin yurakdan istar edi.

Lekin do'stining niyati shunday bo'lishiga qaramay, Abay qizni o'sha dastlab xoli uchratgandan keyin o'zini tutishga ahd qilib, hali ham shu ahdda turgan edi. Uy ichidagi qorong'ilik quyuvlashib, kechki mayin shabadadan derazaning pardasi asta tebranib turardi. Yoshlar uyga chiroq yoqilishini istamagandek o'tirishardi. Qosh qorayib, qorong'i tushdi, deraza yonida o'tirganlarni o'tkinchilarning ko'zi ilg'amaydigan bo'ldi. Abay endi pardani qayirib, deraza yonidagi baland karavotning boshiga tashlab qo'ydi. Erta ko'tarilgan sarg'ish to'lin oy nuri uyga tushib, qizning gulgun yuziga tiniq, oppoq nur sochib, shu'lalantirdi. Abay qizning ro'parasida o'tirgandi. Uning ham qirra burni, katta-katta ko'zlari, qalam qoshlari, quyoshda qoraymagan, ajin tushmagan oppoq, keng peshonasiga oy shu'lasini yorqin nur berib turardi.

Bugun qiz yigitni go'yo eski qadr doni, yaqin odamidek his etib, o'zi ochilib gap boshladi. U Abayning uy ichlarini, oilasini, eldagi yorini so'radi. Gap orasida Abayning uzoq vaqt shaharda turib qolgani, u yerdagilarni intizor qilib qo'ygani, o'zining ham ularni sog'ingan bo'lishi kerakligini odob bilan ilova qilib o'tdi.

Abay o'zining sevgilisi Aygerimni ko'p o'ylashini yashirmadi. Bu haqda gapni qisqa qilib, bolalarini ham birma-bir aytib berdi. Aygerimga uylanishi o'z hayotida eng mushkul va og'ir masalalardan biri bo'lganini ham sezdirib o'tdi. So'ng Saltanatdan uning hayoti, hozirgi ahvoli, kelajakdagi orzulari haqida so'radi. Qiz bugun Abay oldida sir saqlashni istamadi. Uzun-uzun nafis barmoqlari bilan sochpugining ipak shokilalarini dam himarib, dam o'rib o'tirib, qalbidagi bor dardini Abayga izhor etdi. Qizning katta-katta quralay ko'zlarida porlab turadigan alanga go'yo allaqaylarga ketdi-yu, asta so'nib g'oyib bo'ldi... Ba'zan ko'zlarini qisinqirab qaragandagina o'sha sof jozibaning bilinar-bilinmas so'nik shu'lasini aks etib qolardi. U Abaydan ko'zlarini olmay so'zlar, ko'rib yurgan el yigitlaridan o'zgacha sezilayotgan bu do'stiga, o'ziga ishongandek zo'r ishonch bilan boqardi. Saltanat o'z qalbidagi xafagazak bo'lib, mudom xotirini parishon qilib turadigan dardlarini g'amginlik bilan ocha boshladi.

— Men ham ixtiyorli, ham ixtiyorsiz qafasda, tutqunda yotgan bir bechoraman. Ko‘plar buni bilmaydi. Ismim Saltanat, yurish-turishim ozod, bosar-turarini bilmaydigan, erkalarining erkasiga o‘xshayman. Ixtiyorli qafas deganim shu. Lekin aslida, bizning elda, tuyg‘un, lochin boqadigan ovchilar hali o‘rgatib bo‘lmagan qushlarga ishonmay, oyog‘iga uzun ip boylab uchirishadi-ku, mening ozodligim ham shu xildagi ozodlik. Erta-indin bironing xasmi bo‘lib, boshim bog‘lanib ketish oldida turibman. Shu yil kuzda bo‘lajak kuyov birinchi marta kelmoqchi. Uning kim ekanligini, qanchalik yigitlik zakovati borligini yaxshi bilmayman. Ko‘p eshitgandirsiz, qozoqlarda dardi ichida ketadigan qizlar ozmi? “Unga ko‘nglim yo‘q, boshqa kimga bersa ham roziman. Shundan meni ozod qilsin”, deb otamga, o‘z onamdan ham, mana bu kichik onamdan ham ikki marta aytdirib ko‘rdim. Roziligini ololmadim. Yolg‘iz qizman. Tug‘ilganimdan beri kaftiga solib, shunga gard qo‘nmasa ekan, deb o‘stirgan otam-onam — uyim edi. Hali ham boshqa to‘g‘rilaridan asti ra‘yimni qaytarishmaydi. Lekin qismatim shu bo‘lgandan keyin, o‘z uyim o‘zimga qafas bo‘ldi. Kelgusini o‘yladim, deguncha umidim birato‘la uziladi. Hatto hayotdan ham, bor umidlarimdan ham voz kechishga tayyor bo‘lgan onlarim ko‘p bo‘ladi. “Yo rabbiy, mening boshimga xo‘rlik, tubanlik no‘xtasini solguncha jonimni olsang-chi, asti o‘kinmayman, nolimayman!” deb tong otguncha yig‘lab chiqadigan kunlarim ham bo‘lardi, — deb qiz nozik barmoqlari bilan peshonasini ushlab, bo‘rtingan yuzlari bilan yoshli ko‘zlariga dastro‘molini bosdi.

Qiz bir nafas jim qoldi-da, yana boshini ko‘tarib Abayga tikilganicha bo‘g‘iq va qattiqroq ovoz bilan gap boshladi.

— Yosh qalbning dardlarini bilarsiz, Abay. Mening o‘rnimda qozoqning boshqa qizi bo‘lsa: “Kelgusini kelganda ko‘rarmiz. Hozir o‘z erkim o‘zimdalik chog‘ida, ota-onamning bag‘rida davr surib qolay, o‘zimni hech narsadan tiymayman”, deb yuraverardi. Alam ustida bor bo‘lganicha bo‘lar, deb yengiltaklik bilan har xil yurishlarni g‘animat biladiganlar ham bor. Men sho‘rlikning hech bo‘lmasa qo‘limdan shu ish ham kelmaydi. Bu ko‘nglim-

dagi eshikka katta qulf urib, o'z qo'lim bilan yasagan qafasim. Kelgusidan cho'chishim, dahshatim shu qadar kuchlikmi deymen, hech bir o'yin-kulgiga bir nafas bo'lsa ham ochilib-yozilib, jonim-dilim bilan berila olmayman. Hamisha oldimda besh kundan keyin meni yutadigan bir zindon yoki bir bo'm-bo'sh olam turganga o'xshaydi. Ilon avrayotgan to'rg'aydek qanot qoqib turib, o'sha damiga tortayotgan qorong'i zindonga qulab ketadiganga o'xshayman, xolos. Ba'zan yalt etib qalbimda bir quvonch paydo bo'lib, o'zimni o'zim bironta yoshga qiziqtirib, ko'ngil qo'ya boshlayman-u, yana to'satdan qaytib, turgan joyimda to'xtab qolaman! — dedi.

Qiz yana sukut qildi. Ikki yosh ancha vaqtgacha jim qolishdi. Abay shu damgacha o'zi eshitib kelgan yosh qalblar dardi ichida shu singari nazokat bilan shunchalik ta'sirli, yurakka borib tegadigan qilib aytilgan dardni eshitmagan edi. Faqat bir ruscha kitobda kimningdir nihoyat yorilib, bor haqiqatni ochishga qaror qilib, o'z hayotidagi yashirin sirlarni, alamli dardlarni sofdillik bilan izhor etib kelib: "Bu mening iqrorim", deganini o'qigan edi. Hech kimga izhor etilmaydigan, faqat o'lim oldidan aytiladigan, yana bir martagina oshkor etib, shu bilan tamoman so'nib ketadigan yurak kitobining tili shunday bo'lsa kerak. Abay biroz egilib, qizning ikki qo'lini ushladi. Qizning issiqqina, ipakdek muloyim, xiyol terchigan qo'llarini bir nafas qisib turdi-da, yuzlariga bosdi. So'ng barmoqlarining uchidan o'pdi. Qiz astagina qo'lini sug'irib, tortib oldi. Unga rahmi kelgan yigitning qalbi ham qizning alamli dardi bilan g'urbatga to'lib ketdi.

— Azizim Saltanat. Hayotimda shu kunga qadar yurak dardlarining siz aytganingizdek asti esdan chiqarib bo'lmaydigan qilib aytilganini eshitganim yo'q edi. Sizning bu qadar ishonch bilan to'g'risini aytishingizga to'g'ri javob berishdan boshqa gapning o'rni yo'q. Bir og'iz so'z bilan to'g'risini aytay, yolg'on aytadigan bo'lsam, katta gunoh qilgan bo'laman. Men sizga ko'nglimdagi bor gapning to'g'risini aytishim shart, deb bilaman! — dedi.

Qiz astagina qo'zg'alib qo'ydi. Borlig'i bilan yigitga yaqinlashib, xiyol egildi. Shu harakati bilan bugun Abaydan faqat to'g'ri javob kutayotganini bildirdi. Abay gap boshladi.

— Siz sevmaslik azobini tortayotirsiz, Saltanat. Men — o‘z hayotimdagi, qabrga ham birga ketadigan sevgimning dardini tortayotirman. Shu kunga qadar bir on ham xira tortib, unutilmaydigan yurak tongim bor edi. U tong — ozgina vaqt davr surgan ikki intizorning hayoti edi. Menga nasib bo‘lmay, oy botgandek botib ko‘zimdanda pinhon bo‘lgan sevgilim! Chin ma’shuqam — To‘g‘jon edi. Ayrilganimga ko‘p vaqtlar bo‘ldi. Lekin shu onga qadar, hatto xiyol jilmayib kulishigacha mudom ko‘z oldimda. Ko‘rishgan, uchrashgan chog‘imizdagi ozmi, ko‘pmi, yoki shodlanib, yoki zorlanib aytgan gaplarining hammasi yuragimda, go‘yo o‘z qonim bilan yozilgan vasiyatnomadek saqlanadi. O‘sha To‘g‘jondan ayrilib, hajrida alam tortib she‘r yozish, kuylash bilan yurgan chog‘imda aytgan bir mungli sozim sizga eshitilipti. Makish uni sizga juda ma’qul bo‘ldi, deb aytgan edi! — dedi.

Abay bir vaqtlar Saltanatning iltimosi bilan unga Makish aytib bergan “Yarq etmas qora ko‘nglim...”ni eslatib o‘tdi. Gap shu yerga yetganda, qiz o‘sha kuyni xotirlab, bosh irg‘ab ko‘zlarini xiyol qisdi-da, o‘ylanib qoldi. Qiz boshini egarkan, qulog‘idagi oltin isirg‘asining har bir nozik shokilasi: “Biz bilamiz, shohidimiz, eshitganmiz”, deyaotgandek birga egilib, silkinib tasdiqladi. Abay so‘zida davom qildi.

— Qalbm qovushmaydigan bir jonga taqdir qovushtirdi. Bir necha sevikli bolaning otasi bo‘ldim. Lekin o‘sha dard, o‘sha alamimni unuta olmadim. To‘g‘jonni o‘ylab, tushimda ko‘ra- yotgan edim. Borliq bilan yo‘qlik orasida uyqu elitib, ko‘zim ilinib ketgan bir vaqtda, xuddi To‘g‘jonga o‘xshash bir qiz, o‘sha To‘g‘jon aytadigan kuyni aytib kelib uyg‘otdi-da, meni o‘sha yupatdi. Shodligim ham, kuylaydigan kuyim ham, endigi hayotimning suyanchig‘i ham, hammasi o‘shaning o‘zi bo‘lib qoldi. Sof sevgimizning shohididek bo‘lib o‘zgacha go‘zal bir bola tug‘ildi. Hozir odamlarning nazarida, men shaharda sababsiz uzoq turib qolganday ko‘rinsam ham Aygerimni g‘oyat alangali hislar bilan sog‘inaman! — dedi.

Abay shu gaplarni aytdi-yu, jim bo‘lib qoldi.

Saltanat bir qadar bo‘shashib, rangi o‘chgan holda yerga qaradi-da, Abayga rahmat aytayotgandek, ta‘zim qilib, bosh egdi. Har

ikkovi o'z ko'nglidagi dardini ochib aytishganda hamdard chiqishdi. Ortiqcha dardlashishning hojati ham yo'q edi. Qiz uchun Abay tanho o'ziga bog'liq bo'lmagandan keyin ko'ngli taskin topmaydi. Abayda bo'lsa yengiltak yurish-turishlarga qiziqib Aygerimga yolg'on aytgudek, bunga yarim va'da bergudek ixtiyor yo'q. Unday qilishni istamaydi. Avaxta eshigini o'z qo'li bilan ochib, o'z zamonasidagi qozoqlarga g'ayritabiiy ko'rinadigan bir odamgarchilik qilib kelgan shu Saltanat edi. Shu holatlar bu kunda eldagi yigitlardan boshqacha bo'lib, yangi fikr egasi bo'lib kelgan Abayga qudratli amr qilib, o'zini tutishga majbur etdi.

Shuning bilan har ikkovi ham yurak dardlarini ochishni to'xtatishdi. O'z-o'ziga sabr berib, donolik bilan o'zini tutib olgan Saltanat, Abayga endi do'stona bir ohangda ikkinchi tilagini aytdi. Yonida turgan do'mbirani Abayga uzatib:

— O'sha kuyni o'zingiz astagina, faqat mening o'zim uchun aytib bering! — dedi.

Abay darhol do'mbirani qo'lga olib: “Yarq etmas qora ko'ngilim”ni dastavval To'g'jonga aytilgan so'zlar bilan kuylab berdi. Keyin kuyni o'zgartmay turib, shu g'amgin kechni qo'shib kuylay boshladi.

Sipolik bilan boshlab, chin ko'ngildan aytilayotgan yangi so'zlar bilan mung to'kdi... Yorug' oy shu'lasida nurli chehrasi bilan ishonch bildirgan do'stiga ko'ngil sirlarini ochdi. Shu yoshning qayg'usi asti unutilmas. Shoirning sozi ko'p yillar davomida chertar, qarzdor do'stining qalbi uni aslo unutmay, o'zgartmay ko'p yillar davomida saqlar. Ayirilishib, noma'lum yo'llar bilan ketganlarida ham yigitning xotirida umrbod qoladigan, orzu qiladigan azizi bo'lar. Sirlaring chetga fosh etilmas. Yurakda bir hovuch javhardek saqlanar. Ochilmagani uchun hech qachon o'z qiymati va fazilatini yo'qotmas... deb, yurakdan aytilayotgan yangi she'r, yangi soz to'liqlandi.

Bu tomondan biror ishora bo'lishini kutib, dahlizda harakatsiz o'tirgan Erbo'l, Abayning kuylayotgan tovushi eshiltigandan keyin Boymag'ambetga buyurib, sham yoqdirib keldi. Abay o'lanini tamomlab qolgan paytda, Erbo'l sham ko'tarib uyga kirdi.

Erbo‘l hali chiqib ketayotgan chog‘ida Abay bilan qiz deraza oldidagi sandiqda qanday o‘tirishgan bo‘lsa, hozir ham o‘sha taxlitda o‘tirishardi, uning ustiga, Abay bamaylixotir o‘tirib kuylayotir. Yuzida Erbo‘l kutgandek o‘zgarishdan darak ham yo‘q. Eshikdan kirishi bilan ikki yoshga, bularni xuddi endi ko‘rgandek hayron bo‘lib nazar tashlagan Erbo‘lga yoshlarning bu taxlitda o‘tirishi ham, chiroylari ham uncha ma‘qul bo‘lmadi. U kutgani-cha chiqmadi. Uyga sham keltirilgach, Boymag‘ambet ham kirdi. Yoshgina oqsoch xotin choyga dasturxon yoza boshladi. Birozdan keyin Makishlar ham kelishdi.

Endigi o‘tirishda Abay bilan Erbo‘l dam yakkama-yakka, dam qo‘shilishib ko‘p o‘lanlar aytishdi. Mehmonga kelgan ayollar-ning, ayniqsa, mezbon Tiniboyning katta xotining iltimosi bilan bu ikkovi ayollar majlisini qizitib ko‘p xizmat qilishdi. Bu suhbat davomida Saltanat indamay o‘tirdi. Faqat to‘bqutilik yigitlarning To‘qay bo‘yi elida aytilganidan boshqacharoq qilib aytadigan kuylariga o‘zgacha ixlos bilan quloq soldi. Sipogarchilikni saqlab, vazmingina o‘tirdi. Faqat tarqalish vaqtida, uy ko‘pchilikdan xoli qolgan bir paytda, Erbo‘l bilan Boymag‘ambetning oldida:

— Shu kechning qanday o‘tganini bilmay ham qolibman. Nazarimda, ko‘z ochib-yumguncha, bir lahzada o‘tib ketganga o‘xshaydi. Hech qachon yodimdan chiqmas. Ko‘nglimda olqishdan boshqa gap yo‘q. Orqangizdan allakimlarning bittasi bo‘lmasangiz kerak, deb o‘ylar edim. Yetisha olmaganim uchun o‘kinmayman, sizga baxt tilayman, umringiz boricha baxtli bo‘ling! — dedi.

Abay qizning naqadar irodasi kuchli, naqadar ziyrak ekanligini yana ravshanroq ko‘rdi. Indamasdan qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib bosh egdi, so‘z qotmadi. Shu bilan hammasini bilib o‘tirganini anglatdi. Yigitning hozirgi holatni so‘z bilan uqdirishga urinmagani Saltanatga ham ma‘qul tushgan edi. U endi nurli ko‘zlari yoshga to‘lib, kiprik qoqmay, deraza oldida Abayning orqasidan uzoq vaqt qarab qoldi.

Abayning elga jo‘naydigan vaqti yaqinlashib qoldi. So‘nggi vaqtlarda u deyarli har kuni Mixaylovning uyiga borar, uning bi-

lan tez-tez ko'rishib turardi. Irtish daryosining bu tomonidan qaytib, yana do'stining uyiga qarab ketdi. Eshikni Mixaylovning o'zi ochdi. Uning egnida oq kanopdan tikilgan yupqa yozlik kiyim. Yoqasi ochilib, ko'kragingning tuki xiyol ko'rinib turardi. Qo'lida ko'tarib yurgan kitobini o'qiganicha kelib qarshi oldi. Abay bilan ko'rishar-ko'rishmas qo'ltiqlab oldi-da, o'zining xonasiga olib ketayotib:

— Qunanboyev, men sizga rus yozuvchilarining kitoblaridan tashqari yana keyingi o'tirishlarimizda so'zlashgan boshqa fanlarga oid bir qancha kitoblar ham topib qo'ydim! — dedi.

— Qaysi fanlarni aytayotirsiz, Yevgeniy Petrovich?

— Umumiy tarixdan. Yevropa tarixidan. Yana geografiyadan. Qanday bo'lmasin siz shu yil o'qib chiqishingiz zarur bo'lgan kitoblar. Yarmini o'zim topdim. Yana bir qanchasini Gogol kutubxonasidan, Kuzmichdan olasiz. Sizga atab topdirib, vaqtincha olib ketishingiz uchun tayyorlab qo'ydim. O'shani borib olasiz! — dedi-da, yana bir nafasdan keyin o'zi gap boshlab:

— Mening bilishimcha, siz tarixdan uncha-muncha xabardor bo'lsangiz kerak. Tarix ilmlarning onasi-ku.

Abay:

— Men tarixdan faqat islom tarixini, uni ham madrasada dars sifatida emas, o'zimcha urinib-turtinib bir o'qigan edim. Lekin Yevgeniy Petrovich, siz bilan uchrashganimdan buyon mening shu kunga qadar ilm deb, yig'ib-terib yurganlarimning hammasi o'z salmog'ini yo'qotib qo'ydi. Nazarimda, tutungami, bug'gami o'xshab, uchib ketganday bo'layotir. O'sha o'qigan tariximni bir asosiy ilmga hisoblashga ham ikkilanib qoldim, — dedi.

Mixaylov bu gapga kuldi-da:

— Unday bo'lsa, men sizga aytaymi, islom tarixi ham — bilim, katta bilim... Faqat qanday tarixchi yozganligini farq qilish kerak... — deb, Mixaylov bugun sharq xalqlari, sharq haqida Abayni g'oyat hayratda qoldiradigan ko'p qiziq yangiliklarni aytib berdi. Sharq xalqlarining madaniyati butun dunyo ma'rifatining rivojlanishiga, inson fikrining o'sishiga ko'p asrlar davomida ko'p oziqlar bergan. Qadimgi antik davr bilan Yevropadagi uyg'onish

davri to'g'risida bir necha yuz yillar davomida fikriy taraqqiyot to'xtalib, turg'unlik vujudga kelgan. Ana shu bir necha asrgacha davom etgan qorong'ilikni yoritgan faqat sharq xalqlarining madaniyati ekanligini aytib o'tdi. Qadim zamon madaniy meroslarini o'zida saqlab kelib, bugungi madaniyatli xalqlarga yetkazuvchilar sharqdan chiqqan donishmandlar bo'lganligini eslatdi. Bularning bugungi suhbat shunday masalalarga ko'chish bilan Abayning ko'nglida g'oyat quvontiruvchi bir yangi fikr tug'dirdi. Uni shu onning o'zidayoq Mixaylovga aytdi.

— Yevgeniy Petrovich! To'g'risini aytsam, men kishilik jamiyatining bilim xazinasida sharq xalqlarining o'zi bir bo'lak, boshqalar bilan bog'lanishi bo'lmagan bir olam, deb bilar edim. Siz mening sochilib yotgan, bir-biriga aloqasi bo'lmagan, bir-biriga qarama-qarshidek tuyulib yurgan olamlarimni tutashtirib beradigan ko'rinasiz. Aslida ham adolat, haqiqat, axloq masalalarida jamiyatning manfaatini yo'qlovchilar ozmi? Har bir zamon, har bir davr va har bir xalqning nasllari manfaatini, insoniyat baxtisaodatini o'ylaydigan nasihatgo'y ustozlari, g'amxo'rlari bo'ladi. Garchi: “Ular turli tillarda so'zlashgan bo'lsalar ham tub maqsadga kelganda, bir oqimga quyulib birlashmog'i kerak-ku”, deb, o'zimcha taxmin qilib yurar edim. Mening shu kunga qadar “odamgarchilik” deb ishonib kelgan tarbiyam, olgan ta'limim siz bilan meni osongina tanishtirdi. Bizlarni shunchalik tez yaqinlashtirgan ham o'sha butun xalqlar baham ko'rib kelayotgan bashariy xazina bo'ldi. Shundan birimiz to'la bahramand bo'lsak, birimiz oz bo'lsa ham totib ko'rishimiz orqasida yuzaga keldi! — dedi.

Mixaylov Abay qo'zg'agan bu masalalar ustida asosli va chuqur mazmunli fikrlar bayon qildi. Mixaylov o'zining bugungi qiyofasi, keng peshonasi, o'ychan katta ko'zlari, silliq qilib taralgan uzun qo'ng'ir soqoli bilan ulug' olimlarga, donolarga o'xshardi. Bugun u Abayning nazarida go'yo bir faylasuf ustozdek ko'rinayotgan edi. Uzoq suhbatdan keyin Abayga tushunarli qilib, uning shu kunga qadar islom haqida o'qib kelgan bilimlari tarixiy bilimga kirishini anglatdi. Suhbatning oxirida Abayni yanada hay-

ron qoldiradigan bir gap gapirdi. U Abayning o'z xalqi to'g'risidagi gap edi. Qozoq xalqi tarixida ham bu kungacha ilm olamiga ma'lum bo'lmagan, balki Abayning o'zi ham hozircha qadri-qimmatiga yetmaydigan fikriy xazinasini bordir, dedi. Qozoqlarning ham insoniyat olamidagi fan va madaniyat mulkiga qo'shilishi kerak bo'lgan, hali yer ostida yotgan sof oltindek saqlanib kelayotgan qimmatbaho merosi bo'lishi, shubhasiz, dedi.

Abay bugungi suhbatdan keyin Mixaylovni o'ziga avvalgidan ham yaqin his qildi. Uni o'ziga yaqin qarindosh, og'a qiladigan yuksak g'oyalarni angladi. Xayrlashib ketayotganda Mixaylovga:

— Bugun men sizni o'zgacha fazilatlarinigiz bilan yana ham yaxshiroq tanidim, Yevgeniy Petrovich! Men sizni faqat rus xalqining ilg'or g'oyalari bilan ma'rifatini o'zida saqlovchi odam, deb bilar edim. O'zimni bo'lsa, boshqa bir o'lkadan, sizdan uzoqda yotgan, sizga yot bo'lgan sahrodan kelgan odam, deb his qilar edim. Qarab tursam, mana siz hozir meni xuddi qo'limdan yetaklab, baland dovon ustiga chiqarib turganga o'xshaysiz. Barcha davr, butun zamonlarning, hamma xalqlarning makonini — qarorgohini, adir va vodiylarini ko'rsatdingiz. Yiroqdan bo'lsa ham odam bolasi borki, hammasi — garchi bir-biriga uzoq bo'lsa-da, qardosh ekanligini anglatdingiz. Endi bilsam, madaniyat olamidagi begona xalq yo'qqa o'xshaydi. Siz mening To'buqtimni ham o'sha katta yo'ldan chetga chiqarib qo'ymadingiz. Shuni eshitib, shodligim ichimga sig'may ketayotir. Mana shuni anglash — mening eng katta o'ljam bo'lsa kerak! — dedi.

Mixaylov xandon tashlab kulib yubordi-da, kelib Abayning yelkasidan quchoqlab, bir qisib qo'ydi.

— Qunanboyev! Bizning do'stligimiz har ikkimizga ham yaxshi natijalar berar, deb umid qilaman. Faqat kutubxonadan, Kuzmichdan qo'limni tortmayman, degan va'dangizga vafo qiling! — dedi-da, samimiy do'stlarcha Abay bilan xayrlashdi.

Shu gal Abayning Semeydan bir arava qilib, olib kelgan o'ljasining qoq yarmi Mixaylov aytgan yoki o'zi topib bergan kitoblar edi.

Losovskiy saylov o'tkazgan sahroga chiqish oldidan Mixaylov o'sha Losovskiy bilan Andreyevichning uyida uchrashdi. O'sha yerda Mixaylov ko'p xursand bo'lib, o'zini hayratda qoldirgan sahro yigiti haqida gap ochib:

— Qunanboyevning ilmga intilishi, ilmga bo'lgan talabi g'oyat zo'r. Bu ish —ba'zan hali kamolga yetmagan elining borlig'i bilan berilib, chin ko'ngildan qunt qilib ilm yog'dusiga intilishini ko'rsatadi. Ilmga naqadar tashna ekanligini bildiradi! — degan edi, aftidan, Losovskiy bu to'g'rida Mixaylovga qaraganda boshqacharoq fikrda ko'rindi. U:

— Yevgeniy Petrovich! Yolg'iz uning talabi — butun xalq talabini ko'rsatmas, deyman. Xalqini olsak, bu el hali rus madaniyatiga “shu qadar zo'r ehtiyojim bor”, deb anglagan, uyg'ongan xalq emas. Agar Qunanboyevning yolg'iz o'zini aytayotgan bo'lsangiz, uning yo'li boshqa, lekin uning ilmga chanqoqligida, yoshi ulg'ayganda kelib, ilmga urinadigan odamlarning hammasida bo'ladigan ehtiros bordir! — dedi.

Mixaylov bilan Andreyevichning maqsadi shu gal Losovskiyga Abayni yaqinroq tanishtirib yuborish edi. Shu niyat bilan yana o'zining sinchiklab ko'ra bilishi, haqiqatparvarligi orqasida qanday fikrga kelganini aytib kelib, Mixaylov xulosa chiqararkan, so'zining oxirida:

— Qunanboyevda meni qiziqtiradigan bir fazilat bor. Ko'p marta hamsuhbat bo'ldim. Butun fikrini bildim. Shunda uning og'zidan: “Adolat, xalq, xalqqa halol xizmat”, degan gap ko'p chiqadi, yana shu fikr uning butun ruhini qamrab olgan. O'zi shuni odamgarchilik yo'li, deb biladi. Sahro vakillarining og'zidan bunday gap chiqqanligini sizlar ham ko'p eshitmagan bo'lsangiz kerak. Albatta, sizlar menga qaraganda qirg'iz sahrosini, xalqidagi odamgarchilikni, ularning xususiyatlarini yaxshiroq bilasiz. Lekin meni shu odamdagi gumanizm qiziqtiradi. Bu odamning istiqboli qanday bo'lishini bilishga juda qiziqaman! — dedi.

Abayning o'ziga aytmagan bo'lsa ham bu kunlarda Mixaylovning u haqdagi fikri mana shunday edi. Andreyevich Mixaylovning gapiga qo'shimcha qilib Losovskiyga:

— Siz qirg‘iz upravitellarini uquvsiz, g‘o‘r, tushunchasi tuban, muttahamlar deb bilasiz. O‘sha mansabga loyiq odamlarni o‘zi yaxshi biladigan sahrodagi turg‘un odamlar ichidan Qunanboyev sizga topib bersa... Siz bir gal o‘shalarni saylab, sinab ko‘rsangiz qanday bo‘lar ekan? — dedi.

Losovskiy bu fikrga norozilik bildirmadi. Balki uni nazarda tutishni bildirib, bosh irg‘ab qo‘ydi-yu, faqat:

— Qirg‘izning urug‘ boshliqlari bizning mahkama xodimlari uchun emas, hatto Qunanboyevning o‘zi uchun ham qiyin jumboq bo‘ladigan kishilar. Men avvalgilarga qaraganda keyingilari mutlaqo boshqacha bo‘lib, sahro hayotiga biror yangilik kirgizib, to‘g‘ri yo‘lga solib yuboradi, degan ishonchdan hozircha xoriman. Unsiz yotgan bepoyon qirg‘iz sahrosi, o‘zim bilgan o‘sha sahro bo‘ladigan bo‘lsa, mashaqqati ko‘p behad mushkul sahro. Mayli, bir tajriba qilib ko‘raylik. Natijasini bir-ikki yildan keyin sizlar Qunanboyev bilan shodlanib ko‘ra olsangiz, men shunga tilakdosh bo‘layin. Biroq o‘zim yaxshi natija berishga ishonaman, deb ayta olmayman! — deb, salmoq bilan istehzo aralash kuldi-da, gapining oxirini mansabdorlarga xos mag‘rurlik bilan tamom qildi.

Bir necha kun o‘tgach, Losovskiy saylovga chiqdi. Abay bilan Erbo‘l yaylovdagi ovulga, Ching‘izga xabar bergali Boymag‘ambetni yuborib, o‘zlari Losovskiy bilan birga Qizil Mo‘laga ketishdi.

Losovskiy bu gal Andreyevichning uyida bergan va‘dasining ustidan chiqdi. Qizil Mo‘la, Qo‘ng‘ir, Ko‘kshe, Ching‘iz bo‘lisddek uch bo‘lisning saylovida Abayni bir qadam nari yubormay, yonida olib yurdi. Hamma yerda bularni sha‘ni-shavkati bilan ko‘p yangi uylar tikib, qancha-qancha mollar so‘yib, ziyofatlar berib, ochiq chehra bilan kutib olishdi. Losovskiy bu ellarga Abayni hurmatli odam sifatida tanishtirdi.

Abay, uch bo‘lisning sayloviga yig‘ilgan elga bu safar g‘oyat e‘tiborli, zo‘r obro‘ qozonib ketgan kishidek ko‘rindi. El-yurt uni bamisoli bir sovetnik deb bildirdi.

Bu ishga Abay bosh qo‘shgani uchun bo‘lislik, biylik, nomzodlik uchun biror yerda churq etib janjal ko‘tarilmadi. Hamma yerda

ham Abay avvalo, o'sha elning es-hushli, halol odamlari bilan maslahatlashib olib, shundan keyingina Losovskiyya: "Falonchini tayinlash mumkin", deb, ko'rsatilgan odamning nomini aytardi. O'sha odamlarni o'tkazardi. Shaharda yurganida, avvalgi tajribasi bo'yicha sahro odamlariga yarim ishonch bilan qaraydigan Losovskiy shu gal bir oylik safar mobaynida Abayni o'ziga yaqin tutib, yaxshi bilib oldi. Anchagina hurmat ham qiladigan bo'ldi. Saylov kunlarida ba'zan Abayga hazil qilib:

— Ibragim Qunanboyevich! Men sizning maslahatingizga kirib, ko'rsatgan odamlaringizni tasdiqlayveraman. Biroq shu saylagan odamlaringiz ham avvalgi bo'lislardek poraxo'r, zo'rlik qiladigan, yolg'on prigovor beradigan, el janjaliga boshliq bo'ladigan xiyonatkorlardan bo'lib chiqsa, javobini o'zingiz berasiz. Do'stlaringiz Mixaylov bilan Andreyevich oldidagi mas'uliyat sizga yuklanadi, — deb kular edi.

Bu ishdagi javobgarlik o'z gardanida ekanini, ularning oldidagina emas, xalq oldida javobgar ekanini o'ylagani uchun Abay bu gal mana shu uch bo'lisga hech kimning xayoliga kelmagan uch yosh yigitni saylatdi. Ular bo'lislikka talabgor bo'lmagan kishilar edi. Ching'iz eliga Abayning o'zi bilan tengdosh, yoshlik chog'idan beri uning odamgarchiligini, fe'lini o'zi yaxshi biladigan qadrdon do'sti, To'g'jonning akasi Aslbekni ko'rsatdi. Qunanboy avlodini, Irg'izboy urug'ini norozi qilib, Abay o'z elining bo'lisligini o'sha Aslbekka olib berdi.

Qo'ng'ir Ko'kshe eliga bo'lis bo'laman deb, moli-dunyo sarf qilib, olishib kelayotgan ham boy, ham o'jar, zo'ravon, yosh bo'ri — Abenni saylatmay, uning o'miga "mo'min, esli yigit", deb Shimirboy degan yigitni saylatdi.

Qizil Mo'laga bo'lsa — bo'lislikni xohlamaydigan, Abayga "umrbod samimiy, tilakdosh ini bo'laman", deb yurgan Is'hoqni saylatdi. Qunanboyning bu o'g'li Abay bilan bir onadan tug'ilgandi. Ammo Qunanboy uni Qudoyberdiga ini bo'lsin, deb yoshligidan Kunkening qo'lida tarbiya qildirgan. Keyinchalik Is'hoq ko'pincha Takejonning pinjida bo'lib, faqat shu so'nggi yillardagina Abayni sofdil og'a deb, chin ko'nglidan do'st tutishga qaror

qilgan edi. Bir onadan tugʻilib, boshqa-boshqa hayot kechirib kelib, endi esi kirganda begʻaraz koʻngil bilan topishgan jigar boʻlgani uchun Abay shu Isʻhoqni koʻrsatdi. Shu kunga qadar yaxshi tanishligi boʻlmagan Matay eliga Isʻhoqni ovuli bilan koʻchirib kelib, shu elda boʻlislik vazifasini ado etishni topshirdi.

Shu yil koʻklamda Eralida toʻsatdan chiqqan gʻalayondan boshlanib ketgan “Abay bilan ulugʻning tortishuvi” hozircha shu yoʻsinda tamom boʻldi. Abay yengib chiqqanday boʻlib, uning xalq oʻrtasidagi obroʻyi yana ham ortib ketdi.

QARASH-QARASH VOQEASI

(qissa)

I

— Boyaqish Tektim-ey!.. Arslonday tayanchim eding... Qomg'oqday yep-yengil bo'lib qolibsan-a! Qo'limga og'irliging ham bilinmaydi, — deb bemor yigitni ko'targan akasi hozirgina to'shakni qoqib qayta solgan xotini Qatshaning yoniga olib keldi. Bemorni Qatsha bilan akasi o'rniga o'ng yoni bilan yotqizishdi.

Ko'targanda hansirab, rangi bo'zarib, darmoni qurigan bemor lablarini asta qimirlatib pichirladi. Akasi bilan yangasi uning yuziga termilishdi. “Odam ozsa — arvoh...” deb zo'rg'a boshini qimirlatganday ishora qildi bemor.

— “...Ot horisa — tuvoloq”, — deb Qatsha qaynisining fikriga tushunganini bildirib bosh irg'adi-da, g'amgin xo'rsinib qo'ydi.

Biri bemor, biri sog' ikki aka-uka Baxtiqul bilan Tektiqu bo'lib, Qatsha hozirgina oh urib gapirgan qora mo'ylovli Baxtiqulning xotini edi.

Baxtiqul ukasining ro'parasiga yonboshlab o'tirdi-yu, hali o'zining “tayanchim” deganini o'ylab, qattiq tashvishlanib qoldi. Uning ukasi aslida, baland bo'yli, to'ladan kelgan, qo'l-oyog'i uzun, nortuyaday azamat edi. Baxtiqulning o'zi ham zabardast, miqti, chorpaxil, bo'ychan bo'lsa-da, Tektiqu undan novcha, suyaklari yirik edi. Uzoqqa cho'zilgan sariq kasali bugungiday qattiq qiynagan chog'da Tektiqu o'rinda yotgisi kelmay, yonboshi teshilib og'rganidan, aka-yangasidan to'shakni kunda bir qoqib, yumshatib solib berishlarini so'rar edi. Hali ukasini kichkina boladay qo'lga olib, o'rin qoqib solinguncha ko'tarib turgan Baxtiqul uni bor og'irligidan ajralganday sezdi.

Hozir uning ro‘parasida o‘tirar ekan, ukasini bundan yigirma yil burun ko‘targani esiga tushdi.

Xalq orasida tarqalgan kuchli terlama kasalidan ota-onasi oldinma-keyin yiqilib, o‘rinda ikki kun yotmasdan, oldin onasi, keyin otasi o‘ldi. O‘shanda o‘n olti yashar Baxtiqul o‘n yashar mana shu Tektiquzni goh qo‘lidan yetaklab, goh charchaganda yelkasiga ko‘tarib olib, otasi aytgan tog‘a-xolalarinikiga bir necha kun yayov yurib zo‘rg‘a yetgan edi. Shundan keyin ko‘targani mana shu ekan. Tektiquz ham ko‘ngliga bir g‘urbat cho‘kkan-day indamay yotardi. “Kesilgan terakday qulatdi-ku meni. Shum yo‘qchilik qulatdi. Toshmehr dushmanning kaltagi, mana, bor darmonimni olib ketdi... Nimam qoldi?.. Tektiquz ukangning o‘rniga kimning qoldi sening?!” — deb, holsiz yuzini Baxtiqulga zo‘rg‘a burib, aka-yanga — ikkoviga birday galma-gal ko‘z tashlab, bor gapni aytib qo‘ya qoldi. “O‘chim... o‘chim qoldi!..” — deya hasratini aytdi-da, burun teshiklari qisilib, og‘zi qiyshayib, entikib yig‘ladi.

Bemorning nima deyayotganini Qatsha tushunib turardi.

— Qirilgurlar, kaltaklab sharmanda qilib, kasalga chalintirib, so‘raganda oriqliq u yoqda tursin, Xudo yo‘liga bir parcha go‘sht ham bermadi-ya!

Baxtiqul ichi to‘lib turgan bo‘lsa ham so‘zni qisqa qilib:

— Nega go‘sht bersin, uni bersa, undan kattasiga ham qarz-dor bo‘laman, deb yuribdi-ku, kekchi dushman, — dedi. Uning qovog‘i solinib, qalin qora mo‘ylovlari pastga egildi-da, gapdan to‘xtadi.

“Undan kattasiga” degani tushunarli. Agar Tektiquz bu darddan qazo qilsa, o‘zini aybdor bilib, go‘sht bergan kishi uning xuniga ham javobgar bo‘ladi. Shuni o‘ylagan dushman qayoqdan go‘sht beradi! “Kasal sendan, sening kaltagingdan bo‘ldi”, deganiga bosh egmaslik uchun go‘shetni og‘izga ham oldirmay qo‘ydi-ku!

Baxtiqulning esida qancha armonli, alamli kunlar bor. Ukasi ikkovi tog‘asini yo‘qlab borib, jiyanday kutib olinmadi. Burgen bo‘lisidagi Qo‘zibaq degan badavlat ovulga ikkalasi birday malay bo‘lib, o‘zi qo‘y boqdi, o‘n yashar ukasi qo‘ziga solindi. O‘shandan to bultur kuzgacha — yigirma yil davomida Baxtiqul ham,

Tektiqul ham Qo‘zibaq ovulining kenjasi Salmen degan boyning malayi bo‘lib ishladi. Qo‘ychilikdan ko‘tarilganda, qo‘li yetgani yilqichilik edi. O‘n yetti-o‘n sakkiz yil davomida Baxtiqul Salmenning mingga yaqin yilqisidan qancha yuzini tug‘dirib o‘stirib, qancha ayg‘ir uyurini semirtirib, allaqancha biya, ot ayg‘irini qaritib, qishin-yozin boy yilqisining orqasidan yurdi.

Qish — otarda, yoz — yaylovda, yonidagi besh-olti Jamantoy, Ko‘kay singari biri qari, biri tengqur yilqichilar bilan umr kechirdi. Ukasi Tektiqul bo‘lsa qo‘y boqish bilan o‘n yilcha qirchillama yoshlik davrini o‘tkazdi. Keyin biyachi bo‘ldi. Kunduz biya sotish, kechasi qo‘y qo‘riqlash bilan uning ham betinim uqubatli umri zoye ketdi.

Bular yetmaganday, o‘z moli ko‘ziga ham ko‘rinib, Qo‘zibaq ovuli “barimta”, “bosimta” deb, malay yigitlarni yoz kunlari ne-ne balolarga ham giriftor qilar edi.

Baxtiqul yigirma besh-yigirma oltilarga kirib, Tektiqul yigirmalarga qadam qo‘ya boshlagan chog‘da, bular arslonday zardast, g‘ayratli yigitlar bo‘lib yetishdi. Lekin ikkovining birday bolalik chog‘idan qilgan mehnatlari evaziga topgani juldur ustbosh edi. Baxtiqul o‘n yil ishlab qo‘shnisi kambag‘al malayning qizi Qatshani bor topganini berib zo‘rg‘a olgandi.

Tektiqul hozir o‘ttizda. Hali uylangani ham yo‘q. Urishqoq Qo‘zibaq ovuli, agar birov bilan barimtalashsa, ikkovining qo‘liga qora cho‘qmor, ostiga uchqur ot berib, qaroqchilik qilishga ham yuborar edi. Qo‘zibaq ovulining Salmendan katta akasi Sat, bo‘lislik talashib, yig‘in-saylovlarda ko‘p marta qirg‘in-janjal chiqardi. Ularning raqiblari bu ur-yiqitlarda Qo‘zibaqning “qora so‘yil, qaytmas yigitlari qaqshatadi”, deb cho‘chib gapirishganda, eng oldin Baxtiqul bilan Tektiqulni tilga olishardi. Gohida bularni xo‘rlab, mazax qilib: “Ikki qul, qo‘sh qul” deb atashar, janjalkash, urishqoq Qo‘zibaq ovulining ham cho‘qmori, ham Xudo bergan itoatkor quli deyishardi.

Qo‘zibaq ovuli barimta bilan boyidi. Shuning uchun ham erkak malaylarga emas, ularning barcha xotin-xalaj, bola-chaqasigacha bu ovulning “biz barimta olmaymiz, bizga hech kimning moli kerak emas”, degan so‘zlarini kulib tilga olishardi.

Baxtiqul bilan Tektiqul Salmenning qo‘liga kelgandan keyin boyning moli yil sayin tug‘ib ko‘paygani ustiga ustak barimta qo‘shimchadan ko‘payib bordi. Akasi — bo‘lis, ukasi urishqoq shaqol bo‘lgandan keyin Qo‘zibaq boyimay kim boyisin! Shunaqa yangidan yangi qo‘shilgan mollarning qanchasi Baxtiqulning ham qo‘lidan o‘tgan, allakimlarning halol moli bo‘lardi.

Aka-ukaning qish-u yoz qilgan mehnati, zo‘r g‘ayrati xo‘jayinga juda katta foyda keltirsa-da, Salmen ularni ham ko‘p yillar davomida boshqa malaylari kabi haq bermay ishlatib yurdi. Bular ko‘chmanchilarning malaylari oladigan haqni, odatdagi falon qo‘y, falon kiyimdan deb belgilab qo‘yiladigan haqni bilganlari yo‘q.

Shuning uchun Tektiqulning boshiga bitta ham mol bitmadi. Baxtiqulning yigirma yillik mehnati, xotining o‘n yil sigir sog‘ib, kuyib-pishib qilgan xizmati birovlarining kayf-safosiga ketdi. Ularning bor mol-dunyosi Baxtiqul bilan Tektiqul ikkovining o‘rtasidagi mana shu yirtiq eski o‘tov, to‘rt-besh bosh mol, o‘n choqli echki-uloq edi, xolos. Yigirma yil davomida begonaning molini ko‘z qorachig‘iday boqib asragan, tog‘ni ursa tolqon qiladigan ikki og‘a-ini bilan uy va chorva ishidan bosh ko‘tarmagan Qatshaning to‘plagan boyligi shugina edi.

Xo‘jayin ularning haqini yegani yetmagandek, endi umrini, qirchillama yosh umrini xazon qilganini aytmaysizmi! Baxtiqulning ko‘z o‘ngida bulturgi dovulli sovuq qora tun paydo bo‘ldi.

Baxtiqul yilqining bir uyurini haydab kelsa, Salmen butun ovulni boshiga ko‘tarib birovni so‘kyapti. Yaqinroq kelsa, so‘ka-yotgani — Tektiqul.

Salmen dovulda pana axtarib qochgan qo‘ylarni to‘xtatgani yalang‘och, yalangoyoq tez chiqmading deb, Tektiqulni uribdi. Tektiqul bunga javoban: “Uvillayotgan sovuq dovulni ko‘rib turibsan! Bergan kiyiming bo‘lsa yolg‘iz eski chakmon, uning ham qo‘ltig‘i bilan yelkasi yirtiq. Yog‘in bilan dovulga nima kiyaman? Loqaq tuzukroq kiyim ber!” — degan.

Salmen baqirib: “Qo‘y boqish — sening burching, qo‘yning yarmi qochib ketayotganda sen haqdan gapirasan!” — deb uni so‘ka ketadi. Jo‘ngina iliq kiyim so‘ragan Tektiqulni bo‘limg‘ur so‘zlar bilan so‘kadi. Tektiqul shunga achchig‘lanib: “O‘n yillik

mehnatim bir iliq kiyimga yetmasa, molingning qulog'ini... haydab yubor meni, sendan qo'rqar yerim yo'q!" — deydi.

Bundan quturib ketgan Salmenboy Tektiqulni besh yigitga urdirib, o'pkasiga teptirib, hamma joyini majaqlatib tashlaydi. Qorong'i tunda, sovuq dovulda kiyimsiz qoldiraman, deb dalaga haydab yuboradi.

Baxtiqul yilqini to'plab kelganda, Qatshaning o'lik yo'qlagan-day mungli un chiqarib, qaynisi Tektiqulga joni achib yig'layotganini eshitadi. Baxtiqul otdan tushmay, darhol atrofga chopib, hoy-hoylab Tektiqulni axtaradi. Biroq tong otguncha topolmaydi. Ovulda qolgan yilqi dovuldan hurkib, ochiq dalaga tarqalib ketadi. Baxtiqulning molni tashlab ukasini axtargani, buning ustiga, Tektiqulni o'lay deb yotgan yeridan topib, otiga mingashtirib olib kelganini bilgan Salmen, Baxtiqulni ota-bobosidan tortib so'kib qamchilaydi. Lekin Baxtiqul Salmendan qo'rqmaydi, ukasini yoqlab: "Jonimdan sadag'a ketsin haromdan to'plagan moling!.. Men ham Tektiqulning so'zini aytaman! — deydi, tap tortmaydi.

Qonxo'r Salmenning jazosiga aka-uka mana shunaqa birday uchragan edi. Buning oqibati ularni Qo'zibaq ovulidan ajrab, ko'chishga olib keldi. Ham o'pkasidan yegan kaltak zarbi, ham yalang'och badaniga urilgan qora sovuq Tektiqulni butkul kasal qilib qo'ydi. Salmen bilan arazlashgan Baxtiqul ukasini quchog'iga oldi-da, uch kun ichida ko'chib ketib, qo'shni Shalqar bo'lisida, bundan yigirma yil burun ota-onasi o'lganda tashlab ketgan yomon qo'raga borib joylashdi.

Qish bo'yi og'rigan Tektiqul mana bugun yorilib ichidagi armonini aytdi. "Xotin-bolam, ota-onam, aka-yangam", demay, "o'chim" dedi ichini alam timagan bechora yigit.

Qishki so'qim so'yish vaqtida Baxtiqul Salmenning kaltagidan ukasining kasal bo'lib qolganini aytib, Satga shikoyat qilib, Salmendan biroz go'sht olib berishni so'ragan edi. Sat darrov buning oxiri xunga olib borib yo'liqtirishini payqadi-da, Baxtiqulning damini chiqarmaslik uchun:

— Ukang kaltakdan o'ladigan bo'lsa, bundan uch oy burun kaltak yegan kuni o'lar edi. Undan keyin o'zing ichikib, sarg'a-yib kasal bo'ldi, deysan. Bu sariq kasali bilan kim og'rimaydi?

Xudo yaratgan dardga Salmen javobgarmi? Sening ukang u yoqda tursin, Salmen bilan men — ikkovimizning yolg'iz onamiz og'zi moydan arimasa ham shu sariq kasalidan qazo qildi-ku. Senga aytadigan gapim shu, aytmaydigan gapni aytkizding. Bundan keyin taqdirning jazosini Salmendan olaman, degan tayini yo'q so'zni ikkinchi og'zingga olma, — deb qaytarib yubordi.

Ukasining hali “o'chim” degan armonini eshitganda, Baxtiqul qismatning mana shunday barcha alamli ko'rgiliklarini esga oldi. Bu choq ko'klam payti edi. Oradan bir-ikki juma o'tar-o'tmas Tektiqul vafot etdi. Baxtiqul uning orqasidan: “Qanotim eding, arslon-day tayanchim eding, nima gunohing bor edi? Bu dunyoga kelib sen nima ko'rding? Men tirik qolguncha, nega birga o'lmadim”, deb o'ksib-o'ksib yig'lab qoldi. Uning ko'z yoshi ukasining qirqigacha arimadi. Yirtiq o'tovli kichkina Sari elini to'plab, ukasining qirqini o'tkazgach, Baxtiqul boshqa bir yumushga chog'landi.

II

Tog' orasining yomg'irli qorong'i tuni Baxtiqulning ko'nglida ko'pdan yechilmay yurgan shubha-ikkilanishlarni bir onda o'p-o'ng'ay yechib yubordi.

— Hozir kuz tuni uzoq. Shu topda borib mol olsam, tong otguncha olisga ketib qolaman. Mana bu yomg'ir izimni ham yuvib tashlaydi. Shuncha yerdan borib quruq qaytarmidim? Ko'z tikkan joyimdan hech nima ololmaymanmi? — dedi.

Baxtiqul tunda ko'p mol olib yurib o'rgangan tajribali ko'zlari bilan atrofga yana bir qaradi. Tanish yerlar. Bahaybat, ulug' tog'. Go'yo molni yetakka olgin-u, tepadan oshib, to'qayga kirib ketaver, deb chaqirayotganday.

Oqish yomg'irda qora tokning ba'zi joylari dev-alvastilarning makoniga o'xshab ko'rinadi. Shitirlagan qarag'ayzorlar yaqindan qop-qorayib, allaqanday qorong'ilikning tubsiz chohi bo'lib tuyuladi. Baland qora qoyalar ertaklardagi yalmog'izlarni gavdalantiradi.

Tog' yo'li — balandlikni ko'ndalang kesib o'tadigan bir oyoq yo'l. Yog'inli chog'larda u xavfdan xoli bo'lmaydi. Tippa-tik qi-

yaliklarda otning ikki tuyog'i arang sig'adigan so'qmoqdan yurish kerak. Tog' yo'lidan yurgan yo'lovchi faqat otiga ishona oladi. Bunaqa paytlarda qulunlik chog'idan qiyaliklarda yoyilib alqor-day tosh qoyaga o'rganib o'sgan tog' yilqisigina jonga ora kiradi. Baxtiqulning bo'z oti ohista lo'killab, hurkmay, har bir qadamini o'lchab bosib, dadil borardi. Jonivor ahvolni tushunganday, biqini-ga niqtalsa ham oldingi oyoqlarini ehtiyotkor tashlab, orqa oyoq-larini ishonchli ko'chirish bilan egasiga madad beradi. Faqat yo'l emas, chekkadagi xas-cho'plar ham yomg'ir suvi bilan toyg'oq bo'lib ketgan edi. Bo'z otni mana shu qiynadi. Ko'p mashaqqatli yo'llardan yurgan tajribali Baxtiqulni ham shu cho'chitdi.

— Bu yomg'ir hali-veri tinadiganga o'xshamaydi. Ust-bo-shimni shilta qilib qayerga boraman? — deb Baxtiqul otini to'xtatib, bir nafas o'yladi-da, keyin: — Yo'limdan qaysi Qo'zibaq ovulining yilqisi chiqsa, shundan olaman! Men barcha Qo'zibaq ovulining yilqisini boqqanman. Qo'zibaqqa qaragan ovullarning hammasi mening qonli xundorim! — deb bo'z otning qorniga tepib, o'ng tomondagi qarag'ayzorga qarab yurdi. Haqiqatan ham, Tektiqul uchun Salmen xun to'laydigan bo'lsa, bu butun Qo'zibaq ovuliga baravar tegishi aniq edi.

Baxtiqulning uydan chiqqaniga ikki kun bo'lganidan, mesh-dagi ivitilgan qurt ham tugay deb qoldi. Shu ikki kun ichida issiq ichmagani ustiga, endi suvi ham yo'q hisob. Tog'dagi och qash-qirday ikki bukilib, Sarimsoqlining qarag'ayzorida bir kun, bir tun bekinib yotdi; odamlarga ko'rinmayin deb tirishganidan ko'ziga uyqu ham kelmadi. Dastlab uydan chiqqanda mo'ljallagani yolg'iz Salmenning yilqisi edi. “Juda bo'lmasa Satning yilqisi qo'linga tushar”, deb o'ylagan edi. Endi yo'l qiyinchiligi, kuz tunining sovug'i, ochlik — hammasi birga qo'shilib, uni Qo'zibaq ovuli-ni-ning birinchi uchragan yilqisiga qo'l urish fikriga olib keldi.

Hali soyga tushmagan yilqi bu chog'da dalaga ko'chgan ovul-larning yaylovlarida bo'ladi. Baxtiqul do'ng yaylovga burilishi bi-lanoq ko'nglidagi shubha-ikkilanishlari ko'tarilib, kayfiyati bir qa-dar yengil tortganday bo'ldi. Uning ko'ziga ishning oxiri ko'rinib ketdi. Xundori — Salmen; shunday ekan, nega uning og'a-inisi oq bo'ladi? Bu uni yaylovga sudragan kuchlardan biri. Bu — bir

tarafdin. Undan keyin, tog' orasida qolgan yolg'iz oilaning mana bu qurumsoq kuzda tishini so'rib o'tirishi-chi! Yo'liga termilgan bola-chaqasining oldiga bir toyni yoki qisir biyani eltib so'ysa! Uni uyda o'tqizmay, so'k va qora tolqonga qanoat qildirmay otga mindirgan, yog'inli qorong'i tunda yo'lga chiqargan turtkilarining biri shu emasmi?

Do'ng yaylovda yon bag'irlab o'rmalab borar ekan, Baxtiqulni zo'r g'ayrat qamrab oldi. Charchagan, ochiqqan, sovqotgan gavdasi kuchga to'lib talpindi. Ola tog'ning tepasida uchib yurib, to'satdan pastga sho'ng'ib ayyor tulkini ushlagan, keyin uni kuchli panjalari bilan qisib, viqor bilan silkingan osmon shohi bor-ku? Bo'lajak ishning haroratidan yallig'langan Baxtiqulning vajohati hozir shuni eslatar edi.

Baxtiqul yoshligidan o'zligicha bunday ishlarga o'rganmagan bo'lsa ham Qo'zibaq ovuli barimta-bosimta deb, uni tungi yurishlarga ko'p yumshagan. Shuning uchun tunda podadan yilqi olib chiqish unga juda oson tuyuladi. Tungi yurishlarga borganda, ahvol har qancha qaltis-tiqilinch bo'lmasin, u ishni bitirish uchun oxirigacha urinish, hamma vositalarni sinab ko'rish Baxtiqulning tug'ma odati edi. Hatto yilqichi uyg'oq yurgan molga borganda ham ilojini topib, to'daga doim bilintirmay kirib ketardi. Mana shunday abjirligi uchun Qo'zibaq ovuli ko'pincha uni barimtachilarga boshchi qilib yuborar edi.

Baxtiqul qo'lga tushgan molni ham orqadan quvgan yovga osonlikcha bera qolmas edi. Urishishda hiylakor, so'yil-cho'qmor ishlatishda u tengi yo'q usta edi. Ot ustidagi jangda bir emas, ikki-uch kishiga ham ro'para bo'la olaman, deb o'ylardi. Haqiqatan ham, shunday edi. Ko'p yilqichilardan uni ayirib turadigan xislati ham shu kuchi bilan abjirligi, mardligi edi.

Baxtiqul bir silkindi-da, etagini yig'ib, egarga o'rnashib o'tirdi. U dovonning orqasida shuvullab yoyilib kelayotgan qalin yilqi podasining sharpasiga sezgirlik bilan quloq solib borardi. Yilqichi uyg'oq bo'lsa, chetda turib payt poylash kerak. Baxtiqul toshlarning sharaqlab ketishidan qo'rqib, otini yumshoq maysazordan yurgizdi. Yilqini ko'rganda to'satdan kishnab yubormasin deb, tizginni tortibroq ushladi.

Uyurdagi yilqilar pishqirib, dupurlab, ora-sira toy-qulunlar, bit-ti-yarimta uyurning ayg'irlari kishnab, yalanglikdagi o't-maysani kurt-kurt uzib, dovon tomonga o'tlab kelardi. Baxtiqul qorong'ida qoraygan yilqi to'dasini endi aniq ko'ra boshladi. Bo'rkini yechib, egarning qoshiga ildi. Keyin otini to'xtatdi-da, yilqi tomonga qulog'ini burib, bir nafas jim turdi. Yilqichining daragini bildiradigan hech qanday sharpa eshitilmadi. Shu atrofda yuribdimi yo bir joyda uxlab yotibdimi — bilib bo'lmaydi. Yilqilarning sochilmay, to'p bo'lib o'tlayotganidan, Baxtiqul yilqichi uyg'oq bo'lsa kerak deb o'yladi.

Bir mahal yilqidan allaqanday qora ajralib chiqdi. Baxtiqul otining boshini sal tubanga bo'shatdi-da, uzangiga oyog'ini tirab, bo'ynini cho'zib qaradi. Haligi qora yoyilib kelayotgan bir to'da yilqi ekan. Chetga chiqqan bironta ayg'irning uyuri bo'lsa kerak. Baxtiqul uyurni hurkitmaslikka tirishib, ohista qo'zg'aldi. Uning oti bir-bir bosib yilqiga yaqinlasha boshladi.

Uyur hurkib, orqaga tisarildi. O'rtada yoyilib kelayotgan qalin yolli semiz ayg'ir boshini zarb bilan ko'tarib, Baxtiqul tomonga o'dag'aylab qaradi. Baxtiqul boshini egib, o'zini mudrab kelayotgan yilqichiday qilib ko'rsatdi. Bir necha daqiqadan so'ng u uyurning o'rtasiga kirib oldi.

Dastlab uchragan otlarning hammasi unga yoqmadi, bular uning ko'ziga mayda toy-qulunlarday bo'lib ko'rindi. Qorong'ida yaqin borib ko'rmaguncha, yilqining semiz-oriqligini ajratish qiyin. Bir mahal uning qarshisidan bir semiz qisir biya o'tib qoldi. Baxtiqul "izlaganim shu" deganday egarda bir siltanib tushdi. U darhol otining tizginini tortib bo'z biyaga qarab burdi. So'ng yonidan halqali qil chilvirini sug'urib oldi-da, biyaning boshini mo'ljalab uloqtirdi. Halqa mo'ljalga ilindi. Bo'yniga hech qachon arqon tegmagan asov biya, birdan pishqirib, oldinga sapchidi. Baxtiqulning oti buni burundan bilganday, egasining qoqishini kutmasdan, darhol unga ergashdi.

Biya ancha vaqtgacha to'xtamasdan, kuch bermay sudrab yurdi. Baxtiqul chilvirni qo'yib yubormaslikka tirishib, uni asta-asta torta boshladi. Biya boshqa otlarga ergashib qutulib ketishga intilgan sayin halqa qisilib, bo'ynini bo'g'ib bordi. Oxir, holsizlanib,

tinkasi qurigan jonivor, kuchli qo'llarga noiloj bo'ysunib, quloqlarini hurpaytib to'xtadi. Bu orada yon-veridagi otlarning ba'zilari kishnab, ba'zilari pishqirib, Baxtiqul bilan bo'z biyadan hurkib qocha boshlagan edi. Bularga Baxtiqul e'tibor qilmadi. Hali ham depsinib, chilvirni tortqilab turgan bo'z biyani silab-siypab asta no'xtalab oldi. Keyin qamchisining uchi bilan biyaning sag'risiga ohista turtib, qavatiga o'tkazdi-da, dovonga qarab yurdi.

Faqat shundagina yonginasida qo'qqayib turgan barzangiday yilqichiga ko'zi tushdi. Yilqichi so'yilini ko'tarmay, qimir etmay turardi. O'g'rini ko'rib esi chiqib ketganmi yo uni yilqichi deb o'ylayaptimi — bilib bo'lmasdi.

Baxtiqul shovqin ko'tarilmay turganda jo'nab qolmoqchi bo'ldi. Uning maqsadini payqagan yilqichi avvalgiday mudroq bo'sh harakat bilan bo'z otning tizginini ushladi. Baxtiqul kutilmagan xatarga yo'liqdi. Hali bo'z biyaning bo'yniga tashlangan halqa endi o'zining bo'yniga tushganday bo'ldi. Lekin ajabo, yilqichi hamon qimir etmay turardi. Aftidan, u o'ziga ishonmasdi. Shunda Baxtiqul to'satdan bu odamni tanidi. Bu — Salmenning Qo'qay degan yilqichisi edi. Baxtiqul sevinganidan beixtiyor kulib yubordi. U yilqi boshqa Qo'zibaq ovuliniki bo'lsa kerak deb o'ylagan edi. Endi bilsa, xuddi o'zi mo'ljallagan, o'ch olmoqchi bo'lgan dushmani, xundori — Salmenning yilqisi ekan. Mana bu Qo'qay bo'lsa hammaga kulgi bo'lib yurgan, barzangi gavdasidan bo'lak hech nimasi yo'q, yuraksiz bir odam... Shularni tez-tez xayolidan kechirgan Baxtiqul: "Bu meni ushlagga ushlab qo'yib, endi qo'rqib turibdi", degan xulosaga keldi va otning qorniga tepib, depsinib: "Tort qo'lingni!" — deya pishqirib, qamchisi bilan uning boshiga tortib yubordi.

Qo'qay lapanglab otdan uchib tushdi.

Qo'qay ko'pdan beri Qo'zibaq ovulida Salmenning yilqisini boqib yurgan bo'lsa-da, hali bir marta ham o'g'ri bilan betma-bet kelib olishmagan edi. U so'yil bilan Baxtiqulni urish u yoqda tursin, buni hatto xayoliga ham keltirmadi. U so'yilni shunchaki taqimida sudrab yurgani bo'lmasa, hech qachon odamga ishlatgan emas. Baxtiqul bir depsinib, uni qamchi bilan urganda, azaldan suyak-suyagiga singib ketgan qo'rqoqligi orqasida o'z ishini bit-

gan gumon qilib, egardan osongina uchib tusha qoldi. Hatto “o‘g‘ri ketdi” deb shovqin ham ko‘tarmadi. O‘g‘rini ushlagan yerida qo‘lidan chiqarib yuborgani uchun boshqa yilqichilar kulib yurmasin, deb uning qorasi ko‘zdan yo‘qolguncha hech nima sezmagani bo‘lib indamay yotdi.

Baxtiqul xavfdan qutulgach, otini soyga burib, qarag‘ayzorga qarab yurdi. Jinday uzoqlashsa, qorong‘i tun o‘z og‘ushiga olib, uni butkul yashirishi aniq edi. Lekin u boshqa bir yilqichiga duch kelib qoldi.

— Hoy, kimsan? — deb qichqirib, bu yilqichi yon tomondan chopib kelardi.

Baxtiqul uning ovozidan, ishonch bilan chopishidan, juda qaltis xatarga uchraganini payqadi; hovliqmaslikka tirishib, oyoqlarini bir siltadi-da, qamchi bilan bo‘z biyaning orqasiga sekin urdi.

— O‘g‘ri ketdi! Bu yoqqa chopinglar!.. O‘g‘ri ketdi! — Yilqichining tovushi tog‘ orasini titratdi.

Yana bir necha yerdan boshqa yilqichilarning qo‘qqisidan cho‘chib hoy-hoy solgani eshitildi. Nafas o‘tmay ularning hammasi tekis ovoz chiqarib, tog‘ orasini shovqin-suronga to‘ldirib, yov qochgan tomonga tasir-tusur chopisha ketdi.

Tez ko‘tarilgan ahil hoy-hoyga qaraganda, yilqichilar ko‘p va hali bittasi ham uxlamagan edi. Jimgina yoyilib kelayotgan otlar tun shovqinidan qattiq cho‘chidi. Tog‘ bag‘rida elsiz-egasiz yurib alqor va tog‘ echkisiday yovvoyilashgan yilqi, hatto kunduzgi shovqindan ham cho‘chib ketardi. Hozirgi suron bir joydagi to‘dani ikkinchi to‘daga surib, aralash-quralash qilib yubordi. Olatasirda toy-qulunlarning oyoq ostida qolib, chinqirib kishnagani eshitaladi. Bulardan cho‘chigan otlar xuddi orasiga yashin tushganday, qaytadan surilib, sharqirab kishnab, to‘s-to‘polon bo‘lib ketdi.

Yilqichilar buni bilishmadi. Shovqin solib, dastlab hoy-hoy ko‘tarilgan tomonga quruq chopishgani bo‘lmasa, ular hech kimni ko‘rishgani ham yo‘q. Adashib qolishdi. Tog‘ orasi bir qadam yurilsa adashtiradi.

Amallab so‘yil uzatsa yetadigan joyga chiqib olgan qaroqchi, atrofni yaxshi bilsa, bemalol qutulib ketadi.

Birin-ketin yilqichilar orqaga qaytishdi. U yer-bu yerdan ularning xitoblari eshitila boshladi:

— Hoy, nima bo‘ldi?

— Ko‘rgan odam bormi o‘zi?

Yilqichilar qaytib kelib, bir joyga to‘planishgach, oralarida bosh yilqichi Jamantoyning yo‘q ekanini payqashdi. Birinchi marta hoy-hoy solgan ham shu edi. Yilqichilar darrov birinchi marta ovoz kelgan joyga borishdi.

Tepalikda hech kim ko‘rinmasdi.

Yilqichilar qiyalikka o‘tishdi. Bir mahal pastdan ingraganga o‘xshash g‘alati ovoz eshitildi. Yilqichilar darrov pastga tushdilar. Kattakon bir qoyaning yonida do‘ppayib allanima yotardi. Ammo yaqinda ot yo‘q.

Yilqichilar Jamantoyning otini aytib chaqirishgan edi, yana ingragan tovush eshitildi. Aftidan, do‘ppayib ko‘ringan qora — odam edi. Lekin uning kimligi noma‘lum. Yilqichilar yaqinroq borib qarashsa — Jamantoyning o‘zi: qimir etmay yotibdi.

— Iya, usti qon-ku? — dedi uni birinchi ushlagan yilqichi cho‘chib.

Bu so‘zni eshitib, boshqa yilqichilar ham seskanib ketishdi. Jamantoy ingrab, asta-sekin o‘ziga keldi.

Voqea bundoq bo‘libdi:

Jamantoy birovning uyurdan ot yetaklab chiqqanini ko‘rib qolib, darrov orqasidan tushibdi va yo‘lakay “o‘g‘ri ketdi” deb qichqiribdi. Lekin yetak yetaklagan yov, uni ko‘rsa ham soyga burilmay, to‘g‘riga ketaveribdi. Soyga burilmagani — tik qiyalikdan, toshloqdan qo‘rqibdi. Chamasi, yov yer hadisini yaxshi biladigan odam ekan.

Jamantoy yuqoridan chopib borib, darrov uning yo‘lini to‘sibdi. Lekin ot juda qaltis yerda — chopib kelayotgan qo‘sh ot turtib yiqitib ketadigan joyda to‘xtabdi. Shuni o‘ylagan Jamantoy dolzarbda tuzuk harakat qilolmapti. Bor-yo‘g‘i bir martagina so‘yil ura olibdi, xolos. Bu ham yaxshi tegmapti. Yetakda uchib kelayotgan bo‘sh ot uning otini qoqib, pastga itqitib yuboribdi.

Yov darhol cho‘qmorini chiqarib, Jamantoyga o‘girilibdi-da, qulochkashlab bir uribdi. Chopib o‘tib ketayotib ursa ham

cho‘qmor Jamantoyga juda qattiq tegibdi. Bu orada uning oti surilib borib yiqilib tushibdi. O‘zi otining boshidan oshib, soyga dumalab ketibdi.

Jamantoy qaroqchining kim ekanini bilolmapti.

Baxtiqul so‘nggi xatardan qutulgach, otini sekinlatib, qarshidagi toshni aylanib o‘tib, qarag‘ayzorga kirib ketdi. U xuddi to‘pi bilan yopirilgan itlarning orasidan omon chiqqan bo‘riday gerdayib otlarini lo‘killatib ketaverdi. Bir xilda uzoq to‘g‘riga yurmay, orqadan tushgan quvg‘inchilarni adashtirish uchun aylana qilib yurdi: orqaga qaytib, ayyor tulkiday keskin burilishlar yasadi. Bir manzilga yetgach, o‘girilib, sharpa-tovushga quloq soldi. Yomg‘irning shitirlashidan bo‘lak hech qanday ovoz yo‘q. Baxtiqul yengil xo‘rsinib, asta biyaning orqasini ushladi. U shu choqqa biyaning semiz oriqligini chamalab ko‘rmagan edi. Simobday selkillab turgan po‘rsildoq go‘sht uning panjasiga yumshoq tegdi. Baxtiqul qoniqqanidan: “Jonivor!” — deb qo‘ydi. So‘ng tag‘in ko‘zim tegmasin deb, barmoqlariga tufladi.

Yomg‘ir bir me‘yorda shitirlab maydalab yog‘ardi. Osmon qop-qora. Baxtiqul tun mo‘ljalini bilolmadi. U bir lahza o‘ylab, tong otguncha jadallab yurishga qaror qildi. Shu o‘y bilan otdan tushdi-da, tortma va ayilni bo‘shatib, egar-to‘qimni ko‘tardi. Otning yolini, orqasini siladi. Keyin ayil-tortmani mahkamlab qayta bog‘ladi-da, egarga mindi. Endi yuriladigan yo‘l pastga qiyalab tushadi. Oti hordiq chiqarib, yaxshi dam olibdi. Baxtiqul qo‘lidagi tizginni bir siltab, qamchi bilan biyaning orqasiga sekin urdi.

III

Sahar paytida Baxtiqulni uyqu elta boshladi. Bir necha kundan beri charchagan gavdasi jinday hordiq chiqarishni talab qildi. Ammo Baxtiqul o‘rta yo‘lda to‘xtashni xohlamadi. Tanasining holsizligini yengib, bir me‘yorda jadal yurishni bo‘shashtirmay, oppoq tong otguncha yurdi. So‘ng yorug‘da birovning ko‘ziga tushib qolishdan qo‘rqib, xilvat qarag‘ayzorga burildi.

Shundan keyin Baxtiqul dam olmadi. Ertasi tush og‘a boshlagan paytda charchab, horib tog‘ orasida qo‘qqaygan yolg‘iz

qo'rasiga yaqinlashdi. Uning qashshoq ovuliga kelib turadigan odam bo'lmasa ham xabar olmay turib mol bilan kirib borish xatarli edi. Biyani tushovlab, ovulning orqasidagi chuqurda qoldirdi-da, o'zi uyiga bordi.

Hali yerga qor tushmagani uchun oila sirtida, qo'raning yonidagi yirtiq kigiz o'tovda yashardi. Uzoqdan turib Baxtiqulning ko'zi hovlida bolalariga choy qaynatib yurgan juldur kiyimli Qatshaga tushdi.

Ularning bolalari uchta edi. To'ng'ich o'g'li Seyit — o'n yoshda. Undan kichigi — besh yashar Jumatoy. Eng kichigining oti — Batima. Uning yoshi — ikkida, u hali emizikdan ajratilgan emas.

Uzun bo'yli, to'ladan kelgan Qatsha o'rnidan turib, erini ochiq chehra bilan qarshi oldi. Baxtiqul indamay eshik yonidagi shoxshabbdan hatlab to'rga o'tdi. Uning kelishi hurpayib turgan qashshoq uyga jon kirgizganday bo'ldi.

Baxtiqul bir me'yorda yonayotgan olovga qisqa nazar tashlab:
— Tezroq beradigan choying bormi, xotin? — dedi.

Qatsha erining bo'yniga osilishga tayyor tursa ham o'zini bosib, astagina:

— Qo'lingizga hech nima ilindimi? — deb so'radi.

Baxtiqul unga javob berish o'rniga:

— Tezroq bo'l, choyingni keltir. Ish bor! — dedi.

Qatsha uyidagi bor qo'r-quti bilan unga choy berdi. Yozdan buyon sut bermay yurgan sigirning eski yog'i bor edi. Sandiqni ochib, timirskilab, meshdan shuni ham olib qo'ydi.

Bolalar dadasi kelib, uyning chiroyi o'zgarganiga xursand. Oyisi bilan dadasining ochiq chehralariga qarab cheksiz sevinishadi. Jumatoy bilan Batima bir-birini turtkilab, sakrab, qayta-qayta sharaqlab kulishadi. Seyit shodlikdan o'zini qayerga qo'yishni bilmay o'tirsa ham katta yigitday qovog'ini solib xursandligini sezdirmaslikka tirishadi. Baxtiqul ustma-ust uch-to'rt piyola choy ichdi-da, o'rnidan turib, qayta kiyindi. U uyda juda kamgap edi. Shu odati bilan xotiniga:

— Birozdan so'ng qopingni olib bor, — dedi-da, chiqib ketdi.

Jumatoy dam Seyitning qo'ldan, dam Batimaning qo'ldan ivitilgan qurti tortib olib, yoqalashib, Seyitni kuldrib, goh o'zi kulib, shu yo'sinda bolalar o'ynab qolishdi.

Qatsha ularga:

— Uydan qo'zg'almanglar! Olovga qarab turinglar. Birov ke-lib so'rasa, oyim tezak terгани ketdi denglar! — deb tayinlab, erining orqasidan ketdi.

U qo'raning orqasidagi jo'kani aylanib o'tib, pastga burilgan-da, chuqur tosh darada bo'z biyani so'yayotgan eriga ko'zi tushdi. Biyaning to'rt oyog'i ko'tarilgan, Baxtiqul uning terisini shilmoq-da edi.

Dara chuqur, atrofi baland. Aftidan, bu eski ko'lning o'rni edi. Keladigan odam faqat jo'kaning yonidagi qirg'oqdan oshib tushadi. Chuqurning yon tevaragi ham yaxshi: katta-katta qo'ybosh toshlar bilan o'ralgan. Uzoqdan yaxlit toshloq bo'lib ko'rinadi.

Qatsha bir og'iz gapirmay biyani so'yayotgan eriga qarasha ketdi. U go'shtni burdalashga ham yordam berdi. Ish orasida baland toshning tagiga bir parchagina qilib olov yoqdi. Erining bir necha kun och yurganini o'ylab, biyaning jigarini, ikki-uch bo'lak yog'li go'shtini o'tga tashladi.

Baxtiqul olovni birov ko'rib qoladi, deb hadiksirasa ham xotiniga qo'y demadi. Uni ochlik yengdi. Kech kirguncha ikkovi biyani chala-chulpa so'yib bo'lishdi. Undan bir haftaga yetadigan go'shtni ajratib olishdi-da, qolganini teriga o'rab, unurga tiqib, ustidan tosh bilan mahkam bekitishdi. Keyin qopdagi go'shtni ko'tarib, qosh qorayganda uyga kirib borishdi.

Ularni ko'rib, bolalar qattiq sevinishdi.

Baxtiqulning ko'nglidan bir necha kunlik xavf va betinchlik bir qadar ko'tarilganday bo'ldi. U o'choq boshida tez-tez harakat qilayotgan xotiniga qarab, qalin mo'ylovlari ostidan mamnun jilmayib qo'ydi. Qatsha biyaning o'pka-yuragini, bir talay go'shtini qozonga solib, olovni kuchaytirib yubordi. Ora-sira u cho'qqa jigar tashlab, bolalariga pishirib bera boshladi.

Seyit birinchi marta shuncha mo'l go'sht ko'rib qattiq sevin-sa ham sevinchini sirtga chiqarmadi. Bu bola ota-onasining quvonch-xafaligini, ko'ngilli-ko'ngilsiz gaplarini ich-ichidan juda

yaxshi tushunar edi. Agar oyisi bilan dadasi xafalashib, tortishib qolsa, u ko'pincha o'rnidan turib, uydan chiqib ketardi. Bundan tashqari, uy ichi quvonib-yayrab o'tirganda, uning indamay qoladigan odati ham bor edi. Shuning uchun to'kin-mo'lichilik unga unchalik ta'sir qilmadi. Quvonmay, ota-onasining xushvaqtligini nazarga ilmaganday, bir nuqtaga tikilib o'tiraverdi. Onasi cho'g'da pishgan jigarni kulib-quvonib bo'lib berganda, quruq jilmaygani bo'lmasa, u hatto chiroyini ham ochmadi.

Baxtiqul olovning issig'i bilan go'shtning hidiga mast bo'lib, o'tirgan yerida xurak otardi. Lekin xotining so'zlari uni tez-tez uyg'otib yuborardi. Baxtiqul yirtiq to'ning etagi bilan Batimani o'rab, yana mizg'ib ketardi.

Qatsha go'shtni tezroq pishirishga intilardi. Erining horg'inlikdan qayta-qayta pinakka ketishi uning oyog'ini yerga tegizmasdi.

Go'sht pishdi. Qatsha qo'l yuvish uchun chovgumga iliq suv quyib, chala uyqudagi erini uyg'otdi. Baxtiqul ko'zlarini zo'rg'a ochdi. Uxlaganda chetdan urgan kuz sovug'i yelkasini muzlatib yuboribdi. Kerishib, bir-ikki harakat qilganidan keyin biroz sergak tortdi.

Baxtiqul to'lda yotgan belbog'idan o'tkir uzun qora pichog'ini sug'urib oldi-da, tig'ini chap qo'lining barmog'iga tegizib ko'rdi. Pichoqning tig'i ko'ngildagiday edi. Shunday bo'lsa ham etigining qo'njiga bir-ikki qayradi-da, chovgumni qiyshaytirib, suvga chayib oldi.

Qatsha go'shtni suzishga chog'landi.

Qo'raning chetida yotgan qari it bilan uning ikki bolasi birvarakay hurib qolishdi. Qatsha seskanib, cho'mich ushlagan qo'lini ko'targancha, eriga qaradi. Baxtiqul ham itlarning bemahal hurihidan cho'chib, tashqariga quloq soldi. Gursillab kelayotgan bir necha ot bilan sudralib toshga urilgan so'yillarning ovozi eshitildi. Baxtiqul o'girilib:

— Bir balo bo'lmasa go'rga edi, qozonning og'zini yop! — dedi.

Qatsha shoshganidan qopqoqni topolmay, qozonning og'zini tagidagi qop bilan bekitdi. Qo'lidagi bo'sh cho'michni esa burchakdagi chelakka tiqdi-da, o'zi qopning o'rniga holsiz o'tirdi. U

qo'rqqanidan chala yopilgan qozondan chiqayotgan issiq bug'ni ham payqamadi.

Uy ichi es-hushini yigg'uncha, otlqlar otdan tushib birin-ketin uyga kirisha boshladi. Turqi sovuq. Bu Qo'zibaq ovulining yigitlari edi. Surbet, dimog'dor, qabih to'da. Bularning o'zlari zo'rlik qilmasa, bu daraning bironta qozog'i o'zligicha ularga qarshi suyil ko'tarolmaydi. Tekin molning go'shtini yeb, qoziday sitilib yotgan zo'rlar. Birinchi bo'lib kirganlarning orasida Salmen ham bor edi. U beliga kumush belbog' boylab olibdi. Kichkina uy allaqachon to'lib ketgan bo'lsa ham orqadan hamon tiqilishib kirishardi. Ozg'in, ko'zlari kichkina bir malla yigit, allanimalarni gapirib, yonidagilarni turtib-surib, uy ichini bir aylanib chiqdi-da, qozon yonida churq etmay o'tirgan Qatshaga suykalib o'tirdi va surbetlarcha irjayib, unga ko'zini qisib qo'ydi.

Hamma kirib bo'lgach, qop-qora mo'ylovli, burun teshiklari o'shshaygan, ko'zlari yirik bir yigit salmoqlab gap boshladi:

— Kecha tunda bizning do'ng yaylovdagi yilqimizga o'g'ri tegib, bir qisir biyani olib, yilqichi Jamantoyning boshini yorib, soyga yiqitib ketibdi. Biz axtarib ko'rsak, yerga sudralgan so'yilning izi mana shu daraga qarab kelibdi. Bir bo'z otga minib, bir bo'z biyani yetaklab shu yerdagi qarag'ayzorga kelib kirgan otliqni ko'rgan guvoh ham bor. Keyin bu odam sening yoningdagi qora toshdan buralib chiqqan ingichka tutunni ham ko'ribdi. Gapni cho'zib o'tirishning hojati yo'q, qisqasi, molni sendan ko'rib keldik. To'g'risini ayt! — dedi.

Bu to'daning xulq-atvorini yaxshi bilsa ham Baxtiqul zarracha cho'chimadi. U ichida: "Men haqman! Sen qora, haromdan boyigan odamsan. Senga har qancha qilsam arziydi! — deb yonib o'tirardi. Qora yigitning so'ziga javob bermay, Salmenning yuziga tik qarab:

— Baxtiqul qachon o'g'rilik qilgan edi? — dedi. — O'zingga sherik qilib, endi meni ham o'g'ri demoqchimisan?

Salmen chayon chaqqanday sakrab tushdi:

— O'g'ri demasam, to'g'ri ham emassan!

Baxtiqul avzoyini buzmay:

— Bo'lmasa o'sha o'g'ringni ham, to'g'ringni ham topib olaver! — dedi.

Shundan keyin ikkovi qizishib, tortisha ketdi:

— Men o'g'rini bilaman. Bu — sensan!

— Guvohing bormi?

— Bor!

— Olib kel guvohingni, bo'yninga qo'ysin.

— Meni bu yerga tomchilab oqqan qon yetaklab keldi. Molni sen olgansan. O'z qo'limda o'sgan yetim eding, ablah!

— Shunaqami? Qo'lingda o'sgan bo'lsam, bu nima deganing? Nega tuhmat qilasan?

— Sen menga qasdlik qilding. Mendan nima yomonlik ko'rgan eding?

Baxtiqul endi rostini aytishga chog'landi:

— Nimalar ko'rmadim?

— Men nimangni oldim?

— Nimamni olmading?! Jonimni ham olgansan! Yolg'iz jigarbandim Tektiquelni kaltaklab o'ldirgan sen emasmiding?

— Hali shunaqa degin! Bo'lmasa men sening xundoring ekanman-da!

— Bo'lmasam-chi! Xundorim ekaningni og'zingga Xudoning o'zi solib qo'yibdi-ku!.. Sening kaltagingdan yiqilib, qish bo'yi to'shakda bosh ko'tarmay yotganda, yigirma yil eshigingda chirigan shu Tektiquelga loaqal bir oriq to'qli Xudoyi berdingmi?

— Iye, sanayver, yana bormi mendan olasing? Asli molimning yarmini senga bersam bo'lar ekan. Tiling qirqilgur sayroqi qul! Yana nima deysan?! Xudo jonini olgan ukangni men o'ldirdimmi?.. Aytib ko'r-chi, yana qanaqa olasing bor ekan, Qo'zbaqda, Salmenda?

Baxtiqul nima bo'lsa ham jahl bahonasida ko'nglidagi bor gapni aytib qolmoqchi bo'ldi:

— Aytaymi? Aytsam, o'n olti yoshimdan o'ttiz olti yoshimgacha yigirma yil qishda qor kechib, yozda kunni kun, tunni tun demay yilqingni boqdim. Qo'y-qo'zingning orqasida, qo'raning chetida uzoq tunlar mijja qoqmay ukam Tektiquel ishladi. Xoti-

nim Qatsha o'n ikki yilgacha oying Qizil boyvuchchaning qo'lida o'chog'iga o'tin bo'lib kirib, kul bo'lib chiqdi... Shu hammamiz ovulingdan ketganda, nima bilan ketdik? Ikki qo'limizni burnimizga tiqib ketmadikmi?

Salmen chiranib, yorilguday bo'lib o'tirgan edi. Bu so'zlar unga qamchiday botdi.

— Aha, aybdorni ham, xundorni ham o'zing bichib, o'zing hukm chiqaribsan-ku! Sen nima deysan o'zi?! Tiling bilan so'kib, qo'ling bilan qilaringni qilibsanda! Endi o'tlashni yig'ishtir, molni chiqarib oldimga sol!

— Molingni ertaga tegishli joyda gaplashganda olasan!

— Iya, nimasiga ishonadi mana bu gado!

— Men kuchiga ishongan odam emasman. Sen kuchlisan. Lekin men to'raning oldiga borib adolat so'ramoqchiman.

— Hali to'raning oldiga bormoqchimisan? Mayli, boraylik! Ko'raman sening Qo'zibaaqqa teng bo'lganingni, lekin hozir molimni chiqarib ber! Bir biya emas, yuz biyaga arziriklik so'zing bor ekan. Kuching yetsa, hammasini ol! Hozir biyamni chiqarib ber!

Baxtiqul bu ahvolda qutulolmasligini bildi:

— Biyang hozir qo'limda emas.

— Qayerda?

— Bir oshnamga yetaklatib yubordim.

— Aljirama, roostingni ayt!

— Rost gapim shu. Senga beradigan javobim ham shu.

Salmen qamchisiga qo'i cho'zdi. O'choq boshida o'tirgan malla kishi allaqanday xunuk tovush bilan:

— Ey, Baxtiqul! Rostini aytavermaysanmi? Nima qilasan otni uzoqlatib? — dedi. — Mana bu qozondagi hidi burunni yorib borayotgan yilqi go'shti qayerdan keldi? Buni qayerdan olding? Qani, endi bir nima deb ko'r-chi!

Baxtiqul indamadi.

Malla o'rnidan sakrab turib, bug'dan ho'l bo'lib ketgan qopni qozonning og'zidan yulib oldi:

— Mana! O'z molimizning go'shtini sen yeganda, biz yemaymizmi? Qani, yigitlar, qo'llaringni yuvinglar! Qatsha, bizga tovoq ber. Tezroq bo'laqol.

Qo'zibaq yigitlari kulishib, hiringlashib, qo'llarini yuvisha boshladi.

Qatsha uyatdan yerga kirguday bo'lib, tovoqni olib berdi. Malla darrov go'shtni tovoqqa ag'dardi. Boshqalar och bo'riday qimtinishib, tezgina davra qurib o'tirishdi. Oralariga Baxtiqulni taklif ham qilishmadi. Qatsha g'azabdan ko'zlari yonib, indamay o'tiraverdi. U umrida qancha-qancha xo'rlikni boshidan kechirgan bo'lsa ham hech qachon bunday vahshiylikni ko'rmagan edi.

Baxtiqul nima qilishini bilmay, bir nima deb gapirmoqchi bo'ldi. Lekin Qo'zibaq yigitlari tovoqdan boshlarini ko'tarishmadi. Go'shtni pok-pokiza yeb bo'lishgach, Salmen cho'zib kekir-di-da, Baxtiqulga zug'um bilan buyruq qildi:

— Tur, endi qo'rangni ko'rsat! Agar senga shu biyaning go'shtidan bir parcha qoldirsam, o'ta-bobomga la'nat bo'lsin! — dedi. — Hammasini supurib-sidirib olib ketaman!

Baxtiqul o'zini zo'rg'a bosib o'tirgan edi. Bu so'zlar g'azabini alanga oldirdi. Qontalashgan qizg'ish ko'zlarini Salmenga tikib:

— O'pkangni bos, xo'jayin! Qo'rqitadigan bo'lsang, to'g'rilikcha qo'rqit, — dedi. — Qarshimda qilpanglab o'ynoqlaganingga yuragim uchmaydi!

Salmen irg'ib tushdi va qamchisi bilan Baxtiqulning yuziga tortib-tortib yubordi. Baxtiqul qimir etmadi. Shunda boy uni bolaxonador qilib iflos so'zlar bilan so'ka ketdi.

Baxtiqul mana shundan qo'rqib o'tirgan edi. Xotini va bolalarining oldida so'kish eshitish unga o'lim bilan baravar edi.

Qatsha qo'lini yozib:

— Qirilgur Qo'zibaq! Xudo jazongni bersin! — deb qichqirdi.

Seyit o'rnidan irg'ib turdi-da:

— Cho'chqa! — deb so'kib Salmenga tashlandi. Boy uni itarib yubordi.

Baxtiqul nima bo'lsa ham qarshilik ko'rsatib o'lishga qaror qildi. Seyitning jon hovuchlab oraga tushgani uning yurak-bag'rini o'rtab yubordi. U tagidagi qayin kosovni olib, Salmenga yopishdi. Qahr-g'azabga to'lgan Baxtiqulning yuzi qo'rqinchli edi. Salmenning kapalagi uchib ketdi. Lekin kuchlar teng emas edi. O'nga yaqin qamchi va mushtlar birvarakay yog'ilib, Baxtiqulni o'choq

boshiga chalqancha qulatdi. Ur-yiqit ichida Salmenning xirillab: “Onangni... bo‘yni yo‘g‘onlab ketgan qora qul!” “Ertaning o‘zida Satning muhrini bostirib, kallakesar deb avaxtaga tiqmasam, onadan tug‘ilganim bekor!” “Yerga qoqib kirgizaman, Sibirga haydataman!” — deb so‘kingani eshitilardi.

Jazo uzoq davom etdi. Baxtiqulning boshi bilan tanasi motaloq bo‘lib shishib ketdi. Etiklarning poshnasi, buklangan qamchilarning dastasi to‘xtovsiz tushardi. Bularni u birpasgina sezib yotdi. Keyin hech narsani bilmadi: go‘yo qorong‘i bir zindonga uloqtirilganday, allaqanday alvasti yutib yuborganday tubsiz bo‘shliqqa cho‘kdi. Oxirgi sezgani chakkasiga jaz etib botgan sanchiq bo‘ldi.

IV

Oradan qancha vaqt o‘tganini Baxtiqul bilmaydi. Hushiga kelib birinchi sezgani, chakkasida qattiq og‘riyotgan sanchiq bo‘ldi. Tong otibdi. Yomg‘ir hali ham shitirlab yog‘ib turibdi. Olov o‘chgan, shekilli, uy ichi muzlab ketibdi. Inqillab ko‘zini ochgan edi, tepasida bukchayib, unsiz yig‘lab o‘tirgan xotinini ko‘rdi.

Baxtiqulning ikki ko‘zi shishib ketgan. Yuzining hamma joyi qontalashib ko‘kargan. Chakkasi yorilgan. Shu yarasidan hali ham o‘qtin-o‘qtin sizib qon chiqyapti. Seyit yig‘lab o‘tiribdi. Qachondan beri yig‘laydi? Gapirmaydi. Tundagilarning sharpasi o‘chgan: ketib qolishibdi.

Qatsha bo‘lgan voqeani gapirib berdi. Baxtiqulni o‘lasi qilib urib bo‘lishgandan keyin, Seyit bilan Qatshani qo‘rqitib, go‘sht qo‘yilgan joyni so‘rashibdi, lekin bular aytishmabdi. Shundan keyin malla qo‘liga sham olib, hidlab axtarib, toshlar orasidagi go‘shetni ham, kecha kechqurun olib kelingan go‘shetni ham topib beribdi. Biyaning terisiga qarab: “O‘zimizniki”, deb tanishibdi. Ikki yigit kelib Baxtiqulni ko‘ribdi. “Ikkinchisini ham o‘ldirdik” deb o‘ylashgandir-da. Biroq uzoq tikilib turib: “O‘ladigan emas, nafas olyapti”, debdi bittasi. Keyin uydan chiqishibdi. Salmen ikki so‘zning birida:

— Sat akamning bo‘lisligi rost bo‘lsa, muhrini bostirib, mana shu kelgan o‘n kishini guvoh qilib pirta qo‘llab, Baxtiqulni avaxtaga kestiraman. Sibirga yubortirib, shu yoqda chiritaman! — deb valdirar ekan.

Ketishda “molimizning to‘lovi” deb bo‘z otni, “qilgan gunohi uchun” deb qizil sigirni haydab ketishibdi.

Baxtiqul bu so‘zlarni indamay eshitdi. Alam, xo‘rluk hammasi ichida. Yana ochlikda qolgan uy ichini o‘ylab, bolalariga qarab, ohista:

— Hech nima... qoldimi? — deb so‘radi.

— Go‘shning hammasini supurib-sidirib olib ketishdi. Bir parchasini ham qoldirishmadi, — dedi Qatsha g‘azab bilan. — Qirilgurlardan nima yaxshilik kutasan, Salmenning o‘zi tepasida turib oldirdi. Xudo tilagingni bermay go‘ringda o‘kirgur. Maraz!

Baxtiqul tishlarini g‘ijirlatdi. Nomus va xo‘rlukdan, alam va yolg‘izlikdan tutaqib ketdi. Bir biyaning haqqi shuncha! Ortiq molimni ber, deb Qo‘zibaq ovuliga borolmasa... Agar borguday bo‘lsa, bo‘yni yo‘g‘on qonxo‘r ovul uni yeb qo‘yar! Uning so‘zini so‘zlab, himoyasiga oladigan odam bormi? Yo‘q unaqa odam! Bo‘lganda ham Qo‘zibaqning qamchisidan qo‘rqib, haq gapni aytolmaydi. Ko‘plashib haqini olay desa, Baxtiqulda tuzukkina el ham yo‘q. Bor elatini yig‘ib kelganda, yigirmadan oshmaydi. Ularning ham boshi bir yerda emas, kim ko‘ringanga qo‘shni. Uning yaqinlari molchi qullarday qashshoq yashab, hatto bir parcha yerga ham ega bo‘lolmagan.

Baxtiqul “shularning ko‘rgan kuniga men ko‘nmasman”, deb talpingan edi. U boshqalardan zardali, o‘ktamroq edi. Yaxshini yomondan ajrata biladigan yugurik aqli, odamlarga so‘zini o‘tkaza oladigan chechan tili bor edi. Lekin bular kamlik qildi. Uning zamonida mushtumzo‘rlarga yem bo‘lmaslik uchun hovli to‘la moling bo‘lishi lozim ekan. Yo‘qsa, boshing turtkidan chiqmaydi, qayerga borsang, sen begona; hamma sendan yuz o‘giradi. Bularning hammasini yoshligidan ko‘rgan Baxtiqul boshqalardan sergakroq bo‘lishga intilgan, loaqal qullikka tushmay, odamlarning eshigini qoqmay deb, uringan edi.

Oxiri kelib bunga yo‘liqdi.

Qo'zibaqning bir biyasini olgan Baxtiqul endi tuhmatdan qutulmaydi. O'zlari o'g'irlik qilib, endi Baxtiqulga ag'darisha beradi. Shu choqqacha ko'rgan ko'rgiliklari dengizdan tomchi. Chinakam zulmat endi boshlanadi. Nima qilish kerak? Baxtiqul yolg'iz, qo'lidan hech nima kelmaydi. Bosh ko'taray desa, uni tutib, haq-nohaq yiqitib beradigan Sat, Salmenning sodiq ko'ppaklari bor. Ular o'zlari o'g'irlik qilib, keyin Baxtiqulday yolg'iz, panohsiz qashshoqlarga to'nkashadi. Ayblarini bekitish uchun bularni tezroq qamoqqa tiqib, yaxshi nom chiqarishga intilishadi. Xayoliga mana shu qamoq, avaxta kelganda, Baxtiqul cho'chib tushdi. Umrida qancha marta o'limga yuzma-yuz kelib biron marta qo'rqmagan Baxtiqul, avaxta to'g'risida aslo xotirjam o'ylay olmasdi. Mana endi shu avaxtaning teshilib qolgan go'rday sovuq eshigi uning ko'z oldida o'shshayib turibdi.

— Shuncha kulfatlarga duchor qilding-a! — dedi Baxtiqul og'ir xo'rsinib. So'ng ko'zlari yana bir nuqtaga tikilib qoldi.

“Endi panoh bo'ladigan kishi topmasam bo'lmaydi, — deb o'ylardi Baxtiqul. — Borimni berib, qul bo'lsam ham kecha Salmen aytgan balodan saqlab qoladigan odamning qo'ltig'iga kirmay iloj yo'q. Shunday yovuz dushman bilan olishishga baribir o'zimning kuchim yetmaydi”.

Qatsha hech qachon erini bu ahvolda ko'rmagani uchun qo'rqib ketdi.

— Bu nima degani, alahsirayapti, — deb yoqasini ushladi.

Oradan biror hafta o'tgandan keyin Baxtiqul oyoqqa turdi. Yaralari qotdi. Kuch bilan bo'lsa ham endi otga o'zi minadigan bo'ldi.

Uning qo'shni ovulga qo'shib qo'ygan bir jiyron yo'rg'asi bor edi. Bo'z otni Salmen olib ketgandan keyin, kuni shu yo'rg'aga qoldi. O'rnidan turgach, Baxtiqul borib jiyronini olib keldi.

Bu suqsurday suluv, baland ayg'ir bo'lib, yo'rg'asi juda kuchli edi. Ko'p kishilar unga orqavorotdan havas qilib yurardi. Ot ishqibozlari boshini chayqab:

— Hech kim Baxtiquldan oldin bunday yo'rg'a mingan emas, — deb qo'yishardi.

Baxtiqul jiyronni olib kelgandan keyin, o'tirib eski miltig'ini hafsala bilan tozaladi, uni sumba bilan niqtab o'qladi, keyin otini egarladi. Qatsha uning avzoyidan olis yo'lga otlanganini payqadi.

Baxtiqul xotiniga bir og'iz gapirmay, otiga mindi-da, tog'ga chiqib ketdi.

U osmonga bo'y cho'zgan tik qarag'aylar, yer bag'irlab o'sgan mayda butazorlar orasidan uzoq yurdi. Baxtiqul tushga yaqin o'rmonning ichidan chiqdi. Uning qarshisida yirik-yirik qizil toshloq namoyon bo'ldi. Atrof sehrlanganday jimjit. Baxtiqul otini sekin yurgizib, bir katta qizil qoyaning tagiga bordi. Tog' juda xilvat, bitta-yarimta sang'ib yurgan ovchi bo'lmasa, bu tomonlarga odam bolasi kelmas edi. Baxtiqul otini qoyaning tagida qoldirdi-da, o'zi qo'lga miltig'ini olib, engashganicha toshloqning chetiga qarab yurdi.

Oldinda bahaybat qoya ko'rinib turardi. Yaqinlashgan sayin qoya cho'kib, pasayib bordi. Uning usti kengayib, kattakon maydon tusiga kirdi. Yaqindan qoya xuddi kirlaganga o'xshab ko'rindi. Rangsiz to'n kiygan, sur tusli yolg'iz mergan, kulrang toshlar orasiga singib, yo'q bo'lib ketdi. Faqat uning asta-asta siljigan yelkasigina ko'rinar edi. Baxtiqul qirg'oqqa yetgach, bir toshga jips yotib, oldinga mo'raladi. Nazarida avvallari chiqib izlagan chog'larida qorasini ko'rsatmagan alqor, bugun naq burnining tagidan chiqib qoladiganday edi.

Baxtiqul entikib tushdi. Qarshisida, bir katta toshning qirrasida uchta alqor turardi. Aftidan, ular toshning orqasidan qochib kelishgan edi. Bo'yinlarini cho'zib, quloqlarini dikkaytirib, orqaga qarab-qarab qo'yishardi.

Baxtiqul sevinganidan: "Omadni qara!" — deb yubordi. U darhol miltig'ini to'g'riladi. Biroq nishonga ololmadi. Chigirtkaning sharpasini sezadigan alqorlar, uning bosh qimirlatishini payqab qolib, itqib qochishdi. Ikkita yosh alqor pastga sakrab, zumda ko'zdan g'oyib bo'ldi. Lekin uchinchisi, shoxlari tarvaqaylagan qari qo'chqor, qoqilib turtinib, keyinroq sakradi. Baxtiqul uchun shuning o'zi kifoya edi. U darhol miltiqning og'zini qo'chqorning yelkasiga to'g'riladi. Varanglagan ovoz chiqib, osmonga ko'kish

tutun ko'tarildi. Qo'chqor oldidagi toshdan oshib o'tolmay, shilq etib quladi.

Baxtiqul bor kuchi bilan yugurdi. Tepasiga borganda qo'chqor chalajon bo'lib hansirab yotardi. Baxtiqul yonidagi qinidan uzun qora pichog'ini sug'urdi-da, qo'chqorning bo'g'ziga tortdi. Qo'chqor bir silkindi-yu, jim bo'lib qoldi.

Oftob yonboshga kelib, tush og'ib qolgan edi. Baxtiqul tez-tez harakat qilib, alqorni so'ydi, ichak-chavog'ini chiqarib tashlab, go'shtini buzmay terisiga qayta o'radi. Uni jiyronning ustiga ortib, chilvir bilan mahkamlab boyladi. Keyin otini yetaklab, yo'lga tushdi.

U kechga yaqin shamol-bo'ronidan panada joylashgan keng vohaga kelib yetdi. Bu yerda Shalqar elining bo'lisi Jarasboyning qishlovi bor edi. Baxtiqul tong sahardan beri shu ovulga borish g'amida yurardi. Alqorni ham bo'lisning boyvuchchasi uchun otgan edi. Baxtiqul bu yerga kelishni bugun ertalab emas, Ko'zibaq zo'raonlari bo'sgan kunning ertasiyoq o'ylab qo'ygan edi.

Jarasboy odamlar orasida faqat bo'lisligi bilangina mashhur emas. Uning salmog'ini oshirgan boshqa sabablar ham bor. U boy, yirik savdogar, yon-tevarakdagi biy-boyonlar uni "tagi zo'r", shaharda tanishlari ko'p, deb tilga olishadi. Qilaman desa, u yaxshilikni ham, yomonlikni ham o'rniga qo'yadi. Tevarakdagi bo'lis, hoji, boy, mirzalarning hammasi undan hayiqadi.

Baxtiqul panoh izlab, katta odam to'g'risida o'ylaganda, xayoliga eng oldin Jarasboy kelgan edi. U: "Meni Salmen aytgan avaxtadan qutqarsa, faqat shu odam qutqaradi, endi shu odam bilan ham baxtimni bir sinab ko'ray", deb, Jarasboy bilan yaqinlashishga qaror qilgan edi.

Boy bo'lis molini tog'ga, qumga bo'lib-bo'lib yuborib, o'zi qishlovga ko'chib kelgan edi. Ba'zi oilalar o'tovdan uyga kirib olishgandi. Kech bo'lay deb qolgani uchun ovulning barcha erkaklari tashqarida yurardi. Bo'lisning o'zi boshiga suvsar telpagini kiyib, yetti yashar bo'ychan o'g'li va uch-to'rt xushomadgo'ylari bilan kattakon uyining yonida turardi.

Baxtiqul ohista yaqinlashib salom berdi.

Bo'lis alqorga bir ko'z tashlab, alik oldi. Uning yoshi Baxtiquldan katta emas: o'ttiz besh-o'ttiz yettilarda. Ammo savlati tuyani hurkitguday edi.

Baxtiqul otdan tushdi. Qishlik qo'raning eshigidan qo'lida qumg'on ko'targan to'la, oqish yuzli boyvuchcha chiqdi. Uning yurish-turishi to'kin turmushdan ortiq rizo, mamnun ekanini ochiq bildirib turardi. Qip-qizil qoni oqib, shoxlari tarvaqaylab, egarda to'nkarilib yotgan alqor uning ham e'tiborini tortdi. Boyvuchcha kelib Baxtiqul bilan ko'rishgach, otning u yoq-bu yog'iga o'tib, alqorni tomosha qila boshladi. Turganlardan bitta-ikkitasi unga ergashdi.

Baxtiqul sipolik bilan ta'zim qilib:

— Boyvuchcha, bu yerga kelish uchun tong saharda otga mingan bo'lsam ham ov go'shti tansiq deb, oldin tog'ga chiqdim, — dedi. — Tog'da menga shu alqor yo'liqdi. Senga deb otdim, kam bo'lsa ham ko'p ko'rib, uyingga kirgizib ol.

Boyvuchcha, ko'zlarini qisib kulimsirab, “nima qilamiz” deganday bo'lisga qaradi. Jarasboy xotiniining harakatiga miyig'ida kulib qo'ydi-da:

— Kirgizib olaver, nega turibsan? — dedi. — O'zimizning tog'dan otibdi, bermayman deganda ham zo'rlab oladigan yo'ling bor emasmi?

Shunday dedi-da, bo'lis o'rinli hazil qildim, deb o'yladi, shekilli, selkillab kuldi. Boshqalar darrov unga jo'r bo'lishdi.

Noqulay ahvolga tushganini bildirmaslik uchun Baxtiqul ham noiloj tishini ko'rsatdi. Bo'lisning yonida turgan chollardan biri:

— Kirgizib ol, chirog'im, — dedi boyvuchchaga. — Bu Jarasboyning marhum otasi bilan do'st bo'lib yashagan, hozir esa bo'lisning molini qarab yurgan Qayran boy edi. — Qo'zibaq ovuli yomonlagan bilan uning qo'lidan chiqqan molning hammasi harom bo'lib qolarmidi, — davom etdi mo'ysafid. — Baxtiqul o'zi azaldan mard yigit. Ko'ngli tushgan kishisidan yolg'iz otini ham ayamaydi. Peshonasi yorimay yurgan bir kambag'al-da. Bo'lmasa berishni ham, olishni ham o'rniga qo'yadi. Kam ko'rmay kirgizib olaver!

— Haq gapni aytding, qariya! Gapirgan gaping juda to‘g‘ri! — dedi Baxtiqul cholga minnatdorchilik bildirib. — Baxti ochilmay yurgan bir bechoraman. Bugun bor dardimni aytay, deb ulug‘imizning oldiga keldim. Maylimga qarab, yaxshi gap gapirding, ish-qilib, aytganing kelsin!

Bu orada bo‘lisning o‘g‘li Jong‘ozi buyrug‘i bilan qo‘raga borib, ikki kelinchakni chaqirib keldi. Uch-to‘rt kishi bo‘lib alqorni otdan tushirishdi va uyga olib ketishdi. Bo‘lisning erka o‘g‘li alqorning oldingi oyoqlaridan birini ko‘targan bo‘lib, kelinchaklarga bir-ikki sho‘xlik qildi.

Bo‘lis shularning orqasidan qarab qoldi. Baxtiqulning gapiga javob bermadi. Shu choqqacha indamay turgan ikkinchi chol:

— Yaxshi niyat — yarim mol deb, bir yaxshilikni niyat qilib kelganga o‘xshaysan, bo‘tam, — dedi Baxtiqulga. — Senga o‘xshaganlarning ko‘pi hayotning achchiq zahmatini chekib yurib-yurib, oxirida o‘z ovulini tashlab ketguvchi edi. Sen ham shunday qilmoqchi bo‘lma tag‘in?

Bu — Shalqar bo‘lisidagi biylardan biri — Sarsen degan chol edi. Bo‘lis bilan qalin bo‘lgani uchun, Jarasboy uni so‘nggi saylovning hammasida biylikka saylab yurardi.

— Gaping to‘g‘ri, oqsoqol. Niyatim katta, — dedi Baxtiqul. — Dastlab yurt og‘asining oldidan bir o‘tay deb keldim.

Bo‘lis kulib:

— Rostdan ham niyating barga o‘xshaydi-ku, otdan tushmay turib gapirding, — dedi. — Qolgan gapingni uyda aytarsan. Ichkari kiraylik.

Baxtiqul bir qadar yengil tortib:

— Mayli! Senga aytadigan gapim ko‘p! — dedi.

Qariyalarning:

— Ma‘qul, ma‘qul, — degan ovozlari eshitildi. Ular katta-ki-chikligiga qarab odob bilan oldin hovliga, undan bo‘lisning keng, hashamatli uyiga kirishdi.

Baxtiqul bunday uyda hech qachon bo‘lmagan edi. Kattakon kerosin lampa xonani quyoshday charaqlatib turibdi. Yerga burunning qonidan qip-qizil gilam solingan. To‘rda rangdor ko‘rpacha, par yostiqlar. Devorning tagida bezakdor ruscha karavot. Karavot-

ning tepasiga yarqiroq gilam osilgan. Uyning ichi xuddi allaqanday nur bilan yonayotganga o'xshaydi.

Iflos yirtiq kigiz solingan o'tovda yashovchi Baxtiqul uchun bunday uyga kirish katta sharaf, baxt bo'lib ko'rindi. Uni boshqalar bilan bir qatorda o'tirishga taklif qilishdi. U o'tirdi. Kattalarning so'rovi bilan asta boshidan kechirgan kulfatlarini gapira boshladi.

O'tirganlar uning gapini indamay tinglab, kechki choyni uzoq ichishdi. Baxtiqul Qo'zibaq ovulida ko'rgan xo'rliklarining hammasini gapirdi. Gapining oxirida Salmenning avaxtada chiritaman, deb kuchanganini aytdi.

Bo'lisdan bo'lak hamma Qo'zibaqning qilmishini chegaradan oshgan zo'rlik, deb topdi. Boyvuchcha ham shunday dedi. Bundan ruhlangan Baxtiqul:

— Yolg'iz bo'lganingdan keyin zo'raonlar tag-tomiring bilan yeb tashlayman, deb ko'ngliga kelganini qilaverar ekan, — dedi.

— Qo'zibaq seni ayamay xo'rlabdi, — choydan bir yutib, gapga aralashdi Sarsen.

— Ayash qayoqda! Men, ular aytgancha, bo'z biyani olgan bo'lsam, ular bundan battar qilishdi-ku. Bari mening panohsizligim orqasida bo'ldi. Endi men qo'shchi bo'lsam ham bir tuzuk odamning uyida panoh topmasam, menga yorug' kun yo'q.

Baxtiqul shu tarzda ko'nglini g'am-u hasratdan bo'shatdi.

Bo'lis churq etmadi. U Baxtiqulning gapini to'g'ri-noto'g'ri ham demadi, uni gapirishdan ham to'xtatmadi. Ichida u Baxtiqulga tan berib o'tirardi. Uning so'z bilishi, fahm-farosati bo'lisni o'ziga tortardi. Baxtiqul o'rinli gapi bilan bir uni emas, boshqalarni ham og'ziga qaratib qo'ygandi. So'z-gap orasida boyvuchcha bilan Jong'ozining Qo'zibaq ovulini yomonlab aytgan so'zlari ham eshitildi.

Gap oxirida Sarsen:

— Baxtiqul, sen yaxshi niyat bilan kelgan ekansan. Endi so'zni qisqa qilgin-da, mana bu bo'lisning etagini mahkam ushlagin. Bunga senday pishiq, otganda o'q, chopganda qilich bo'ladigan, yuragida o'ti bor odamlar kerak. Unga uka bo'lgin-u, mana bu Jong'oziga aka bo'l. Qo'zibaq bir senga qasd emas. U talay odam-

larning sho‘rini quritgan. Qani, Jarasboyning qo‘lidan seni olib ko‘rsin-chi! Bo‘lisning uyida xizmat qilib xotirjam yuraver. Qo‘zibaq tugul, Xudoning o‘zi ham ololmasligiga men kafilman. Bugun bo‘lmasa ertaga Qo‘zibaqdan molingni olishga ham ko‘mak berrarmiz, — dedi.

Baxtiqul ich-ichidan sevinib bosh qimirlatdi. U faqat boy ovulning unga, kambag‘al bir yigitga bunchalik iltifot ko‘rsatganiga hayron, buning tagida bir gap yo‘qmikan, deb xavotirlanar edi. Aslida, bu yerda hayron qoladigan hech qanday sir yo‘q. Bu ovul Qo‘zibaq ovuli bilan azaldan bel ushlab keladi. Jarasboy bo‘lsa Burgen bo‘lisi Sat bilan it-mushuk. Shuning uchun ular bir hojatga yarab qolar, deb Baxtiqulni iliq qarshi olishgan edi.

— Hamma armonimni o‘zing aytding, qariya, — dedi Baxtiqul Sarsenga ta‘zim qilib. — Men aytadigan gap ham qolmadi. Qul-luq, oqsoqol, bor gapim shu.

Bo‘lis yana indamadi. Fikrini ko‘pchilikning oldida aytgisi kelmadimi, haytovur, bola-chaqasi Baxtiqulga ochiq chiroy bilan qarab, uning tilagiga xayrixoh bo‘lganda ham u bir og‘iz gapirmadi. Baxtiqul ham ertagacha o‘ylab ko‘rmoqchidir deb, undan gap so‘rab o‘tirmadi.

Tun o‘tib, tong otdi. Har kungi odat bo‘yicha bo‘lisga kelgan odamlar ertalabki choyni ichib bo‘lmasdanoq ovulga to‘plana boshladi. Baxtiqul choydan keyin otini egarladi-da, bo‘lisdan aniq bir javob olib ketay deb, odamlarning siyraklashishini kutdi. Oxiri bo‘lis tashqariga chiqqanda, orqasidan borib:

— Menga javobingizni aytsangiz, men aniq bir gap eshitib ket-sam, — dedi.

Jarasboy shoshmasdan qo‘raning sirtiga tozaroq joyga o‘tir-di-da, orqasidan ergashib kelgan Baxtiqulga qaradi:

— Menga nima demoqchisan? Maqsadingni aytl!

Baxtiqul uning so‘raganiga ich-ichidan sevinib:

— Men endi nima deyman, og‘a? — dedi. — Maqsadimni tunda aytdim-ku. O‘zim yetqazolmagan bo‘lsam, Sarsen qariya aytdi. Endi meni qo‘ltig‘ingga olib, Qo‘zibaqning balosidan asra! Shundan keyin keragingga ishlat, xohlagan yumushingni qildir. Otsang miltig‘ing, chopsang qilichingman. Jong‘ozining og‘asi,

o'zingning har qanday xizmatingga tayyor qiyomatli o'rtog'ing bo'laman. Shartim shu, men bu shartdan o'la o'lguncha qaytmayman!

Jarasboy biroz yumshab:

— Yaxshi, gaping menga ma'qul, — dedi. — Qo'zibaq ovuli bir sening dushmaning emas. Gapirgan gaping rost bo'lsa, Qo'zibaqdan o'ch oladigan paytingni topib, senga o'zim aytaman. Sen qo'rqma, joningni Qo'zibaq emas, Xudo oladi. Tunov kungi gap bosti-bosti bo'lguncha kutib turaylik. Ungacha sen bizning ovulga kelib mayda-chuyda ishlarga, chorvaga aralashib tur. Keyin o'zim bo'lislik ishining bir yeriga joylashtirib qo'yaman.

Ko'pdan beri o'ylab yurgan armoni shu bo'lganidan, Baxtiql o'zida yo'q sevinib, olifta kambag'alning qilig'ini qildi. U qo'lidan kelgan barcha yaxshiligini ayamay qilishini aytib, bisotida bor dunyosini tezroq berishga oshiqdi:

— Aylanay bo'lis, menga otam qilmagan yaxshilikni qilishga tayyor ekaningni ko'rdim. Oldin men bo'yin tovlar, deb o'ylagan edim. Endi men shu o'rta solgan do'stligingga, shu qilgan ochiq fe'lligingga mana bu ostimdagi yo'rg'amni Jong'oziga mingizmoqchiman. Xudo oldida qarzdorman: mening Jong'oziga og'a tutinib qilgan tortig'im shu bo'lsin!

Bo'lis indamadi. Sukut — alomati rizo deganlariday, bu — qabul qildim, degani. Baxtiql bo'lis ikkovining o'rtasida bo'lgan gapni boyvuchcha bilan Jong'oziga bildirib, ularga ham o'zining minnatdorchiligini bildirdi. Yo'rg'a otini maqtadi. Yosh bo'lsa ham molga o'ch boy bolasi, xursand bo'lganidan, sharaqlab kulib yubordi.

Boyvuchcha ham otni rad qilmadi.

Uch-to'rt kundan keyin Jong'oz Baxtiqlning ovuliga borib, uy ichini ko'rib, yo'rg'ani minib qaytadigan bo'ldi.

Baxtiql mehmondo'st bo'lis ovuli bilan xayrlashdi. Boyvuchcha uning xotin-bolasiga sovg'a-salom bo'lsin deb, yangi so'yilgan semiz toyning qo'sh qazisini, bir ikki bo'lak go'shtini berib yubordi. Bu o'ljalarga yuragi chiqib, tunda yaxshi uyda yotib, yaxshi yeb-ichganidan og'zi qulog'iga yetgan Baxtiql, xirgoyi qilib, otini yo'rttirganча uyiga tush og'ganda kirib bordi.

Jarasboy bilan Baxtiqulning o'rtasida uzoqqa cho'zilgan g'ala-ti yaqinlik tug'ildi.

Birinchi qishda yov tarafidan gap-so'z tarqalmasin deb, bo'lis Baxtiqulni idora xizmatiga olmadi. Lekin uni ovuliga chaqirib turdi. Baxtiqul bo'lisning chorvasiga qaradi. Shu tariqa, u asta-sekin bo'lis ovulining xizmatkoriga aylana bordi.

Qanaqa yig'in, kengash bo'lmasin, hammasida bo'lis o'zining yangi xizmatkorini maqtab, uning og'ir kechmishidan, endi go'yo odam bo'lib ketayotganidan gapirar edi. U bebosh yigitni odam qilgan g'amxo'r, degan nom chiqarishni xohlardi. Sarsen, Qayranboylar boshqa biy-boyonlar orasida bo'lisning odamgarchiligini, uning kambag'alparvarligini aytib, Jarasboyini ko'klarga ko'tarishar edi. Baxtiqulning o'ziga esa:

— E, yasha, yo'lingni endi topding. Seni Jarasboy odam qiladi, — deyishib, uni bo'lisdan minnatdor qilishga intilishardi.

Baxtiqul birinchi qishda kunni kun, tunni tun demay boy ovulning katta chorva xo'jaligiga qarashdi. U boshqa molboqar, xizmatkorlarga nisbatan uquvli, pishiq edi. Har qanaqa qiyin yumushning ilojini topardi. Baxtiqul burun chorva ishiga bunchalik aralashmagan. Qilgan ishi faqat yilqi boqish bo'lgan, o'z chorvasi esa katta uquv talab qilmagan bo'lsa-da, hozir uni tanib bo'lmasdi. Uy ishi, qishlik o'tov, chorva bormi, hammasiga qarab, yog' tushsa yalaguday qilib, birpasda saranjomlab qo'yardi. Uning uquvi, g'ayratiga barcha, hatto hech kimning ishini pisand qilmaydigan Qayranboy ham qoyil edi.

— Chorvani ipidan ignasigacha biladi, — necha marta maqtadi u. — Hisobga ham zehni o'tkir. Qaysi yumushga qo'l ursa, birpasda ostin-ustin qilib tashlaydi. Bechora peshonasi yorimay yurgan ekan-da. Bo'lmasa kambag'al bo'ladigan yigit emas.

Yilqining yaylovga chiqishi, qo'yning otarga haydalishi, ko'klamda ekiladigan ekin, kuzda o'riladigan pichan, qishda molga solinadigan cho'p, chorvani qirg'indan saqlaydigan qo'riq yaylov — hamma-hammasida Baxtiqul maslahat bera oladi. Uni tilga olishganda, ishning ko'zini biladi, chorvaning otasi, deb gapirishardi.

Baxtiqul asosan bo'lisning chorvasiga qarardi. Shuning uchun o'z ishiga ham oz-moz ko'z tashlab turishga imkoni bor edi. Yumush bilan u yer-bu yerga borganda, teri-peri sotib, pullab oladigan chog'lari ham bo'ldi. Ekin ekkanda, Jarasboydan yordam olib, burungidan uch-to'rt hissa ko'p ekdi. Qishda so'yadigan so'qimi, yeb-ichadigan un-choyi endi yetarli. Bo'lis ovulidan keladigan daromad Baxtiqulning mehnatiga loyiq bo'lmasa ham qashshoq oilaga katta ko'mak edi. Onda-sonda bo'lis ovuliga borib, boyvuchchanning topshirgan ishlarini qilib yurib, Qatsha ham ust-boshini butunlab ola boshladi. O'zidan qolganini, eski-tuski bo'lsa ham bolalariga tikib berdi. Hammadan kam quvonib gapiradigani, maqtasa arziydigani — Seyit; u hozir bo'lis ovulida bir mulladan saboq oladi. Eski odat bilan mulla deb atalgan bu o'qituvchi aslida, ruscha tahsil ko'rgan Yunus otliq yosh yigit edi. U bo'lisnikida Jong'oz, yana bir-ikki bolani o'qitardi. Bo'lisning ruxsati bilan Baxtiqul ham Seyitni shunga olib borib bergandi.

Seyit o'zining o'tkir zehni, yugurik aqli bilan o'qituvchisini xursand qila boshladi.

Baxtiqulning shodligiga shodlik qo'shib, ekini ham toza, tekis unib bordi. Yoz chiqqach, Baxtiqul butunlay Jarasboyning ovuliga ko'chib o'tdi. O'tovini boy o'tovchining yoniga tikib, soya-salqin tog'da qimizga qonib yuraverdi. Chorva ishi kamaygach, bo'lis uni "el ishi" deb atalgan idora xizmatiga yumshay boshladi. Otga mingizib: "Falon ishni qilib kel, falon so'zni yetkazib, buyruqni bajarib kel", deydigan bo'ldi.

Baxtiqul choparlikni tez o'zlashtirdi. U bo'lis yuborgan joylarda do'stiga do'st, yaqiniga yaqin gapirar, bo'lisga teskari kishilarning orasiga tushganda esa zug'um bilan gapirar, zarur bo'lsa, hatto kuch ham ishlatar edi. Baxtiqul bo'lisga chinakam sadoqat bilan xizmat qildi.

Goh u kichik yig'inlarda ham qatnashar edi. Shunda uning ma'nili gapi, o'rinli maslahati ko'pni ko'rgan keksalarni ham hayratga solardi.

Tirikchilik mana shunaqa tuzalib, yaxshilanib borayotgan paytda, el orasida katta bir falokatning sharpasi sezila boshladi. Bu — Shalqar elida bo'ladigan saylov janjali. Saylov bu yil faqat

Shalqarda emas, Burgenda, yana bir elda ham bo‘ladi. Biy-bayonlar saylovga hozirdan g‘am yeb, tayyorgarlik ko‘rib yurishardi. Tayyorgarlik boshlanganiga olti oycha bo‘lib qolgan edi.

Bu yilgi tayyorgarlik oldingilaridan katta bo‘lib, kengayib, ko‘p elni tutash qo‘zg‘atishdan boshlandi. Bu tayyorgarlik odatdagicha faqat bir bo‘lisning ichida borayotgani yo‘q. Bu yilgi tortishuv butun uyezdni bo‘lmasa ham uning yarmini oyoqqa turg‘izdi.

Har bir bo‘lis o‘z yerida xo‘jayin bo‘lib yurganiga qanoat qilmay, boshqa ellar bilan talashib-tortishib, orada chegara janjali chiqib, qish qishlovdan, yoz yaylovdan da‘vo ko‘tarib, qo‘shni bo‘lislar o‘rtasida adovat tobora kuchaydi. Bu ellarning barcha biy-bayonlari uyezdagi ikkita yirik partiyaning ra‘yiga qarab ikki guruhga bo‘lindi. Bu partiyalardan birining boshida Jarasboy, birining boshida Sat turardi. O‘rtadagi tortishuv boshlanganidan beri kuchaysa kuchaydiki, lekin pasaygani yo‘q. Tortishuv xuddi issiq yozda ochiq dalaga tushgan yong‘inday kun sayin zo‘rayib borardi. Yaylovda qimiz ichib zerikib yotgan biylar endi tinim bilmaydi. Shu yo‘sinda butun uyezdni ikkiga bo‘lgan Sat va Jarasboy tortishuvi tobora ulg‘ayib, yirik janallardan biriga aylandi. Jarasboy o‘z elidan uncha shubhalanmasa ham qarindosh-urug‘i kam bo‘lganidan, uyezdagi tortishuvda urug‘i ko‘p Qo‘zibaq ovuli o‘tib ketarmikan, deb qo‘rqardi. Shuning uchun u tevaragiga Satning dushmanlarini ko‘proq yig‘a boshladi. Burgenga odam yuborib, Satdan norozi bo‘lib yurgan ovullardan guruhlar tuzdi.

Sat tarafdorlari o‘zlarining ko‘pligiga ishonib:

— Jarasboyning o‘pkasini birpasda bosib qo‘yamiz. Uni bemalol yiqitib tashlaymiz, — deb yurishardi.

Ular Jarasboyning tomirini qirqish uchun shahar mahkamasi-ga qayta-qayta shikoyat yuborishardi, uni yovuzlikda, zolimlikda ayblashardi. Lekin Jarasboy har gal shahardan oqlanib qaytardi. Shaharda uning tomiri kuchli edi. Satning urug‘-aymog‘i ko‘p bo‘lsa ham shaharda tanishi kam edi. Shuning uchun u shaharda kuchsiz edi.

Jarasboyning talabi bilan u bir marta o‘n besh kun qamoqda yotib ham chiqdi.

Shundan keyin o'rtadagi dushmanlik yanada kuchayib ketdi. Burgen elining kattalari:

— Otning qashqasiday Janisdan chiqqan Jarasboy shahar ulug'iga yaqinligini qilib, bizning obro'yimizni to'kdi. Bitmas-tuganmas yerli Qo'zibaq elining Satday bo'lisini qamatdi. Endi biz uning ta'zirini beramiz, — deya boshladilar.

Yaylovga ko'chish paytida Jarasboyning yilqisidan uchta qisir biya va bir ot yo'qoldi. Darhol qidirishga odam yuborildi. Oradan bir kun o'tgach, qidiruvchilar bo'sh qaytib kelishdi. Otlarni Satning ukasi Salmen o'g'irlatibdi. Buni Jarasboyning shu yerdagi yaqin kishilari bilishar ekan. Qidiruvchilar Salmenning oldiga borib, otlarni talab qilishsa, Salmen ularni so'kib, urishib, haydab yuboribdi.

Jarasboy alamdan tuni bilan uxlamay chiqdi.

Tong otgach, katta bir ariza yozdirib, Sarsen oqsoqolni shaharga, ulug'ning oldiga jo'natdi. Keyin bir necha biy-kattalarni yig'ib maslahat o'tkazdi. Tushga yaqin Baxtiqulni chaqirtirdi.

Baxtiqul shoshilmay kirdi. Xonada eng urishqoq, janjalkash biylar o'tirishardi. Ularning orasida Jarasboyning o'ng qo'li hisoblanmish Qo'qish ham bor edi. Ularni ko'rib, Baxtiqulning ko'ngli allanechuk bo'lib ketdi. Jarasboy bir kosa qimiz quyib berdi-da, salmoqlab gap boshladi. U keyingi yil ichida Baxtiqulning ancha tuzuk hayot kechirgani to'g'risida gapirdi. Bunga bo'lisning ko'nglidagi yaxshi niyatlar sabab bo'lgani, u Baxtiqulni atayin mayda ishlarga aralashdirmay, katta, jiddiy ishlarga saqlab yurganini aytdi. Baxtiqul bu so'zlardan endi o'zining tinch hayoti tamom bo'lganligini payqadi. Lekin o'zining eski odati bo'yicha indamadi.

Jarasboy uni sinamoqchi bo'lganday bir tikilib qaradi-da, davom etdi:

— Qo'zibaq elining tinib-tinchiydigan tusi yo'q. Tinchgina yashaylik, desak, molimizdan o'g'ri, uyimizdan bo'hton arimaydi. Endi biz ham ular qilgan ishni qilmasak bo'lmaydiganga o'xshaydi. Baxtiqul, sen yoningga o'nta yigit olib, bugun kechasi borginda, to'g'ri kelsa Sat yoki Salmenning yilqisidan, bo'lmasa Qo'zibaq ovulidan bittasining yilqisidan bir uyurini barimtaga haydab kel, — dedi.

Baxtiqul hali ham indamay turardi. Uning ko'ngliga ancha nar-salar keldi. "Panoh topdim, odil joyga xizmatga kirdim, bu xiz-matimga sabab bo'lgan odam shu degan edim. Bu meni qayerga, qanday ishga yuboryapti!" — dedi ichida.

Yuzlari bujmayib ketgan, bo'yni yo'g'on Qo'qish Jarasboyning fikrini quvvatlab:

— Qo'l bo'lmay yo'l bo'lmaydi deganlariday, mol olishni Sat-ning o'zi boshlabdi. Biroq uniki o'g'irlik bo'lsa, seniki to'g'rilik: sen o'z moling uchun barimta olasan. Qayerga borsa ham bu ish halol mol uchun qilinganini hamma tan oladi, — dedi-da, kulib: — Nima balo, qo'rqib qoldingmi, botir yigit bunday paytda o'zi otilib chiqmaydimi? — dedi.

Baxtiqul kulmadi.

— Botirlik o'z yo'liga... Meni shu ishga yubormasang nima qiladi, bo'lis? — dedi Jarasboyga qarab bo'g'iq tovushda. — Ho-zir o'zi o'g'irlik qilmagan odamlar o'g'ri atalib yurganini ko'rib turibsan-ku. Panoh topdim degan edim. Mening Sat, Salmen bilan olishadigan nimam bor?

Bo'lis pinagini buzmadi.

— Bu nima deganing, Baxtiqul? Sat — ota dushmaning, o'chingni oladigan joyda qochasanmi? Javobgarligi senga emas, menga keladi-ku! Bu yerda sen qo'rqadigan hech nima yo'q. Senga keladigan balo dastlab menga keladi. Bosh tortadigan bo'lsang, boshqa ishdan bosh tort. Bunday payti kelib turgan joy-da cho'chisang, bu gunoh bo'ladi. Boraver, hamma qilib yurgan ishdan yuz o'girma! — deb o'rnidan turdi.

Qo'qish Baxtiqulni gapirgani ham qo'ymadi.

— Gap tamom. Endi buni og'izga olishning hojati yo'q. Bax-tiqul boradi! — dedi.

Baxtiqul indamay yerga qarab o'ylab qoldi.

Shu kun kechqurun u Jarasboy, Qo'qish va Sarsenning yilqisi-dan o'nta uchqur ot tanlab ushlatdi-da, yoniga to'qqizta yigit olib, qosh qoraygan paytda yo'lga otlandi. Bular qaroqchi emas, barimtachi deb ataladi. Shuning uchun bo'lis ularni hech kimdan yashirmadi. Ovulning barcha yaqin-yirog'i, katta-kichigi Qo'qish,

Qayranboy va boshqalar yigitlarni jo'natish uchun tashqariga chiqishdi.

Yigitlar otlariga minib, ovulning yonida Baxtiqulni kutib turishardi. Ularning hammasi baquvvat, zabardast yigitlar edi. Ustlariga yengilgina kiyishib, ko'kraklarini ochib qo'yishgan. Kulishib, bir-birini turtishib, sho'xlik qilib turishardi.

Ularning ostlaridagi otlar ham uch ovulning eng mashhur otlari edi. Bir yerda turmay, boshlarini gijinglatib, u yoqdan bu yoqqa yurishadi. G'ira-shirada ular pahlavonlar mingan afsonaviy bedovlarga o'xshab ko'rinadi.

Yon tomondagi kichkina o'tovdan Jarasboy bilan boshlashib Baxtiqul chiqdi. U endi butkul o'zgargan, yurishi qat'iy, qarashlari o'tkir. Uning ustida ham yengil chakmon: bir yengi belbog'iga qistirib qo'yilgan. Biqinida to'p'poncha.

Hamrohlariga yaqinlab:

— Yo'l bo'lsin, azamatlar, yo'l bo'lsin! — deb qat'iy gapirdi.

— Xayrli bo'lsin! — deb gurullagan tovushlar eshitildi.

Molboqar yigitlardan biri Jarasboyning chopqir oq yol otini keltirib Baxtiqulga ko'ndalang tutdi. Baxtiqul bir yerda turmay talpinib, oldinga sapchigan otga yondashib, uzangiga oyog'ini qo'ydi-yu, egarga qo'ndi.

— Yuringlar! Ketdik! — deb buyruq qildi.

Otlar baravar qo'zg'alishdi. Yigitlarning ba'zilari so'yillarini qo'ltig'iga qistirib olishgan, ba'zilari esa egarning qoshiga ko'ndalang osib qo'yishgan.

Ovul kishilari ularning orqasidan o'zaro gurunglashib qolishdi:

— Yurishlarini qara!

— Balo!..

— Erkak-da, erkak...

Barimtachilar to'dasi tobora kichrayib borib, oxiri ko'zdan yo'qoldi: qorong'ilik og'ushiga kirib ketdi.

Ular shu ketgancha tun bo'yi uyqusiz, tinimsiz yo'rtib, tong otguncha kerak ishlarning hammasini qilishdi. Ular urish, boshga tushgan so'yil, otilgan miltiq hammasini ko'rishdi. Oppoq tong otgan paytda bo'lisning buyrug'i bajarilganday bo'ldi: yirik bir ayg'ir uyurini oldilariga solib olishdi. Quvg'indan qutulishgach,

barimtachilar Shalqar bo'lisning chegarasidagi jimjit daraga kirib to'xtashdi.

Qaytishda Baxtiqul bir-ikki yigitni yuborib, yo'ldagi ovuldan bir qo'zi so'rab oldirgan edi. Daraga joylashgach, qo'zini so'ydirib, etini ostirdi-da, o'zi tog' boshiga chiqib, qorovul bo'lib o'tirdi. Atrof jimirlagan, kimsasiz, qizil toshloq. Uzoqda yashil sarobga o'xshab qalin qarag'ayzor ko'rinadi. Tog'ning cho'qqisi oppoq qor. Osmonda burgut uchib yuribdi.

Qo'zibaq ovulidan chiqqanda ham atrof ana shunday jimjit bo'lardi. Baxtiqul xayolga cho'mdi. Burun u molni Qo'zibaq uchun olar, Qo'zibaqqa eltib berar edi. Bu gal-chi? Bu gal ham shuning o'zi emasmi? "Nimadan qochgan bo'lsam, yana shunga tutildim! — dedi o'kinib. Keyin yana o'zini-o'zi yupatgan bo'ldi: — Menga nima, yaxshi-yomonligi bo'lsa, hammasi Jarasboyning bo'yniga tushadi-ku! Xavf-xatarga to'la tungi yurishlar ham bir g'animat-da... Jarasboy — Qo'zibaqning Salmeni emas; bu odam meni o'kintirmas. Yurishga ham shunday deb otlantirdi-ku! Endi shu fikrda qattiq turayin", deb yana avvalgi holiga qaytdi.

Soydan buralib tutun chiqa boshladi.

Osonlikcha qo'lga tushgan bu barimta chinakam talashuv-tor-tishuvning boshlanishi bo'ldi. Shundan keyin ikki partiyaning orasi to's-to'polon bo'lib ketdi. Tungi yurishlarga kunduzgi yurishlar, kunduzgi yurishlarga tungi bostirishlar ulandi. Cho'qmor va so'yillar qon bilan belandi.

Jarasboy molidan olingan barimta bilan o'g'irlikning farqiga borolmay qoldi. Bu uni battar qizdirdi. Qo'qish va boshqa bo'yni yo'g'onlar bilan bosh biriktirib, barimta-o'g'irlikka odam ketidan odam yubordi. Shu yo'sinda, bir tomondan uning moli kamaysa, ikkinchi tomondan barimta-o'g'irlik bilan to'lib bordi. Lekin baribir kirimdan chiqim zo'r edi.

Bu yilgi partiya Jarasboyini o'pirib ketdi. Birovni aldab, birovni suldab, u qancha-qancha yerga pul-mol qistirdi. Jarasboyini o'rtagan narsa chiqimlarini hozir el boshiga sololmasligi edi. Solay desa, saylov oldida ustaraning betiday toyib ketamanmi, deb qo'rqardi. Buning ustiga kundalik yig'in-kengashlarning bittasi

ham mol so'yishsiz o'tmaydi. Ko'klamda faloncha deb gerdayib sanaydigan molining hozir uchdan biri ham qolmaganday edi.

Uni boshqa chiqimlar ham kemirardi.

Burgen elida Satga qarshi chiqib, Jarasboy tarafini olib yurguvchi Do'say degan bir boy ovul bor edi. Jarasboy bilan bu ovul o'rtasidagi do'stlik keyingi vaqtlarda to'satdan kuchayib ketdi. Buning siri Jarasboyning Sat bilan dushmanligi ortgan sayin uning baquvvat, tagi zo'r odamlarga muhtoj bo'lishi edi. Jarasboy bu do'stlikni yana ham kuchaytirish uchun bir o'y o'yladi. Do'say ovulining hozirgi boshchisi bo'lgan Baytenda Qalish degan bir chiroyli qiz bor edi. Jarasboy o'rtadagi do'stlik taglik-tomirlik bo'lsin deb, Qalishni so'ratib odam yubordi.

Dusay ovuli sovchilarni quchoq ochib qarshi oldi.

Partiya tortishuvi Baytenni ham chiqimlarga botirib yuborgandi. Uning moli Jarasboyning molicha ko'p emas edi. Shuni o'ylab, Jarasboy, Qo'qish, Sarsen o'zaro maslahatlashib, Baytenning ovuliga unashtirish moli bilan qalin molini qo'shib, ko'zga ko'p ko'rinadigan qilib yuborishdi. Shunga qaramay, bu to'y harakati katta chiqim — ellikta mol va yilqini ko'tarib ketdi.

Bu chiqimlar Baxtiqul va uning yigitlarini qayta-qayta otga mindirar edi. Dastlabki paytlarda olingan mollar barimta, deb odamlardan bekitilmas edi, keyinchalik ular hech kimga ko'rsatilmaydigan bo'ldi. Asta-sekin keltirilgan mollar to'p-to'p qilib olislarga, ruslarning orasiga yuborib sotila boshladi. Lekin Jarasboy bu ishga Baxtiqul va uning yigitlarini aralash-tirmadi. Ular o'g'ri: ular mol o'g'irlyaydi. Shuning uchun savdoday halol ishga aralashmagani tuzuk. Bir kun borib bu ishlarning misi chiqsa, ta-yoq o'g'rining boshida sinadi. Shuning uchun o'g'ri kamroq narsa bilgani yaxshi.

Savdo-sotiq ishlari Jarasboyning Qo'qish, Qayranboy singari yaqin ko'makchilari, ajralmas maslahatchilari orqali yurgizilar edi.

Bu orada saylov ham yetib keldi. Jarasboy yana o'z elida bo'lis bo'lib qoldi. Ko'p tortishuv-janjal, mo'l-ko'l chiqimlar bilan o'zining eski o'rnini qayta egallashga muvaffaq bo'ldi. Ammo Sat yiqildi; bo'lislikdan tushdi. Burgen elida Jarasboyning yaqini

Do'say tarafdorlari ham o'z odamini o'tqazolmadi. Bo'lislikni Qo'zibaq ovulining tarafdorlaridan biri egalladi.

Kuz kelib, yurt qishlovga ko'cha boshlaganda, partiya tortishuvi biroz pasaydi. Endi Jarasboy ham Baxtiqulni barimtabosimta deb bezovta qilavermadi. Uni o'z holiga tashlab qo'ydi. Bundan foydalangan Baxtiqul, uyiga kelib, o'zining xo'jaligiga qaray boshladi. Har zamonda hol-ahvol so'rab, bir kun, yarim kun qo'noq bo'lib kelgani bo'lmasa, endi u bo'lis ovuliga deyarli bormasdi.

VI

Baxtiqul bo'lisdan chetlasha boshlagandan keyin partiya tortishuvi nima bo'lgani va uning qanday tusga kirgani bilan ishi bo'lmadi. U o'z ovulida hech qayoqqa bormay muqim yashadi. Orasida yurgan gap-so'zga qiziqmadi va o'zi ham birovga gap aytmadi. Bu vaqtda uning birdan bir bilgan va esda saqlagan narsasi: bo'lis bilan ikkovining dushmani bir, bu — Qo'zibaq ovuli degan ishonch bo'ldi. Buni u yodda mahkam saqladi, boshqa narsalarga e'tibor qilmadi.

Bir kun tush paytida chopar kelib:

— Seni Jarasboy chaqiryapti, — deganda u uncha hayajonlanmadi. Otiga minib, choparning orqasidan bo'lisnikiga bordi.

Bo'lisning ovulida, odatdagiday, Shalqar yurtining barcha kazo-kazolari to'planib o'tirishgan ekan. Ovulda yana bir nechta begona odamlar ham bor edi. Bular otlarini tushovlab qo'yib, tashqarida to'p-to'p bo'lib o'tirishardi. Baxtiqul chetroqda o'tirgan O'raz ovulining kishilarini ko'rdi.

O'raz ovuli Burgen bo'lisida bo'lib, Qo'zibaq ovulining yaqin tarafdori edi. Bu yoz bo'yi Jarasboy bilan qattiq olishgan ovullardan biri edi. Baxtiqul va uning yigitlari, Qo'zibaq moli qo'lga ilinmaganda, bir-ikki marta O'raz ovulning moliga ham tekkan edi.

Baxtiqul, O'raz ovulining kishilarini ko'rgach, o'zicha: "Shularning so'zi bilan chaqirgan bo'lsa kerak", — deb o'yladi. Haqiqatan ham, shunday bo'lib chiqdi.

Jarasboy odatiga qarshi, uni juda sovuq qarshi oldi. Salomiga qovog'ini solib javob berdi. Hol-ahvol so'rash o'miga zarda bilan:

— Ey, Baxtiqul, sen haddingdan oshib ketyapsan! — deb uni jerka ketdi. — Yomon yo'lga yurmas desam, sen meni bulg'aydiganga o'xshaysan. Bilasanmi, men senga nimalar qilgan odamman?

Baxtiqul Jarasboydan hech qachon bunday so'z eshitmagan edi. Daf'atan shoshib, dovdirab qoldi.

— Nima gunoh qilibman, bo'lis? Nega qaltis gapirdingiz? — dedi hayron bo'lib. — O'ldirsangiz ham, aybimni bo'ynimga qo'yib o'ldiring. Ehtimol, biron tuhmat qilgandir. Oldin tekshirib, tergab ko'ring!

— Tergaydigan yeri yo'q! — dedi bo'lis shovqin solib. — Shunday ham sen ekaningni bilib turibman. Burgen bo'lisidagi O'raz ovulidan ikki ot va ikki qisir biya olibsan. Hozir shularni egasiga qaytarib ber!

Baxtiqul uzoq indamay qoldi. Bo'lis aytgan otlarni olgani rost. Bo'yin tovlamaydi. Lekin ularni Jarasboyning o'zi oldirgan-ku. Buni mana bu o'tirganlar ham biladi. Bo'lis nega ikkiyuzlamalik qiladi? Nahotki Baxtiquldan yuz o'girgan bo'lsa?! "Yo'g'-e, unday bo'lishi mumkin emas! Mana bu yot kishilarning oldida shunaqa deyapti. Keyin meni yana o'zi himoyasiga oladi, — deb o'yladi Baxtiqul. — To'lovni qaytarib beradi. Shuning uchun hozir uni sharmanda qilmay, aytganiga ko'naveray".

— Olganim rost. Molim ham, jonim ham seniki, bo'lis. Men sening izmingdagi odamman. Ko'nglingga kelgan hukmni chiqarib, O'razni rozi qilaber. Boshqa aytadigan gapim yo'q! — dedi.

O'tirgan oqsoqol, qora soqollarning hammasi birdan yengil tortib, qimirlab, chug'urlab qolishdi. O'rtada Baxtiqulni maqtab, Jarasboyning obro'si, odamgarchiligiga qoyil bo'lib aytilgan so'zlar eshitildi.

— Bechora kambag'al — mard, o'lsa ham rostini aytib o'ladi!

— Odam o'ldirsa ham yashirmaydi...

— Bo'lisimiz ham xo'p odam-da, kishining ko'nglini topib gapiradi!

Baxtiqul bo'lisning sal chiroyi ochilganini ko'rib, aytgan gapidan xursand bo'ldi. U o'tirganlarning hammasini daf'atan ko'rolmagan edi. Endi o'girilib, ularni ko'zdan kechirdi. To'rdan Jaras-

boyning qayin otasi Baytenning o'g'li va uning jo'ralari o'tirardi. Ularning orasida O'razning Salmenga yaqin ukasi Bayten va Jarasboyning ashaddiy partiya dushmani Asan ham bor edi. "Iya, — dedi Baxtiqul ichida. — Nahotki bular endi yarashgan bo'lsa?"

Uning xayolini bo'lisning dag'dag'ali ovozi bo'ldi:

— Bundan keyin oyog'ingni qiyshiq bosadigan bo'lsang, mendan yaxshilik kutma! Seni yaqin ko'rib, uyimga kirgizgan bo'lsam, tuzuk odam bo'lib ketarsan, deb o'ylaganimdan shunday qilganman. Endi yo'ldan toygan kuning sen menga, men senga yot, begona odammiz!

Baxtiqul uning avzoyini ko'rib, bo'zrayib qoldi.

— Hozir mol egasi uyingga boradi, — davom etdi bo'lis ovozini pasaytirmay. — To'rtta yilqisiga to'rtta ot yoki qoramol berasan. So'ng aybingni yuvish uchun yana bitta ot va bitta tuya qo'shib berasan!

Hukm Baxtiqulga qattiq botdi. Uning qo'lida qancha mol borligini bo'lis yaxshi biladi. Hozirgi hukmi bilan shu molning yarmidan ko'pini yulib oldi. Olganda ham o'zi qildirgan, o'zi buyurgan ish uchun oldi. Baxtiqul o'zini zo'rg'a bosib, oxirini kutib indamadi. Bo'lis o'sha kunning o'zida Sarsen oqsoqolni yuborib, peshonasiga bultur bitgan olti molni Asanning oldiga chiqartirib berdi.

Mol achchig'i — jon achchig'i. Umid bilan boqib yurgan molining yarmidan ko'pi birdan ketib, o'rni bo'shab qolgach, Baxtiqul bilan Qatshaning ichi qattiq achidi. Lekin Baxtiqul bo'lisning oliyjanoblik qilishini, ketgan molning o'rniga o'rin mol berishini kutdi.

Oradan bir necha kun o'tdi. Bo'lisnikidan darak bo'lmadi. Ko'nglini shubha tirnagan Baxtiqul, jon holatda qo'shnilarga chopdi; partiyalar o'rtasidagi tortishuv nima bo'lganini surishtirib bilmoqchi bo'ldi. Ikki-uch ovulga borgach, ahvolni butkul tushundi. Yana uni bo'laklab tashlashibdi... Odamlar unga allaqanday shubha bilan qaraydi. Baxtiqul o'zini to'dadan qolib, chang orqasidan quvgan bo'taday his qildi. Bir Baxtiqul emas, boshqa kambag'al-qashshoqlar ham shunday bo'libdi. Yozda o'z jonini ayamay biy-boyonlarning buyrug'i bilan o'tga desa o'tga, suvga desa suvga tushgan azamatlarning hammasi shu ahvolga tushibdi.

Bu nohaqlik shahar mahkamasining buyrug'i bilan bo'libdi.

Yoz bo'yi bir-birini yomonlab, bir-birini qoralab shikoyat yozgan biy-bo'lislar endi, saylov tugab, oraga bir qadar ittifoq tushgach, kambag'al-qashshoqni, xizmatchi-malayni qoralab arz-dod qilisha boshlabdi. O'g'ri ko'payganidan, xalqning buzilganidan shikoyat etuvchi arizalar shahar mahkamasini to'ldirib yuboribdi. Saylovda yiqilgan biy-bo'lislar eski kasalni yana qo'zg'ashibdi: yangi tayinlangan bo'lis-biylarni qoralab, ularni zolimlik, yovuzlikda ayblab, rost-yolg'onni qo'shib, ariza ketidan ariza yuborishaveribdi.

Nihoyat, bir kuni jandarm boshlig'ining buyrug'i bilan barcha biy-bo'lislar chaqirtirilib, tergov qilinibdi. Uyezd chinovniklari bilan tilmochlar sinalgan usul — qo'rqitish, yalintirish yo'li bilan ularning tinkasini quritib, cho'ntaklarini poraga to'ldirib, oxirida:

— Tezda bitimga kelinglar, — deyishibdi partiyalarning boshliqlariga. — Yarashishni xohlamagan bo'lislar o'rnidan tushiriladi, partiya boshilar surgun qilinadi.

Chinovniklar do'q urib yana:

— O'g'rilarni, uryadnikka bo'ysunmaydigan beboshlarni tezda yo'qotinglar. Bo'lmasa xalq buziladi, — deyishibdi.

Ulug'ning buyrug'ini eshitgach, qimiz ichib quturib yurgan bo'yni yo'g'on boylar darrov hovridan tushibdi. Barcha araz partiyalarning boshliqlari yig'ilib, shaharda katta o'tirish qilishibdi. Ot so'yib, fotiha o'qishib, Xudo-qur'onni o'rtaga qo'yib, endi arazlikni tashlaymiz, deb bitimga kelishibdi. So'ngra o'zaro maslahatlashib, xalq ichidagi buzuqilar, o'g'rilarni tiyib olamiz, deb qaror qilishibdi. Bunday o'g'ri, buzuqi aslida, o'zlari ekanini bil-magan bo'lishibdi.

Shu yo'sinda Jarasboy shahardan barcha dushmanlari, ayniqsa, Sat bilan inoq bo'lib qaytibdi. Shaharda so'yilgan biya go'yo shularning totuv bo'lishiga atab so'yilganday ikkovi juda qalin bo'lib ketibdi.

Joylariga qaytib kelishgach, biy-boyonlar birin-ketin ot-biya so'yisha boshlabdi. Bir-birinikiga borib mehmon bo'lish, qudalahish, topishish-tanishish avjiga chiqibdi. Syezdlar ochiladigan kungacha nomlaridan barcha dog'-qorani yuvib tashlash uchun

rosa urinishibdi. Biylar bo'lislar bilan bo'lislar boylar bilan do'st, o'rtoq bo'lishibdi. Jarasboyning qaynisi bo'lmish Do'say ovuli ham yovlashib yurgan Qo'zibaq va O'raz ovullari bilan yarashib olibdi. Mana shu yarashish paytida O'raz ovuli Jarasboy olib ketgan molini so'rabdi.

Bo'lisning yig'inda Baxtiqulga qattiq gapirishi va molini olib O'razga berishi mana shu yirik fitna, yashirin bitimning oqibati ekan. Bularning hammasini Baxtiqul el orasidan surishtirib bildi. Lekin u boshiga tushadigan boshqa kulfatlarni, boshqa fitna, yovuz niyatlarni bilolmadi.

Shaharda Jarasboyning yeng uchida bitadigan ishlarini bajarib yurguvchi ishonchli bir kishisi bor edi. Bu — uyezd boshlig'ining tilmochi To'qpayev edi. U Jarasboyning yuqorida himoya qilib yurar, poralarini tegishli joyga yetkazib berar, shunga muvofiq, o'z ulushini ham olar edi. Bu odam yana uyezd mahkamasida Jarasboy xususida bo'lgan gaplarni ham oqizmay-tomizmay yetkazib turardi.

Shaharda o'tkazilgan tergovdan keyin To'qpayev Jarasboyning o'zining uyiga chaqirdi-da, ancha sir aytib, maslahat berdi. Shu yerda bo'lgan katta so'zlardan biri Jarasboy xususida uyezd mahkamasiga tushgan arizalar edi. Bu arizalarda Jarasboy o'g'rilar homiysi, deb ko'rsatilar ekan. Arizalarda "Doim kishi otlantiradi. Juda ko'p mol olgan. Qo'lida zo'r barimtachlari yigitlari bor", — deb yozilar ekan.

To'qpayev bu sirni aytish bilan bir qatorda, Jarasboyga:

— Tezda bu balodan qutul! Buning uchun bir necha kishini o'g'ri, deb tutib ber. O'z biylari nomidan avaxtaga hukm qil. Keyin shu hukm bo'yicha ularni choparlarning oldiga solib, shahar turmasiga yubor, — dedi.

Baxtiqul mana shu balodan xabarsiz edi.

O'lganning ustiga tepganday, uni ayblash uchun shu orada yana bir bahona chiqib qoldi. U qo'ni-qo'shnilarnikida aylanib yurganda, Qo'zibaq ovulidan bir to'da mol o'g'irlandi. Mol egalari o'g'irini topisholmadi. Shunda ular, ko'r tutganini qo'yimas, deganday, yana Baxtiqulga yopishdilar.

Bu gal mol axtarib keluvchilar ikki kishi edi. Baxtiqul bor gapni aytasa ham ular ketishmadi; qo'ra-o'tovni titkilashaverdi. Qidi-

ruvchilardan biri oldingi safar Salmen va uning odamlari bilan kelib, Baxtiqulni savab ketgan echki soqol, ko'zlari qisiq, malla Azbergan edi. U qamchisini o'ynatib:

— Bultur yegan kaltagingni yana sog'inib qoldingmi? — deb kuchandi.

Bo'ynida aybi yo'q, buning ustiga eski alami unutilmagan Baxtiqul, bu gapga chidab turolmadi. G'azabdan titrab, qinidan uzun qora pichog'ini sug'urib oldi-da:

— Yorib tashlayman sen laganbardor ko'ppakni! — deb unga tashlandi.

Azbergan janjalkash, tili uzun lofchi bo'lsa ham, aslida juda qo'rqoq, yuraksiz bir odam edi. Baxtiqulning do'qi uning o'takisini yorib yubordi. Choparlar otlariga minib, ovulning tepasida qamchilarini o'ynatib, so'kinib jo'nab qolishdi.

Shundan bir kun keyin Qatsha uyidagi qotgan-qutganlarni pishirib, bo'lisnikiga sovg'a qilib olib bordi. Lekin boyvuchcha uni juda sovuq qarshi oldi. Qo'lidagi sovg'asiga qayrilib ham boqmasdi. Qatsha ularning yotsirab qolganini ko'rsa ham sipogarchilikni qo'ldan bermay, indamay o'tirdi. Oldidan Seyitni bulturgiday yana o'qishga topshirmoqchi ekanini, o'g'lining boraman, deb uyda hech tinchlik bermayotganini aytdi. Lekin bo'lis bilan boyvuchcha unga javob bermay, so'zini e'tiborsiz qoldirishdi. Qatshaga "aya, ayacha", deb yonida parvona bo'lsa ham boyvuchcha yonidagi oqsoch ayollar va molboqar qo'shchilar bilan kulib, uni mazax qilaverdi. Shundan keyin Qatsha tarvuzi qo'ltig'idan tushib uyiga qaytdi.

Bu va bunga o'xshash achchiq kesatiqlar, sovuq gaplarning hammasi Baxtiqulning boshiga dovul bulutday bosib kelayotgan katta falokatning belgisi edi.

Shu orada Shalqar bo'lisining sezdi ochildi.

Baxtiqul birinchi kundanoq sovuq xabarlar eshita boshladi. Syezdga nuqul muttaham, zolim biylar to'planganmish, syezdning boshida bo'lisning o'zi qatnashayotgan emish. Biylar kambag'al-larga nisbatan qaltis talablar qo'yibdi. Bo'lisni o'rtaga olib, o'g'ri, buzuqchilarni ayamaslikka qasam ichtiribdi. Hukm katta. Biylar o'g'ri, buzuqi deb, yigirma odamni yozib olishibdi. Bular kim-

lar — hech kim bilmaydi, ammo ularning avaxtaga tushishi aniq emish...

Sezddan har kuni yangi-yangi xabarlar kelardi.

Qatsha qo'ni-qo'shnilardan avaxtaga kesilganlardan birining nomini bilib keldi. Bu yoz bo'yi bo'lisning qovog'iga qarab ish qilgan, Baxtiqul bilan bir necha marta barimtaga borgan Jadigar edi. Buni eshitgach, Baxtiqul alamdan titrab ketdi.

— Alvasti! — dedi Baxtiqul bo'lisni so'kib. — Kelib-kelib avaxtaga kestirganini qara!..

Endi uni chaqirib qolishsa kerak? Baxtiqul boshiga bo'rkini bostirib kiyib, ovqat yemay, uxlamay, oh urib, hech kimga gapirmay yotaverdi. “Qachon kelishadi?” — deb Azroilning yo'liga ko'z tikkanday, qonxo'r biylarning choparini kutdi.

Uni uzoq kutdirishmadi. Sez d ochilganining to'rtinchi kuni tush vaqtida chopar kelib:

— Biylar chaqirishyapti, — deb uni olib ketdi.

Qip-qizil qilib bezatib qo'yilgan pokiza uyda biylar qalin ko'rpa va par yostiqlarga ko'milib, semiz go'shtni yeb, kekirigi osmonga chiqib, moyga bo'kib yotishardi. Ularning avzoyi moliga qirg'in tekkan ovulning itlarini eslatardi: xuddi bir nimaga tashlanadiganday ko'zlari qizarib, yallig'lanib turardi.

Baxtiqul dami ichiga tushib, asta salom berdi-da, sudralib borib, poygakka omonat cho'nqaydi. O'tirganlardan birontasi unga qarab hol-ahvol so'ramadi. Baxtiqul zimdan ko'z yugurtirib, to'rda o'tirgan tanish biylarni ko'rdi. Mana, Sarsen qariya o'tiribdi. Lekin bittasining ham unga qaragisi kelmaydi. Baxtiqul ko'zlari bilan salom beray degan edi, hammasi bir-bir chetga burilib, undan ko'zlarini olib qochdi. Jo'rttaga o'zlarini payqamagan qilib ko'rsatishdi. Yoz bo'yi uning tarafini olib, uni o'z kishisiday ko'rib yurgan kishilar bugun chetlanib, begonalashib qolibdi.

Baxtiqul o'ziga o'zi: “Shamolning qaysi tomondan esa boshlaganini endi payqagandirsan!” — dedi. Shuni aytishi bilan ruhi birdan yengil tortganday bo'ldi. “Meni senlar qoralamoqchimisiz?! — dedi ichida biylarga hayqirib. — Qani, qoralab ko'r. Kuchlaring qayerga yetar ekan. Men o'g'ri bo'lsam, senlar o'g'ri

boshisanlar!..” Uning uzun mo‘ylovi taranglanib, sochi ignaday tikka bo‘ldi. Ko‘zlari allaqanday cho‘g‘ bilan yona boshladi.

Tergov boshlandi.

Tergov birinchi so‘zdanoq Baxtiqul o‘ylagan yo‘sinda olib borildi. Mol so‘rovchi Sat bilan O‘razning kishisi ekan. Da‘vogar “yaxshi”larning o‘rtasida o‘tirgan bir semiz malla kishi bo‘ldi. Gap birinchi barimtadan keyin Baxtiqul uch-to‘rt yigit bilan borib olib kelgan beshta yilqi to‘g‘risida borardi.

Avval da‘vogar so‘zladi. Biylar sovuq yo‘talib, qovog‘ini solib, aybdorni qoqib-siltalab o‘tirishdi. Lekin ular qanchalik kek-kayib, zug‘um qilishsa, Baxtiqul shunchalik xotirjam edi. Bo‘yin tovlashni u xayoliga ham keltirmasdi.

Bir-ikki so‘roqdan keyin:

— Yashirmayman, olganim rost, — dedi.

Oraga bir lahza jimlik cho‘kdi. Jarasboy tarafining biylari darg‘azab yo‘talib qo‘yishdi. Qarshi tarafning pakana, mo‘ylovi o‘shshaygan bir biyi o‘g‘irilib:

— Nega olding? — dedi.

Baxtiqul mo‘ylovi ostidan bir jilmaydi-da, piching otib:

— Partiya bo‘lgandan keyin olmay nima qilaman? — dedi.

Shalqar bo‘lisning biylari jim bo‘lib qolishdi. Aftidan, ular Baxtiquldan bunday gap kutishmagan edi. Shunda Qo‘zibaq ovulining biylaridan biri, to‘la yuzi xo‘rozning tojisiday qip-qizil kishi:

— Bechora partiya!.. Sen kimlarga xizmat qilmading? Endi Shalqarning partiyasi bo‘lib qoldingmi? — deb xaxolab kuldi.

Boshqalar o‘nga jo‘r bo‘lishdi.

— Sat bilan O‘razda qanaqa partiya qasding bor edi? Nima, Sat ikkoving biron yig‘inda tortishib qolganmiding? — deb kesatdi yana bittasi.

— Sat bilan men tortishmasam, yaqin ko‘rgan boshchim tortishdi, — dedi Baxtiqul xotirjam. — Men shuning tarafini oldim.

— Sen bizga nima uchun Sat bilan O‘razning beshta yilqisini olganing to‘g‘risida gapir! — dedi biylarning kattasi. — Boshchilar o‘rtasidagi tortishuvni bu yoqqa qo‘yib tur. Ularning yo‘rig‘i boshqa. Ular o‘zlari gaplashib, bitimga kelib olishdi. Sen bosh-

chim degan odamlarning o'sha besh yilqidan bosh tortib o'tiribdi. Shuning uchun ularni sendan so'rayapmiz.

— Men bittami, beshtami, qancha mol olgan bo'lsam, ularni o'z xohishim, o'z qasdligim orqasida olgan emasman, — dedi Baxtiqul. — Meni mol olishga yuborgan odamlar o'lib ketgani yo'q. Mana shu qarshimda o'tirgan Sarsen bilan Qo'qish yozda men qilgan ishlarning bittasidan ham bo'yin tovlay olmaydi!

Qo'qish uyga hozirgina kirib o'tirgan edi. U Baxtiqulga o'da-g'aylab, qo'lidagi qamchisini o'ynatib:

— Partiya yo'li bilan olingan barimta boshqa, buni sendan hech kim so'rayotgani yo'q! Sen o'zing qilgan o'g'irliklaringni begunoh odamlarga to'nkayman deb urinma, bildingmi? O'ladi-gan bo'lsang, Sarsen ikkovimizga osilmay o'! — dedi. — Biylar! Bu hali bizga emas, Jarasboyga ham osilar. Yo'qolgan otlarning barimtaga ham, partiyaga ham hech bir aloqasi yo'q! Ularning hammasi o'g'irlangan mol! Shu gaplarni biylarga borib ayt deb, meni bo'lis ataylab yubordi. O'g'ri — mana, qilmishi — bo'yniga olib o'tirgan o'g'irligi. Endigi gapni o'zlaring bilasizlar!

Baxtiqul yonib ketganday bo'ldi. O'raz talab qilayotgan besh yilqini Jarasboy, Qo'qish, Sarsen uchovi bo'lishib yegan edi. Baxtiqul alam va g'azabdan holsizlashib, beixtiyor ko'ziga yosh oldi...

Biylar bir-biriga qarashib, imlashib, nima bo'lsa ham aybni uning bo'yniga qo'yish chorasini qidirishardi. Sud tugab, hukm chiqaradigan vaqt yaqinlab qolgan.

Baxtiqul es-hushini yig'ib olgach, tortishuvni qo'ydi-da:

— Agar Qo'qish gapirgan gapni bo'lisning aytgani rost bo'lsa, men hech nima demayman! Bilganlaringni qilinglar, menga desa, olovga tashlab, yondirib yuboringlar! — dedi. — Men nima ko'rgan bo'lsam, ishonganimdan, soddaligimdan ko'rdim. Endi ko'zim ochildi. Qo'y deb bo'riga ergashib yurgan ekanman!

Baxtiqul o'rnidan turib tashqariga chiqib ketdi. U xuddi mast odamday, boshi oqqan tomonga sanqidi. Bir mahal hovlida uch-to'rt semiz kishi bilan oldidan o'tib ketayotan bo'lisga duch keldi. Bo'lis xuddi uni ko'rmaganday, salomini e'tiborsiz qoldirib, o'tib ketdi. Baxtiqul, orqadan uning yo'g'on, to'q, ulug'vor gavdasiga

qarab qolar ekan: “Hap, shoshma!” deganday tishlarini g’ijirlatdi.

Uydan chopar chiqib, uni ichkariga chaqirdi, Baxtiqul kirdi. Biylar besh yilqi o’mini besh yilqi bilan qoplashga hukm qilishibdi. Keyin bunga qo’shimcha qilib uch yil qamoqqa kesishibdi.

VII

Oradan ikki hafta o’tdi. Baxtiqul kimsasiz tog’da qochib yurardi. U yurt-eldan tamomila bezgan edi.

Xoin biylar sezdda hukm chiqarishgach, o’zaro kelishib, Baxtiqulni tutqinga olmoqchi bo’lishdi. Shu maqsad bilan ikki yigit uni tashqariga olib chiqdi. Cho’lda odamlarni qamash odat bo’lmaganidan, o’g’rilarni qamaydigan maxsus bino ham yo’q edi. Shuning uchun mahbusni shaharga jo’natguncha kishanlab qo’yishardi.

Baxtiqul oldin hech nima tushunmadi va yonidagi qurolsiz yigitlarga hayron bo’lib qaradi.

Yigitlar uni bo’lis o’tirgan uyning qarshisiga olib borib:

— Shu yerda qimirlamay tur! — deyishdi-da, o’zlari ichkariga kirib ketishdi.

Baxtiqul shundagina ularning niyatini fahmladi: kishan olib chiqishmoqchi... “Aha!” — dedi Baxtiqul mushtini qisib va xuddi hech nima bo’lmaganday, ishonch bilan otiga qarab yurdi.

Choparlardan biri kishan olib chiqqanda, hovlida hech kim yo’q edi. Chopar u yoqdan bu yoqqa yugurib:

— Ushla! O’g’ri qochdi! Ushla! — deb dod-voy soldi.

Bu vaqtda Baxtiqul ovuldan chiqib, dovondan oshib qolgan edi. U shartta qarag’ayzorga burildi, toshlardan aylanib, izini yo’qotib ketdi. Uning orqasidan tushgan quvg’inchilar ikki qo’lini burniga tiqib qaytishdi. Bo’lisning choparlarni so’kishi, biylarning darg’azab baqirishi ham hech qanday naf bermadi.

Baxtiqul uyiga borib, xotiniga bo’lgan voqeani aytdi. Keyin jiyronni tashlab, saman otiga mindi-da, qo’liga miltig’ini olib, bir vaqtlar bo’z biyani so’ygan daraga bordi.

Bu yerda u kechgacha bekinib yotdi.

Xotini unga tolqon tuydi. Baxtiqulning o‘zi to‘qlilaridan birini so‘ydi. Go‘shni ikkiga bo‘lib, bir bo‘lagini bola-chaqasiga qoldirdi, bir bo‘lagini esa meshga solib, o‘zi bilan olib ketish uchun tayyorlab qo‘ydi.

Qosh qoraygach, xotini tolqonni olib keldi. Qisqagina xayrlashdilar. Baxtiqul samanga minib, to‘riq otini yetaklab, qachon kelishini aytmay, tog‘ga jo‘nab ketdi.

Shundan buyon u qochqin: hech qachon ko‘rmagan va ko‘rmasam deb tirishgan og‘ir, el ko‘ziga yomon ko‘rinadigan darbadarlikka noiloj bo‘yin egdi.

Qatsha erining orqasidan qarab:

— Kelib-kelib oxiri shunga yetdimi? Xudo jazongni bergur, Jarasboy! Iloyim qilganing o‘z oldingdan kelsin! — dedi.

Baxtiqul qorong‘ida ko‘zdan yo‘qolguncha qarab turdi-da, qopdagi go‘shni orqalab uyga qaytdi.

Shu kun kechasi bo‘lisning choparlari kelishdi.

— Tushda o‘zlaring olib ketgan edilaring-ku, — dedi Qatsha o‘zini bilmaganga solib. — Nima bo‘ldi?

Bo‘lis qanday bo‘lmasin, Baxtiqulni tutib jazolashga qaror qildi. Uning o‘nlab choparlari tog‘da, qarag‘ayzorlarda, to‘qayzorlarda izg‘ib yurisha boshladi. Bo‘lis ko‘pincha quvg‘inchilarga tog‘- Toshning hadisini yaxshi biladigan ovchi va o‘g‘rilarni qo‘shib yuborardi. Bular tun-kun otdan tushmas, tog‘dan qarag‘ayzorga, qarag‘ayzordan to‘qayga o‘tishar edi. Bo‘lis quvg‘inchilarning otlarini tez-tez almashtirib turardi. Ular yangi otlarga minib, yangi kuch bilan qidirishga kirishar edi.

Baxtiqul, xuddi tog‘ kiyigiday, ularga tutqich bermas edi. Lekin uning ahvoli kun sayin og‘irlashib borardi. Bir yoqdan charchash, horg‘inchilik ezsa, ikkinchi yoqdan tashvish, qo‘lga tushish xavfi uni kemirar edi. Bu xavf uni bir nafas orom olgani qo‘ymay, oyog‘ini yerga tegizmay uchirib yurardi. Baxtiqul tog‘dan tog‘ga, o‘rmondan o‘rmonga o‘tar, uxlamas, tomog‘idan ovqat o‘tmas edi. Uning yuzlari bujmayib, qovoqlari shishib ketgandi. Quvg‘inchilar uning nazarida xuddi orqadan qisib kelayotgan dahshatli yong‘ingaga o‘xshab tuyulardi. U ot ustida mudrab, cho‘chib uyg‘onar,

so'ng yana tezroq joyini o'zgartirishga shoshardi. Gohida u hayotdan butkul sovub:

— Bunday darbadarlikdan o'lim yaxshi. Buning o'limdan nima ortiqligi bor?! — deb umidsizlanar, lekin avaxtani, Jaras-boyni, uning sovuq, yog' bosgan semiz betini ko'z oldiga keltirib, yana kuchga minar, sergak tortar edi.

Shunday paytlarda:

— Nima bo'lsa ham ushlatmayman! — deb mushtini qisar edi. — Tiriklay qo'lgaga tushmayman! O'lsam ot ustida o'laman!..

Bo'lis bir kun ham tinim bilmas, Baxtiqulni kunduz chiroq yoqib izlatardi.

So'nggi paytlarda quvg'inchilar soni ko'paydi, ular to'da-to'da bo'lib har tarafdin kela boshladi. Bir tomondan miltiq, cho'qmor, so'yil ko'targan choparlar tog'-toshni titkilasa, ikkinchi tomondan, el orasidan chiqqan bitta yarimta sotqin biy-boyonlar uning orqasiga tushdi. Bo'lis tog' orasiga jarchi yuborib:

— Kimda kim Baxtiqulni ko'rsa, darhol ushlab bersin yoki daragini aytsin! Bo'lmasa shahardan otryad chiqadi, qo'noq bo'lib, mol so'ydirib, hammaning tinkasini quritadi. O'g'rini yashirding, deb ko'p odamning boshiga suv quyadi! — degan buyruq tartqadi.

Shundan keyin tog' orasi juda xatarli bo'lib qoldi. Ko'pchilikka ishonish qiyin, biri bo'lmasa biri tutib beradi. Undan keyin, yov uchrab qolsa, unga qarshilik ko'rsatadigan tuzuk qurol ham yo'q. Qo'lidagi og'zidan o'qlanadigan miltiq bilan bir nima qilib bo'lmaydi.

Mana shularni o'ylagan Baxtiqul, biron chora topish payiga tushdi. U bundan ikki-uch yil burun Burgen bo'lisida yilqi boqib yurgan paytida bir rus qariya bilan tanishgan edi. Rus chol o'sha paytda Baxtiqulday qochqin bo'lib yurgan va hatto bir yil avaxtada yotib ham chiqqan edi. Baxtiqul unga ko'p yaxshilik qilgan, zarur bo'lganda ostiga ot, oilasiga so'qim berib turgandi. Shunda u: "Rahmat. Bu yaxshiligingni men ham bir kuni qaytararman", deb qo'ygandi. Baxtiqul shu rus cholnikiga bordi. U Baxtiqulni quchoq ochib qarshi oldi, olti otar to'pponcha va yangi berdanka miltig'ini chiqarib berdi.

To'pponchani qo'yniga solib, berdankani bo'yniga osib olgan Baxtiqul, kecha yo'lakay bir ovulda qo'nib, endi tog' orasidagi bir tanishinikiga borayotgan edi. U nima bo'lsa ham bir makon topib, muqim yashirinishga qaror qilgandi. U otini asta yo'rttirib, qarag'aylar orasida o'ylab, xayol surib borardi.

Kecha tunda qo'ngan ovuli uncha ishonchli ko'rinmadi. Qovog'ini solib qarshi olishi, tunda er-xotin ikkovining pichirlab gapirishi unga shubhali tuyuldi. Baxtiqul bir mizg'ib uyg'ongach, sahar paytida otiga minib, hech kimni uyg'otmay chiqib ketdi. Burun bu ovul Baxtiqulga ancha yaqin edi. Endi bir bu emas, boshqa ovullar ham unga teskari bo'lib qolgandi.

To'riq ot qarag'aylar orasidan o'rmalab borib, tanish qoyaning ustiga chiqdi. Pastda sharqirab Talg'ar daryosi oqib yotardi. Toshning ikkinchi tomonida Qatuboy ovuli joylashgan. Baxtiqul shu ovulga kelayotgan edi. Unga kirib choy ichib, tunda qo'nib, ertaga tog' orasiga chiqib ketmoqchi edi.

Baxtiqul panada turib razm soldi. Hovlida egarlangan ot yo boshqa bir nima yo'q. Jimjit. Baxtiqul ohista borib, otdan tushdi-da, otini qo'raga eltib boyladi. Keyin uyga kirdi.

Qatuboy, xotini, ikki o'g'li — hammasi uyda ekan. Qatuboy Baxtiqulning Burgenga ketishda tashlab ketgan miltig'i bilan bir kiyik otib kelibdi. Xotini hozir shundan qovurdoq pishirayotgan ekan. Olov ustidagi qumg'onda vaqirlab choy qaynardi. Ahil, tinch oila ochiqqan, bola-chaqasini sog'ingan Baxtiqulning ko'ziga olovday ko'rindi.

Qatuboy ellik yoshlardagi ochiq, yuvosh bir mo'ysafid edi. Soqoliga allaqachon oq oralagan bo'lsa ham hali ikki yuzi qip-qizil, yoqimtoy. Birinchi xotini o'lib, ikkinchi marta uylangan. Bolalari ham mana shu ikkinchi oilasidan bo'lgan. Katta o'g'li o'n ikki yoshda, kichigi — o'nda. To'ladan kelgan xotini bir qadar erkakka o'xshab ketadi. Lekin rahmdil, ko'ngli ochiq ayol: ikki beti erinikiday qip-qizil, xushro'y. Bolalarining ikkovi ham ota-onasiga tortgan: shirinso'z, pokiza bolalar.

Qatuboy yozda ekin ekar, mol-qo'rasiga qarar, qishda esa tuzoq, qopqon qo'yib, ov qilardi. Baxtiqul uni avval tanimasdi. Tog' orasida qochib yurgan kunlarining birida olovini ko'rib kelgan va

shunda tanishgan edi. O'shanda ham uni hozirgiday ochiq chehra bilan qarshi olishgan edi. Baxtiqul bularga boshidan kechirganlarining hammasini gapirib bergan va bular uni juda yoqtirib qolishgan edi.

Qatuboy va uning oilasi hech qayoqqa bormay, bo'lis-biylardan ovloqda, el orasida yurgan gap-so'zlarga quloq solmay, yoz ekini, qish ovi bilan qanoat qilib, tinchgina hayot kechirar edi.

Baxtiqul birinchi marta kelganda, uni yashirishdan qo'rqmay:

— Boshingga g'am tushgan azamat ekansan. "Yolg'izning yori — Xudo" deganlar. Birda bo'lmasa birda jonimga ora kirgan bir chol-kampir ham bor edi, deb esga olarsan. Shu yerni o'z uyingday ko'rginu bemalol yuraver. Yovingdan biz xabar olib turamiz, — deyishgan edi.

Shundan keyin bu ovul uning eng ishonchli makoni bo'lib qolgandi. Oldingi kuni Burgendagi qari oshnasinikiga ketguncha, u shu yerda yotib yurgan edi. Lekin u chol-kampirni baloga qoldirmay deb, faqat tunda yotardi. Kunduz esa tog'-toshlarning orasida yurardi. Shuning uchun uning bu yerda yotib yurganini hech kim bilmasdi. Baxtiqul har kuni bir nima otib kelar va uni o'rtada baham ko'rishar edi.

Baxtiqul Burgendan qaytguncha, Qatuboy pastdagi qo'shni ovullardan ancha gap eshitib kelibdi.

Falonchi degan bir qochqin bor emish. Bo'lis shuni hech kim ovuliga kiritmasin, ko'rsa — xabar qilsin yo ushlab bersin, debdi...

Qatuboy yana ancha gap eshitibdi. Lekin ularning biriga ham parvo qilmabdi. Kecha pastdagi ovullarning birida quvg'inchilarning o'zlarini ko'rgandan keyingina biroz tashvishga tushibdi. Quvg'inchilar hali bu tomonlarga kelib yetmagan ekan, chamasi, birov aytib yuborgan bo'lsa kerak.

Baxtiqul kelib qovurdoq yeb, choy ichib o'tirganda, Qatuboy bilan xotini ohista shularni aytishdi-da:

— Ehtiyot bo'l, chirog'im. Endi uchrashib qolar, — deyishdi.

Baxtiqulning esiga tunda qo'ngan ovuli tushdi. Tag'in shular orqamdan yuborishmasin, deb xavfsirab, apil-tapil choyni ichdi-da, o'rnidan turib, chol-kampir bilan xayrlashdi.

U har gal bu yerdan ketganda, xilvat o‘zan bo‘yidan yurib bo‘rib, keyin tog‘ga chiqib ketar edi. Bu gal ham tezgina Talg‘ar daryosining bo‘yiga tushdi.

Asov daryoning shovqini juda olisdan eshitaladi. Yaqindan u hayqirib, qirg‘oqlarga urilib, aqlni shoshirguday bo‘lib ko‘rinadi. Daryo yirik qoyalar, baland toshlar orasidan o‘tadi. Yuqoridan otilib tushayotgan suv qoyalarga urilib, osmonga sapchiydi, uning ko‘piklari ilonday vishillaydi. Ko‘klamda suv qirg‘oqlardan oshib ketadi. Hozir suv kam. Shunday bo‘lsa ham, yirik-yirik toshlarni charxpalak qilib oqizib kelardi.

Baxtiqul suvdan ko‘zini uzmay, qirg‘oq bo‘ylab borardi. U daryoning ikkinchi qirg‘og‘iga o‘tish uchun kechuv axtarib yurardi. Ko‘prik olis. Shuning uchun yaqin atrofdan kechuv topib qo‘ymoqchi edi. Baxtiqul yuqori ko‘tarilib, keng ochiq maydonga chiqdi. Ammo bu yerdan ham o‘tib bo‘lmasdi. Suv to‘lqinlari bu yerda ham boshni aylantirguday edi. Baxtiqul yo‘lida davom etdi. Bir mahal to‘riq ot boshini ko‘tarib bir talpindi. Baxtiqul cho‘chib oldinga qaradi. Qarshidagi yarim chaqirimlik tepada ikki otliq turardi. Qo‘llarida so‘yil, otlari o‘ynoqi. Baxtiqul darhol yon tomondagi to‘qayga burildi. Lekin orqadagi tepada ham to‘rt-besh otliq ko‘rindi. Baxtiqul qurshovga tushib qolganini payqadi.

Otliqlar hoy-hoy solib, chopib, qisib kelisha boshladi.

O‘zan tor, yaqin-verida o‘rmon, daraxt yo‘q. Yon tomonga qochib bo‘lmaydi, ochiq to‘qay. Bemalol otib qo‘yishlari mumkin. Ko‘p o‘ylab o‘tirishga vaqt yo‘q. Yolg‘iz najot — otni Talg‘arga solish. Yo suvdan omon-eson o‘tib ketadi, yo cho‘kib o‘ladi, ikkovida ham yov qo‘liga tushmaydi.

Baxtiqul otini qamchilab, biqiniga tepib, to‘ppa-to‘g‘ri quturib oqayotgan daryoga haydadi. Itoatkor ot bir talpindi-da, boshini engashtirib, suvga tushdi. Daryoning ikkinchi qirg‘og‘iga ilinsa, qutuldi. U tomonda yov yo‘q. Quvg‘inchilar esa o‘tisholmaydi.

Birinchi qadamdanoq suv otning tizzasidan keldi. Baxtiqul: “Yo ollo! Yo arvoh!” deb uning yoliga engashdi. To‘riq, tumshug‘ini oldinga cho‘zib, dadil yurdi. Suv asta-sekin ko‘tarilib bordi, otning ko‘kragiga, keyin qorniga yetdi. Daryoning o‘rtasiga borgan-da, ot bir qalqib oqdi. Baxtiqulning nazarida qirg‘oq, toshlar, olis-

dagi o'rmon charx urib aylanganday bo'ldi. Lekin ot yana o'zini o'nqlab oldi. Qattiq toshga oyog'ini qo'yib, qirg'oqqa qarab yurdi. Baxtiqul uning yelkasiga qoqib, yolini silab borardi. To'lqinlar yana otni ko'tarib ketdi. Baxtiqul: "Endi tamom!" deb ko'zini yumdi. Lekin ot ikkinchi marta toshga ilindi. Baxtiqul ko'zini ochib, ikki qadam narida turgan qirg'oqni ko'rdi... To'riq pishqirib, entikib, depsinib oldinga intilardi. Ammo tosh sirpanchiq, tekis edi. Toliqib qolgan ot asta-sekin orqaga surila boshladi. Baxtiqul darrov o'rmidan turdi va otning yoliga oyoq qo'yib, qirg'oqqa sakradi. U belidan muzday suvga botdi. To'lqinlar shu zahoti uni surib ketdi.

Baxtiqul entikib, og'zi-burni suvga to'lib, qo'llarini siltalab borardi. Bir mahal yirik to'lqin uni kattakon qoyaga keltirib urdi. Baxtiqul jon holatda toshni quchoqladi va yuqoriga tirmashdi.

U qirg'oqqa chiqqanda, to'riq goh suvga botib, goh yuzaga chiqib, daryoning o'rtasida oqib borardi. Ikkinchi qirg'oqda, baland-baland toshlarda cho'qqayishib quvg'inchilar turishardi. Baxtiqul qo'ynidagi to'pponchasi bilan bo'ynidagi miltig'ini paypaslab ko'rdi. Miltiq va o'qlari tugal edi.

— Bir o'limdan qoldim! — dedi Baxtiqul. — Ammo buning haqini olaman!..

VIII

Oradan biroz vaqt o'tdi. Baxtiqul bu vaqtda Talg'ar boshidan ketib, Shegetidan Burgenga olib boradigan yo'lning o'rtalarida yurardi.

Bu tomonga kelganiga uch-to'rt kun bo'ldi. Tunda qarag'aylarning tagida panalaydi. Sovuqdan qaqqshagan badanini ilitish uchun shox-shabbadan gulxan yoqadi. Oftob chiqishi bilan Qarash-Qarashning chetiga borib, kimsasiz yo'lga qadalib o'tiradi. Xuddi bir nima axtarganday yo'lning past-balandiga qaraydi, tosh-teshiklarni sinchiklab kuzatadi.

Ikki-uch kundan beri dam u yerga o'tirib, dam bu yerga yotib, qulay joy izlab keldi-da, oxiri bugun tongotarda o'rta Qarashning chetiga yashirindi. Shuncha vaqt qochqin bo'lib yashash unga o'z

tamg'asini bosgan: yuzi xuddi qoni so'rib olinganday sap-sariq. Nafasi xirillab chiqadi. Qo'llari bir nimani ushlashga intilganday o'z-o'zidan musht bo'lib qisiladi.

Baxtiqulning qalbini betoqatlik timdalardi. U qat'iy bir qarorga kelgan va endi shu qarorini amalga oshirish uchun dovonda bekinib yotardi.

Og'ziga shalvirab tushgan o'siq mo'ylovi qorda tulki bosib o'tirgan burgutning qanotlariga o'xshab ko'rinadi. Ko'zlari allaqanday qizg'ish, olovli. Shegetining Asi yayloviga, ilon iziday cho'zilgan yo'lga tikilib qaraydi, kutadi...

U hozir qilmoqchi bo'lgan ishini burun xayoliga ham keltirmagan edi. Lekin bo'yni yo'g'on boylarning zulmi haddan oshib ketdi. Yomon yo'lga o'zlari yurgizib, oxirida buni qurbon qilishdi-da, o'zlari oq-halol bo'lib olishdi. Bir Baxtiqul emas, boshqa kambag'al-qashshoqlarning ham qismati shunday bo'ldi.

Bu nohaqlikka qarshi qoni qaynab tohsa ham kuchi yetmasligini bilib, Baxtiqul o'zini bosdi. "Dunyo ostin-ustin bo'lib ketmasa, bu zo'raonlarga men ro'para bo'lolmayman", — deb o'yladi. Haqiqatan ham, shunday edi: Janis — katta el, boy, baquvvat, uning eli Sari bo'lsa, yigirma uydan oshmaydi, buning ustiga kambag'al, qashshoq.

Bo'lis bir tomondan, yana shu baquvvat elga tayansa, ikkinchi tomondan, shaharning ulug'iga suyanadi. Unga tenglashish, qarshi chiqish Baxtiqul uchun aqlga sig'maydigan gap bo'lib ko'rinadi. Ilojsizlikdan tinkasi qurib, qochib jon saqlash payiga tushdi. Biroq tog'-tosh ham unga panoh bo'lolmadi. Dushmanlari quvib kelib uni Talg'ar suviga haydashdi. Butun qochib yurgan kunlari bir bo'ldi-yu, shu Talg'arda oqqan kuni bir bo'ldi. Shundan keyin uning niyati buzildi.

Suvda oqib tayyor o'limdan omon qolgach: "Nimadan qo'rqaman? — dedi o'zicha. — Oxiri boradigan joyim baribir shuning o'zi emasmi? Menga o'xshagan odamlar uchun hayot nima-yu, o'lim nima!" Uning qalbida berahm zamonga, uqubatli tirikchilikka qarshi g'azab o'ti chaqnadi. Og'iz-burnini moyga tiqib huzur-halovatda yashayotgan bo'lis-biylarga la'nat o'qidi. Shu

yerda uning ko'nglida yomon niyat tug'ilib, bugungi ishga bel bog'ladi.

U oldin Qatuboyini otda soyga tushirib, bo'lis ovulidan ikki-uch marta xabar oldirdi. Keyin Qarashga kelib yashirindi.

Qarash-Qarash qarag'ay va archalar bilan qoplangan uchta yirik tog' tizilmasidan iborat. Bosh Qarash, O'rta Qarash, Quyi Qarash. Yozda Burgen, Shalqar bo'lisidagi ovullarning moli o'tadigan dovonlardan biri shu yerda. Hozir kuz bo'lganidan barcha ovullar soyga ko'chib ketgan: onda-sonda Shegetidan quyiga qarab yo'rtgan bitta-yarimta otliq bo'lmasa, tevarakda jon asari ko'rinmaydi.

Baxtiqul o'z maqsadi uchun O'rta Qarashni tanladi. Yo'lni, tosh-teshiklarni, burilishlarni sinchiklab ko'zdan kechirdi. Unga yov quvganda oson qochadigan va tez adashtirib ketadigan joy kerak edi. Baxtiqul shunaqa joyni topdi. Bu — O'rta Qarashdan Quyi Qarashga oshib o'tadigan dovon edi.

Bu joyda yo'l qiyalikdan yon bag'irlab kelib, yo'lovchini baland toshlarning tagidan olib o'tar edi. O'rtaga yaqinlashgach, yo'l yuqori ko'tarilar va bir qoyadan aylanib o'tib tepaga chiqardi. Shu yerdagi balandlikda bir-biriga tutashib o'sgan uchta tog'terak bor edi. Tepalikning orqasi chuqur dara, toshloq. Qirradan tushsa faqat tajribakor piyoda tushadi, otliq yaqiniga ham borolmaydi. Daraning ichi qalin o'rmon. Toshidan toshga sapchib, sharqirab Qarashning suvi oqadi. Pastga otni bekitib qo'yib, tog'-teraklarning orasiga chiqib bemalol yashirinib o'tirsa bo'ladi.

Shularning hammasini yaxshilab ko'rib, bilib olgach, Baxtiqul Asi yayloviga yana bir qarab qo'yish uchun tepaga qarab yurdi. Bu gal qiyalikdagi yo'ldan yurmadi. Yuqorilab, ko'tarilib bordi-da, O'rta Qarashni kesib o'tib, Asi tomondagi cho'qqining tepasiga chiqdi.

Kuz osmoni allaqanday rangsiz, g'uborli, olisdagi tog'larning cho'qqisiga salladay o'ralgan bulutlar ko'zga sovuq ko'rinadi. Atrof jim, tiq etgan tovush yo'q. Kun chiqish tomonda Sarimsoqli-ning qarag'ayzori hurpayib turibdi. Uning pastrog'ida ilon iziday buralib Burgen yo'li ko'rinadi.

Baxtiql endi payqadi: olisda yo‘l keng va tekis ekan. U erta-
labki quyosh nurida xuddi qon to‘kilganday qip-qizarib yotardi.
Qiyaliklarda tarvaqaylab yotgan tomirlar oftobda qovjiragan o‘lik-
larday ko‘ngilga sovuq g‘urbat cho‘ktiradi. Qizil dog‘lar boshqa
joylarda ham bor edi. Olisda bag‘ridan Burgen suvi yorib chiqqan
Nazar tog‘i qorayib ko‘rinadi. Bu tog‘ning atrofi tekis maysazor
o‘tloq. U yerda yoz chog‘lari ko‘p ovullarning moli yoyiladi.

Eng uzoqda qorli cho‘qqisini bulutlarga sanchgan O‘jar tog‘i
ko‘rinadi. Har gal yo‘lga qaraganda, u Baxtiqlga allanima deb
imlaganday bo‘ladi. Bu so‘qqabosh, qor-sovuqni pisand qilmay-
digan O‘jar tog‘ go‘yo Baxtiqlning qiyin maqsadini tushunib,
unga dalda, madad beradi, “Qo‘rqma, yoningda men borman”, de-
ganday bo‘ladi. Hozir ham uning ruhini bir qadar yengillatdi.

Baxtiql cho‘qqining tepasida kuzatib turardi. Bir mahal Asi
tomonda jadal qimirlayotgan to‘daga ko‘zi tushib qoldi. U tikilib
qaradi. To‘da mol emas, bir guruh otliqlar edi. Baxtiql darhol oti-
ni burib, quyiga tusha boshladi.

Bir necha daqiqadan so‘ng u otini daraga yashirib, o‘zi yengil
kiyib, dovonga chiqdi. Tog‘teraklarning tagiga yuz tuban yot-
di-da, hansirab, oldinga qaradi.

Bu yerdan O‘jarning qorli cho‘qqisi ham, Sarimsoqlidagi qa-
rag‘ayzorning cheti ham bemalol ko‘rinar edi. Qarshida baland
tanish qoya osilib turibdi. Uning tagi — qalin o‘sgan adl qarag‘ay-
zor. Baxtiqlga ular go‘yo yuqoriga tirmashayotganday, hozir u
qilmoqchi bo‘lgan ishdan shoshib qochayotganday bo‘lib tuyuladi.

— Mayli, — dedi Baxtiql qalin mo‘ylovlari ostidan sovuq jil-
mayib. — Bu ish shu bugun bo‘laqolsin...

Baxtiql yana oldinga qaradi. Qarag‘aylar bilan qoplangan qi-
yalikda mayda qizil toshlar sochilib yotardi. O‘jarning yonboshi-
dagi qoyalar ham qizil. Bu yerdan asov Burgen suvi tog‘ bag‘rini
yorib kirgan o‘ngurga o‘xshab ko‘rinadi. Baxtiql ularga qarab ul-
gurmay, O‘rta Qarashning orqasidan o‘n besh choqli otliq chiqdi.
Ko‘pining mingani — yo‘rg‘a, saylanma otlar. Yurishi o‘rtacha,
otlarni bir me‘yorda yo‘rg‘alatib kelishayotir. Yo‘lovchilarning
ko‘pi yosh, epchil yigitlar. Oralarida to‘rt-besh yasangan ayol ham
bor.

Egar-jabduqlarning kumush naqshlari oftobda yarqirab ko'rinadi. Epkinda tiniq shol ro'mol va oq ko'ylaklarning etaklari hilpiraydi.

Otliqlar O'rta Qarashning pastki yo'lidan tog' bag'irlab kelishardi. Yo'l kengayganda ular ikkita-uchtadan bo'lib qatorlashib yurishar, yo'l torayganda esa bitta-bittadan bo'lib kelishardi. To'dalarning birida katta oq yol otga minib kelayotgan semiz kishi boshqalardan ajralib turardi. Baxtiqul unga tikilib-tikilib qaray boshladi. Uning orqasida kelayotgan ayollar unga allanimalar deb gapirishar, sharaqlab kulishar va erkakni ham qayta-qayta kuldirishar edi.

Otliqlar endi yaqinlashib qoldi. Oldingilari Baxtiqul yotgan dovonga ko'tarilisha boshladi.

Yuqoriga buriladigan joyda qorag'at ildizlari yo'lni to'sib turardi. Shu yerga yetganda Baxtiqul otliqlarni bir-biridan ajratolmay qoldi. Tog'teraklarning qalin barglari ham unga xalaqit berardi.

Otliqlar qorag'atdan o'tib, ochiq yo'lga chiqishgach, Baxtiqul ko'zlari bilan darrov oq yolni qidirib topdi. Tanish yuzga ko'zi tushishi bilan uning badani jimirlab, yuragi hapriqib ketdi. Baxtiqul O'jarga qaradi. Ko'hna tog', oq sallali boshini silkitib, unga madad tilaganday bo'ldi. Baxtiqulning tomirlari tarang tortilib, qo'llari miltiqni jips qisdi.

Otliqlarning oldi teraklarga baravarlashib qo'riq toshni taqir-tuqur bosib o'ta boshladi. Baxtiqul chuqur nafas oldi-da, kiprik qoqmay, soqol o'sib ketgan iyagini muzday qo'ndoqqa bosdi. Berdankaning og'zi sovuq bir xotirjamlik bilan nishonga burila boshladi.

Baxtiqulning qarshisidan oyoqlarini tetik tashlab bir bo'z yo'rg'a o'tdi. Uning orqasidan ro'parada tanish oq yol paydo bo'ldi. Qarshidan o'tsa, orqada kelayotgan kishiga ham tegib ketishi mumkin. Baxtiqul yana biroz kutdi.

Oq yol chiroyli qadamlar bilan teraklarning to'g'risidan o'ta boshladi. Baxtiqul ohista tepkini bosdi. Uning qulog'iga varanglangan ovoz kirmasdan burun ko'zlari teri po'stinda hosil bo'lgan tangaday teshikka va undan burq etib chiqqan ko'kish tutunga

tushdi. Ot hurkib oldinga sapchidi. Bo'lisning og'ir gavdasi talpinib borib chalqancha quladi.

Baxtiqul uning gursillab yerga tushganini ko'rar ekan, darhol pastga sakradi. Hoy-hoylab, baqirib-chaqirib qolgan tovushlar ichida uning qulog'iga yosh ayolning chinqirib:

— Voy! Baxtiqul-u-ul! — degan faryodi eshitildi.

Baxtiqul beixtiyor ingrab yubordi. Toshidan toshga o'tib, qoqilib-suqilib to'qayga yugurdi. Oti qo'yan yerida, quloqlarini dikkaytirib, bezovtalanib turar edi. Baxtiqul irg'ib egarga mindi. Ot uni bir zumda qarag'aylar orasiga olib kirib ketdi.

Shuncha vaqtdan beri gavdasini tog'day bosib yotgan dardalam xuddi shamol uchirganday yo'q bo'ldi ketdi: silkinib, boshini ko'tarib borar ekan, yo'lda uchragan bir notanish otliqni to'xtatdi-da, sovuq kulib:

— Men bugun bir bug'u otdim. — dedi.

* * *

Baxtiqul avaxtada.

Jarasboy o'lgandan keyin shaharning ulug'i va Janis elining biy-boyonlari yopirilib uni tutish payiga tushdilar. Tog'-daraga to'da-to'da odam yuborildi. Kirishga teshik qoldirishmadi. Endi Baxtiqulning o'zi ham avvalgiday qochmadi. Shunday qilib Qarash voqeasidan ozgina vaqt o'tgach, uni tutib olishdi.

Qo'lga tushgan kuni yegan kaltagining tana va boshidagi dog'lari hali ham bor. Bu yaralar endi qotib, tuzalib kelayapti. O'sha kuni Janis elining bo'yni yo'g'onlari yigirma uyli Sarining changini osmonga chiqarib, hech narsasini qoldirmay olib, Burgen va Shalqar elidan haydab yuborishdi. Ular Qatshani ham bolalari bilan badarg'a qilishdi.

Baxtiqul avaxta boshlig'iga yalinib yurib, katta o'g'li Seyitni yoniga keltirib oldi. Qatsha shahardagi bir boy oilaga xizmatkor bo'lib joylashdi. Kichik bolalari uning qo'lida.

Tortinchoq, muloyim Seyit avaxtadagi qozoq va rus mahbuslarning hammasiga yoqdi. Mahbuslar uni sevib erkalab, peshonasidan silab, xuddi o'z bolasiday yaqin ko'rib qolishdi.

Afanasiy Fedotich degan bir rus mahbus qog'oz-qalam topib, mulla Yunusga o'xshab uni o'qita boshladi. Kamgap, tortinchoq Seyit uning so'zini indamay tinglar, yorilib o'zligicha hech nima deb gapirmas edi. Ba'zan qog'ozga qarab o'tirib og'ir xo'rsinib qo'yar, ba'zan esa o'zidan o'zi ovoz chiqarmay yig'lar edi. O'sib kelayotgan ziyrak bola boshiga tushgan kulfatning zo'rliqi, nohaqlik ekanini sezardi.

Dadasini ushlabdi degan darak chiqib, oyisi: "Bechora otangni endi o'ldirishadi!" deb yig'laganda, Seyit oyog'i yerga tegmay bo'lisnikiga borgan edi. Shundan buyon dadasini quturib urgan Sarsen, Qo'qishlar uning ko'z o'ngidan ketmas edi. Tushida ularning dahshatli yuzlarini, havoda uchgan cho'qmor-qamchini, dadasining yuzidan shovullab oqayotgan qonni ko'rardi.

Keyingi kunlarda u ko'p alahlaydigan, tushida qattiq-qattiq gapirib, cho'chib uyg'onadigan bo'lib qoldi.

Baxtiqul avaxtada o'g'lini erkalamas, iliq gapirib, peshonasi-ni silamas edi. Lekin bir kun kechqurun uzoq o'ylab o'tirdi-da: "Seyitjon, bu yoqqa kel!" — deb yoniga chaqirib oldi. Xuddi uni hidlamoqchi bo'lganday, quchoqlab yuzini yuziga bosdi-da:

— Mening senga aytadigan ota nasihatim o'qishdan bosh ko'tarma, — dedi. — Seni odam qilsa faqat shu o'qish odam qiladi. Bo'lmasa, ko'rdingmi, meni nima qilishdi. Buning hammasi mening o'qimaganimdan bo'ldi...

— Ayb sizda emas! — dedi Seyit. — Sizga ular osilishdi!.. Ular!..

Seyit o'pkasi to'lib, gapirolmay qoldi.

— O'qisang, ko'zing ochiladi, — davom etdi Baxtiqul bo'g'iq tovushda. — Menga tekkanday keyin senga tegisholmaydi. Bor kuchingni o'qishga ber! Mening senga aytadigan gapim shu. Bundan boshqa senga beradigan aqlim ham, hunarim ham yo'q.

Baxtiqulning ko'zidan yosh tomchiladi. U Seyitni asta itarib, o'zidan ajratdi-da:

— Bor, endi o'qishingga bor! — dedi.

Bolaning jarohatli ko'ngliga otaning so'zi malhamday ta'sir qildi. U endi yig'lamaydigan, tushida gapirmaydigan bo'ldi. U o'qishga yana ham qattiqroq berildi.

Afanasiy Fedotich juda xushchaqchaq odam edi. U Seyitni o'qitish bilan birga, suratli kitoblar ko'rsatib, uni ovutar, hovliga olib chiqib o'ynatar edi. Choyni ham ikkovi birga qaynatardi.

Bir kun u to'satdan Seyitga:

— Qalay, seniki ovul sog'inadimi? — deb so'rab qoldi.

Seyit:

— Yo'q! — dedi.

— Nega? Avaxta yaxshimi?

Seyit uning tiniq ko'zlariga tikilib:

— Ovuldan avaxta yaxshi, — dedi.

Ularning suhbatini eshitib yotgan Baxtiqul: “Aylanay bo'tam-ey! Yosh boshing bilan shu kunlarni ko'rding-a!” — deb ingrab, ag'darilib tushdi.

Afanasiy Fedotich Seyitni ko'tarib quchoqlab oldi-da, yonida kitob o'qib yotgan kekxa rus mahbusga qarab:

— Nima deydi bu? Ovuldan avaxtani ortiq deydi-ya? Ovul... o'ylab ko'ring, bu... bu dahshat-ku! — deb u yoqdan bu yoqqa yura boshladi.

O'qishga ixlosmand bola shu yo'sinda avaxtada kelajakka ishonch, umid bilan kun kechirardi. Otasi esa sud hukmini, katorgaga yuborishlarini kutardi.

HIKOYALAR

“O‘QIMISHLI YIGIT”

I

Qahraton qish o‘rtalari. Tush payti. Osmonda zarra bulut yo‘q, yoz kunidek charog‘on-u, biroq havo izg‘irinli sovuq.

Yerda hali qor bor. Uch-to‘rt kundan beri cho‘zilgan ayoz hali o‘z kuchida. Kun chiqishdan esgan izg‘irin yuzingni chimchilaganday bo‘lar, a‘zoyi badaningni muzlatar edi.

Yerli xalqning ko‘pchiligi qozoqlar bo‘lgan Sibirning kichikroq bir shahri qahraton qishning oppoq libosiga o‘ralgan. Hamma uylarni qor bosgan, ba‘zi kichkina uylarni butunlay ko‘mib yuborgan. Ko‘cha yuzidagi qorlar odamlarning oyog‘i ostida toptalib silliqlangan, bosgan sayin g‘arch-g‘urch qiladi.

Bu shahar Sibirdagi katta soylardan birining bo‘yiga joylashgan bo‘lib, binolari betartib tushgan, ko‘rimsiz shahar edi. Markazigina sal tuzuk. Buning ustiga qozoqlarning shahar chetidagi yerkapaga o‘xshash pastak-pastak ko‘rimsiz uylari shahar husniga dog‘ bo‘lib tushgan edi.

Shahar o‘rtasidagi bozorga olib boradigan Zemskaya ko‘chasi-da bugun negadir odam kam ko‘rinadi. Faqat ahyon-ahyonda u-bu narsalarni orqalab bozorga ketayotgan bitta-yarimta yo‘lovchilar, olib sotarlargina uchraydi.

Ba‘zida chanasini shiqirlatib, unga qo‘shilgan tuyasining bo‘jisidan ushlab olib “cho‘h-cho‘h”lab qishloqdan kelayotgan savdo-garlar uchrab qolardi.

Biroz vaqt o‘tgach, ko‘chaning quyi tomonidan bozorga kelayotgan bir chana ko‘rindi. Chanadagi odam shu shaharda ishlaydigan o‘qimishli yigitlardan biri — Meyirxon edi.

Chana bozorga yaqinroq joydagi darvozasi ko‘k bir uy yoniga kelib to‘xtadi. Meyirxon chanadan tushdi-da, haligi uyga qarab tez-tez yurib ketdi. Uning bunday shoshilinch kelganiga, avzoyiga qaraganda, bu uyda bir gap bo‘lganga o‘xshaydi. Meyirxon dah-

lizga kirib eshik tutqichini ushlaganida, eshik ochilib, ichkaridan bir yoshgina ayol chiqdi.

Yaxshi kiyingan bu ayol negadir xafa ko'rinardi. Go'yo qattiq charchagandan chehrasi so'lg'in, qora ko'zlari kirtayib, kipriklari namlangan. Meyirxon bu ayolni ko'rib to'xtab qoldi:

— Nima bo'ldi, Xadicha? Nega buncha xafasan?

— Bilmadim, tuzaladimi yo'qmi? — deb javob berdi Xadicha xomush. — Borgan sayin ahvoli og'irlashib ketayotibdi. Ertalab sizni “chaqirib kel!” degandan keyin, ataylab kishi yuborgan edik. — U ko'ziga yosh olib, yerga qaradi. Meyirxon uni yupatgan bo'lib, bir-ikki og'iz so'z aytdi-yu, uyga kirdi. Chog'roq, ikki xonali uyning narigi bo'lmasida, baland to'shak ustida Maqsud inqillab yotardi.

Yonoq suyaklari turtib chiqqan, rangida qoni yo'q, ko'zlari qontalashib ketibdi. Bir chimdim qora mo'ylovi, qayrilma qora qoshi, orqasiga taralgan sochi xuddi yopishtirib qo'yganday, lablari isitmadan qovjirab oqarib ketgan.

Oriq, darmonsiz, dir-dir titragan qo'llari bilan tanasini hadeb siypalar edi. Qo'llari sarg'ayib, tirnoqlari esa ko'karib ketgan.

Meyirxon o'rtog'ini bu og'ir ahvolda ko'rib, nima qilarini bilmay, uning yonidagi stulga kelib og'ir cho'kdi. Go'yo ular bir-biri bilan quchoqlashib ko'rishganday, birpas tikilishib o'tirishgach, Meyirxon Maqsudning hol-ahvolini so'ray boshladi.

Maqsud javob berar ekan, past, bo'g'iq tovushini sal ko'tarmoqchi bo'lib harchand urinmasin, baribir chog'i kelmadi: uning nima deyayotganmi tushunish qiyin. Meyirxon engashib tinglasa ham baribir hech narsa tushuna olmadi. Birozdan so'ng Maqsud dovdirab, alahlay boshladi. U hadeb o'z ishlari, dars bergani, tarbiya qilgan qozoq bolalari haqida gapirar edi. U behol yotarkan: “Bolalar... yetim bola... o'z burchimni oqlayolmadim... mana endi... — derdi u qornini silab, — hayotim qil ustida turibdi... Meni koyitmanglar. Menda gunoh yo'q...” — dedi-da, keyin yana gapidan adashdi.

Meyirxonniig ko'zlari yoshga to'ldi. Qani endi og'ziga tasalli beruvchi biror so'z kelsa-chi. Xasta do'stining ko'ngli uchun ayt-

gan: “Tuzalib ketasan, o‘limni o‘ylama!” — degan so‘zlari ham ta’sirsiz chiqdi.

Birozdan keyin uyga Maqsudning onasi bilan xotini Xadicha kirdi. Xadicha kichkina qizini ko‘tarib olgan. Ikkalasi ham ko‘nglida ham umid bilan umidsizlik kurashib, qaysi biri yengishi ma’lum emasdek, yuzlarida hayronlik, ishonchsizlik alomati bor edi. Yolg‘iz o‘g‘li — Maqsuddan boshqa suyanchi, ishonchi bo‘lmagan sho‘rluk onaning ko‘ksi g‘am-g‘ussadan tars yorilguday, ko‘zlaridan duv-duv yosh to‘kiladi, u go‘yo madad so‘raganday Meyirxonga termilib qaraydi. Meyirxon ularni ham yupatgan bo‘ldi. Ammo bugun ertalab kasalni ko‘rgan doktorning: “Endi davolab bo‘lmaydi, odam bo‘lishi qiyin!” — degan so‘zi ikkalasining ham umidini uzib qo‘ygan edi.

Hali onasi uyga kirganda Maqsud unga biroz qarab yotdi-yu, keyin chidayolmay ko‘zlarini yumib, devor tomonga o‘girildi. U qarindosh-urug‘siz yakka-yu yolg‘iz qolayotgan sho‘rluk onasini o‘ylardi. Birozdan so‘ng Maqsud onasiga o‘girildi-da:

— Boshqalar mayliku-ya, senga qiyin, sening holing nima kechadi, onajon? Seni kimga tashlab ketaman!.. — dedi yosh boladay yig‘lamsirab, keyin yana teskari o‘girilib yotdi.

Onasi ho‘ngrab yig‘lab yubordi. Xadicha ham sal-pal ko‘z yoshi qilgan bo‘ldi.

Shu alpozda biroz vaqt o‘tgandan so‘ng eshik ochilib uyga Maqsudning o‘rtoqlari: Jumag‘ul, Oqtoylar kirdi. Bular ham faqat surati qolgan xasta do‘stini ko‘rishgandan keyin, biroz hol-ahvol surishtirgan bo‘ldi-da, indamay o‘tirib qolishdi. Maqsud hamon devor tomonga qarab yotarkan, boshini burmay dedi:

— Xadicha... o‘lmaydi... Onajon, uni sen tug‘magansan... Uning boy ota-onasi bor... Hech bo‘lmasa shularning oldiga boradi... Hali u ham seni qancha kuydiradi...

Yig‘idan endi tingan onasi:

— Nega unday deysan, chirog‘im? Yolg‘izim... — deb achchiq-achchiq yig‘lay boshlagan edi, Maqsud holsiz shivirladi:

— Onajon, yig‘lama, narigi uyga chiqqin, ko‘z yoshing yuraklarimni ezib yubordi.

Meyirxon bilan boshqa yigitlar ko'ksi pora-pora bo'layotgan kampirni yupata boshlashdi.

— Yig'lamang, kampir, kasal qiynaladi... narigi uyga chiqib tura turing...

— Yolg'izim, yotaqol... ko'rar ko'zim, so'zlar so'zim, yotaqol... Men chiqib ketay, — deb kampir og'ir xo'rsindi-yu, asta oyoq uchida yurib chiqib ketdi. Indamay turgan Xadicha ham onasining orqasidan chiqdi.

Ko'ngli bo'sh Meyirxon qattiq iztirob chekar edi. Sho'rlik kampirning kelajak taqdiri uning ko'z oldidan bir-bir o'ta boshladi: “Maqsudning o'lishi aniq, kampirning ojiz, so'qqabosh bo'lib qolishi ham turgan gap. Biroq mana bu yosh xotin erining hurmatini qilib, bu uyda turarmikan? Albatta, turmaydi. Buning ustiga u shaharda o'sgan qiz. Birovning etagini ushlab ketadi-qoladi...”

Bu kabi turli o'y-shubhalar ko'pga cho'zilgani yo'q. Kasalning ahvoli kundan kunga og'irlashib, xuddi chiroqday asta-sekin so'na boshladi. Bir kuni tushga yaqin uning nafasi qisilib, xirillay boshladi, hech majoli qolmadi. Endi u qimir etmay ko'zlarini zo'rg'a ochib-yumib yotar edi. Tepasida turgan do'st-yorlari, tanish-bilishlari, endi buning odam bo'lishi qiyin, deb umidlarini uzishgan mahalda, Maqsud yana ko'zlarini ochdi. Taqdirga tan berganligi ko'z qarashidan shunday sezilib turardi.

U o'z holini tushunolmay:

— Men bormanmi... yo'qmanmi?.. — deb shivirladi va ko'zlarini qayta yumdi. Kasalning qo'l-oyog'i sovib, ko'zlari chala yumilib, bir nuqtaga tikilganicha qotib qoldi. Og'zi yumilmay, tishlari ko'rinib, yuziga o'lim tamg'asi bosila boshladi. Hademay u jon berdi.

Uy ichida yig'i-sig'i ko'tarildi. Kampir holdan toyib yiqildi. Meyirxon, Jumag'ul, Oqtoylar ham o'z do'stlaridan judo bo'lganlariga qattiq kuydilar.

Odamlar o'sha kuniyoq Maqsudning o'limidan xabar topdi. Do'st-birodarlari, tanish-bilishlari, xullas, shaharning hamma ziyolilari chin ko'ngildan ta'ziya bildirishdi. Hamma ham:

— Eng oliyanob, asl yigitlardan edi. Bechoraning onasiga qi-yin bo'ldi! — deb achinishdi.

Ertasiga Maqsudning janozasiga juda ko'p odam keldi. Ular o'z do'stlari bilan so'nggi marta vidolashgani kelgandilar. Hammasi g'amgin, hammasi mungli.

Birozdan keyin odamlar murda solingan tobutni ko'tarishib go'ristonga yo'l olishdi. Ular tobutni avvaldan tayyor qilib qo'yilgan qabr oldiga olib kelib qo'yishdi; ko'p yoshlar mozor boshiga kelolmay, bir chetda turishdi. Faqat domlalgina mozor boshida ivirib yurishar, ular o'z xatti-harakatlari bilan odamlarning ko'ziga baloday ko'rinar edi. Ular murda ustiga yopilgan chopon, tobut atrofiga o'ralgan surpni talashishardi. Biroz o'tgandan so'ng oq kafanga o'ralgan Maqsudni lahadga soldilar. Keyin lahad og'zini kesak bilan bekitib, uning tanasini termilgan ko'zlardan yashira boshladilar.

II

Kunlar o'tdi, oylar o'tdi, yoz kelib, olam yasharib ketdi. Yashil libos yopingan daraxtlar mayin shabadada tebranar, yaproqlar shitirlar edi.

Butun jon-jonivorlar uyg'ongan, qushlar go'yo go'zal tabiatni madh etganday charx urib sayrashadi. Odamlarning ham kayfi chog', ammo Maqsudning uyi bu sevinchdan mahrum. Azador kampirning yuzi somonday sarg'aygan. Kampirning oh-vohi olamni o'rtab yuborguday. Yosh Xadicha g'am-kulfat va tirikchilikdan qattiq ezilib, qaddini rostlayolmas edi.

Hozir u o'zini ancha o'nglab olgan. Puturdan ketib, qulay deb turgan yolg'iz, egasiz uy ham, o'g'lining dardida adoyi tamom bo'lgan kampir ham Xadichani uncha tashvishlantirmas edi. Uning qo'lini ipsiz bog'lab turgan narsa Maqsuddan qolgan qizchasi Jamila edi. Jamila kampirga ham, Xadichaga ham ermak edi.

Maqsud o'lgandan keyin Meyirxon bu uyga kam keladigan bo'lib qoldi. Maqsudning do'st-yorlaridan Jumag'ul bilan Oqtoygina bu uyga tez-tez kelib turishardi. Ular dastlabki kunlari ta'ziyali uy-ku, deb biroz tortinishib turishsa ham bora-bora ko'nikishib tortinmasdan gaplashadigan, hatto hazil-huzul gaplar bilan Xadichaning ko'nglini ko'taradigan ham bo'lishdi.

Ayniqsa, so'nggi kunlarda Jumag'ul yolg'iz keladigan, qiziq-qiziq gaplar aytib, Xadichaning ko'nglini ko'taradigan bo'lib qoldi. Ichidan pishgan, so'zida chinidan ko'ra yolg'oni ko'p Jumag'ul marhum do'sti Maqsudni tilga olmaydigan, ko'pincha o'zi to'g'risida, ko'rgan-bilganlari haqida gapiradigan bo'lib qoldi. U faqat kampirning oldidagina Maqsud haqida gapirardi. Shunday qilib, kampirning ko'ziga "yaxshi bola" bo'lib ko'rina boshladi. Xadicha ham Jumag'ulga alohida e'tibor bera boshladi: uning gap-so'zlari moyday yoqadigan bo'lib qoldi. Faqat qora kiyib yursa ham dardi allaqachon esdan chiqib ketgandi. U kechalari negadir uxlay olmas, g'am-alam o'rmini allaqanday umid uchquni qoplaganday bo'lardi. U o'tmishini emas, ko'proq kelajagini o'ylaydigan bo'lib qoldi, ko'ngli bu uydan asta-sekin soviy boshladi. O'zini butun shirin orzu-umidlari payhon etilib, qafasga tushib qolgan odamday his etardi. Bularning hammasi yaqinda bo'ladigan katta o'zgarishning muqaddimasi edi.

Bir kuni Meyirxon ishdan qaytib kelib, o'rnida dam olib yotgan edi, yoshgina, qozoqcha kiyingan bir yigit kirib keldi-da, qo'lga kichkina bir xat topshirdi. Meyirxon xatni ochib o'qidi:

"Do'stim Meyirxon!

Ertaga soat o'n ikkida marhamat qilib to'yimizga kel. Eshitgandirsan, men Xadichaga uylanadigan bo'ldim. Taqdir ekan, nima ham qilardim.

Jumag'ul".

Meyirxon hayron bo'lib qoldi. Ko'zlariga ishonmay xatni qayta-qayta o'qib chiqdi. Xat olib kelgan yigit chiqib ketdi. Meyirxon xuddi boshiga tosh kelib tekkanday, garang bo'lib, uy ichida u yoqdan bu yoqqa yura boshladi. Keyin o'tirib xat ustiga: "Bormayman. To'ying qursin!" deb qisqa qilib yozdi.

Ertasiga Meyirxonning oldiga to'yga ketayotgan ikki do'sti kirdi. Ikkalasi ham olifta kiyingan, atir sepgan, kayflari chog' edi. Meyirxon ularga: "Bormaslik kerak. Axir bu do'st kishining ishi emas-ku! Kechagina Maqsudni ko'mib kelib, bugun marhumning xotini bilan Jumag'ulning to'yiga bormoqchimisiz", — degan edi, jo'ralari ko'nmadi. Ular: "Qo'y-e, sen ham idealist bo'lib ketibsan. Nima bo'пти, boramiz, to'ygunimizcha ovqat yeymiz, qittak-qittak

otamiz...” — deb Meyirxonning og‘zini ochirmadi. Xullas, ular Meyirxonni o‘zlari bilan olib ketishdi.

To‘y ayni qizigan. Jumag‘ul bilan Xadicha hech gap bo‘lmaganday yasharib ketgan. To‘yga kelgan odamlar ham go‘yo hech gap o‘tmaganday, ikki yoshga chin yuraklaridan baxt-saodat tilashib, qadahlar ko‘tarishmoqda. Odamlar qittay-qittay ichishib, sal qizib olishgach, qiy-chuv, she‘rxonlik, o‘yin-kulgi boshlandi. Sal kayf qilgan Meyirxon ham o‘rnidan turdi-da, qo‘lidagi qadahni baland ko‘tarib:

— Men Maqsud uchun ichishlaringni iltimos qilaman. Yashasin Maqsudning ruhi! — dedi.

Ba‘zilar bu gapga kuldi. Jumag‘ul bilan Xadicha ham ularga qo‘shilib kulishdi. Ba‘zi odamlar esa hech narsaga parvo qilmay ustma-ust qadah ko‘tarishardi. Qimdir Meyirxonni “jim o‘tir!” deganday turtib, o‘tqazib qo‘ydi. Bu — Meyirxonning do‘stlik burchini o‘tagani edi...

Oradan bir-ikki kun o‘tgach, Jumag‘ul bilan Xadichani qaynotasi Qo‘ndiboy bola-chaqasi bilan birga yaylovga ko‘chirib olib ketdi. Jumag‘ulning do‘st-yorlari yaylovga tez-tez chiqadigan bo‘lib qoldi. Uch ot qo‘shilgan izvosh Qo‘ndiboy darvozasidan qo‘ng‘irog‘ini shaldiratib chiqqanda, Jumag‘ul qarshidagi marhum Maqsudning uyiga suqlanib qaradi.

Buni ko‘rib Maqsudning bechora onasi ikki ko‘zidan yosh oqizib, tizzalarining darmoni qurib o‘tirib qoldi. Izvoshni kuzatib qolgan yigitlar to‘p-to‘p bo‘lishib, hazil-huzul qilishib, kulishib, bu g‘arib uy darvozasi oldidan o‘tib ketishdi...

III

May oyi. Atrof yam-yashil maysa. Tabiat husniga yana husn qo‘shilgan. O‘tgan yilgidan qolgan quruq cho‘plar onda-sonda ko‘zga tashlanadi. Ularni yangi o‘t-o‘lanlar ko‘mib ketgan. Yashil gilam kabi maysazorda qip-qizil bo‘lib ochilib turgan lolaqizg‘aldoq kishining bahrini ochadi.

Tog‘ bag‘ridagi soy, o‘zanlarning atrofi ham ko‘m-ko‘k. Soy yoqalab ekilgan yashil daraxtlar, suvi toshib, ko‘pirib, sharqirab

oqayotgan sho‘x soy, o‘t-o‘lani tizzadan keladigan yashil may-sazor, shu atrofda uchib-qo‘nib yurgan turli qushlar — hammasi, hammasi bu tevarak-atrofga xuddi yangi tushgan kelinchakning uyiday zeb berib turardi.

Bu yil suv ham mo‘l. Qarshida oynaday yarqiragan ko‘l ko‘zga tashlanadi. Uning bo‘yida qo‘ylar, qoramollar, yilqilar o‘tlab yurardi. Tush paytlarida ovul o‘tovlari uzoqdan xuddi tuxumday bo‘lib ko‘rinar edi. Chingiz tog‘idan yaylovga ko‘chib kelgan ovullar g‘oyat ko‘ngilli, nash‘ali edi.

Qishdan baquvvat chiqqanligidan ko‘k maysaga og‘zi tegishi bilan semirgan ot-ayg‘irlar, biyalar hozir minib yurilibdi. Ikki-uch kishining boshi qo‘shilib qolsa, darrov kim o‘zdi o‘ynashar, bir-birini ot ustidan ag‘darishar, otining, o‘zining kuchini sinab ko‘rishardi. Ko‘chib kelishlari bilan ovul kattakonlari: “Qulunlar bo‘lsa yetilib qoldi, yaylovga qimizsiz borsak uyat bo‘lar, endi biyalarni bog‘lab sog‘ish kerak”, — deyishdi. Shundan keyin biyasi bor ovullar ip eshib, no‘xta, saba¹ tiktira boshladi. Jumagul ovuli ham shu ishga kirishdi. Ammo Jumag‘ulning onasi Qamariya yosh kunidanoq bunday ishlarga pishiq, saranjom, qattiqqo‘l ayol bo‘lganidan hammasini birpasda taxt qilib qo‘ydi.

Shuning uchun ham Amira oqsoqol bugun ovul atrofidagi ko‘k maysaga biyalarini boylay boshladi. Bu yerda ovuldagi qo‘shnilar, ba‘zi bir kambag‘allarni demasa, o‘zga ovullardan kelgan yot odamlar yo‘q. Amira oqsoqol ortiqcha xarajatni yomon ko‘radigan odam. Uning bu odatini biladigan uzoq-yaqindagi og‘aynilari bu paytlarda kam kelardi.

Butun qish bo‘yi arqon ko‘rmay asov bo‘lib qolgan otlar, qulunlar, biyalarning bir joyda turmay har tomonga irg‘ishlab ketib qolaverishini ko‘rib Amira oqsoqol: “Avvalo, biyalarning qulunini ushlab bog‘langlar”, — deb buyruq berdi.

Abjir yilqichilar bir-biriga surkalishib, to‘planishib, otlar orasida yurgan qulunlarni sirtmoq bilan tez-tez tutishar, yosh asov qulunlar yilqichi sirtmog‘iga qanday tushib qolganini bilmay tipirchilar, kishnashar edi. Ba‘zi bir sirtmoq ko‘rmagan asov qulunlar sirtmoqqa ilinganda, osmonga sapchib chinqirsa ham yilqichining

¹ Saba — ot terisidan qilingan, qimiz quyadigan katta mesh.

miqti qo‘llaridan chiqib ketolmasdi. Amira oqsoqol har qulun yiqilganda bir marta “bismillo” der, yilqichiga “Ehtiyot bo‘l, tag‘in mayib qilib qo‘yma!” — deb tayinlardi.

Hamma biyalar boylanib bo‘lgach, xotin-xalajlar ovul odatiga ko‘ra uydan qurut, yog‘ olib chiqishdi.

Amira oqsoqol uyur-uyur bo‘lib yurgan ayg‘irlarni tutdirib, sag‘rilariga qatiq chaplatib, odamlar to‘plangan joyga keldi. Qari-qartanglar, yosh-yalanglar haligi xotinlar olib chiqqan qurut, yog‘larni talashib-tortishib yeyishardi.

Shu alpozda biroz vaqt o‘tgach, odamlar bir-ikki kun ilgari eshitishgan gaplari haqida so‘z ochishdilar. Jumag‘ulning shaharda uylanganligini gap qilishdi. Hali bular anig‘ini bilishmasdi. Shunday bo‘lsa ham qo‘shni ovullarga kelgan shaharliklar: “Jumag‘ul shaharlik Qo‘ndiboyning qiziga uylanibdi. Mol-dunyosi ko‘p emish, ilgarigi eri o‘lgan ekan, undan qolgan yolg‘iz qizni ham Jumag‘ul o‘z qo‘liga olibdi. O‘lgan yigitning yolg‘iz onasidan boshqa hech kimi yo‘q ekan, u ancha badavlat yigit bo‘lgan ekan. Shaharda dang‘illama uyi ham bor ekan. Endi o‘sha yigitdan qolgan mol-mulkka Jumag‘ul ega bo‘lsa kerak, degan gap-so‘z bor. Kelling otasi Qo‘ndiboy, eridan qolgan hamma mol-dunyo qizimniki bo‘lishi kerak, deb gapning uchini chiqarib qo‘yibdi. Shunday qilib, qarabsizki, Jumag‘ulingiz bir kundayoq boy bo‘ladi-qoladi”, — degan xabarlar Amira oqsoqol bilan Qamariyaning qulog‘iga eshitila boshlagandi. Chol-kampir bu gaplarga ich-ichidan xursand bo‘lib, yot kishilarga:

— Ha, boyning qizini olsa olibdi-da, o‘g‘limizni o‘qitganda, chol-kampirning topganini sarf qil, deb o‘qitganmidik? Mol top, qartayganda bizni boq, deb o‘qitganmiz. Shu kungacha bir tiyin topgani yo‘q. Endi qachon foydasi tegadi bizga! Bundan keyin ham ishlab mol topmasa, uyga kiritmaymiz, deb yurgan edik. Shuni eshitgan bo‘lsa kerak, — deb vaj qilishardi xo‘jako‘rsinga.

Yilqi bog‘langan joyda to‘planishgan odamlar:

— Jumag‘ul bir-ikki kundan keyin ayoli bilan keladi, ular kelguncha qimizni boplab qo‘yish kerak. Ular bu gal faqat mehmon bo‘lib ketsalar kerak! — deyishsa, ba‘zi birovlar:

— Anovi marhum yigitning mol-dunyosiga ega bo‘lib o‘tirgan kampirni ham ola kelisha yaxshi bo‘lardi. Endi kampirga dunyo kerakmas. Endi uning issiq-sovug‘iga qarab turadigan odam bo‘lsa bas, — deyishardi.

Qamariya shu gapdan keyin ko‘pdan beri dilida saqlab yurgan gapini aytib soldi:

— U kampirga mening bolamdan ortiq bola topilarmikan? Qo‘limda tursin desa, ana Jumag‘ul borib tursin, yo‘q demayman. Agar u kampirning aqli bo‘lsa, Jumag‘ulni endi bag‘riga bosishi kerak...

Kampirning bu gapini ko‘pchilik o‘rtasida aytganini Amira oqsoqol yoqtirmadi. Shuning uchun ham u Qamariyaning so‘zini bo‘lib:

— Qo‘y, qayoqdagi gaplarni gapirma, xotin. Xudoning ko‘rsatgani bo‘lar! — dedi u.

Dala odatiga ko‘ra, odamlar hamma gapni o‘rtaga tashlab, Amira oqsoqol bilan Qamariyaning hatto bir-biridan sir saqlab yurgan narsalarini ham bilib olishdi. Ular boy-badavlat bolani ko‘z oldiga keltirdilar. Biroq ro‘zg‘orning ko‘zini biladigan Amira oqsoqol ularning maqtashlariga ham, xushomadlik bilan aytgan gaplariga ham uchmadi. U hech sir boy bermay, odamlarning gapini indamay tinglab o‘tirar edi.

Odamlar allamahalgacha u yoq-bu yoqdan gaplashib o‘tirishdi-da, keyin sekin uy-uylariga tarqala boshlashdi.

Oradan bir necha kun o‘tdi. Qosh qorayib qolgan payt edi. Amira quduq boshida otlarini sug‘orib, janub tomondagi yaylovga haydar, ovul atrofida yoyilib yurgan qo‘zilar tinmay ma‘rashar, Qamariya bo‘lsa sut sog‘uvchi ayollarga nimalarnidir buyurardi. Shu mahal qo‘zi boqadigan bola uning oldiga yugurib kelib:

— Suyunchi bering, opa, suyunchi! Jumag‘ul akam keldilar! — dedi.

Uning kelishini intizorlik bilan kutayotgan ovul odamlari bu xabarni eshitib, yugurib qolishdi.

Yelib-yugurib xotinlar ham, chuvillashib, sakrashib o‘ynab yurishgan bolalar ham, haligi xabarni quduq boshida eshitib, bu yoqqa kelayotgan qariyalar ham, hamma Jumag‘ulning kelishidan

juda xursand edi. Ovulning hamma katta-kichiklari Amiraning eshigi oldida to'planib turishganda, uzoqdan jadal kelayotgan qo'ng'iroqli izvosh ko'rindi. Izvoshchi yigit odamlarning peshvoz chiqqanini ko'rib, otlarni yana ham qistadi. Izvosh ovulga yaqinlashib qoldi. Hademay u Amira uyining oldiga kelib to'xtadi. Mehmonlar izvoshdan tushishdi. Yaqin qarindoshlar Jumag'ulning yuzidan o'pib ko'rishdi. Xotin-xalajlar darrov Xadichani o'rab olishdi, Qamariyaga o'xshagan yoshi o'tganlari uning yuzidan o'pib ko'rishdi. Mehmonlar bilan biroz hol-ahvol so'rashgach, hammalari uyga kirishdi. Uyda ham hol-ahvol so'rashish, hazil-huzul gaplar davom etdi. Hammaning sevinchi ichiga sig'maydi. Odamlar bir-biriga mehri qonib, yaqinlashib, ko'nikkan sayin, yangi kelgan mehmonlar bilan ovul yoshlari o'rtasida qandaydir bir farq borligi sezilganday bo'ldi.

Ovulga kelish oldidan yaxshi, ozoda, yengil yoz kiyimlar kiyib olishgan yoshlar xuddi shaharliklarga o'xshardi. Hatto Jumag'ulning gapida ham "siz, biz" kabi so'zlar ko'payib qolgandi, uning bu muomalasi esa ovul odamlariga yot tuyular edi. Bu narsa, ayniqsa, kelinning muomalasida aniqroq sezilib turardi. Uning qaynotasi, qaynanasi bilan "salomatmisiz, yaxshimisiz?" deb ko'rishishi, uyga kirishi bilan to'rga chiqib, erining oldiga o'tirib olishi, u bilan shivir-shivir gaplashishi yaylov hayotiga sira ham to'g'ri kelmaydigan odat edi. Kelin aslida o'qib, ta'lim olib, o'qimishli kishilar bilan birga yurmagan bo'lsa ham shaharlik o'qituvchining xotini bo'lganidan yuzi ochilib, har bir narsada o'sha o'qimishlilarga taqlid qilar edi.

Ovul yoshlari uning bu odatiga unchalik parvo qilishmasa ham qariyalar bunga darrov e'tibor berishdi.

Bu xil narsalarni ilib oladigan ayollar tashqariga chiqqanda, bir-birlari bilan shivirlashib, qiqirlashib kulisha boshladilar. Uy-dagi ba'zi erkaklar buni sezishsa ham o'zlarini sezmaganklikka solishib, sir boy berishmadi. Ba'zilari kulgan xotinlarni koyigan bo'lib, hazil-huzul bilan o'zlarining ham ko'nglidagilarini bildirib qo'yishdi. Bu ahvolni uncha-muncha bo'lsa ham sezib o'tirgan Amira ko'ngliga bir nima kelganday, indamay qoldi. Qamariya bo'lsa, ularning kelajagini o'ylab, hozirgi mayda-chuyda

gap-so'zlarga parvo qilmay, Jumag'ulning atrofida parvona bo'lardi.

Lekin ko'p o'tmay ular bir-birlarining ko'nglini topib, ota bilan bola, kelin bilan qaynona apoq-chapoq bo'lib ketishdi. Ba'zan ish masalasida ular bir-birini, hatto imo bilan ham tushunishadigan bo'lib qolishdi. Qiziq, ularni bir-biriga shunchalik tez yaqinlashtiradigan narsa nima? Hozirgi kunda ularning oldida ko'ndalang turgan masala — mol-mulk masalasi. Bu masalada esa hammasining ham o'y-fikri bir joydan chiqdi. Hamma gap shunda. Molparastlikka, xasislikka, qanoatsizlikka, insofsizlikka kelganda kelin qaynonasidan, garchi o'qimishli bo'lsa ham yigit otasidan qolishmasdi. Shunday qilib, o'qimishli odam bilan g'irt omi odamlarni bir-biriga yaqin qilgan, ularning boshini qo'shgan narsa — mol-dunyo. Endi ularning o'rtasidan qil ham o'tmaydi, hech narsani bir-biridan sir saqlashmaydigan bo'lishdi.

Qamariya ikki so'zining birida:

— Chiqimimiz ko'payib ketyapti, kampir-cholning qo'lidagi mollar sob bo'lyapti, endi bizni boqadigan mahallaring bo'ldi. Endi qayerdan bo'lsa ham mol topishning harakatini qilinglar! — deb o'g'li bilan kelinining qulog'iga quya boshladi.

Kelini olib kelgan buyum — jihazlar dastlab uning ko'ziga o'lja ko'rinsa ham biroz vaqt o'tgach, bularni esidan chiqara boshladi.

Endi hammasining dardi — shahardagi Xadichaning ilgari qaynanasi qo'lida qolgan mol-mulkini qo'lga kiritish edi. Jumag'ul bilan Xadicha ilgari bu haqda kam gapirishsa ham endi yaylovga kelgandan keyin o'sha mol-mulkni undirish payiga tushib qolishdi. Qamariya ham o'g'li bilan kelinining bu masalada bo'sh kelmasliklarini bilib, unday qil, bunday qil, deb aql o'rgatishni qo'ydi. Biroq unutilib ketishmasin, deb kampir ularning esiga solib turardi. Buni ochiq aytishning ilojini topmasa u:

— Dunyoga qachon ega bo'lasan, qizalog'im! Biz qarilarga qachon yordaming tegadi? O'sha yomon buvingning qo'lidagi molni borib tortib olmaysanmi? — deb go'yo Maqsuddan qolgan kichkina Jamilaga gapirgan bo'lardi-yu, aslida esa Jumag'ul bilan Xadichaning miyasiga quyardi. Amira bo'lsa mol topishning bosh-

qa bir yo'lini axtara boshlagan edi. Ovulda o'zi bilan tengdosh Jong'ozni degan bir katta boy bor edi. O'sha boyga Jamila yoqib qolib, bir kuni u daladan birga kelayotgan Amiraga dedi:

— Mana bu qizni o'tgan yili tug'ilgan kenja o'g'limga unash- tirib qo'yay, o'g'lingga aytgin-chi, nima der ekan?

Amira buni ma'qul ko'rib, Jumag'ulga aytgan edi, u:

— Hozircha bunday gaplarning o'rni emas. Unday qilsak, men birato'la yomon otliq bo'laman. Ertaga u kampirning oldiga borib, shu yetimchani yig'latmayman, o'z farzandimday tarbiya qilaman, agar bersangiz, mana shu yetimchani haqini berasiz, demoqchiman. Bir tomondan qizni bahona qilib, kampirning mol- mulkini olsag-u, bir tomondan qizchani sotmoqchi bo'lsak, axir el-yurt nima deydi? Uyat emasmi? .

Amira Jumag'ulning hozircha ko'nmasligini bilib, noiloj rozi bo'ldi. Shunday bo'lsa ham:

— Odamlardan yaxshilik chiqarmidi? Sening boyiganingni ko'risha olmaydi. Odamlarning gap-so'zi deb ulushingdan quruq qolib yurma tag'in. "Betimning qalini — jonimning huzuri", deyishadi, — deb o'g'liga pand-nasihat qila ketdi. Biroq uning boyagi niyati ushalmadi. Eng kami bir yilcha sabr qilishga to'g'ri kelib qoldi.

IV

Yoshlar yaylovga kelgandan beri ikki-uch oy o'tdi. Yozning yarmi ketib, odamlar pichan o'ra boshlagan, qish g'amini yeya boshlagan, daladagi o't-o'lanlar sarg'ayib, yozning fayzi ketgan edi. Yaylovdagi qo'nish joylar, mol sug'oradigan quduq atroflarining changi chiqib yotibdi. Odamlar boshqa joylarga ko'cha boshladi. Amira oqsoqolning ovuli ham ko'pchilik bilan birga tog' bag'riga qarab ko'chib kelishyapti.

Jumag'ul bilan Xadicha bu yil yozda yaxshilab dam olganlaridan juda mamnun.

Ular shahardan ozib, horib kelgan bo'lsalar, hozir ikkalasi ham ancha to'lishib, ochilib ketgan. Buning ustiga, ovul odamlari orasida obro'lari oshib, o'yin-kulgidan, mehmondorchilikdan

boshlari chiqmadi. Mana endi dalaning ana shunday fayzli kunlari ham tugab qoldi. Endi ular shaharga ketish to'g'risida gapni bir joyga qo'yib, yaqin kunlarda jo'nab ketishmoqchi edi.

Bir kuni kechqurun, yo'lga chiqish oldidan oila a'zolarining kichkinagina kengashi bo'ldi.

Tog' bag'riga ko'chib kelayotgan odamlar bir joyga qo'nmoqchi bo'lishdi. G'ir etgan shabada yo'q, osmon tiniq, oydin kecha. Har yer-har yerga qo'ngan odamlarning yoqqan o'tlari yaraqlab ko'rinib turibdi. Yero'choqda ba'zan lovillab, ba'zan pasayib yonayotgan olov tun uyqusi bilan kurashayotganday bo'ladi.

Jumag'ul bilan Xadicha o'zlarining xoliroq joyga qurilgan chaylasi ichida gaplashib o'tirishardi. Birozdan so'ng ularning gapiga Qamariya ham qo'shildi. Gap asosan Maqsuddan qolgan uy bilan mol-dunyoni qo'lga kiritish ustida borgani uchun, Jumag'ul bu safar ham qat'iy fikr aytishdan ojiz, miq etmay o'tirardi. U hozir tabiatidagi quvlik-shumlik odatlarini aql mezonida o'lchab o'tirgan edi. Ammo u boshqalarning gap-so'ziga xalaqit bergani yo'q. Xadicha bilan Qamariya bir-birini ma'qullab, mol-dunyo to'g'risidagi hamma gaplarini aytib bo'lishdi. Ularning fikricha, Maqsudning yaqin qarindoshi yo'q, onasining bo'lsa to'ridan go'ri yaqin. Uning uchun o'la-o'lguncha issiq-sovug'iga qarab turadigan odam bo'lsa bas. Mol-dunyoning endigi vorisi kichkina Jamila. Shuning uchun hozir nima qilib bo'lsa ham bir amallab uy bilan mol-dunyoni Jamilaning nomiga o'tkazib olish kerak!

Shu bilan kengash tugadi.

Amira bilan Qamariya shu maslahatdan keyin ovulda qolishdi, Xadicha bilan Jumag'ul esa shaharga jo'nab ketishdi. Oradan bir necha kun o'tdi, qir saylidan qaytgan ikki yosh shahardagi tengqurlarining, yor-u jo'ralarining o'rtasiga qaytib kelishdi. Ke-
linning qarindosh-urug'lari ularni juda yaxshi kutib olishdi. Xadicha bo'lsa onasining uyiga kelib tushdi.

Xadicha bilan Jumag'ul shahardagi tanish-bilishlarining hol-ahvollarini so'rashib bilishdi. Berahm taqdir qo'lga tushgan azador kampir ham Maqsudning chirog'ini yoqib o'tirgan ekan. Ular buni ham surishtirib bilishdi. Xadicha tashlab ketgandan keyin, kampir o'zining yakka-yu yagona bir oqsoq qarindoshini

dastyor qilib olib, kunini yig‘i bilan o‘tkazar ekan. U Jumag‘ular kelishdi, deganni eshitib, o‘sha kuni kechasi bilan chirog‘ini o‘chirmay, mijja qoqmay chiqibdi. Xadicha kelgandan keyin Jamilani ko‘tarib olib kampirning uyiga kirib chiqdi. Kampir Jamilani bag‘riga bosib, quchoqlab, “bolamning ko‘zi”, deb zor-zor yig‘laganida, Xadicha pinagini ham buzmadi.

Xadicha kampirning oldida biroz o‘tirdi-da, hech narsa demay, qizini ko‘targanча uyiga qaytib keldi.

Jumag‘ul ham kelgach, qaynotasi Qo‘ndiboy maslahat berdi:

— Endi vaqtни o‘tkazmay, tanish o‘rtoqlarining bilan maslahatlashib, anovi mol-dunyoni qo‘lga olinglar!

Shundan keyin Jumag‘ul bilan Xadicha ishga kirishdi. Ular so‘rab-surishtirib, oxiri o‘quv bo‘limining yonidagi yosh o‘smirlar g‘amini yeydigan idorani topishdi-da, unga ariza berishdi. Jumag‘ul o‘z niyatiga yetish uchun bor hunarini ishga soldi. Shunday qilib, bu idora Xadichaning arizasini ko‘rib chiqib, pirovardida: Maqsuddan qolgan mol-dunyoning hammasi qizi Jamilaning nomiga o‘tadi, qiz erga tekkuncha Jumag‘ul unga vasiylik qilishi kerak, deb qaror chiqardi. Xadicha bilan Jumag‘ulning qo‘shilishida boshqa o‘rtoqlari bilan birga Oqtoyning ham qo‘li bor edi. Bu Jumag‘ul bilan sirdosh, maslakdosh bo‘lganligidan endi ularning ham boy-badavlat odamlar qatoriga kirishlari uchun qo‘ldan kelganini ayamadi. Xadicha bilan Jumag‘ullarning to‘yi oldidan, uni bir kuni og‘asi oldiga chaqirib olib: “Qo‘ndiboyning qizidan ortiq kimni olmoqchisan? Shunga uylanib, mol-dunyosiga ega bo‘lmay, nima qilib yuribsan o‘zing! E, sen ishning ko‘zini bilmaysan. Ana, Jumag‘ul bopladi...” — deganda, u sal o‘kinganday bo‘lgan edi. Biroq endi vaqt o‘tib, fursatni qo‘ldan boy berganligi uchun Jumag‘ulning tarafini olmay iloji yo‘q edi. Hozir ularga yelib-yugurib yordam qilayotganligining sababi ham shunda.

Xadicha o‘quv bo‘limidan boyagi mazmundagi farmonni olib kelgandan so‘ng, Qo‘ndiboy kampirning oldiga kishi yuborib: “Xudoning peshonaga yozgani bo‘ladi. Yolg‘iz o‘zi bir uyda sho‘ppayib o‘tirgani yaxshi emas, uyidagi mol-dunyosini Jamila bilan Jumag‘ulning nomiga o‘tkazib, o‘zi shularning qo‘liga kelib o‘tirsin!” deb tayinladi.

Kampir bu gaplarga Maqsudning o'limidan ham battar kuyundi, qattiq ezilib yoqasini ushladi. O'g'li o'lgandan beri bir kun bo'lmasa bir kuni, axir ko'raman, deb kutib yurgani — zo'rlik, haqoratga yuzma-yuz kelganday bo'ldi.

Ammo Qo'ndiboyning gapini yetkazgan Duysen, kampirning dardini tushunadigan emas edi. Buni sezgan kampir bor kuchini yig'ib gapirdi:

— Men o'g'limdan, erimdan, ota-bobomdan qolgan mol-dunyoni tug'ganim emas, tug'ishganim emas, dushmanim Juma-g'ulga nega berar ekanman? O'g'lim bo'lmasa qarindosh-urug'larim bor, Jumag'ulga o'xshash yotga bergandan ko'ra, shularga bersam bo'lmaydimi. Men unga o'z roziligim bilan bir qatim ip ham bermayman. Endi kelib-kelib men notavon kampirga zo'rlik qilmoqchi bo'ldinglarmi? Mayli, qo'llaringdan kelganini qilave- ringlar!

Duysen shu gaplarni eshitib jo'nab qoldi.

Biroq u Xadichaning idoradan olib kelgan farmonini eshitgan- dan so'ng, o'zining yolg'izligi, notavonligini o'ylab yana ham bat- tar ezildi. Buning zo'rlik, xiyonat ekanini bilib-ko'rib tursa ham unga qarshi nima qilishini bilmasdi. Xudoga nola qilib, oh-voh qilib o'tirganda, kampirning esiga o'g'lining jonajon do'sti Meyir- xon tushib qoldi. U shu kuniyoq oqsoq qarindoshini yoniga olib, Meyirxonning oldiga keldi. Yig'ladi-siqtadi, yuragidagi bor gapni to'kib soldi, Xadichaning hech narsasi qolmaganligini, onasini- kidan olib kelgan hamma mol-dunyolarini olib ketganligini aytdi. O'g'limning hurmati, yordam ber, deb yalinib-yolvord. Meyirxon kampirning hamma gaplariga qo'shildi. Ertaga Jumag'ul bilan ham, boshqa o'rtoqlari bilan ham gaplashishga va'da berdi. Kam- pirning g'arib ko'ngli ancha taskin topgandek, uyiga umid bilan qaytdi.

Ertasiga Meyirxon Jumag'ulga uchrashib:

— Do'stim, shu ham insofdanmi? Kim aytadi seni o'qimishli yigit, deb? Sen ancha ishning ko'zini biladigan yigit chiqib qol- ding, xotinni suv tekin olding, ter to'kmay shuncha mol-mulkka ega bo'lding. O'zing ham beli baquvvat odamsan, buning usti- ga, qaynotang ham shaharning eng katta boylaridan. Nima, shu

kichkina qizni boqolmaysanmi? Nega kampirni yig'latding, axir bechoraning to'ridan go'ri yaqin-ku. Hech bo'lmasa kechagina o'lgan do'sting Maqsudning hurmatini qilsang bo'lmaydimi? — dedi.

Jumag'ul, Meyirxon bu so'zlarii meni ko'rolmasligidan aytayapti, deb o'yladi.

— Bu ishlarni qilayotgan men emas, Xadicha. Men unga bir narsa deyolmayman. Shuni ham aytib qo'yay, do'stim, yaxshisi, bu ishlarga aralashma, chunki biz ham qarab turmaymiz, — dedi u qovog'ini solib.

Meyirxonning gaplari Jumag'ulga pashsha chaqqanday ham bo'lgani yo'q. U qonun asosida ish qiladigan bo'ldi. Shundan keyin Meyirxon chor-nochor g'ing deyolmay qoldi. Hademay Jumag'ul bilan Oqtoylar: "Meyirxon birovning bo'lganini ko'rolmaydi, ichi tor yigit", — deb gap-so'z tarqata boshladi. Kampir Jumag'ulning niyatini eshitib, qattiq iztirob chekdi, ko'z yoshi to'kdi, oxiri bu dardga chidayolmay ko'rpa-yostiq qilib yotib oldi. Ba'zan hushidan ketib alahsiraydigan bo'lib qoldi. Ich-ichiga tushib ketgan so'nik ko'zlari bilan bir nuqtaga tikilib qolar, ba'zan g'azabiga chidayolmay o'rnidan sapchib turar, uyidagi ba'zi bir buyumlarni ushlab:

— Bermayman dedimmi, bermayman! O'ldirsang ham bermayman... Ertagayoq ketaman... Maqsudxonimga olib borib beraman! — deb har narsaning oldiga bir borar, yulqilar, bag'riga bosar edi.

O'sha kuni kechqurun Jumag'ul kampirning, mol-dunyoni bermayman, deganini eshitib, qo'lidagi farmoni bilan militsiya idorasidan uchta soldatni boshlab kampirnikiga keldi. Bir ahvolda yotgan kampir miltiq ushlagan soldatlarni ko'rishi bilan o'rnidan sakrab turdi-da, xuddi mast odamdek gandiraklab borib, to'shaklarini ushladi:

— Bermayman... o'ldir meni... o'ldirib ket... voy-dod, o'ldim, o'ldim... Maqsud... qutqar meni! — deb, u chalqanchasiga yiqilib tushdi-da, sal o'tmay jon bard.

Jumag'ul bilan Xadichaning murodi hosil bo'ldi.

OVCHI

Kuz tongi g'ira-shira otib kelayotgan mahal. Ikki ovchi qo'llarida qushlarini ushlaganicha o'tovdan chiqib, boylog'liq turgan otlarni yecha boshlashdi.

O'rta yoshdan oshib qolgan, mosh-guruch soqolli kekxa ovchi Bekbo'l baquvvat to'riq otning jilovini beliga qistirganicha endi uzangiga oyoq qo'yaman deb turganda, orqa tarafdin ot pishqirig'i eshitildi. Sur to'n kiygan, yo'g'on gavdali Bekbo'l orqasiga qaragan edi, uzoqdan kelayotgan qashqa otli yo'lovchini ko'rdi, yelkasiga miltiq osib olgan bir yo'lovchi jadal kelayotgan edi.

Bekbo'l yerga tushmasdan, to'riqning jilovini yo'lovchi kelayotgan tomonga burdi. Og'ir burgut qo'nib turgan qo'lini egarning ustiga qo'ygancha, kaftini ko'ziga soya qilib tikilib qoldi.

Hali tong otmagan, shuning uchun yo'lovchining kim ekanligini darrov tanib bo'lmasdi.

— Bu kim ekan-a? — dedi u yonidagi yosh hamrohiga qarab.

Yosh ovchi Jonibek Bekbo'lning nega muncha tikilayotganini sezmagani edi. U ham tikilib qaradi. Bu kelayotgan uzun bo'yli, yo'g'on gavdali, yuzlari quyoshda kuyib qizargan, qisqa mo'ylovi endi buralib kelayotgan, o'tkir ko'zli, chiroyli, qorachadan kelgan yigit edi. Ovchilar to'planib yashayotgan bu dalada hozirgacha boshqa aholi yo'q, kolxoz fermasi bo'lsa yaylovdan ko'chib ketgan, "Oktabr" kolxozi bu joyda faqatgina shu uch xonadonlik ovchilar brigadasini qoldirgan... Keyingi o'n kun ichida bu brigadaga kelib turadigan bitta-yarimta kishi ham o'sha o'zlarining kolxozlaridan qatnovchilar edi. Ammo kolxozga qarashli yilqilar ichida onda-sonda oq qashqasi bo'lsa ham bunday targ'il qashqa ot yo'q edi. G'ira-shirada otning peshonasi oqarib kelayotgan otliqni ko'rib, yosh ovchi ham hayron bo'ldi.

— Qiziq, bu g'ira-shirada kelayotgan kim bo'ldi ekan? — dedi u ham.

Qovog'ini solintirib, o'yga cho'mgan qari ovchi indamadi.

Shu mahal Jonibek yo'lovchini tanib qoldi:

— E, darvoqe, bu anovi ot zavodining brigadiri O'sponqul-ku. Qanaqa shamol uchirdi ekan? — deb avvalgidan ham taajjublanib Bekbo'lga qaradi.

— Nima bo'lardi, bizlarga uchrashgani kelgandir-da! — deb Bekbo'l yana jim qoldi.

Shu payt baquvvat to'riq otning egariga qo'nib o'tirgan Qizilbalaq qo'qqisdan qattiq silkinib ketdi. U dim, tor o'tovdan toza havoga chiqqani uchun ziyrak tortganga o'xshardi. Ko'kimtir po'lat singari jilo beruvchi qanotlari qattiq silkingan kezda xuddi shamolda qulf urgan qamishdek tovlanib ketdi. Qizilbalaqning qimirlashi ham bo'lakcha; qo'qqisdan silkinib qolsa bormi — otning ham, odamning ham esini chiqarib yuboradi. Umri ovchilik bilan o'tgan, ko'p qushlarni ko'rgan Bekbo'l Qizilbalaqning qimirlashidan allaqanday g'ayrat sezardi. Ba'zan burgut silkinsa: "Ha, xuddi kimxob choponni qoqqanday qanot qoqadi-ya, xum-par", — der edi.

Qizilbalaqning mashqlariga ko'nikib qolgan to'riq ot hurkmadi-yu, biroq tuklarini hurpaytirib, so'lig'ini shildiratib tishlab qo'ydi.

Jonibek to'xtab yo'lovchini kutdi. Qo'lidagi qo'lbola burgut — Qoraker o'ng oyog'ining panjalarini ko'tarib, yuzidan niqobini tushirmoqchi bo'lardi. Bu qushni Bekbo'l yaqindan buyon bog'lab o'rgata boshlagandi. Hali yomon qiliqlari bor, besabr qush. Har mahal niqobini tushirib yuborib, yorug'likni ko'zlari bilan ko'rmoqchi bo'ladi.

— Tipirchilatma! Oyog'idagi chilvirni mahkam ushla. Bir-ikki topqir niqobni tushirdingmi, bas, keyin yomon o'rganib qola... — dedi Bekbo'l Jonibekka. U tag'in yo'lovchiga qaradi.

Qashqa ot mingan kishi yaqinlashib qolgan edi. Yo'rg'alab ke layotgan qashqaning dupur-dupur tuyoq tovushi eshitildi.

— Bu o'sha Oktabr bayramida poygaga qo'shishga mo'ljallangan bedov qashqa-ku! — dedi Jonibek.

— O'zi ham xo'p ketvorgan-da, jonivor, — dedi Bekbo'l.

Shu mahal O'sponqul bularga yaqinlashib salom berdi:

— Ha, og‘ayni, yo‘l bo‘lsin? Mollaring omonmi? — dedi Bekbo‘l unga. Tuni bilan ishlab tinkasi qurigan O‘stonqul qandaydir alam bilan kelish sababini gapira ketdi.

Bugun kechasi Sarimsoqli adirida ot zavodi yilqisidan bir to‘pi yoyilib yurgan ekan. O‘zi ham shu O‘stonqulning brigadasiga qarashli yilqining ichidagi chopqir otlar to‘pi ekan. Tun juda uzun, buning ustiga qorong‘i, bulutli, do‘vulli edi. Bir payt uyurdagi yilqilar mudrab turganda, nimadandir hurkib, birdan dupur-dupur qochib boshlagan. Semiz, to‘q yilqilar emasmi, bo‘y bermay, chor tomonga sochilib, yilqichilar tong oldidagina arang to‘plab olishgan. Ammo tongotar mahalida O‘stonqul aylanib bittama-bitta sanab chiqsa, to‘qqizta yirik yilqi yo‘qmish. Yilqichilar bilan O‘stonqulning taxminiga ko‘ra, yilqilar dastlab bir narsadan hurkkan, o‘sha olatasirda bir gala yilqi ajralib ketgan bo‘lishi ham, ehtimol.

Shundan keyin har tomonga odamlar yuboribdi, O‘stonqulning o‘zi chegaradagi komendaturaga kelibdi. Yana “Har kuni ot ustida yurib, dasht, tog‘- Tosh oralaydi, esida bo‘lsin, ko‘z solib yursin”, deb “Oktabr” kolxozining ovchilar brigadasi tomoniga ham o‘tgan ekan. Shu gapni ayta turib, so‘zining oxirida O‘stonqul Bekbo‘lga qarab:

— Bek, bekinib yurgan ovdan tashqari, Sovet hukumatining qurol-yarog‘lik yovlaridan ham talayini tumshug‘idan urib, ushlab bergansan. Bu safar ham o‘sha hunaringni ko‘rsat. Kelayotgan Oktabr bayramida qizil askar uchun beraman, deb atab qo‘ygan saralangan besh do‘nanning ham uchovi yo‘q. Otingga jadal mingin-u, shu bugun mana shu Keraga atroflarini sinchiklab, qidirib ber! — deb chap tomondagi yam-yashil tepalarni ko‘rsatdi.

Bekbo‘l o‘ylanib qoldi.

— Bitta-yarimta olganmi, o‘lja qildimi yo hurkib ketganmi?... — degan edi, Jonibek Bekbo‘lning so‘zini bo‘ldi:

— Hozir tinchlik-ku, hurkib ketgan-da.

Biroq Bekbo‘l Jonibekka qo‘shilmadi.

— Shu deymen, o‘sha yovning o‘zi hozir bu g‘orga kelmasdan, anovi chekkaroqdagi Sarimsoqlining narigi tarafida kimsasiz adirda biqinib qolmadimikan. Chunki uning mo‘ljali: kunduz o‘sha o‘rda yotib, tunda birdan chegaradan o‘tib olish bo‘lsa ham,

ehtimol. Sen qanday bo'lmasin, shu orqa tomonlarni aylansang ma'qul bo'lardi.

Bu fikr yilqichilarning xayoliga ham kelgan ekan. Shundan keyin O'sponqul o'sha joylarni aylanib, rosa tinkasi quribdi.

Bu taraflarning qaralmaganini eshitganidan so'ng, Bekbo'l yana o'ylanib qoldi. Keyin asta otga minib, burgutini baldoqqa qo'ndirdi-da, tazginini tortib gapirdi:

— Bo'lmasa hayallamasdan komendaturaga bor, ahvolni ayt. Biz bo'lsak mana bu O'jar tomonlarni aylanamiz, — deb o'ng tarafdagi qarag'aylar o'sib yotgan ko'k toshli joyni ko'rsatdi. O'sponqulning o'ylagani boshqa edi. Uning fikricha — Sarimsoqli dashtida bo'lmasa, yovning biqingan joyi chap tomondagi Keragatosh bo'lishi kerak. U Sarimsoqli tomonga otlangan yov uchun eng qulay, xilvat, tolzor joy. Keragatoshga o'xshagan qiyin, xilvat ungurlari to'lib-toshib yotgan bu tog'ni Bekbo'lning o'zi qaramasa, boshqalarning qo'lidan kelmasdi. Haqiqatan ham, tekislikmi, arxarlar makonimi, kechuvmi, toshtepami, xullas, u barini besh qo'lday bilardi. Bekbo'lning bu gapi uzoqdan ataylab, ot charchatib kelgan O'sponqulga yoqmadi:

— Bek, men sendan yordam so'rab keluvdim, O'jarga boraman deganing nimasi? Shunday to'qqiz yilqi yo'qolgan dolzarb mahalda, bir kungi ovlaydigan to'rta-beshta tulkingdan qolsang qolibsanda! — dedi.

O'sponqul gapga chechan yigit. Hozir u charchagan, ham ko'ngli tinch emas. Shuning uchun jerkib berishi ham mumkin. Bekbo'l uning ahvolini payqab, dilini og'ritmay degandek, og'iz ochmasa ham, yuragida haligi gap edi.

Endi Jonibek bilan O'sponqul ham otlariga minishdi. Jonibek so'nggi ikki-uch kundan buyon O'jarga chiqishga ishqiboz bo'lib yuruvdi. Chunki Keragatosh tomonlarni kechagi kunga qadar Bekbo'l ikkovi rosa aylanishgan. Uning qo'lbola burguti ham dastlabki ovini o'sha yerda olgan. Avvalgi uch kunda Qoraker ham qatorasiga uchta tulki oldi. Lekin tulkilar boshqa adirlarga chiqib ketgan bo'lsa kerak, keyingi ikki kun ichida aytarli hech narsa ilintirmagandan, endi nima bo'lsa ham O'jarga boramiz, degan qarorga kelishgandi. Bunday o'ylasa, ot zavodining yilqisini yov

olib ketgani ham oson gap emas. Boyadan beri Jonibek ikkilanib indamay turgan edi. Endi otini asta yurgizib, Bekbo'lning yoniga yaqinlashdi:

— Bek, bugun yo otni qidiraylik, yo esa ovga boraylik. O'zimizni ham ovora qilmaylik. O'sponqulni ham, — dedi.

O'sponqul Bekbo'lning so'zidan ko'ra bunikini ma'qulroq ko'rdi, ammo ikki ovchining paysalga solishini yoqtirmasdan ke-satdi:

— Ilojimiz qancha. Ehtimol, senlar ham ko'p tulki ovlab, kol-xozimizga foyda beramiz, deb turgan bo'lsalaring kerak. Senlarga to'qqiz yilqidan ko'ra to'qqiz sichqon afzal... Xo'sh, nima qarorga keldilaring? — dedi.

Bekbo'l savdolashib o'tirishni ortiqcha hisoblab, gapni qisqa qilib O'sponqulga:

— Sen komendaturaga borasanmi? Borsang eng oldin Aleksandr-ga ayt: Bekbo'lga — Keragatoshga chiqqin degan edim, ko'nmasdan O'jarga ketdi, degin. Biz kechgacha o'sha yerda bo'lamiz. Izidan quvib borib ushlab ololmaysan, ko'rmagansan, bilmaysan, qayerga tiqilganini kim bilsin. Ehtiyotdan har tomonni sinchiklab qaragan ma'qul... — dedi-yu, jim bo'lib qoldi. U se-kingina oyog'i bilan otni niqtab, jilovini O'jar tomonga burarkan, Jonibekka:

— Yur, biz tulki ham ovlaymiz, uchrab qolsa o'g'rini ham tu-tamiz! — deb jo'nab ketdi.

O'sponqul ham xayrlashmasdan qashqa biyaning boshini silkitganicha yo'lga tushdi. Bekbo'l baquvvat to'riqqa qamchi bosib, tog' tomonga ko'tarila boshladi. O'sponqul Bekbo'l bilan birga uncha ko'p ishlashgan emas. Bir-birlarining xulq-atvorini ham yaxshi bilmaydi. Ammo O'sponqul Bekbo'lning "Chegara-dan o'taman deb uringan yovlarning kushandasi, chegara otrya-diga ko'p marta yordamlashgan, ko'p mehnati singgan atoqli kol-xozchi-ovchi", deb eshitgan.

Ammo hozirgi o'tgan gap-so'zlardan O'sponqul rozi bo'lmadi. Nazarida, hozirgi gapi bilan Bekbo'l o'zini sal katta oldi. Hozir ular ketayotgan tomonda yov ham yo'q, yilqi ham. Endi O'spon-qulning birdan bir ishongani — chegara otryadi bilan o'z qushi,

xolos. U qashqa bedovning tizginini xiyol bo'sh qo'yib, dam bergach, otni yo'rttirib ketdi. Biroz yo'l bosgandan keyin, so'nggi marta ovchilarning ortidan yana bir qarab qo'ydi. Ichida: "Qaytib kelishmasmikin? — degandek bo'ldi.

Bekbo'l o'z fikridan qaytmagan. Ikki ovchi O'jarning Sarimsoqli dashti tomonini mo'ljalab ketyapti. Qo'llaridagi ikki burgut go'yo jonsizday miq etmay qotib o'tiribdi.

Shu payt kun ko'tarila boshlagan, sharq tomondagi ko'k jiyakka o'xshab turgan ufq qizil rangga bo'yalib, ko'l ham qizarib go'zallanib ko'rina boshladi.

Ikki ovchining old tomonidagi tepalik qalin o't bosgan past-baland adirdan iborat. Bekbo'l hushyor kelardi. Kechasi bulutli bo'lsa ham yog'in yog'mabdi. O't-o'lanlarning uchida shudring ham yo'q. Taqir dasht, toshloq yo'lda otlarning tuyog'idan chang ham ko'tariladi. Keksa ovchi ikki marta o'ng yoqqa tikilib qaradi. Sarimsoqli tomonga ko'z yugurtirib chiqdi. Orqada qolib ketayotgan Keragatoshning ham o'ziga ma'lum qir-soylariga nazar solib o'tdi. Hali atrofda changmi, tumanmi, ishqilib, ko'kimtir bulutday bir narsa bor. O'tlari sarg'aygan dala bag'rida jimjit yotgan bita-yarimta toshlar to'rsayib ko'rinsa ham, ammo dala ko'kimtir gilamday tep-tekis.

Osmon beg'ubor. Kuzning yoqimli ochiq kuni boshlanmoqda. Biroz yurgandan keyin yana boshqatdan o'girilib qarab, Keragatoshning do'ppayib-do'ppayib turgan toshlari ustiga kun shu'lasi tusha boshlaganini ko'rdi. Yoqimli dala shabadasi esardi. O'jarning sirt tomonidan boraverib, o'rtasiga yaqinlagan sayin tog' quchog'idan chiqqan tungi salqin bilina boshladi.

Bekbo'lning qo'lidagi Qizilbalaq bir-ikki topqir chinqirib qo'ydi. Keksa ovchi bardosh qilib, jim kelardi. Qushining tanasi sog', o'zi baquvvatgina. U miqti ko'k tumshug'ini ko'tarib olib mudrab kelardi.

Shu tarzda biroz yurib, O'jarning o'rtalariga yetgan mahalda Jonibek Bekbo'lning bugungi yurishiga hayron bo'la boshladi. Keksa ovchi tog' tomonga qarab yurib, tog' ichiga kirishning o'miga yalang chetlab, olislab aylanardi. Tog' ichiga ertaroq kirilsa bitta-yarimta o'ljali bo'lib qolish ham ehtimoldan xoli emas edi.

Shunday ma'lum tolzor cho'qqilardan bir-ikkitasi orqada qolib ketdi. Jonibek:

— Bu yoqqa yurmaymizmi? — deb eslatib ham qo'ygan edi, Bekbo'l indamasdan yo'lida keta berdi.

Mo'ljal bilan Sarimsoqliga yetib qolgan vaqtdagina Bekbo'l boyadan buyon kelayotgan holatini o'zgartirib, O'jarning Qaban-soy degan tomoniga burildi.

Jonibek orqada kelardi. Bekbo'lning ketidan u ham tez qayrildi. "Boyadan beri boshqa yo'ldan kelayotgan Bekbo'l bir narsani o'ylagan bo'lsa kerak", — deb xayolidan o'tkazdi. Bekbo'l tog' tomonga to'riq otni niqtab ketdi. Jonibek ham otini yeldirib, Bekbo'l bilan qatorlashib oldi.

Jonibekning endigi mo'ljali — shu ro'paradagi bir kichikroq tosh edi. Uning narigi tomonida ham, chap tomonida ham ikkita cho'qqi bor. O'sha joylardan o'lja toparmiz, deb kelyapti. Soy qirg'og'iga yaqinlashganda Bekbo'l sekin yura boshladi. Ov hurkmasin degandek, Jonibek ham sekinlashdi. Uning ikki ko'zi boyagi toshning atrofida. Shu ahvolda Bekbo'l bir uy o'rniday ochiq joyga kelgach, otining boshini tortdi. Biroz to'xtab turgach, haligi yalanglikning atrofini aylanib keldi-da, so'ng Jonibekka:

— Qani, bola, sen bu yoqqa kel-chi, — dedi.

Jonibek otini yo'rttirib, Bekbo'lning yoniga kelganda, u ikki-uch tuyoq izini ko'rsatdi.

— Haligi nuqul yirik yilqi degandi-ya? Mana buning ichida bir qulun, bir toy ham bor-ku!.. — deb egilib qaray boshladi. Jonibek ham qulun bilan toyning izini payqadi. Biroq negadir, u kulib yubordi:

— Obbo, Bek, bu bo'lmagan gap! Kecha shu o'rtada o'zimizning otlar yoyilgan edi. Mana bunisi Simoqning qulunli biyasi-ning izi emasmi? — deb yana kuldi.

Bekbo'l indamay haligi izlarning ketidan ilgari yura boshladi. Biroq o'tlarning qalinligidan ba'zida iz yo'qolib ketay derdi. Bekbo'l oldinroqqa yurdi. Besh-olti qadam narida to'xtab, Jonibekka yana gapirdi:

— Kecha biz otlarimizni tushdan og'ib qolganda shu yerdan qaytargan edik-ku, mana bu tezakni qara, bu tezak kecha tushdagi

emas, yangi, kechasi yoki tongga yaqin tushgan tezak! — dedi-yu, tag'in oldinga yura boshladi.

— Chirog'im, ko'rib ol, u tezaklarning bunchalik sochilib tushishi — yilqining yelib ketishidan. Yoyilib yurgan yilqilar bunday qilmaydi, — dedi u. Shu bilan Bekbo'l o'z ko'nglidagi taxmini isbot qilganday bo'ldi. Jonibek ichida: "Yoyilgan yilqilar ham bir-birini tishlab, tepib, quvib yuradi. O'g'ri yuradigan joy Keragatoshda dedik-ku. Bu yerni qancha qaramay, baribir, yilqidan asar topolmaysan", — deya Bekbo'lning so'zini mensimgandek beparvo tingladi.

Shundan keyin Bekbo'l bir taqirroq yerga kelib, yana to'xtadi.

— Xo'sh, mana bunga nima deysan? — dedi Jonibekning ko'nglidagi shubhasini payqab, o'sha bilan talashgan kabi gapirdi, — mana bu o'tlarning toptalganini ko'rib qo'y. Bu qattiq zarb bilan bosilgan tuyoqning toptashi. Ana u uchib tushgan toshni ko'ryapsanmi? Avvalgi yotgan o'rni mana, — deb yerdagi bir cho'nqir izni ko'rsatdi, — u chopib kelayotgan yilqining tuyog'i tegib uchib ketgan, — deb tasdiqlab ham qo'ydi.

Shu joyda Bekbo'l o'zining boyadan beri boshlagan kuzatuvining xulosasini yasamoqchi edi. Bunga sabab bo'lgan eng katta dalil xuddi o'zi turgan yerda, o'ng tomon uzangining tagida o'sib turgan bir tup yantoq edi. Uning chekka bir shoxi tagi bilan qo'porilib, anchagina naridagi otquloqning tanasiga ilinib qolibdi. Bu yerdan yilqi chopib o'tganligi shubhasiz bo'lib qoldi. Yana yo'l yoqasida anchagina belgilar bor. Bekbo'l Jonibekka endi bir yo'la g'olib kishidek qarab, salmoqlab gapirdi:

— O'zicha chopgan yilqi bunaqa chopmaydi, — dedi. Jonibek hech narsa aytolmadi. Gapini tugatgandan keyin Bekbo'l tez bir qarorga kelgandek bo'ldi.

— Yilqining O'jarga kelganini bilsak ham qayerda tikilib, qayoqqa ketganini qanday bilamiz. O'jar — katta tog'. Bundan tashqari, o'shanaqa yov hozir tog'-toshlar orasiga ayg'oqchilar qo'yib, ikkovimizni ham ko'rib turgan bo'lsa kerak. Bular izimizga tushganga o'xshaydi, deb hushyor bo'lib qolsa, yaxshi bo'lmaydi, Jonibek, — dedi Bekbo'l, keyin qo'shib qo'ydi: — Bo'lmasa, bekor turmaylik, ikkovimiz ham ovchimiz. Ovchiligimizni qilib

tinch yura qolganimiz ma'qul. Tulki ovlagan bo'lib, asta-sekin dushmanning makonini aniqlaymiz. Tushundingmi?

Jonibek uqib, o'zi ham shuni ma'qul topdi.

— Bo'lmasa, Bek, sen mana bu cho'qqiga chiqa qol, — deb chap tomondagi xilvat tepani ko'rsatdi-da, otini niqtab ilgari siljidi. — Nazarimda, mana shu ro'parada tulki borga o'xshaydi. Shuni ovlab beraman.

Bekbo'l ma'qul deyishdan avval to'riq otni deysinib, so'l tomonga qarab o'rlab ketdi. Sal fursat o'tmasdan u baland tepaning ustiga chiqib, Qizilbalaqning boshidan niqobini oldi.

Yirtqich parranda niqobi olingan zahoti ko'zi yonib, qovoqlarini bir marta pirliratdi-da, qattiq silkinib, Jonibekning ro'parasiga tikildi. Jonibek onda-sonda egar qoshiga taqillatib urib, sekin-sekin hushtak chalib, katta toshning atrofida u yoqdan bu yoqqa borib-kelib yuribdi. Bu ungurdagi tulkilar hali ovchi yuzini ko'rishmagan. Kechasi bilan ov qidirib yura-yura holdan toyib, tong mahalda kelib endi toshning tagida biqinib yotgan tulki birdaniga qochib ham keta olmaydi. Shuning uchun Jonibek tevarakni juda sinchiklab qaraydi.

Qizilbalaqning qip-qizil chag'ir ko'zlari "qayoqdasan", degan kabi soyning narigi tomonlariga tikilardi. Bekbo'l tulkini qushiga ishonadi. U Qizilbalaqning niqobini olishi bilan chilvirini beliga qistirdi-da, o'zi O'jarning qalin qarag'ayli baland-pastliklariga ko'z yugurtirib chiqdi. Hozircha qimir etgan birorta jon yo'q. "O'jarga yashirindimi? Yoki o'tib ketdimi? Qarag'ay ichiga berkindimi yo tosh orasigami? Son-sanoqsiz xilvatgohlardan qaysi birini tanladi ekan? O'jarga Qabansoy tomondan kirib kelganiga qaraganda. chalkash tepaliklar ichida yo'qolib ketishni mo'ljallagan bo'lsa kerak. Muttahamlar bu joylarni besh qo'lday biladigan shumlar bo'lsa kerak! Yoki boshliqlari shu o'rtalik bitta-yarimtasidir. Xullas, ichlarida shu yerlik birov bor!" — deb turli gumonlarga bordi. Shu topda Jonibek ov ko'rgan paytidagi odati bo'yicha hayqirib-baqirib yubordi. Bu tovushni eshitar-eshitmas bir lahzada Qizilbalaq ham Bekbo'lning baldoq tutib turgan qo'lidan silkinib, havoga ko'tarildi. Qush faqat tovushni eshitib emas, xuddi ovni ko'rib uchganday jon-jahdi bilan olg'a tashlandi. Qanotini ik-

ki-uch marta shiddat bilan silkitib, O'jar dashtining ustidan borgan sari yuqorilayverdi. Hozirgina havoga ko'tarilganiga qaramasdan, xuddi anchadan buyon qanoti yozilib kelayotgan qushday zuvillab olg'a uchdi.

Qushning bu yilgi ovi ko'p yillardan buyon bo'lmagan barakali ov edi. Uning hozirgiday bir zumda qo'ldan chiqib, o'zini o'qday havoga ko'tarishi — o'tkirligini bildirib turibdi. Jon-jahdi bilan yulqinib yurib, keyingi o'n kun ichida bir o'zi kolxozga 300 tulki ovlab berdi. Qush keragicha balandlab olganidan keyin, endi Jonibekni mo'ljallab qalqib ucha boshladi. Bekbo'l otini oyog'i bilan niqtab, cho'qqining tepasidan soy tomonga tushib kelaverdi. Ikki ko'zini Qizilbalaqning qilt etmay, havoda sho'ng'ib borayotgan qorasidan uzmasdi. Jonibek ham otini choptirib bormoqda. Bekbo'l hali tulkini ko'rganicha yo'q. Tulki toshlarni panalab qochib qutulish payida. Qizilbalaq Jonibekning boshi ustidan sho'ng'ib o'tib, yana bir marta osmonga ko'tarildi. Ko'tarila-ko'tarila birdan pastga o'qday quyildi. U shu quyilganicha katta toshning narigi tarafiga o'tib ko'zdan g'oyib bo'ldi. Jonibek ham chopib borib otdan irg'ib tushdi-yu, alang-jalang bo'lib qoldi.

Qizilbalaq o'ljasi ustiga tushgan kezda Bekbo'l otini choptirib: "Qanday tushar ekan, changallab ko'tarmikin yoki shu yerning o'zida tugatarmikin?" — deb kelayotgan edi. Bekbo'l har qanaqa vaqtda ham og'ir mulohazali, hushyor, hovliqmaydigan, usta ovchi. Mana shunaqa dolzarbda ham Qizilbalaqni o'zining o'tkir nazaridan qochirmadi. Endi nima bo'lsa ham bo'ldi, deb ohistagina poylab, katta toshning ustidan oshib tushdi.

Jonibek bu paytda kattakon tulkinining tilini sug'urib olib, burgutga berib turgan ekan. Bekbo'l ot ustidan tushmasdan so'radi.

— Nima gap? Qalay tushibdi?

— Tepganga o'xshaydi, belini sindirib yuboribdi, mana, — deb qizil tulkinining buklanib ketgan belini ko'rsatdi, — sho'rlikning damini chiqarmay qo'yibdi. Bu yil bunaqa tutilgan ovni birinchi ko'rishim.

Qushning chindan ham o'tkirligi ma'lum bo'ldi.

Shu mahal bularning ustidan qanot-quyruqlari shuvullab bir qush uchib o'tdi.

Jonibek bir marta qarab qo‘ydi. Bekbo‘l ot ustida turganicha haligi qushga qadalib qarab qoldi. Shunchaki, oqbo‘sh qush ekan.

— Qayoqqa ketayotibdi? Bir narsani ko‘rib uchgan bo‘lsa kerak bu quzg‘un.

— Ko‘rsa ham Qizilbalaqning uchgani bilan tulkini ko‘rgan-dir-da, — deb Jonibek tulkinging atrofida o‘ralashaverdi.

Bekbo‘l:

— Agar bizni qora tortib uchgan bo‘lsa, shu atrofda aylanishar edi. Asli qorni ochib, chanqab uchib ketayotgan ko‘rinadi. O‘jar tepaliklarini mo‘ljallab ketayotibdi! — deb orqaga burildi-da, yana osmonga qarab qo‘ydi.

— To‘xtab tur-chi, mana yana o‘shanaqa bittasi ko‘rinib qoldi! Aftidan, bu ham o‘sha yoqqa uch-yapti. Bu bejiz emas! Tulkini xurjuningga solib, tez otingga min! — deb shoshildi Bekbo‘l.

Jonibek odamshavanda, epchil yigit. Ovda yurganda Bekbo‘lning gapini ikki qilgan emas. Birpasda shaylandi. Shundan keyin Qizilbalaqni Bekbo‘lga olib berib, o‘zi ham tosh ustida o‘tirgan Qorakerni oldi-da, otiga mindi. Bekbo‘l hamon aylanib-aylanib osmonga qarab qo‘yardi. Hozircha boyagi uchib o‘tgan ikkita qora qushdan bo‘lak boshqa narsa ko‘ringani yo‘q. Agar Bekbo‘lning shubhasi rost bo‘lsa, bunaqa qushlar yana uchishi kerak. Endi Bekbo‘lning nazari Qorakerga tushib, biroz o‘ylanib turdi.

— Sen mana shu katta toshning ustiga chiqib, qo‘zg‘almay tur. Men huv ro‘paradagi Tekturga chiqib tushaman, — deb qamchisining dastasi bilan soyning narigi yog‘idagi baland qizil toshni ko‘rsatdi. — O‘sha yoqdan “uchir” deb ishora qilganimda, Qorakerni qo‘yib yuborgin. Qizilbalaq ov ko‘rmasa uchmaydi, u injiq qush, xumpar. Qorakerni uchqur qilib tarbiyalash uchun talay mehnatim singgan. O‘zi go‘sh-tga o‘ch, qo‘lbola qush, chinqirish odati ham bor. Shuning hammasi hozir asqatadigan xonasi. Xo‘p, sen shu yerda qolgin! — deb to‘riq otini qamchilab, son-dan o‘rlab cho‘qqi tomonga jo‘nadi. Jonibekning “ha, yo‘q” deganini ham kutib turmadi.

Saldan keyin boyagi Tektur degan cho‘qqiga chiqdi-da, Bekbo‘l “uchir” deb qo‘l silkidi. Niqobini olar-olmas Qoraker osmon-ga parvoz qildi.

— Haqiqiy ovchi bo‘lsak, shu qushni boshqa qushlardan yaxshiroq qilib, o‘zi uchib, tulkini o‘zi quvlab, o‘zi oladigan qilib tarbiyalaymiz, — derdi Bekbo‘l. So‘nggi bir hafta ichida qush qidiruvchan, uchqur bo‘lib o‘rgana boshladi. To‘g‘risi, ba‘zan bu uchishlardan foyda ham, ziyon ham bo‘lib turadi. Ov ko‘rinmasa, Qoraker u yoqdan bu yoqqa uchib yurib, itga, bolaga qarab yoki ovul ustidagi biror qizil narsaga qarab o‘zini uradi. Lekin hali ayni o‘rganadigan payti. Nima desang ham chatoqlik qilmaydi, darrov jo‘naydi. U yovvoyi qushga o‘xshab uzoq uchadigan, qanotlari ham bekami-ko‘st bo‘lib yetilib kelayotgan edi. Jonibek qushini uchirib yuborgan zahoti osmonga qaradi. Boyagi ikkita qush uchib ketgan tomonga endi to‘da-to‘da bo‘lib uch-to‘rt qora qushlar galasi kelayotganini ko‘rdi. Qoraker dastavval o‘zicha kunda o‘rgangan mashqlariga qarab, soyni ustidan uchib o‘tdi. Ammo ro‘parasiga haligi qushlar yetib kelganda, bu ham birdan balandlab ketdi. Shundan keyin ketma-ket uchib kelayotgan qora qushlarning ketiga tushib, orqalaridan quvdi. Qoraker zuvillab uchib ketyapti. Jonibek buni ko‘rib “qushimdan ayrildim-ku!” deb tashvishlanib Bekbo‘l tomonga qarab chopdi. Yetib borsa, Bekbo‘l beparvo turgan ekan. Haligi osmondan uchib o‘tgan qushlarning galaboshi va oxirida soqchisi bor ekan. Bekbo‘l faqat o‘sha yoqqa tikilib turardi. Jonibek uning oldiga borib bir nima demoqchi edi, u lom-mim demasdan qo‘lidagi Qizilbalaqni uzatdi:

— Endi boshqa so‘zni qo‘y. Mana. Buni qo‘lingga qo‘ndirib ol! — dedi. Jonibek: “Bu Qorakerdan ayrildik degani-ku! Ehtimol, buni uning o‘rniga berayotgandir, tentak chol!” — deb o‘ylab, olishini ham, olmasligini ham bilmay, dovdirab qoldi.

— Voy tentag-ey, boshi butun bermoqchi emasman, ma, ushlab tura tur. — Yigit burgutni olib qo‘liga qo‘ndirdi. — Qorakerdan ayrilganimiz yo‘q. Indama, hozir yo‘qotganimizni topadiganga o‘xshab qoldik! — deb oshiqmasdan nosidan otib oldi. — Boyagi yov shu O‘jarga yashiringan ekan. Har holda mana shu qirning naryog‘ida, haligi qora qushlarni ovqatga chaqirgan ham o‘shalar. Nazarimda, ular noma‘lum bir xilvatga biqinib olib, haligi yolg‘iz qulunni so‘yishgan. Yutoqi xumparlarning o‘larmonlik qilib, kuppa-kunduz so‘yganini qara! — dedi.

Bu soʻzlar Jonibekka maʼqul boʻla boshladi. Bekboʻl oʻz moʻljalini birma-bir aytdi:

— Oʻsha qulunni bugun ular yermikin yoki biz yermikin-miz? — deb qiqirlab kuldi u. — Sen mana shu qushni qoʻlingga olgin-u, jadal komendaturaga — Aleksandrning yoniga yugur. Senlar keladigan paytda bir iloj qilib Qorakerni uchirishga unnab koʻraman. Iloji boʻlsa, oʻshalarning oʻrtasidan uchirib yuboraman. Ularning biqinib yotgan yerini koʻrsatadigan ishoram shu boʻladi. Qani, yoʻlga tush, jigarim, yoʻling boʻlsin, tezroq! — dedi.

Soʻz aniq va qisqa boʻldi. Jonibek “xoʻp” dedi-da, sevinib joʻnadi, toshlarning ustidan tushiboq otini choptirib ketdi. Qoʻlida baldogʻi-yu, chilviri qolgan keksa ovchi toʻriq otining jilovini boʻsh qoʻyib, qora qushlar borgan qir tomonga oʻrlay boshladi. Tepalardan oʻtib, pastlikdagi qaragʻayzorga kirdi. Jonibekni joʻnatgan paytda kun terak boʻyi koʻtarilgan edi. Yosh yigitning komendaturaga yetib, qaytadigan moʻljalini quyoshdan chamalab qoʻydi. Quyosh Oʻjarning gʻarb tomoniga qiyshaygan paytda Bekboʻl yov yotogʻini topib, oʻzi va da qilgan belgini berishi kerak. Ammo Oʻjar mashaqqatli togʻ. Tez yurgizsang, ot charchab qoladi, tinkasi quriydi. Qanday boʻlmasin tolzor, xilvat, yaqin yoʻllar topib yurishga harakat qilish kerak. Shu sababdan xuddi toʻgʻri Oʻjarga olib boradigan qirlarning tagi bilan ketmoqda. Hozirgi kirib kelgan qaragʻayzori ham yoʻldagi mana shunday manzillardan biri. Biroz zax hidi anqib turgan qaragʻayzor ichidan yurdi. Onda-sonda bitta-yarimta zagʻizgʻonlar qichqirib patillab uchadi. Goh-gohda balanddan qalqib toʻrgʻaylar uchib oʻtadi. Boshqa hech qanday sas eshitilmaydi. Na kishnagan, na pishqirgan yilqi ovozi ham yoʻq. Qoraker ham chinqirmayapti. Hushyor boʻlib, atrofga quloq solib kelayotlsa ham Bekboʻl Oʻjar tarafdan yilqining ovozini eshitmadi.

Saldan keyish u qaragʻayzordan oʻtib olgach, Oʻjar togʻi etagidan koʻtarila boshladi. Sugʻur telpak, kul rang toʻnli yolgʻiz yoʻlovchi jimjit, unsiz-suronsiz toshlarning qatlanib yotgan bagʻriga kirdi. Togʻ ustida oʻzgacha bir tinchlik. Ayni goʻzal kuz kuni. Mana shunaqa tonggi pallalarda tiniq, toza havoni qancha yutsang ham toʻymaysan, nafas olavering keladi. Bekboʻl ham ancha yengil tortib, fikrlari ham ravshanlashganday boʻldi. Endi bir ilo-

jini qilmoq kerak. Bir kattakon tosh yoniga kelgach, otini panaroq tomonida qoldirdi-da, yuqoriga chiqa boshladi. O'jarning narigi tomoni yaqqol ko'rindi. U yoqda ham yalang tosh, qarag'ayzor. Qarag'ayzorning oralarida chuqur-chuqur jarlar. Har joy-har joyda qarag'aylardan ajralib, xuddi o'rkachga o'xshagan xarsangtoshlar yotibdi. "Bu jarlarning qaysisida bo'lsa ekan? Soydami, pastlikdami? Toshlar panasidamikin yoki qarag'ayzorga tiqilib olganmi?" Bo'yini cho'zmasdan g'adir-budur xarsangtosh orqasida panalab turgan Bekbo'lning xayoliga bunday chigal savollarning nechtasi kelib, nechtasi ketdi. "Tag'in bu yoqda qolgan bo'lmasin", deb endi kaftdek aniq ko'rinib turgan orqa tomoniga bir ko'z yugurtirdi. Baland tog'ning ikki unguri bilan huv olisroqdagi ko'm-ko'k bo'lib ko'rinib turgan ekinzorlar, qolxoz, ot zavodining dalalari — hammasi shunchalik go'zal, qadrli, bari o'ziniki. Jon fido qilib mehnat qilishi, ko'z qorachig'iday saqlashi kerak bo'lgan o'lka! Pokiza, tinch, yashnagan, shu qadar boy, baxtli o'lkasining omonlik, tinchligiga dog' tushirmoqchi bo'lgan yirtqichlar Bekbo'lning iyagi ostida mana shu ungurga tiqilib o'tiribdi. Qorong'i tunda o'g'irlik qilib izg'uvchi bo'rilar quyosh nuridan yashirinib, Bekbo'lni adashtirmoqchi, Bekbo'lning g'ayrati jo'sh urib ketdi:

— Ularni topmay qo'ymanim bo'lsin! — deb yubordi. — Boyadan beri izma-iz kelib, endi adashsam, Bekbo'l otimni boshqa qo'yaman!

U otiga minib yolg'iz turgan bir toshning yoniga keldi, uning tepasiga chiqib, yana atrofga sinchiklab boqdi.

Boyagi qushlar ham ko'rinmaydi, hech qanday nishon yo'q. O'jarning qoq o'rtasidagi ikki cho'qqi bu yerdan ko'zga juda chiroyli bo'lib ko'rinib turardi. Bularni belgilab qo'ydi. Tolzor soylar shu edi. Bu yerga biqinmagani rost. Beriroqdagi toshlarda ham hech qanday belgi yo'q. Yana otiga minib, endi avvalgi safar chiqqan toshning chap tomoniga o'tib, tag'in bir martadan atrofga sinchiklab qaradi. Endi nazari qarag'ayga kelib to'xtadi. Ensizgina, uzoq-uzoqqa cho'zilgan qalin qarag'ayzorning chap tomoniga tushdi-da, ot ustida turib tevarakni kuzatdi. Bir mahal ro'parasidagi sershox, baland qarag'ayning ustida bir sharpa sezilganday bo'ldi. "Chinmi yoki xayolmi?" deganday ko'zini artib, qaytadan

tikildi. Sal-pal bilinib turgan bu yashil daraxt boshqalaridan ko'ra quyuproq edi. Buning ustiga u xuddi joyidan jilganday bo'ldi. Uchi osmonga uncha ko'tarilmasa ham boshqa daraxtlar bilan tushib ketgan. Bekbo'lining e'tiborini bir narsa o'ziga tortdi.

— E-ha, tutun... — deb tag'in allamahalgacha baqrayib qoldi. Tutun avvaliga to'xtab qoldi-da, keyin yana quyuproq chiqdi.

— Turqing qurg'ular, — deb Bekbo'l undan ko'z uzmay tura berdi, boshqa biror yalang, ochiq dalada o't yoqishga botinadigan yurakli odamlarmidi bular! Toshni qo'yib, qarag'ayzorning ichiga kirib olibdi-ya, ifloslar! Olovni serbutoq daraxt tagida yoqishyapti. Tutun butoqlarni oralab chiqquncha taralib, yo'q bo'lib ketadi, deb o'ylashgan bo'lsa kerak. Yana o'tni gurillatmasdan, tutantiriq bilan mayda-chuydalarni yoqib o'tirishganlarini qara! Shoshganidan tuzukroq joy ham qilib ololmapti-da!

Tog'-tosh orasida sal tovush ham jaranglab aks-sado beradi. Anchagina yilqi. Biri bo'lmasa biri kishnab qolsa ham "Men bu yerdaman", degani bo'ladi. Qarag'ayzorda qalin butoqlar ichida har qanday tovush ham sekin, kuchsiz eshitiladi. Bekbo'l buni yaxshi biladi.

— Qoraker nega ovoz bermayapti? — deb o'yladi u. — Uning ovozin o'chirish uchun qon ichirib qo'yishganga o'xshaydi. Belgimni buzib qo'yishdi-ya... — deb jadal borib otga mingancha yo'lga tushdi.

Tog' tepasida ko'zlab turib bir-bir reja tuzib qo'ygan edi. Qarag'ayzor ichiga kirganda ham o'sha mo'ljali bilan to'g'ri adashmay boraverdi. Sal vaqtdan keyin u to'satdan dushman yotog'i ustidan chiqib qoldi. Quyup daraxtzor, Bekbo'lni ko'rishdimikin, yo'qmi? Nima bo'lmasin Bekbo'l endi to'ppa-to'g'ri boravermoqchi bo'ldi. U beparvo o'tkinchi bo'lib dushmanning qanchaligini bilib olmoqchi bo'ldi. Bu yerda odam qorasi ko'rinmadi. Faqat otlari bor. Katta yo'l bosib, endi sovutishga qo'yilgan otlar qalmoqcha boylangan. Qozoqcha egarlangan ikki to'riq ot bir joyda. Bir qulun bilan yana bir jiyron nariroqda. Otlarning egar-jabduqlariga qaraganda Qizay, Siban urug'larining moliga o'lishaydi. Narigi yoqning odamlari bo'lsa kerak. Hammasi chapdast, abjir otlar bo'lsa ham bugungi qiyin safar bularni jiqqa terga bo'ktirgan. O'mrov-

lari ham, sonlari ham ter qotib, ola-bula bo'lib ketgan. Ehtiyotkor o'g'rilar boshqa yilqilarni ham yaylovga chiqarmagan. Kaftdek joydagi har bir daraxtga ikkita-uchtadan no'xtalangan ot, biyalar boylangan. Bu otlar ham miniladigan otlardek terlagan. Otlar o'g'rilarning hujumiga uchrab, azob tortgan. Qo'lga tushgan sovet moli O'sponqullarning halol mehnatini ko'z-ko'z qilib turganday, har biri yirik, kelishgan.

— Jonivorlarning qo'lga tushganlarini qara! — deb Bekbo'l ichidan achinib qo'yadi. U yaqinlashib qolsa ham, hech qayerda odam qorasini ko'rmadi.

— Uxlab yotishibdimi deyman, — o'yladi Bekbo'l, — unday bo'lsa, uyg'otmasdan boshqa yo'l qidiray, — degan kabi otning jilovini xiyol tortdi.

Biroq xuddi shu lahzada buning butun harakatlarini payqab, bundan keyingi o'ylaridan xabardor bo'lgandek, orqa tarafidan bir shang'illagan tovush eshitildi:

— To'xta!

Bekbo'l burgutning baldog'ini sal jildirib, oshiqmasdan orqaga qayrildi.

Qarasa, hozirgina o'zi yonidan o'tgan chap tomondagi katta daraxtning o'rta belida, basharasida qoni yo'q, surbet o'g'ri mil-tiq o'qalib turibdi. U boyadan buyon daraxtning tepasidagi qalin butoqlar ichida o'tirib olib Bekbo'lning harakatlarini kuzatib turgan qorovul ekan. Endi u butoqlarni ochib, boshi bilan ko'kragini ko'rsatib turibdi. Bekbo'l ko'zlariga kuch yig'ib tikilib qarasa ham, uning basharasini tanimadi.

— Otdan tush! — deb buyruq berdi o'g'ri.

— Xo'p, tushay, chirog'im! — deb Bekbo'l bemalol otdan tushdi. Tizginni egarning qoshiga ildi.

— Cho'chima, chirog'im, sen ham tush. Do'stmisan, dushmanmisan, deb so'ramaysanmi? Ovchiman, qushimni yo'qotib yuribman! — dedi.

Bu so'zlarni bemalol, mo'min-qobil kishilardak tinch turib gapirdi.

O'g'ri uning so'ziga ishonrsa ham, ishonmasa ham daraxt tepasidan sakrab tushdi. Kela solib ovchining qo'lidan to'riqning

jilovini yulib olib, indamasdan, apil-tapil Bekbo'lning orqasiga o'tib, miltig'ining uchi bilan turtib, buyruq bergandek boshini qimirlatdi. Bekbo'l indamay itoatkorona o'sha tomonga yurdi.

Yana boshqa uch o'g'ri daraxtning tagida pisib o'tirgan ekan, miltiqlarini o'qталib ro'parasidan chiqishdi. Qoraker ham shu yerda ekan. O'rtaroqdagi soqolli o'g'rining oldida yog'ochda allaqanday ko'k chandirni cho'qilab o'tirardi.

Bekbo'l yaqinlab borib, qushning narigi tomonida o'tirgan o'sha keksaroq o'g'riga ko'z tashladi. Birdan o'zgarib, taqqa to'xtab qoldi. Shu zahoti o'g'ri ham buni tanidi. Turqida ham ajablanish, ham sovuq bir narsaning aksi paydo bo'lgan edi.

— Bekbo'lmisan? — dedi haligi odam ham xunuk bir ohangda. Bekbo'l darrov o'ziga keldi-da, ko'pdan buyon sog'inib, xumor bo'lgan kishisini ko'rganday hayajon bilan:

— Satbek? Obbo Satbeg-ey, tirik ekansan-ku! Omonmiding? — dedi quvongan bo'lib.

Ikki yoqdan yetib kelgan ikki o'g'ri endi Bekbo'lni o'rab turishardi. Bekbo'l ularga bir-bir qarab oldi. Ichlarida tanishi yo'q ekan.

Satbek Bekbo'lga yaqinlashib so'radi:

— Do'stmisan, qasdmisan?

Bekbo'lning ko'rinishi dushmanlikdan olis bo'lsa ham, aniqlab olmoqchi, shekilli. Ikki tomondagi ikki o'g'ri bilan orqadagi boyagi haydab kelgan o'g'ri Bekbo'lni tintuv qila boshladi. Kiyimlarini yulqib, qo'yni-qo'njilarigacha titishdi. Bekbo'l o'z ixtiyorini ularga bergandek Satbekni tanib, sevingan o'sha holatida turaverdi. Tikilib, ko'nglini to'la-to'kis ochgandek gapirdi:

— Do'stman, do'stingman, Satbek!

— Chindanmi?

— Chindan!

O'g'rilar hamma yog'ini tintib chiqishib, hech narsa topisha olmadi. Satbek ham "qo'yinglar" degandek ishora qildi. Aftidan, boshlig'i o'shanga o'xshaydi.

Cho'qqi soqoliga oq oralaganini hisoblamasa, Satbek o'sha o'sha, besh yil avvalgisiday.

O'ngurdagi eng qing'ir, egri oyoqlarning bittasi shu edi. Mol-mulki ko'p bo'lishiga qaramasdan, o'sha kezdagi bo'lis hukumati-ning tepasida turgan yigitlardan biriga qizini berib, o'sha yigitning panohida quloq qilinmay, vaqtida juftak urib qochib qolgan edi. Orqasidan eshitilgan har xil mish-mishlarga qaraganda, birovlar: "Sibirda ekan", — desa, boshqa birovlar: "Toshkent tomonlarda ishlab yurgan emish", — derdi. "O'libdi", — degan ovozarlar ham chiqqandi. Har jonga bir iz tashlab, ovoza tarqatib yurgan bo'lsa kerak. Dastlab yo'q bo'lib ketgan, 29 yilda Sibir taraflarini ham, Toshkent tomonni aylanib chiqqani ham rost bo'lsa kerak.

Satbek ham ovchi. Bekbo'l shu Satbek yashagan tomondagi kambag'allardan. Umri Satbekning otasida qush boqib o'tgan, bittagina otli xizmatkor edi. Zamondoshga o'xshab yursa ham Satbekning it fe'lidan Bekbo'lning o'zi, uy ichlari talay azob tortgan. Bekbo'l Satbekning tag'in bir sirini biladi. U o'lsa ham hiylakorlikni qo'ymaydigan uchiga chiqqan yolg'onchi. Hozir bunday xunuk ishning tepasida turganda undan har narsa kutsa bo'ladi. Bekbo'lning endigi hayoti xavf ostida edi. Ko'pdan beri ko'rgan og'irligi ham shu edi. Nima bo'lsa ham avvalgi Bekbo'l bo'lib ko'rinishdan boshqa iloj yo'q. Satbek uni boshdan-oyoq sinchiklab, zaif tomonini izlaganday bo'ldi:

— Gaping rost bo'lsa, bu yoqqa yur! — deb gulxan tomonga boshladi. O'zi qora paqirning tagiga tutantiriq yoqa boshladi. Bekbo'l kelmasdan oldin yoqilgan o't ham shuniki ekan.

Uning bergan savollaridan biri shu bo'ldi:

— Nechta ovchi eding? Hamrohing kim? U qayoqda?

— Hamrohim yo'q, yolg'izman. Bo'lmasa qushimdan ayrilib qolarmidim? — dedi Bekbo'l.

Bu gapga ishonar-ishonmas Satbek Qorakerni ko'rsatdi.

— Bu hali yosh, uchragan go'shtga o'zini uradigan o'jar qush ekan. Sen olib yuradigan qush bunday bo'lmas edi-ku? Birovniki emasmi?

O'g'ri ikki ko'zini Bekbo'lga tikib gapirardi. Vaziyat juda qal-tis. Ammo Bekbo'l shoshmasdan kulib javob berdi:

— Gaplaring rost, Satbek! Bir yosh yigitning qushi ekan, shu-naqa qiliqlari bor.

Satbek indamay qoldi. Ammo ko‘z ostida ta‘qib etardi. Shu payt Bekbo‘lga ilk bor duch kelgan qaysar o‘g‘ri ham gap orasida savol bera boshladi. Unga boshqa ikki o‘g‘ri ham qo‘shildi.

Bularning so‘ragani: “Quvg‘in yo‘qmi? Mol qidirib yo‘qlovchilar bormi? Kecha kechqurundan buyon kimni ko‘rding?” — kabi so‘zlar edi. Bekbo‘l qushidan boshqa hech narsa bilmaydigan, ko‘rmagan, mo‘min, sodda chol bo‘lib qo‘ya qoldi. Bu holat Satbekka yana bir narsa bildirgandan, u qayta so‘radi:

— Do‘st bo‘lganing chin bo‘lsa, bizga qo‘shil. Nima deysan?

— Ha, ha, shunga nima deysan? — deb boshqalar ham qo‘shilishdi.

Bekbo‘l chindan o‘yga cho‘mib, andisha qilganday, Satbekka qaradi-da, birdan gapirib yubordi:

— Ey Satbek, men kelishim bilanoq sizlarga qo‘shildim desam, gapimni yolg‘on der eding. Sen meni, o‘sha qadimgi Bekbo‘l deb qabul qilaver. Buning savdolashadigan joyi bormi? — dedi.

Shunda Satbek javob ham bermasdan o‘z sheriklarini ishora qilib chetga chaqirdi. To‘rt o‘g‘ri nariroqqa borib, xiyol maslahatlashdi. Satbek o‘sha yoqdan turib, ko‘z uzmay bunga qarab turganini sezgan Bekbo‘l sir bermaslik uchun qimirlamadi.

Saldan keyin o‘g‘rilar so‘zlashib sekin-sekin qaytishdi. Avvalgi qora o‘g‘ri Satbek bilan chindan urishgandek, zardali ko‘rindi. Boshqa ikki o‘g‘ri ham shunaqaroq. Satbek yolg‘iz qolganga o‘xshaydi. Haligilar kelisha Bekbo‘lning ustiga tashlanishdi. O‘rnidan turg‘izishib, esini yig‘ib olishga qo‘ymasdan qora o‘g‘ri sariq pichoqni yaraqlatib chiqardi. Pichoqni kekirdagiga endi taqagan paytda, Satbek qora o‘g‘rining bilagiga yopishdi.

— Ey yigitlar, meni desalaring, o‘ldirmanglar. Zamondosh, qurdosh edim. Hech bo‘lmasa gapirsin.

Bekbo‘l bu bir nayrang ekanini sezib indamadi. Oxirini kutmoqchi bo‘ldi.

— Nimani gapiradi? Gapning nima keragi bor? — deb ustidagi bosib yotgan o‘g‘rilar do‘q urishdi.

— Juda bo‘lmasa, bu bechoradan bir narsa tilalaring. O‘miga qo‘ymasa, keyin o‘ldir! — dedi Satbek. Gap bu yoqda ekan. Bekbo‘l o‘zlari gapirsin deb, tag‘in indamadi.

— Bo‘lmasa: “Nima bo‘lsa birga ko‘rdim, o‘lsam birga o‘laman, sizlarga qo‘shildim!” — desin bu choling. Yo‘q desa, bo‘g‘izlab ketaman. Egilgan boshni qilich chopmaydi, — deb qora o‘g‘ri Bekbo‘lni yana qattiqroq bosib oldi. Bekbo‘l hech qo‘rqmadi. Ichida dushmanga g‘azabi qaynardi. Satbek ilgari haq-huquqsiz kambag‘alni aldab yeb yurgan shum, muttaham, qonxo‘r, yalmog‘iz. “Meni yalintirmoqchisan, o‘sha yo‘l bilan o‘ziga rom qilib, meni ajratib olgan kishi bo‘lmoqchisan. Yana meni “qarzdor” qilib qo‘ymoqchisan”, — dedi u ichida. Dushmanlar qancha azoblasa ham bundan sas chiqmadi. Satbek achchig‘landi:

— Tiling bormi, axir? Nega indamaysan? Men senga yordamlashib, jonimni ayamay turibman.

Bekbo‘l achchig‘langan tusda:

— Bo‘lmasa mana bularingni ustimdan nari yoqqa ol! — deb tebrandi. Do‘q qilib turgan o‘g‘rilarni Satbek osongina turg‘izib yubordi.

Bekbo‘l bo‘shagandan keyin Satbek:

— Xo‘p, sening boshingga men kafil bo‘lay, faqat bizga qo‘shilib, bugun kechasi bir iloj qilib isini chiqarmasdan mana shu molni yo‘ldagi otryaddan olib o‘tib ketishga yordamlash. Nari yoqqa o‘tgandan keyin minnatdorligimni ko‘rasan. Boyagidek sen Bekbo‘l, men Satbek bo‘lamiz. Rozimisan? Bo‘lmasa, mana bu turganlar seni bo‘g‘izlab tashlaydi! — Satbekning birinchi bor ochilib gapirgani shu edi.

Bekbo‘l indamay, shoshmasdan o‘tirib, hamma gaplarni gapirtirib oldi. Endi cho‘zishning hojati yo‘q. Quyoshga ko‘z tashlab, uning O‘jarning narigi tomoniga qarab yonboshlab ketayotganini ko‘rdi.

— Ey Satbek, ey yigitlar, — deb Bekbo‘l o‘nglanib o‘tirib oldi. — O‘sha deganing durust! So‘z bitta bo‘ladi. Mana bu go‘shtingni pishir, yeb, otga minaylik. O‘zimning o‘ylaganim ham shu edi. G‘ijillashadigan o‘rni emas. Yo‘limiz bo‘lsin, — dedi.

O‘g‘rilarning hozirgacha tushib turgan qosh-qovoqlari xiyol ochildi. Satbek yana bir karra pishiqlash uchun:

— Baribir endi qo‘lga tushsang, chegarada biz bilan birga tushasan. Undagi o‘limdan sen ham qutulib keta olmaysan. To‘g‘rimi? — dedi.

— E, so‘zni kalta qil, og‘ayni! Qo‘lga tushmaymiz. Sog‘-salomat o‘tamiz. Bo‘ldi! — deb Bekbo‘l endi gapni ulardan ham oshirib yubordi. Shundan keyin Satbek bilan Bekbo‘l hol-ahvol so‘rashib ketdi. Go‘sht pishdi.

Bekbo‘l dasturxonga o‘tirish oldida Qorakerni qo‘liga qo‘ndirib, quyoshni yana bir chamalab ko‘rdi:

— Qani, tez ovqatlanib, otga minamiz-u, chegaraga kira berishdagi tog‘ning ichiga yetib olamiz. Bo‘linglar, — dedi, o‘zi ham oshiqqan kabi ko‘rindi.

O‘g‘rilar uning bu gapini ma‘qul topishdi. Kun bo‘yi bir joyda yotishni ular ham loyiq ko‘rishmadi. “Xo‘p” degandek, ko‘nib turganini ko‘rgach, Bekbo‘l endi qushini ko‘tarib o‘rnidan turdi.

— Mana, tug‘ilib o‘sgan ona yerimizda Satbek ikkalamizdan yodgorlik bo‘lib qol. Oyog‘ingdagi ipingni olmayman. Bor, jonivor, uchaver, xayr! — deb Qorakerni osmonga uchirib yubordi.

Qorni to‘yib qolgan qush uchmay qoladimi, deb avval qattiq xavfsiragan edi. Ammo Qoraker ovchining ko‘p mehnatlarini oqlay deganday, balandga parvoz qildi. O‘ynab-o‘ynab uchib, gir aylanib yuqorilamoqda. Bekbo‘l qush ketidan biroz qarab turdi-da, keyin gulxan yoniga keldi. U ham go‘sht yeyishga o‘tirdi. Mo‘l qilib pishirilgan semiz qulunning go‘shtini boshqalar apil-tapil yulib yeyish bilan ovora. Lagansiz, kir ro‘mol ustida bug‘i chiqib yotgan go‘shtga gulxan tomondan kelib Bekbo‘l ham qo‘shilib yeya boshladi. Olov ustiga paqir osilgan ekan. Ammo o‘ti o‘chay-o‘chay deb qolibdi. Go‘shtni chaynab o‘tirib:

— Sho‘rvasi sovib qolmasin! — dedi-da, boya chamalab qo‘ygan bir hovuch yaproq bilan quruq xashakni chalaning ustiga tashlab, puflab yondirdi.

— E, puflama, bu nimasi? — deb Satbek norozi bo‘ldi.

— Nima qilardi? Sho‘rva sovimasin! — deb hech narsadan xabarsizdek go‘shtga qo‘lini uzatdi. Ko‘m-ko‘k tutun qarag‘ay ustida qalqib, havoda ko‘rinib ham qoldi.

Go'shtni yeb, endi tugatish oldida nariroqda qalmoqchasiga boylangan ikki to'riq otning qulog'i birdan chimirildi.

— Ey, otlar bir narsani ko'rishdimi? — deganча Satbek chap tomonga miltig'iga tashlandi. Boshqalar ham tapir-tupur quollarini qo'lga ola boshladi.

— Attang, qorovul qo'ymabmiz! — deb Bekbo'l ham afsuslangan bo'ldi. “Endi xavf-xatar yo'q. Atrofdа qunan ot chopib borgunchalik joygacha tirik sichqon ham uchramaydi”, — deb yana hammaning ko'nglini joyiga tushirdi.

O'g'rilar daraxtlar panasiga yugurib ketishdi. Satbek otiga yaqinroq bir daraxtga qarab tashlandi. Bekbo'l uning orqasidan yugurdi. Bular yigirma qadamcha nariga borar-bormas boyagi qorachadan kelgan o'g'ri miltiq otdi. Satbek bilan Bekbo'l hech kimning qorasini ko'rishmagan edi. Miltiq tovushiga yalt etib qarashib, ikkalovi ham javoban otilgan miltiq tovushini eshitishdi. Shu lahzada qorachadan kelgan o'g'ri chalqanchasiga ag'darildi. Ketma-ket aytilgan qozoqcha-ruscha buyruq eshitildi:

— Sdavaysya!

— Qurolingni tashla! — deb atrofdagi qarag'aylar buyruq bergan kabi bo'ldi. Sherigining qulaganini ko'rgan zahoti Satbek Bekbo'lga qarab og'zini qiyshaytirib, miltig'ini qayira boshladi. — O'ldirib o'laman. Yoshligim... — deganida, Bekbo'l qichqirib:

— Tashla qurolingni! — deganча sakrab o'g'rining miltig'ini ushladi, o'zi tizzasidan tepib yubordi... U eski dushmani, ashaddiy o'g'ri bilan olisha boshladi. Ammo bir siltashdayoq Satbek shilq etib Bekbo'lning tagiga tushib qoldi. Bekbo'l hali dushmanni yiqitarli harakat qilmaganday edi. Qarasa, Satbekning orqasidan kelib, ezib, ikki buklab tushgan Aleksandr ekan. Bekbo'lning ko'p yillik do'sti, talay kurashlarda qator yurib, birga sinashgan, ishongan do'sti Aleksandr — komendantning o'zi. Atrofnı o'rab bosqin qilay deb turgan vaqtda Aleksandrning xayolida faqat Bekbo'l turgan edi. Qurshovda qolgan o'g'rilar Bekbo'lga biror shikast bermasa edi, deb cho'chigan edi. Otlarning yoniga kelgunga qadar hujum qilmasligining boisi ham shu.

Bir o'g'ri o'ldi. Uch o'g'ri asir bo'ldi. O'sponqul, Jonibek ham barcha qizil askarlar boylog'liq yilqilar tomonga yurishdi.

Bekbo‘l Aleksandrni quchoqlab olganicha, Satbekning oldiga boshlab keldi-da, muttahamning ko‘ziga tikilib:

— Satbek degan odam mana shu bo‘ladi! Men tug‘ilgan yili birga tug‘ilib, Sovet hokimiyati o‘rnatilganga qadar soqolim oqarguncha yelkama minib, qonimni so‘rib kelgan zuluk edi. Satbek ismini ko‘p eshitgan bo‘lsang kerak? — dedi.

— Ko‘p eshitganman, yaxshi bilaman! — dedi Aleksandr.

— Ana shu Satbek shu! — deb Bekbo‘l Aleksandr tomonga burildi-da, kulib rus tilida gapirdi:

— Shu bilan men nechanchi qochoqni ushlab berdim, Aleksandr?

Aleksandr Bekbo‘lni qo‘ltiqlab olib, xoliroq joyga chiqdi-da:

— Bekbo‘l, tabriklayman. Bu sen ushlagan o‘n to‘qqizinchi narushitel¹! — deb keksa ovchi do‘stining qo‘lini qattiq qisganicha uzoq silkitdi.

* * *

Oradan bir necha yil o‘tdi. Yana oktabrning ko‘rkam, ko‘ngilli kunlaridan biri. Katta, badavlat kolxozning yap-yangi toza uylari. Hammasida to‘q, quvnoq hayot seziladi. Shu kolxozning eng o‘rta bir yerida qizil temir tunuka tomli go‘zal bir uy bor. Bu — Bekbo‘limizga qaraydi. Keksa ovchining o‘zi katta xonada boyagi sodiq do‘sti Aleksandr bilan birga o‘tiribdi.

Tajribali keksaning so‘nggi yillardagi ishi avvalgisidan ham o‘tib tushadigan. Hozirgi ishlarining sanog‘i Satbekni ushlagandagisidan oshib ketgan. Hozir Bekbo‘l hurmatli, ordendor kolxozchi. Faqat o‘zi emas, u hozir Jonibekni ham xuddi o‘zi singari epchil, chapdast, olg‘ir qilib tarbiyaladi.

Anovi ostonada turgan Qizilbalaq ham avvalgicha. Yil sayin u kolxoz boyligiga 130–140 tulki qo‘shib turadi. Vatan dushmanlariga qarshi jon fido qilib kurashadigan hurmatli keksa ovchi Bekbo‘l bilan moltopar, qaytmas jangchi Qizilbalaq — ikki sherik hali-veri qaridik, charchadik, deydigan emas. Qaytanga hozir eng navqiron yigitlik paytimiz deganday bo‘ladi.

¹ Narushitel (ruscha) — qonunbuzar.

Buning birinchi belgisi — Bekbo‘l so‘nggi ikki yil ichida zehn qo‘yib, Aleksandrning gapi bilan ruscha xatni taniydigan bo‘lib qoldi. Burun tilga chechan bo‘lsa, endi o‘zicha gazeta, kitob ham o‘qishga usta bo‘lib qolgan. Mana bugun ham Aleksandrni ataylabdan mehmonga chaqirib, bir qimmatbaho kitobning qaysi bir tushuniksiz joylarini undan so‘rab oldi. Ikkovining o‘rtasida qo‘ldan-qo‘lga o‘tib turgan yupqa kitobchaning ustida oltin yozuvlari bor. U qozoq respublikasining konstitutsiyasi.

Yuz o‘n birinchi modda ustida Bekbo‘l qo‘ygan bir belgi bor. U shuni o‘qidi: “Vatanni qo‘riqlash — SSSR grajdanlarining muqaddas burchi...”

Bekbo‘l Aleksandr bilan birga saylov Nizomini ham pishiqlab bilib chiqishga ahd qilishgan. Ikki do‘st buni juda ulug‘, zo‘r burch deb bilishadi.

KO'KYOL

I

Qoraadirning qarag'anzor soyi bo'm-bo'sh. Atrofda past-u baland olachipor adirlar, ular ustini pastak bo'z qarag'an, to'bilg'i bosib ketgan.

Soy bo'yida may oyining salqin nafasi bor. Ko'karib yaproq yoza boshlagan qalin qarag'an shabadada shitir-shitir chayqaladi, tevarak-atrofdan yovvoyi sarimsoq va ko'katlarning hidi anqiydi.

Uzun, keng vodiyni qoplab yotgan qarag'anzorning o'rtasida chuqur bir jarlik bo'lib, bosh tomonida, qalin na'matak orasida bo'ri ini bor edi. Bu inni atrofdagilarning hammasi yaxshi bilishardi. Yoz kira boshlashi bilan ikki bo'ri kelib, uni o'zlariga makon etdi. Ilgari na'matak yonidagi kichkina maydonchada odam zo'rg'a sig'adigan uchta in bo'lar edi. Bu yil yana bir in paydo bo'lib qoldi. Uning labida yaqinda kovlangan tuproq yotibdi. Bo'rilar boshqa-boshqa inda yashasalar ham bir-biriga yer ostidan yo'l ochib qatnashadi. Atrofda bo'rilar o'ynashgan bo'lsa kerak, nozik maysalar yanchilib, toptalib qolibdi. Qarag'an uchlarida ilinib qolgan bo'rining oppoq juni ko'zga tashlanadi. Qishdan qolgan tiviti hozir ham har joy-har joyda mana shunday to'kilib yotardi. Inlarning o'rtasida ikki tup qalin chachir bor. Hozir shuning tagida obdan tullab bo'lmagan oq bo'ri yotibdi. Bag'rida mayda-mayda bo'ri kuchuklari g'imirlashadi. U o'zini oftobga toblab yotibdi. Ko'zi dam yiltirab ochilib, dam yumilib mudraydi. Iyib turgan yelinlarini bolalari tortqilashadi. Uning tepasidagi chachir shabadada tebranadi. Tevarakdagi qarag'an bilan na'matakning boshlari chayqaladi.

Bir mahal bosh tomondan chiy, to'bilg'i, xashaklarni shatirshutur qilib, shart-shart sindirib, bir narsa kelayotgani sezildi. Oq bo'ri esini yig'gunicha u shovqin-suron bilan yoniga kelib qoldi.

Oq bo'ri sapchib turdi... Bag'ridagi ko'k kuchukchasi shoshganidan qoqilib-surilib, yumalab qoldi. Oq bo'ri oziq tishlarini ko'rsatib irilladi.

Xuddi shu payt uning oldiga qarag'anlarning ustidan osha bir qizil qo'zi to'p etib tushdi. Uning ketidan ko'k chinqoq bo'ri yetib keldi. U entikib, kelgan bo'yi oq bo'rini aylanib hidladi, u yer-bu yerini yaladi. Shundan keyin tipirchilayotgan qo'zini ko'rib qolib, irillaganicha borib bosdi.

Qo'zi bechora ikki vahshiy og'zida qonga belanib, bo'lak-bo'lak bo'ldi, murg'ak suyaklari qirs-qirs sindi. Uni birpasda ochofatdek bo'rilar yamlab yutdi. Tumshug'i, boshi, bo'yin junlari qip-qizil qonga belangan bo'rilarining ko'zidan o't chaqnar edi.

Sal vaqt o'tmay ikkovi faqat qo'zi o'rninigina hidlab qolishdi.

Oldinroq tug'ilib, ko'zlari ochilgan bo'ri bolalari to'planishdi. Keyinroq tug'ilgan ikki kuchukcha gavdasini ko'tara olmay gandaraklar edi. Onasi ularni bag'riga olib, emiza boshladi.

II

Ertasiga tush paytida yot hid keldi. Yiroqdan allaqanday sharpa eshutilib, yaqinlasha boshladi. Oq bo'ri kuchuklarini gardanidan tishlab, inlariga olib kirib tashladi-da, o'zi qarag'an ichiga kirib ketdi.

Inga tomon tasir-tusir, dupur-dupur qilgan tuyoq tovushlari yaqinlashdi; shovqin-suron kuchaydi, bo'ri yotgan joy olatasir bo'lib ketdi. In ustidan tashlangan yog'ochlar yerga taraq-turuq qilib tushar, in og'zida nimalarningdir oyoq tovushi eshitalardi. O'tkir ko'zlari in ichiga tikilganday bo'ldi. Bo'ri bolalari biriga-biri mingashib, gavdasini yerdan ko'tarishga holi kelmay, yaqin joyda yotar edilar. Baquvvat sirtmoqlar ularni gardaniga tushib, tashqariga sudrab chiqdi. Yettitadan beshtasini ko'zlariga qarab o'ldirishdi-da, ikkitasini tirik qoldirishdi. Ketayotganlarida ularning bittasini ham tirsagidan payini uzib tashlab, eng kichigini olib ketishdi. Ikki bo'ri tashlab ketgan bolasini tishlagancha ko'tarib qayoqqadir g'oyib bo'ldi. In huvullab qoldi...

Shu voqeadan keyin yaqin joydagi ovulda bir hafta davomida kuni-tuni qiy-chuv bo'lib turdi. Qo'y yaralandi, qo'zi yo'qoldi. Buzoqlar o'ldirildi. Dalada qulunlagan biyalarning qulunlari yeb ketildi.

Tutib olib ketilgan ko'k bo'ri ovulda qoldi.

III

U ovulga keltirilgandan so'ng ikki kundan keyin ko'zini ochdi. Yurt bo'ri bolasini asrashga rozi bo'ldi. Kichkina Qurmach unga Ko'kyol deb ot qo'ydi. U erta-yu kech bo'ri bolasi yonidan jilmasdi. Unga alohida ovqat qo'yiladigan ityaloq ham tayyorladi, gavdasini ko'tarib yura boshlashi bilan bo'yniga bo'yinbog' soldi. Ko'kyol uy ichidan chiqmas, uni Qurmach kechasi yonida olib yotar edi. Shu maqsadda u buvisining qo'ynida yotishdan ham voz kechdi. U alohida yotadi-yu, yonida yoki oyoq tomonida, ko'rpa tagida Ko'kyol yotadi.

Yozning yarmi o'tdi. Ko'kyol katta bo'lib, semirib qoldi. Biroq daladagiday erkin o'solmas, o'zi ham ovuldagi tengqur kuchuklardan u qadar katta emas edi.

Bu paytgacha Ko'kyol ovul itlaridan ko'radiganini ko'rdi. Birorta it ham uni do'st tutmaydi, o'ziga yaqin yo'latmaydi. Dovyurak bo'ribosarlar esa uni talab tashlar, boshqa ko'pgina itlar irillab-hurib, goho pand berib, har joyidan tishlab ham ketadilar.

Qurmach yonida bo'lganida u kaltak yemaydi. Ko'kyol katta bo'la borgan sari egasi uning yonida ko'pincha bo'lmas, shunday paytlarda Ko'kyolga ovul itlari duch keladigan bo'lib qoldi.

Bir safar katta uyning kattakon ola-bula ko'ppagi uni osongina yerga bosib, rosa ag'anatdi. Buni ko'rgan o'zga itlar ham yugurib kelishib, chovidanu sonidan cho'zg'ilab, o'ldirishlariga oz qolgan edi. Shovqin-suronga bolalar, kattalar to'planib, itlarni urib haydab, bazo'r ajratib olishdi.

Biroq Ko'kyol hali hozirgacha hech qachon vangillab dumini qisib qochmagan. Itlar talamoqchi bo'lib yugurishsa, yelka yolini

hurpaytirib, qaqqayib turib oladi. Tishi botib, jonidan o'tsa, tishlarini tovushsizgina irjaytiradi.

— Bu kopir, qaysarni qara! Egilay demaydi-ya! — deb ovul kishilari hayron qolishadi.

Shunday qilib ovuldagi xotinlar Ko'kyol haqida har xil oldi-qochdi gaplar tarqatib yurishdi.

— O'g'rini asraganing bilan el bo'lmaydi. Nasli yov-ku uning! — deyishadi.

Ba'zi birovlar:

— Kechalari qo'zilarning quyrug'ini hidlab yuradi. Qo'ylarni hurkita beradi. Tunda dalada yurishni yaxshi ko'radi. Faqat itdan qo'rqqanidan uyda yotadi, — deyishadi.

Qurmash bu gaplarning birortasiga e'tibor bermasdi.

Darhaqiqat, Ko'kyol o'lgunday ochko'z edi. Agar odam qarab tursa, oldiga qo'yilgan ovqatga qaramaydi. Bordi-yu, odamning ko'zi shamg'alat bo'ldi deguncha, birpasda yo'q qiladi-qo'yadi. Yana qorni och bo'lsa-yu, ovqat berishmasa, baribir topib yeydi. Ko'zga tashlanib turgan chiyto'siq ichida go'sht yoki yosh teri osilib turgan bo'lsa, qozonda irimchiq, qatiq bo'lsa — barini xuddi o'zining idishiga quyib qo'yishganday hidlab yeb-yalab ketadi. Goho shunday qilganida qo'lga tushib, kaltak ham yeydi. Boshiga shaq etib tekkan o'qlog'i-yu, bo'yniga ship-ship tushgan qamchini ham ko'p marta totib ko'rdi. Bunga u faqat tishlarini irjaytiribgina javob qaytaradi.

Qurmash qanchalik tarbiyalamasin, Ko'kyol o'g'irlik bilan halol ovqatning farqiga yeta olmadi. Ba'zan odamlar ovqat berib "ye" deyishadi. Ba'zan shunday ovqatni o'zi topib yesa urishadi. Shu sababli oldiga ataylab qo'yilgan ovqatni ham yemay ko'z qiri bilan yon-veriga qarab-qarab yotar edi.

Har qalay Ko'kyol uzib-yulib yeb yurib, och qolmas edi. Kuni-ga ikki marta ovqatlanish uning odatiga aylangan. O'z qo'llari bilan ikki mahal ovqat qo'yishmasa, shu kuni Ko'kyol o'z ixtiyori-cha borib bir nimani yeb kelar edi.

Shunday qilib yurib, yoz oqqan paytda Ko'kyol kap-katta ko'k chinoq bo'ri bo'lib yetishdi. Endi uni olapar ko'ppak ham talay

olmaydi. yelka yoli tikkayib, ko‘zlari yashillanib, barcha tishlarini ko‘rsatib, og‘zini yirib ochib irjaytirganida ancha-muncha itlar vangillagancha dumini qisib qochib qolar edi.

Bunday paytda Qurmarshning o‘zi ham unga “yot-yot” deb qo‘rqa-pisa yaqinlashar edi.

IV

Ko‘kyolning tishlari hali yaxshi yetilmagan, biroq o‘zi asl arlon edi. Hozircha rangi kirib, to‘lishganicha yo‘q. Butun juni tim ko‘k. Yelka yoli hurpayib boshidan to dumigacha tutash bir tekis, u kamalakday egiluvchan; chopsa sadoq o‘qiday tez uchadigan g‘alati odati bor.

O‘zi hech kimga yaqin yo‘lamaydi, tegmaydi ham. It zotiga aslo yo‘lamaydi. Hali — hozirgacha biror marta yayrab o‘ynamagan, faqat o‘z otini biladi. Qurmarsh bilan buvisi chaqirsagina keladi. Unda ham chopib kelmay quyrug‘ini biltanglatib, yelib keladi. U bu qiliqni faqat och qolganidagina qiladi. Bo‘lmasa ko‘pincha yer ostidan suq bilan yalt-yult qarab, indamay yota beradi. Borib turtkilab, o‘rnidan turg‘izsalargina uyga qarab yuradi. Ulg‘aygan sari uning turqi sovuq bo‘la bordi. Uning bu holatini payqagan keksalar:

— Endi buni o‘ldirib, terisini shilish kerak, bu kopir sira ham el bo‘lmaydi, — deyishar edi. Biroq Qurmarsh ko‘nmadi.

Shundan biroz keyinroq Ko‘kyol Olapar ko‘ppakka maydon-da o‘z kuchini ko‘rsatdi. Olaparning egasi Jumash bola yoz bo‘yi Qurmarshga:

— Qashqir bo‘lsa bo‘lar, mening Olaparim uningni shunday oladi-yu, yerga bosadi. Sen ajratmasang, allaqachon o‘ldirar edi, — deya berar edi.

Bir kuni tushda Qurmarsh Ko‘kyolni tashqariga olib chiqib, ovqat berib turganida, nariroqdan silapchinning shaldirayotgan tovushini eshitgan Olapar shunday muyilishdan chiqdi-yu, o‘zini yo‘qotib yo‘lda turib qolgan Qurmarshga ham qaramay yugurgancha kelib, Ko‘kyolning biqinidan shartta tishladi.

Avvallari bunday paytda ovqatini ham yemay, odamga qo‘rqa-pisa qarab-qarab qo‘yib, chiqib ketadigan Ko‘kyol endi qattiq iril-

lagancha Olaparni tomog'idan g'ippa tishladi. Uning og'iz urgan joyi quloqchakkaga yaqinroq edi. U ko'ppakka bo'yini burishga ham qo'ymay mahkam tishlab, siltab-siltab yuborganida, kattakon ko'ppakning orqa quymichi to'lg'anib-to'lg'anib borib, Ko'kyolning yoniga gursillaganicha yiqildi.

Atrof-tevarakdan odamlar to'planib qolishdi. Ko'kyol Olaparni tomog'idan biroz bo'g'ib turib qo'yib yubordi-da, yolini hurpaytirib, davradan chiqib ketdi.

G'olib yovning qiynog'idan zo'rg'a qutulgan Olapar vangillaganicha dumini qisib, qayoqqadir ketdi.

Shu voqeaning ertasiga kechga yaqin ovulga yaqin joyda yotgan qo'raga bo'ri chopdi. Do'ng tepasidagi cho'ponning hayqirig'ini eshitgan ovuldagi yoshu qarj, piyoda va otliq bo'lib itlarni olqishlashib, quvib ketishdi. Qurmash: "Ko'kyol ham ketdi", deb odamlar ketidan yugurdi.

Biroq bo'riga birorta ham it yeta olmadi. Qirni oshib tushmasdanoq, itlarning bari, odamlar ham to'xtab qoldi. Kun botish tomondagi sariq tepadan bir-biriga ergashib chiqib ketayotgan ikkita yirik qora ko'rindi. U bo'ri edi. Ularning orqasida tumshug'ini yerga osiltirganicha to'xtamay yo'rg'alab Ko'kyol ketib borayotibdi. Birozdan keyin u ham tepadan oshib tushdi. Qurmash bilan bolalar: "Ko'-o'k-yol!" "Ko'-o'k-yol!" deyishganicha chaqirishib, orqasidan yugurishdi.

Rosa qosh qoraygandagina Ko'kyol yolg'iz o'zi bir-bir bosib, ovulga kirib keldi. Biroq uyga kirmay, nariroqda turib, qayta-qayta yerni tatalab changitadi. Sariq tepaga qarab-qarab qo'yib, nari-beri yuradi-da, yerni hidlaydi. U tinchlana olmaganday edi.

Qurmashning dadasi Ko'kyolning holatini payqab:

— Voy-bo', manavi kopirning ikki ko'zi yam-yashil bo'lib ketipti-ya! O'zining bo'ri zotidan ekanini sezibdi-da, yuzi qora. Qo'y, bolam, endi buni o'ldirib, terisini shilaylik, — dedi.

Qurmash bu gal ham ko'nmadi... Biroq shundan ikki kun keyin Ko'kyol bir kechada g'oyib bo'ldi-qoldi. Qurmash uni qochib ketdi, deyishga tili bormay atrofdagi chiy-qamishzorni, jar-jiralarni tekis qidirdi. Topa olmadi. Shu bilan odamlarning bari uni ketdiga chiqarishgan edi, oradan uch kun o'tganda erta tongda Ko'kyol

xuddi osmondan tushganday qayoqdandir o'z-o'zidan paydo bo'lib qoldi. Qurmash bilan buvisi bo'ringing bu odatidan quvonib, xursandchilik bilan qarshi olishdi. Bu gal Ko'kyolning ikki biqini qalishib, loyga belanib, shaltag'i chiqib, bir ahvolda keldi. U ovulda biroz yashagach, yana ilgarigi holatiga qayta boshladi, semirib, kundan kunga o'sa bordi.

Bu ulkan bo'ri bo'lib ulg'ayishining belgisi edi. O'zining shu holatini sezgan bo'lsa kerak, qora dovulli kuz kechalarining birida Ko'kyol yana g'oyib bo'lib qoldi. Bu safar qaytib kelmaydigan bo'lib ketdi. U yumronqoziq, quyon kabi ovlarni tutib yeb, o'zini asraydigan bo'lib oldi. Shunday qilib, qishga ham yetib oldi. U qirdan-qirga yo'rtib, atrofga alanglab shamol tomonga tumshug'ini tutib, hid olib yurib, bir qishlovning tepasidan chiqib qoldi. Qishlov yaqinidagi bo'z qarag'an ichida, qorli adirda u yoqqa bu yoqqa yurib, ko'p poyladi.

Qo'radan ajrab chiqqan bitta ham mol yo'q edi. Qishlov qorayib ko'rinadi, chaqchayib qarayotgan ko'zlar kabi har joy-har joyda olov yoqilgandi. Pichan tepasi-yu, qo'raning u yer-bu yerida yotgan itlar tinmay huradi. Qishlov hushyor, uyg'oq...

Biroq shu qo'radan dimog'ni yorib qo'y isi ham keladi.

U qo'raga yaqinlay degan edi, itlar chuvillashib hurib, yaqinlashtirmadi. Qattiq izg'irindan tumshug'ining uchi, lablari achishib chidab bo'lmas darajada sovqota boshladi. Tovonidan o'tayotgan zax ham oyoqlarini titratib, qotirib borayotibdi. Qayta yo'rtib adirga chiqdi.

Birinci bor noilojlikdan ko'kka qarab ulidi, kuchli ulidi. Bu Ko'kyolning ilk bor uligani edi.

Qorli kimsasiz adirni boshiga ko'tarib ulidi. Tinmay uzoq-uzoq ulidi. Uning tovushi chiqqan sayin ovul itlari vovillar, vangillar edi.

Ko'kyol dumini chotiga qisib, bukilib, och biqini dam-badam lo'killab ulib turganida xuddi yonginasida o'zinikiga o'xshagan bir tovush eshitilib qoldi...

Bu Ko'kyolning tovushini eshitib, shu atrofda yurgan qanjiq ekan. Birini biri ko'rishi hamon ikkovi ikki tomondan intildi. Biri-biriga yaqinlashganlarida irillashib, tishlarini tegizmay tirjayti-

rishdi. Oziq tishlari shaq-shaq etdi. Ko'kyol qattiqroq irillab, yaqin yo'latgisi kelmay, nari-beri sapchib tushib, tez aylanib, g'azab qo'zg'agisi keldi. Oq bo'ri esa uning atrofida aylanib g'ingshib, izini hidladi. Birozdan keyin quyruq tomonidan hidlab siyrag'ini yalab o'tdi. Shunday qilib ikkovi tanishib oldi. Ko'kyol ham aylanib hidlay boshladi. Bir martadan jag'larini yalashdi.

Qo'shilishib, soyga qarab jo'nashdi. Ikkovi ham qattiq yo'rtib ketdi.

Qo'ra yonidagi sariq tepani yonlab ko'tarila boshlaganlarida juni hurpaygan Olapar izlaridan tushdi. Bu Ko'kyol bilan yoz bo'yi irillashib o'sgan ko'ppak edi. Bo'rilar qo'rqib qochganlari yo'q. Ko'kyol oq bo'rini oldiga solib o'zi o'ngu so'lga yalt-yalt qarab, chuqurlikka tomon chopa boshladi. Ketidan itlarni ergashtirib, hallos urib kelayotgan Olapar chuqurlikka tushib, endi o'zini to'xtatmoqchi bo'lganida, Ko'kyol ketiga burildi-yu, unga tashlandi. Boshqa itlar tepaning ustida serrayib turib vovillashar edi.

Oq bo'ri ham aylanib kelib, Olaparning yo'lini to'sdi. Ikkoviga tob berolmay, chap berib qochishga yuz tutgan Olapar quyrug'ini likanglatib-likanglatib yuqoriga qarab yugurgani uchun ulardan qutulib ketolmadi. Oq bo'ri yetib kelib bir tishladi. Olapar orqa tomonidan ko'tarilib uchib borib tushsa-da, yiqilmadi, yuzma-yuz kelib irillab turib qoldi.

Shu choq ularga yetib kelgan Ko'kyol Olaparni quloq-chakkasidan oldi-yu, ko'z ochib yumguncha o'tgan vaqt ichida piypalab, ostiga bosdi. Ikkala bo'rining yelkalari do'ppayib, yollari tikka-tikka bo'lib ketdi. Og'izlari oldin junga to'lgan bo'lsa ham, keyinroq issiq qonga, yumshoq go'shtga, qisir-qisir singan suyakka to'ldi. Oyoqlarining ostida toptalgan qalin qor atrofga burq-burq sachraydi. Ikkovi ham iliq, yumshoq go'shtga tumshuqlarini tiqib, tovush chiqarmay, ochko'zlik bilan g'o'lt-g'o'lt yutardi.

Oxirlab qolganlarida ikkovi ikki sonni o'rtasidan shart yirtidi-yu, har yoqqa sudrab ketishdi. Saldan keyin Olaparning har joyda juni sochilib qora tovoni-yu, quyrug'igina qoldi.

Ikkovi oydin kechada qayta Qoraadirga qarab yo'l oldi. Oldinda Ko'kyol, keyinda izma-iz oq bo'ri borardi. Ular adirga kiraverishda bir oq qoyaning tagida ag'anab-ag'anab olishdi.

Shu kechasi dan boshlab ikki bo'ri bir-biridan hech ayrilma-
di. Yoniga sherik ergashgandan beri Ko'kyol zo'rayib, tez o'sdi.
Oyoqlari yo'g'onlashib, junlari o'sib, yo'g'on, miqti bo'lib oldi.
Qish ichi yana ham yelkasi do'ppayib, bo'yni yo'g'onlab, semirib
ketdi.

Hammaga tanig'lik bu ikki bo'rining dastidan Qoraadirdagi
ovullar ko'p jabr tortdi. Dalada cho'ponni baqraytirib turib qo'yini
tortib yeb ketadigan, yaylovdagi molga chopib buzoqdan tortib
ulkan sigirgacha bo'g'izlaydigan ham shu ikkovi edi. Fevral, mart
oylari ichida uch-to'rt tuya ham yeyildi. "Odamdan qo'rqmaydi.
Ayniqsa, ichida bir ko'k chinog'i bor. Qo'yni olib qochib ichini
yorayotganida so'yil bo'yi joygacha yaqinlashsang ham qoch-
maydi. Daladagi qo'yga oldin bittasi kelib chopadi, unga cho'pon
aldanib yurganida, imkinchisi boshqa tomondan kelib olib keta-
di", — deyishar edi odamlar.

Bo'ronli, izg'irin tunlarda bo'rilar goho-goho qo'raga ham
tushib turishdi. Bir kambag'alroq ovulning qo'rasiga yolg'iz
Ko'kyolning o'zi tushib, o'ntacha qo'yini bo'g'izlab, qutulib
ketgan paytlari ham bo'ldi. U bir necha ovulning "Bo'ri bilan oli-
shishiga yaraydi", deb yurgan itlarini ham pisand qilmay qo'ydi.
Yana shartlashganday ular Qoraadimning qishlovlariga navbat bilan
hujum qiladi. Bir necha kun bir-ikki ovulni surunkasiga aylanti-
rib yurib, keyin bir hafta-o'n kuncha bu atrofda ko'rinmay, yo'q
bo'lib ketadi.

U paytda ikkinchi, uchinchi ovuldagilar avvalgi ovullarning
holiga tushadi. Har ovulning ro'parasida bo'rilar ko'rinish berib
keladigan qorovul tepalar bo'ladi; yashirincha yaqinlashadigan
soy, o'zanlar bor. Ko'kyol ovga chiqish uchun mazgil tanlamaydi:
erta tongdami, tushdami, tundami baribir. Kuniga bir marta ovqat-
lanmasa, ko'ngli o'miga tushmaydi.

Odamlar anavi tog' orasidan, anavi chiy, anavi qarag'an bos-
gan soydan keladi deyishadi — xuddi ular aytganday shu joy-
lardan bekinib keladi. Bular aylantirib yurgan ovullar mollarini
yakka-yolg'iz qo'ymay, ko'zdan yiroq qilmay, chetga chiqarmay

juda ehtiyotlashadi. Biroq kunduzmi-tundami, ishqilib, biror tasodif yuz bermay iloji yo'q. Ko'kyol xuddi o'sha joyda, o'sha odamning ro'parasidan chiqadi-turadi.

Qish qattiq. Qor qalin. Bo'rini qor ko'taradi. Otni ko'tara olmaydi. Shu sababli necha bor ot sovutib, kaltak hozirlab quvish ishtiyoqida yongan yigitlar bo'lsa ham hech narsa qila olishmadi. Faqat bir safargina Arslonbek o'zining poygalarda tanilgan jiyron oti bilan ularning izidan tushib, quvib ko'rgan edi. Ko'kyol adirdan-adirga qochib, uni adashtirib ketdi.

Yaqin yo'latmay miltiq otib qo'rqitmoqchi bo'lganlar ham bo'ldi. Ko'kyol ulardan ham tap tortmadi. Zahar solganlar bo'ldi, yemadi. U zaharni itlar yeb, qirilib qolgan vaqtlar ham bo'ldi.

Bu gaplarniig bari Qoraadir tevaragida yashaydigan elda sodir bo'lgan edi. So'nggi oy ichi bir ovulning odami ikkinchi ovulga borgunday bo'lsa, yig'inlarda ko'pchilikning boshi qo'shilsa bo'ldi, o'rtalaridagi gap shu ikki bo'ri haqida ketardi.

Ko'kyol ana shunday dong chiqarib semirayotgan, o'sayotgan edi.

Shu bilan birga Ko'kyol chet, kimsasiz joyda juda sho'x o'ynoqi edi. Tush paytida, yoki erta tongda bir molni ovloqda ag'anatib yeb olib, odam turmaydigan xilvat joydagi iniga qaytadi. Bu payt oq bo'ri yo'l yurib, horib-charchab kelib yotgunday bo'lsa, Ko'kyol uning atrofida qorni bo'ratadi. Shamolday uchib kelib tishlab oladi. Oq bo'ri boshidan oshib, ag'anab tushadi. Goho oq bo'ri irillab, tishini shaqillatib, qulog'ini qisib, achchig'lanib daf qiladi. Bunday paytda Ko'kyol ham qattiq irillaydi. Ba'zan u sakrab kelib, oq bo'rining yelkasidan tishlab, bo'shatmay turib-turib, keyin qo'yib yuboradi. Ikkovi shu bilan ajrashadi, talashmaydi. Keyin Ko'kyol yana o'ynasha boshlaydi.

Havo kundan kunga isiy boshladi. Bir necha bor kun charaqlab ochilib, har joy-har joyning qori erib, o'ydim-chuqur qora yerlar ko'rina boshladi.

Iliq kun kishining uyqusini keltiradi, ovqatdan keyin sholshol qilib kishini bo'shashtiradi, badanni jimirlatadi. Oq bo'ri ham o'yinqaroq bo'la bordi. O'zi kelib Ko'kyolni hidlab yalaydigan, qayta-qayta osila beradigan bo'ldi. G'ingshib, tishlab-tishlab ham

oladi. Kuyikdi... Ikkovi qalin qaragʻan orasida yumalashib ham olishdi.

Havo yurishib, yoz kirgan chogʻda ikki boʻridan Qoraadir xalqi sal tinchigandek boʻldi.

Qoraadir sirtida, odam bolasi yashamaydigan joyda ikki ulkan, suvi shoʻr koʻl boʻlib, ularning oraligʻidagi qalin chiy ichida eski in bor. Koʻkyol bilan oq boʻri shu joyni makon qilishdi. Yaqin yerda qamish, undan narida koʻl. Xavf-xatarsiz. Odam koʻzidan ovloqroq. Bu yerga oq boʻri boshlab keldi.

Yoz chogʻida Koʻkyol boshqa tomondagi ovullarni aylandi. Oq boʻri esa in atrofida qolib, qamish oralab, qushlarning tuxumini yeb yurdi.

Bir kuni Koʻkyol inga qaytib kelib, nuqul quyruq qusdi. Ilgarilari oq boʻri chiqib, uni qarshi olardi. Unday qilmadi. Koʻkyol in ogʻzini tatalab chang-toʻzon koʻtargandan keyingina oq boʻri zoʻrgʻa chiqdi.

In ichidan chiqayotgan yot hidni sezgan Koʻkyol boshi bilan gavdasini suqib, irillab borib kichkina, koʻrimsizgina kuchukchani tishlab, sudrab chiqdi. Oq boʻri beholgina irillab, unga tashlandi. Ammo qarshilik koʻrsata olmadi. Koʻkyol shunda ham toʻxtamay koʻk boʻrivachchani yerga piypab urib, qovurgʻalarini kirt-kirt sindirib, oʻldirib tashladi. Koʻkyol oq boʻriga qaradi. Oq boʻri bu payt, Koʻkyol bilan inning oʻrtasida yotar, mayda-mayda boʻrivachchalar unga tomon oʻrmlab kelishar, tumshuqlarini onalari-ning yeliniga botirishar edi. Koʻkyol qovogʻini solib yalandi-da, bir chetga borib yotdi.

Oq boʻri u bilan ovga chiqadigan boʻldi, koʻp uzoqqa bormaydi-ku, har holda, unga ergashadigan boʻldi.

Bir kuni ikkovi bir qoʻzini yeb kelishayotgan edi, inlarining ustida juda koʻp yov turganini koʻrib qolishdi. Qamish orasiga yashirinishdi. Yiroqlashgandan keyin kelib qarashsa, faqat bittagina boʻrivachcha qolibdi. U ham buralib oʻrmidan tura olmaydi, keyingi oyoqlarini bosa olmaydi. Oq boʻri uni tishlab olib kelib, qamish ichiga yashirdi. Ikkovi qaytadan Qoraadir tomonga qarab ketishdi. Poygalashib, dam bittasi, dam ikkinchisi oʻzib yetib kelib, daladagi surukka chopdi. Kechasi qulun yedi, toy yedi.

Beto'xtov eski izlari bilan yelib, o'sha ilgarigi ovullarni qonqashatdi. Ikki bo'ri burungidan ham battarroq quturdi...

Oq bo'ri o'ynamas, g'ingshiyverar, ovqat yegani bilan semirmas edi. Ba'zan yolg'iz o'zi sanqib ketadi. Ko'kyol orqasidan qidirib yurib, bazo'r topadi. Goho Ko'kyol tez yurib ketganida u yurmay, to'xtab qoladi. Ko'kyol qayta aylanib keladi.

Goho bir-ikki kunlab och qolishadi ham.

Biroq Qoraadirdagi xalq ikki bo'rini unutgani yo'q. Biror gap bo'lsa shu ikkovidan ko'rishadi. Endi yer qurigan paytda shamol-day uchqur ayg'irlar qayta minildi.

Bir safar zo'r quvdi-quvdi bo'ldi.

Uch otliq ikki bo'rini to'bilg'i butazoridan chiqarib olib, izma-iz tiriqtirib quvishdi. Ikkovi ikki yoqqa qochdi. Oq bo'rining yelini obdan qotmagan edi. Quvib kelayotganlarning bari birdan unga yopirilishdi.

Ko'kyol, noiloj, yo'llarini to'sib chiqib, uch otliqning oldiga o'zi tushdi. Oq bo'ri bilan yonma yon Qoraadirda tomon qochdi.

Otliqlar ularni o'z erkiga qo'ymay yonlatib quvib, tog'ga chiqarmadi, qayirib oldi. Oq bo'ri pastga qarab qochdi. Ko'kyol bo'lsa tog'ga qarab qocha berdi. Uni bitta otliq quvdi, ikkita otliq esa oq bo'rining ketidan ketdi. Ko'kyol beixtiyor oq bo'ridan ajradi, orqasidan dupur-dupur quvib kelayotgan kuchli tuyoqlar uni oq bo'riga qo'shmadi. Shundan keyin u adir ichiga kirib, bir-ikki qir oshganidan keyin quvuvchilarni adashtirib, qutulib ketdi. Biroq sherigi yo'qoldi.

O'sha quvdi-quvdi bo'lgan kuni kechasi bilan Ko'kyol oq bo'rining iziga tushib, yo'rtib qidirdi. Bir tepaning tagiga yetib kelganida hid ham, iz ham yo'qoldi. Sherigining hidi yo'q. Uning o'rniga ot, odam hidi anqidi. Oqib, uyib qolgan qon ko'rindi. Hidlab, yalab, mazasini tatib ham ko'rdi.

Tun bo'yi ulidi. Tong otgunga qadar yer tatalab chang-to'zon ko'tardi, g'ingshidi, ag'anadi. Oydinda u yoqqa-bu yoqqa sanqib yurdi. Endi uning qoshida faqat ko'lankasigina qolgan edi.

Yana o'zi yolg'iz yo'rta boshladi...

VI

Yoz bo'yi yakka o'zi tirikchilik qildi. Sho'r suvli ko'lning chap qirg'og'iga joylashgan besh-olti ovul Ko'kyoldan yana jabr torta boshladi. U kunduzlari kelib, ko'l bo'yidagi qamish ichida yotadi.

Kechalari esa bir ovulning qiy-chuvini ikkinchi ovulning shovqin-suroniga ulab to's-to'polonlarini chiqaradi. Yoz bo'yi yegan qo'zi, buzoqlarining soni ellik-oltmishga yetdi.

Ikki marta quvg'inga uchradi. Biroq har ikkalasida ham ko'l o'rtasiga suzib borib, suvga yotib oldi. Sayoz suvli, atrofi botqoq, qalin qamishzor, sho'r suvli ko'l unga katta qo'rg'on bo'ldi.

Ko'kyol, ayniqsa, shamolli zulmat kechalari yog'in yoqqan kezlarda qattiq quturadi.

Tun ichida ovuldagi qo'raga chopganida kuzatuvchining hay-hayi, itlarning vovillashi — bari unga kor qilmaydi. Ahyon-ahyonda tun ichida yarq etib, qarsillab miltiq ham otiladi. Ko'kyol uning ovozidangina biroz seskanadi. Sal uzoqroqqa ketadi-da, odamlar tinchlanay deganda yana yetib kelib, qo'raga chopadi.

Yoshligida ikki marta ovqatlanib o'rgangan Ko'kyol ovulga yaqinroq kelganida ochiqqanidan ko'zi tinib, yiqilib qolay-yiqilib qolay deydi. Shu sababli ovulga yaqinlashuvi bilanoq sekin yuradi. Qo'raga xuddi o't tushganday yoki yer titraganday qo'ylarni gur-gur quvib, yorib o'tganida og'ziga kamida bir-ikki osham dumba ilinmay qolmaydi.

Ko'kyol bu yozda nihoyatda semirdi. Allaqachon tullagan, taqir, junlari xuddi yilqiniig qirqilgan yoliday, g'ayratli, qattiq edi. Badanining to'lishgani, bo'ynining balandligi, zo'rliги — ayniqsa, bu yil boshqacha.

Kuz faslining qorong'i, dovulli tunlaridan birida, tong paytida, Ko'kyol yilqiga chopdi. Bir qisir biyaning semiz asov toyini tiraqaylatib quvib yetib, quyrug'idan tishlab turib qolganida, toy qimirlay olmadi. Biroz tortib turib, qo'yib yuborganida toy zarb bilan o'mbaloq oshib tushdi. Ko'kyol esa jadal kelib, tomog'idan oldi. Toy qo'zg'alolmay, Ko'kyolning ostida jon berdi.

Yana bo'ronli, qorli qish keldi. Sovuq izg'irin, kimsasiz uzoq dalalarda ochlik tunlari boshlandi. Ko'kyol achchiq ustida yer tata-

lab, qor bo'ralatib ko'p ulidi. Bir vaqt, oydin g'ira-shirada bir gala bo'rini ko'rdi. Ular qator tizilib, qor changitib yetib kelib qolishdi. Ularning tillari salanglab, og'izlari katta ochilgan, harsillashar edi. Ko'kyol ularga qarab yurdi. Katta galaning oldida kelayotgan bir dumi cho'ltoq zo'r bo'ri uning oldidan vov etib o'tdi. Ko'kyol ham achchig'langanidan tumshug'ini irjaytirib, tishlarini qisirlatdi. Ikkovi qayta yuzlashganlarida bir-biriga intilmay, faqat yaqin kelib irillabgina turib qolishdi.

Keyincha yetib kelgan urg'ochi bo'rilar Ko'kyolni o'rab olib hidlab chiqishdi. Bir ulkan oq bo'ri kelib, uning jag'ini yaladi, u ham yaladi. Boshqalari bilan hid olishdi. Faqat kattakon ko'k, cho'ltoq erkak bo'rigina unday qilmadi. Bari ag'anab-ag'anab, qorni qopib-qopib oldi. Ko'kyol ham shunday qildi. U qo'shilgan gala hali yaqinda yaylovdagi yilqidan bir'toyni yeb kelayotgan ekan.

Ko'kyol ularga qo'shilib, adirga qarab jo'nadi. Bu galadagilarning soni o'ntacha edi. Boshliqlari ko'k cho'ltoq bo'ri ekan. Qolganlari urg'ochi bo'rilar bo'lib, uch-to'rttasi bo'rivachcha kuchuklardan iborat ekan. Ularning ichida erkaklari ham bor. Biroq ular, ko'k cho'ltoq bilan Ko'kyoldan hayiqishadi, ko'p o'ynashadi, katta bo'rilar bilan irillashmaydi ham, talashmaydi ham.

Ko'kyolga urg'ochi bo'rilar ko'p tegajog'lik qilishadi. Galada Ko'kyoldan durkunroq bo'ri yo'q edi. Bo'y va gavdada u bilan faqat ko'k cho'ltoqqina tenglasha olardi. Uning bo'yni Ko'kyolnikidan ham yo'g'onroq, faqat yag'rinigina unikiga o'xshamaydi: tik emas, sal yalpoqroq. Yugurishga kelganda shamoldan ham tez, ammo uzoq yugurishda Ko'kyolga tenglasholmaydi.

Bu quturgan, ochofat bo'rilar galasiga hech narsa qarshi tura olmadi.

Ular bo'ronli kunda oqib kelayotgan bir qo'ra qo'ylarga o'zlarini urib, bo'lib-bo'lib olib ketib, anchasini yaralab, yeb-qirib chiqdilar. Ko'kyol qo'shilgandan beri bo'rilar galasining birinchi bor chopuvi shu edi. Ovqat mo'l-ko'l bo'lganidan har qaysinisi bittadan qo'yni yakka-yakka bo'lib olib, talashmay-irillashmay yeyishdi.

Bo'rilar qor yalab, ag'anab-ag'anab, yana birgalikda ilgariga qarab chopganicha ketishdi. Qo'ylar ketidan odamlar yetib kelib,

ajratib olganlarida ko'p qo'y nobud bo'lgan, yana anchasi yaralangan edi. Har yer-har yerda yeb ketilgan qo'y qoldiqlari — kalla, tuyoq, juni sochilib yotar edi.

Bo'ri to'pi yilqiga ham chopdi. Biroq bitta-yarimta toyning o'mrovini o'yib, jag'ini sindirgani bo'lmasa, birorta otni ham yiqitib bemalol yeb keta olmadi. Yilqichilar ko'plashib quvib bo'rilarni yo'latmadi.

Bo'rilar bir kun och qolishdi. Dalada, sariq tepaning ustida ulishdi-da, kun botish tomonda qorayib ko'ringan ovulga qarab yo'l olishdi.

Och bo'rilar galasi yotar paytda ovulga qaytayotgan ikki-uch otga hujum qilishdi. Otning ikkitasi yetkazmay ovulga qarab qochdi, bittasini Ko'kyol qori qalin joyga tomon burib qamab, hadis bilan yiqitdi. Bu kichikroq g'unan edi.

Bo'rilar uni o'rab olib birdan yopirilishdi. Allaqachon qorni yorilgan g'unanning bug'i osmonga chiqar edi. Bo'rilar g'unanni kezak-kezak bilan bosh-ko'zlarini qonga belab, yelka yollari hurpayib, jon-jahdlari bilan yer edilar.

Ko'kyol, eski odatini qilib, o'ljaning ichiga tumshug'ini tiqib, yulib yeyayotganida, bir narsa irillab, uning yelkasidan tappa tishladi. Galada bu o'rin ko'k cho'ltoqniki edi. Ko'kyol o'ljadan boshini sug'ura solib ko'k cho'ltoqni osilib turgan oyog'idan tishlab, ustidan otib tashladi. Ikkovi ham o'ljadan biroz uzoqlashib irillab turishdi-da, yana go'shtga intilishdi.

Talasha-talasha yeb olishdi. Keyingi bir son qolganda, bo'rivachchalar bilan urg'ochi bo'rilar chetga chiqib, ko'k cho'ltoq bilan Ko'kyolgina g'ajishda davom etdilar.

O'zgalari ular yeb bo'lguncha qorda ag'anab-ag'anab olishdi. Bir nechtasi to'shini yerga berib kutib yotdi.

Ular o'lja tamom bo'lgach, yana adirga qarab izg'ishdi. Oldinda ikki yo'l boshchi biriga-biri yo'l bermaydi. Biri-birining oldiga tushgunday bo'lsa, tirsaklaridan tishlashib, irillashib qolishadi. Qoziq tishining bittasi singan ko'k cho'ltoq alamzada edi. Irillab g'azablana beradi.

Ular ikki kun och yurishdi.

Yilqi burungi joyida yo‘q. Bo‘ron bo‘libdi, qalin qor yog‘ib, izlar bosilib ketibdi. Gala kimsasiz bir jarlikni yoqalab kelayotganda bir quyon inidan chiqib qochdi. Bo‘rilar jarning ikki tomoniga bo‘linib, quvlab ketishdi. Birozdan keyin quyon jarning Ko‘kyol ketayotgan tomonidan dalaga chiqib olib, adir yoqqa qarab qochdi. Ko‘kyol quyonga yaqinlashib qolganda, ko‘k cho‘ltoq, yo‘lni tikka kesib, quyonni jar bo‘yiga qisib keldi-da, to‘g‘ri Ko‘kyolning oldiga tushdi. Boshqa bo‘rilar chuvab, keyinda qolib ketishdi. Ikki bo‘ri adirga kirdi. Bir necha tepadan oshib o‘tdilar. Ko‘kyol keyinroq yetib kelsa, ko‘k cho‘ltoq bir chuqurlikda quyonni piypalab yotgan ekan. Ko‘kyol kela quyonga yopishdi. Ikkovi yulqilashib tortishganda, quyonning boshi bilan gavdasi ko‘k cho‘ltoqning og‘zida qoldi. Ko‘kyol og‘zidagini yamlab yutib, yana yopishdi.

Ko‘k cho‘ltoq quyonning boshini tashladi-da, Ko‘kyolning oyog‘idan tappa oldi, Chuqurlikda qor tepkilashib, oyoq ostlarining to‘zonini chiqarib yuborishdi. Sapchib kelib irillashadi, tishlari bir-biriga shaq-shuq tegib, g‘arch-g‘urch chaynashadi. Sapchigan bo‘yi tikka olishib turganda Ko‘kyol raqibining boshini burib yuborib, ko‘k cho‘ltoqni quloq-chakkasidan oldi. Bu uning yoshligida ovul itlaridan o‘rgangan hadisi edi. U qattiq tishlab, yulqib, burab yuborganda, ko‘k cho‘ltoq mayishib borib, ostiga gup etib tushdi. Ko‘kyol ustidan bosib, og‘zini quloq-chakkasi aralash tashlab kelib, halqumidan gippa bo‘g‘di. Bo‘yin suyagini kirt-kirt chaynadi. Ko‘k cho‘ltoqning og‘zi karnayday ochilib, darmoni qurib, tipirlashga ham holi kelmay qoldi.

Bu payt keyindan chopqillashib yetib kelgan bo‘rilar ko‘k cho‘ltoqqa og‘iz urishdi. Sirqib oqayotgan qizil qonning hidi och qorinlarni mast qilib, tomoqni qitiqlar edi. Chovidan, qo‘ltig‘idan, yalang‘och to‘shidan, baquvvat o‘tkir tishlar yulqib-yulqib tortganda, ko‘k cho‘ltoqning qoni tirqirab oqib, ichidan bug‘i burqirab chiqdi. Barcha og‘izlar birvarakayiga yopishgan edi. Dam o‘tmay ko‘k cho‘ltoqdan yon-yoqqa sochilgan junu, to‘rtta tovongina qoldi.

Endi bo‘rilar galasining bitta-yu bitta yo‘lboshchisi Ko‘kyol bo‘lib qoldi. Ular izlab yurib otardagi yilqini topib oldi. Yana o‘sha to‘qqiz bo‘ri haqida duv-duv gap tarqaldi.

Yilqichilar kunduz kunlari yilqilarni qanchalik ehtiyot qilishsa ham baribir bitta-yarimta toy-g'unan yirtqichlarga yem bo'lar edi.

Ko'kyol ketidan ergashgan gala och qolgani yo'q. Hammasi semirib, quturib, miqti, chopqir bo'lib oldi. Hammasi ham Ko'kyol-day yurakli. U nima qilsa, bular ham shuni qiladi. Ora-chora yilqini qo'yib, yaqin o'rtadagi ovullarga ovga borishadi. To'qqiztasi oralagan joy sel bosganday, yov tekkanday bo'lib qoladi. Ot, sigir kabi yirik mollar butunlay yo'q bo'lib ketadigan bo'ldi.

Bir safar bo'rilar galasi karvon yo'liga ham chiqishdi. Kechadan beri ovqat yemay ochiqqan edilar. Yolg'iz otliq chanada ketayotgan yo'lovchini to'sishdi. Bo'rilar atrofdan qor sochishadi, ba'zan oldiga, ikkinchi galasi orqa tomoniga yotib oladi. Ular qochmas, borgan sayin yaqinlashar edi.

Es-hushini yo'qotgan yo'lovchi oti yura olmay qolgandan keyin sarosimaga tushib dod-voy qilib qocha boshladi. Bo'rilar otni yiqitib, talab-tortishib yeya boshlashdi. Ular shu ish bilan o'ralashib yotganida, Ko'kyol yoniga bir-ikki urg'ochi bo'rini olib, qor bo'ratib, yo'lovchining izidan tushdi. Yo'lovchi bo'rilar yaqinlashganida qo'rqib yiqildi. Biroq oldidan otliqlar baqirishib, tasir-tusir ot choptirib chiqib, haligi kishini ajratib olishdi.

Bu Ko'kyolga alam qildi. Hukmiga ko'nmagan bo'ri bolalarini, yugurganda keyinda qolib ketadigan urg'ochi qari bo'rilarni yumdalab taladi ham.

Yana bir safar bo'rilar atrofini qalin chiy o'rab olgan besh-olti uylik ovulning ustidan chiqib qoldi. Kunduz kuni, havo ayozli edi.

Chetki uydagilar bularni ko'rib qolishdi. Bo'rilar qorda ag'ana-shayotganda ovuldan bir tuya chiqdi. Ustida boshiga oq yopingan odam bor edi. U to'g'ri bo'rilarga qarab kelaverdi.

Bu otliq emas, undan qochmasa ham bo'lardi. Biroq tuya yaqinlashib kelganda bo'rilarining bari o'rinlaridan turib, dalaga qarab yo'rg'alab qolishdi. Ko'kyol gala ketidan asta qo'zg'aldi-da, ketiga qaray-qaray jo'nay boshladi. Tuya goho baqirib qo'yadi-da, yolini hilpillatib lo'killaydi. Bo'rilar kimsasiz yalanglikka qarab qochib qoldi. Ularning ketidan Ko'kyol ham chopib borar edi.

Tuya burilsa kerak, deb qarab qo'yishadi. Burilmaydi. Ko'kyolning qorni och edi. Nafsi g'alayon qila boshladi. Ba'zan yo'r-

tibroq borib, oldingilarga yetib oladi-da, ularni to'xtatib, o'zi uzala tushib, tuyaga qarab yotadi. Tuya yaqinlashganda bo'rilar tisarila boshlaydi, Ko'kyol ham ularning orqasidan ergashadi.

Axiri ular ovuldan ancha nari ketib qolishdi. O'zga bo'rilar oldinga o'tkazib, Ko'kyol bir kichik bo'ri bilan ulardan ajraldi-da, o'ng tomondagi chuqurlikka tomon yo'l oldi. Odam tuyasini qis-tab, gala bilan ikki bo'rining o'rtasiga kira boshladi. Tuya hamon bo'zlaydi. Uning hidi, mazasi Ko'kyolning og'zidan suvini kel-tiradi. U tuyaning orqasiga o'tib oldi. Ammo hali hozircha yaqin-lashganicha yo'q. Tuya endi yurishini sekinlatdi. Ba'zan to'xtab oldi-ortiga qaraydi. Oq yopingan odam u yoq-bu yoqqa o'giriladi.

Tuya to'xtaganda Ko'kyol ham to'xtaydi. Turgan yerida qor to'zg'itib talpinadi. Bir vaqt u qadamini tezlatib, tuyaga yaqinlab kelib, yonidan aylanib o'ta boshlagan ham edi-ki, tuya ustida bir narsa shunday oldinga cho'zildi-yu qars etdi. O'ta qattiq ovoz da-lani yangratib, hammani cho'chitib yubordi. Bo'rilar ham bari qor to'zg'itib ura qochdi.

Ko'kyol ham to'xtamay qochdi. Bir necha qir, bir-ikki chuqur-likdan uchib chopib o'tdi. O'zga bo'rilar alohida, u alohida ketdi.

Tuya keyinda qoldi. Ko'kyol yugura-yugura kelib, toshloq soyga kira berganida orqa oyog'i sirg'anib yiqilib tushdi. Yo'l bo'yi to'xtovsiz qon oqqanidan holsizlanib qoldi. Yarasining og'ri-yotganini hali to'xtash oldidagina sezdi.

U g'ingshib yotib, qonini yalaydi. Yana qon oqadi. Bir turadi, bir yotadi. Turganida ham bir oyog'ini ko'tarib turadi. Yurganida esa uch oyoqlab oqsoqlaydi.

Oradan bir necha kun o'tdi. Bu vaqt ichida u soy ichidan chiqqan yo'q. Ochlikdan g'ujanak bo'lishga aylandi. Lekin oyo-g'i biroz bosishga kelib qolgan edi, u bir-ikki qirdan oshdi. Bir soyda uch-to'rtta ot yoyilib yurgan ekan. Biqinib yoniga keldi. Chetroqda oriqroq chavkar ot turgan ekan. Shuni qopib, ajratib haydab, chuqurga olib kelib qamadi. Pishqirib, qo'rqib turgan otni halqumidan olib bo'g'izladi. Sonini yuldi, o'mrovini o'ydi. Chuqur qordan chiqarmay yiqitib oldi. Miriqib yeb, keyin o'z ma-koniga qaytdi. Kunduzi kech bo'lishini kutadi. Qorong'i tushishi hamon borib, o'ljadan qolgan-qutganini yeydi.

Shunday qilib, besh-olti kunni o'tkazdi. Yana yelkasi do'ppayib kuchga kirdi. Oyog'i ham obdan bosishga keldi.

Yoli hurpaygan g'azabnok Ko'kyol yana ovga chiqdi. O'zining sarqiti tamom bo'lganiga ikki kun bo'ldi. Shundan beri och. Yo'rtib-yo'rtib haligi Qoraadir ustidan chiqdi.

Tushga yaqin payt edi. Tepa-tepadan turib ko'z yugurtirdi. Shamolga tumshug'ini tutib hidlab-hidlab ko'rdi. Yiroqdan kelgan tanish hid dimog'iga urildi. Atrofga yalt-yalt qarab, qirdan qirga, adirdan-adirga chopib o'tib, kun botishga qarab ketdi.

Ko'p qidirdi. Nihoyat kechki payt bir tepaning boshida turgan otliq cho'ponni ko'rdi. Uning atrofida o'sha tepaning ustida sochilgan sochuvday qo'ylar yoyilib yurardi. Biroq ovul yaqin joyda. Shunday bo'lsa ham u yiroqdan ehtiyot bo'lib yaqinlasha boshladi. Qorasini ko'rib qolgan cho'pon baqirib, unga qarshi chopdi.

Cho'pon katta kishi emas, tovushi yosh bolanikiga o'xshaydi, cho'chimadi, qo'ylar hurkib cho'ponga qarab qochdi. Ko'kyol bir qizil qo'yga yaqinlashib og'iz solishga chog'langanida halitdan beri baqirayotgan cho'pon yoniga kelib qolibdi. Bo'ri noiloj bir tomonga sapchib burila bergan edi, cho'pon ketidan izma-iz quva boshladi.

Albatta Ko'kyol qo'rqqanidan tiraqaylab qochgani yo'q. Shungami, yoki aslida o'zi chopqirmi, bo'z ot ustiga bostirib kelib oldi. Ko'kyolning orqasiga yengilgina kaltak shaq etib tushdi.

Shu bo'ldi-yu, Ko'kyol keyiniga burilib, "hap" etib otliqqa sapchidi. Karnayday ochilgan og'ziga bir nima tushdi. Ha, bola to'ning bari ilingan ekan, shuni yirtib-yulib tushganida, bo'z ot pishqirib sapchib ketdi. Bola cho'chib baqirdi, orqasiga qayrilib tashlanganida munkib ketgan bo'z otdan yerga ag'darilib tushdi. Bu payt Ko'kyolda ilgari hech qachon ko'rilmagan bir g'azab, o'ch jo'sh urar edi. Tug'ilganidan beri ko'rgan butun azoblari shu ikki oyoqlidan ekanini bilganday yumalab yotgan bolaga qarab yugurdi. Qo'qqisdan sapchiganida sonidagi yarasi ochilib, jiz etib achishgan edi. Shu ilgarigidan ham battarroq g'azabini keltirib, quturtirib yuborganday bo'ldi. Bo'z ot qochib, uzoqqa ketib qoldi. Qo'y ham yo'q, Ko'kyol sapchib irillab kelib, bolani tagiga bosdi.

Bu bola Qur mash edi. Cho'pon og'rib qolgan uchun dadasi uni qo'ylariga qarashga chiqargan, ostiga mingani o'zining yugurik bo'z do'nani edi. Bo'ri irillab ustiga minib olganida ko'zini bir ochib-bir yumdi. Qur mash uni taniganday bo'ldi: o'ziga tomon o'raday ochilib kelayotgan og'zidan yuqoriroqda o'ziga tanish quloq ko'rindi; tilik quloqning yarmi shalvirab turibdi. Bolaning oxirgi bor sezgan-bilgani faqat shu bo'ldi...

Keyin bolaning uni o'chdi. Bo'ringning og'zi tegmasdanoq jon berdi. Ko'kyol irillab boshini siltab yuborganida, bolaning bir ko'zini o'yib o'ynatib yuborgan edi...

Bolaning o'ligini kechasi topib olishdi. Uning atrofida toy tuyog'iday katta-katta bo'ri izi tushib qolgan edi.

VII

Qur mashning janozasiga to'plangan Qoraadir xalqi Ko'kyol to'g'risida necha xil hangomalar aytishdi. Ko'pchilik uni chiya-bo'ri bo'lsa kerak, deb taxmin qilishdi. Ba'zilar quturgan bo'ri emasmikan, deb o'z gumonlarini aytishdi. Biroq quturgan de-yishga o'rin yo'q. Agar quturgan bo'lsa, bitta bola bilan to'xtamas, ovulga ham chopar edi. Qo'ylarni ham quvalar edi. Shu yig'inda qanday qilib bo'lsa ham uning iziga tushib urib olishga, o'ldirishga ahd qilishdi. Bu gap, asosan, Hasandan chiqdi. U atoqli ovchi. Azaldan qush solib, it yugurtib yurgan. O'zi shu atrofdagi baquv-vat yigitlardan. Shaharda bir inisi xizmatchi. Shu inisi orqali bu yil kuzda uzoq yurtdan bir bo'ribosar it oldirgandi. Hozir butun Qoraadirga, yaqin atrofdagi o'zga yurtlarga ham dong'i ketgan Oqqashqa shu Hasanning iti.

Oqqashqa kelishi bilanoq kuz paytida bitta bo'ri bolasi, bitta ulkan bo'ri tutgan. O'zi ikki yoshga kirib, hozirgacha olti bo'ri olibdi.

Oz vaqt ichida butun bir bo'lis xalqi og'zida doston bo'lgan Oqqashqaning asl nasabini tekshiruvchilar ham ko'p edi. Tagi ereyman iti naslidan deb turib, bobo kalonini qadimiylashtirish uchun: "Bu qanjig'ali chol Bo'gamboy itining tuxumi", deydiganlar ham bo'ldi.

Yig'indagilar Ko'kyolni qidirish to'g'risida bir qarorga kelishgach, janozadan tarqala boshlashdi. Hasan o'z ovuliga kelgach, besh-olti yigitni yoniga oldi-da, Oqqashqani ergashtirib, adirga chiqdi.

Peshin mahali edi. Shu sababli harna vaqt o'tmasin, deyishdi. Hech bo'lmasa izini, turqini aniqlashmoqchi bo'lishdi. Buning ustiga yaqinda qor yoqqan, yana qor yog'ib qolmasdan oldin izidan, yuzidan Ko'kyolni tanib qo'yishmoqchi bo'lishdi.

Hasan Qurmashning otasi bilan yaqin qarindosh edi. Yolg'iz farzandi — Qurmashning halokati dadasiga qattiq tekkan edi.

Uning uy ichi ba'zan bo'taday bo'zlab, yo'qlab ingranib yig'laganini ko'rgan tirik jon borki, barining yurak-bag'ri ezilib ketdi.

Qurmashning dadasi Hasanga:

— Shu yolg'izimizni o'ldirgan bo'rini qo'limga olib kelib berib, ko'zini o'ydirmasang, sen menga qarindosh emassan, — dedi.

Boshqalar ham Hasanga: "Bugun Oqqashqa yo o'lsin, yoki o'ldirsin! Itingning bitta-yu bitta hojati shu!" deyishdi. Bu so'zlar Hasanga tinchlik bermay qo'ydi.

Qurmashning ovuli bilan Hasanning ovuli yaqin. Shuning uchun ham ovchilar ko'p vaqt o'tmasdanoq Qurmashning o'ligi topilgan joyga yetib borishdi.

Oppoq qorning ustida bodrayib kattakon iz yotibdi. Iz odam yashamaydigan Toshquduq tomonga qarab ketibdi. Ovchilar izga tikilib turib, bo'rining buncha kattaligiga hayron qolishdi.

Oqqashqa avvalgi erinchoqlik odati bo'yicha izga yetguncha o'zini keyinga tashlab, bir-bir bosib kelgan edi. Izni ko'rib biroz hidlab olgach, boshini osiltirgancha tumshug'ini izdan olmay yalang'och adirga qarab chopdi.

Ovchilar unga ergashib, otlarini yeldirib-yo'rttirishadi. Oqqashqa to'xtamas, orqasiga ham qaramas, beto'xtov yo'rtar edi. Hali qor qotmagan. Qalin ham emas. Qish o'rtasi bo'lsa-da, bu yil qor yupqaroq edi.

Ovchilarning ta'biri bilan aytganda ayni bo'ri bilan tulki orqasidan it qo'yadigan payt edi.

Oqqashqa Hasanning qo'liga kelgandan beri faqat uchta bo'ri oldi. Bularning ikkitasini kuzda yer qorayganda, uchinchisini qor

tushganda ovul ustida olgan. Hasan o'zining bir-ikki yigiti, yana boshqa ov qilishni sevadigan to'rt-beshta tengdoshlari bilan yaqin-ga qadar ot sovutib yurgan edi.

Uzoq yerdan yugurib kelganiga eti ko'pchib ketgan Oqqash-qani qishda yugurganda harsillab qolmasin, deb sovutib, tobiga keltirib yurgan edi. Ilgariroq Oqqashqani biroz quyonga choptirib, ikki-uch sovutgan ham. Keyingi vaqtda ko'pincha unga qurtava qo'shilgan suyuqroq osh berar edi. Ikki marta tullagan ham. Shun-dan beri qisqa juni yetilib, yaltillab, paxmoq bo'lib o'sgan.

Faqat bugun ertalab unga ozgina osh berishgan edi. Shuning to'qi bormikan, degan xavfi bor.

Undan boshqa Oqqashqaning yelkasi do'ppayib, mushaklari sirtiga tepib, badanidagi jiru, ichidagi chuvalchaglardan xalos bo'lgan payti edi.

Oqqashqaning bo'yi bo'rinikidan past emas. Oyoqlarining yo'g'onligi ham undan kam emas. Uning turqida bo'riga o'x-shabroq ketadigan tomoni bor. Tusi tozilarga o'xshamaydi, bo'ri-larga o'xshaydi. Tanasining juni oq-sariq, manglayi keng — Oqqashqa edi. Ikki ko'zi kosasidan chiqib ketadiganday chaqna-b turadi. Xuddi o't sachraydiganday qip-qizil. G'azabli ham, dov-yurak ham. Ikki lunji xuddi "meshday" deb gap qilishadiyam. Uning orqasi kamalakday. Quyrug'idan yelka umurtqasiga qadar do'ngga o'xshab do'ppayib turadi. Yana chakkasi bilan bo'yni tu-tash bo'lib, o'mroviga qo'shilib ketgan oldingi jag'iga qarasangiz arslon kelbatli.

Oqqashqa o'ta qopog'on. Sirkasi suv ko'tarmaydi. Shu sababli ovulda doim zanjirband. Dalaga olib chiqib, ovning iziga solgun-cha yoki ovning qorasi ko'ringuncha arqondan bo'shatilmaydi. Bo'lmasa, yo'lda duch kelgan it bilan talasha beradi.

Itlar ro'para kelganda, uning odati shunday: o'zi borib talash-maydi. Biroq ovulning ko'p iti oldidan chiqib vovillashgan-cha at-rofini o'rab olguday bo'lsa yoki birortasi yulib qochsa, tishi tegsa, quturib ketadi. Bunday paytda galadagi eng ulkan itga sapchib, quloq-chakkasidan oladi-yu, gup etkazib yiqitib, ezg'ilab-piypalab tashlaydi, odam ajratmasa, tagiga tushgan itni o'ldirmay qo'ymay-

di. O'zi yurgan joyda o'zga itning erkaligini ko'tarmaydi. Kuzdan beri Hasanning ovulidan ikki-uch ko'ppakni o'ldirdi.

Qattiq achchig'lanib, o'zini yo'qotib qo'yganida egasini ham qopadi. Kuzda uy ichida so'yayotgan qo'y go'shtini yedirmay haydaganida, ikki marta Hasanning ham qo'lini tishlagan.

VIII

Kun og'ib qoldi. Oqqashqa hamon iz quvadi. Yerdan boshini ko'tarmaydi, to'xtamaydi. Ovchilar Qoraadirdan besh-olti chaqirim uzoqlashdi. Bo'rining iziga qaraganda u Tongquduqdan ham o'tib, Oqso'rangdagi yilqi uyuriga qarab ketibdi. Oqso'rangda ikki uyur yilqi bor edi. Atrofi past-baland tepa, qalin to'bulg'ili olachipor ulkan to'qay. To'qayning o'rtasidagi yalang'och yolg'iz tepa — Oqso'rangdir. Ular bo'rining shu tomonga ketganini bilganlaridan so'ng ovchilar maslahatlashib, Oqqashqani chaqirib to'xtatishdi-da, bog'lab yetaklab, Oqso'rangdagi qo'rg'onga jo'nashdi. Bugun shu yerda tunab, ertaga ertalab yilqichilarni yugurik otlarga mindirib, ko'payishib quvishmoqchi bo'lishdi.

Ikki qo'rg'onning birida Hasan ovulining va qoraadirliklarning yilqisi turar edi. Yigitlar shu joyga kelib qo'nishib, kechasi bilan hangomalashib chiqishdi. Qozon to'la semiz et mehmonlarning ham, yilqichilarning ham dimog'ini chog' qilgan edi. Qurmashning o'limi anchagacha og'izdan tushmadi.

Hasanlar yetib kelishi bilanoq yilqichilar o'tgan tunda ko'kchinoq yilqiga chopib, bir toychoqni nobud qilib ketganini aytishdi. Yolg'iz o'zi butun boshliq bir semiz toychoqning yarim go'shtini yeb ketibdi. "Bu qanday yalmog'iz, otangning..." — deb uy egasi koyindi.

— U uzoqqa ketgani yo'q. Shu Oqso'rangning atrofidan topiladi.

— Keyingi vaqtda bo'ridan tinchib qolgan edik. Kechadan beri bir bo'ri kelib aylanishib qoldi. Izi toyning iziday. Ilgariroq ham kelib, bir toyni yeb ketgan edi.

— Izlaganlaringning xuddi o'zi. Indamasa, qo'rg'onga ham chopadigan. Ha, kopir, yakkamaxov! Barini qilib yurgan shu. Qani

endi, bir qo'lga tushsa! — deb toychog'idan ayrilib qolgan Beysenbay yilqichi g'ijindi.

Yotayotganlarida Oqqashqaga biroz qurtava bilan iliqqina yumshoq et berishdi. Odamlar bari atrofida parvona bo'lishib, uni ko'p kutishdi. Biroq tor uyda, notanish odamlar o'rtasida, Oqqashqa o'zini yomon tutadi. Zanjirband bo'lsa-da, o't atrofida o'tirganlarga ba'zan vovillab, tashlanadi. Ko'p vaqtgacha irillab turib oladi.

O'tga boqqanda g'azabnok ko'zlari qontalash bo'lib chatnab ketadi. Qorong'i, g'ira-shirada yotganida ikki ko'zi qip-qizarib shamday yonadi.

Oqqashqa irillaganda yaqinroqda o'tirgan Beysenbayning orqasi muzlab, badani seskanib ketadi. Enkayib, oldinga siljib, o'tga tomon intila beradi.

Tong belgi bera boshlaganida barcha ovchilar-u, ko'pgina yilqichilar otga minishdi. Mast bo'lib yurgan biyalar bilan chopqir ayg'irlar tun o'rtasida ushlanib, qantarib qo'yilgan edi. Hammaning qo'lida so'yil, cho'qmor, qo'rg'ondan shatir-shutur chopib chiqishdi.

Oqso'rangning etagiga yetishganda Hasan o'n ikki kishilik to'pni to'rtga bo'ldi. O'zi Oqqashqani olib, Oqso'rangning tikka tepasiga chiqadigan bo'ldi. Boshqalarni, past-baland do'nglar, qalin to'qayni aylana qurshab, har tomondan Oqso'rang tepaligiga qarab shovqin-suron bilan kela boshlaysizlar, deb yon-yoqqa taratdi.

Qish oftobi uzoqdagi tepadan qizarib chiqa boshlaganida hamma otiqlar chor tarafga tarqashdi. Oppoq qor chopqir tuyoqlar ostida eshilib-uvalar, sachrar edi.

Hasan asta tepaga qarab yurdi. Yo'lda ikki-uch yerda Oqqashqani ag'angatib, sovutib ham oldi. Yarim soatdan so'ng ular tepaning boshiga chiqishdi. Yetay deganida bir chuqurlikka otini qo'yib, o'zi Oqqashqa bilan piyoda ko'tarilib, bir do'ngga o'tirdi. Tevarak-atrof kaftday ko'rinadi. Izg'irin. Kun ancha sovuq. Hasan Oqqashqaning tagiga olib kelgan namatini solib, o'zining yoniga yotqizdi. Oqqashqa ham goho-goho boshini ko'tarib, atrofga qarab-qarab qo'yadi.

Hasan buni o'rgatgan egasiga ichidan minnatdorchilik bildirdi. Hurmat bilan esga oladi. Nega desangiz, Oqqashqa tepada bu

o'tirishdan nima ma'ni chiqishini tushunib turganday edi. Tinchini ko'zlab yotishni o'ylayotgani yo'q, kutayotibdi. Boshidan charm ko'zbog'ichi olingan qironday balanddan alang-jalang qarab turibdi. Yon yoqdan shovqin-suron solib kelayotgan ovchilarning oldiga bir-bir nazar tashlaydi.

Kechagi toychoqni yegan Ko'kyol ekani aniq edi. Kecha yarimtahasini yegan bo'lsa, bugunga o'tar kechasi o'sha joyga borib, qolganini to'yguncha yeb olib, Oqso'rangning etagiga qaytib kelib, ko'zdan ovloqroq qoyani pana tortib, qarag'an bosgan soyda uxlab yotgan edi.

Yiroqdan qulog'iga allaqanday shovqin eshitildi. Kimsasiz sokin tog' tongida har qanday sharpa ham ikki hissa qattiqroq aks-sado berib eshitaladi.

Ko'kyol bag'rini yerga berib yotib qor yedi. Shu chog' butalarning shatir-shuturi, toshloq yerni bosgan ot tuyoqlarining dupuri eshitildi. Ko'kyol o'rnidan turib, bir kerishdi. Nimaningdir hidi dimog'iga urildi. O'ynoqlab do'ngga chiqdi. Chiqib ham ediki, soyning narigi betidan o'zanga tushib kelayotgan ikki kattakon qora hayqirgancha oldinga chopdi.

Ko'kyol chap berib, do'ngning orqasiga o'tdi-da, soy yoqalab, yuqoriga qarab ketdi.

Qo'lida uzun so'yili, ostida qotma oq bedovi bor Beysenbay, uchib do'ngga chiqdi-da, baqirgancha yuqoriga qarab chopdi. Ko'kyol bo'lsa uncha shoshmay, ba'zi joyda chopib, ba'zi joyda qulog'ini shalviratib lo'killabgina Oqso'rangning yon bag'rida ketayotgan edi.

Shovqin-suron yaqinlashib qolganda Oqqashqa o'rnidan sapchib turdi. Hasan Oqqashqaning zanjiridan tutgancha otiga sakrab mindi-da, hayqiriq eshitilayotgan tomonga qarab chopdi. U bir tepaning ustiga chiqib qarasa, ro'parasida bir tosh otim joyda sariq tepaning tik tepasida, qorni to'q tanachaday keladigan bir ko'kchinq bo'ri orqasiga qayrilib qarab turgan ekan.

Yelka yoli hurpaygan, quyrug'i cho'loq, bo'yi esa tepada turganidan tog'day ko'rindi. Ko'kyolning xuddi o'zi. Tepaga chiqqan zahoti Oqqashqa ham sakrab-sapchib oldinga intildi.

Hasan ham asta "hayt!" dedi-yu, ot taqimiga qamchi bosdi.

Ko'kyol orqasiga qarab turgani uchun ularni payqamay qolgan edi.

Bir vaqt oldidan chiqib qolgan tasir-tusurga yalt etib qarab, Oqqashqa bilan otga ko'zi tushib qolib, o'sha tomondagi chuqurlikka o'zini urdi. Bir soydan uchib borib, o'ng tomondagi qirdan oshdi. Pastlikka tushganida otning dupuri eshitilmay qolgan edi. Ko'kyol tushgan soy qirg'og'i tip-tikka jar edi. Biroq shu payt orqada qor g'irch-g'irch bosilganday, bir nima yaqinlashayotganday bo'ldi.

Ko'kyol qochib kelayotganidan orqasiga qaray olmadi. Shu payt bir kuchli og'iz yarali sonidan shappa tishladi-yu, tubanga qarab qattiq yulqib, otib tashladi. Ko'kyol chuqurlikka zarb bilan qulab tushdi.

Oqqashqa yulqiganda yuztuban qulab tushgan Ko'kyol o'rnidan chaqqon turib, itga chovut soldi. Avvallari Oqqashqa bunday qopganida, ayniqsa, yuqoridan tubanga qarab yulqib tashlaganida, har qanday bo'ri ham o'mbaloq oshib tumshug'i bilan borib yerga sanchilar, bunday paytda Oqqashqa uni o'rnidan turg'izmasdan keliboq halqumidan olguvchi edi. Bu safar unday bo'lmadi. Oqqashqa o'zidan oldin turib, hurib kelayotgan Ko'kyolni ko'rdi. U ham intildi. Lekin quloq-chakkasiga qisqichday yopishgan qattiq temir og'iz siltab yuborganida, chuqur tomonga uchib ketdi, yiqilmadi: dik etib tushdi-da, to'rt oyog'ida turib qoldi.

U epchilligi, ustaligi bilangina ko'k chinoqning og'zidan qutulib qoldi. Ko'kyol uni tishlaganida qattiq tishlay olmay, faqat terisidan ola yulqigan edi.

Ko'kyol to'g'ri tepaga qarab ketavermoqchi bo'ldi. Sababi, ketidan yana dupur eshitila boshlagan edi.

Oqqashqa ham undan qolmadi. Yonlab o'tib, ko'ndalangidan sapchib-sakrab, Ko'kyolning quloq chakkasiga yopishdi.

Ko'kyol bu safar ham yiqilmadi. Quturgancha yuqori sapchidi. Oqqashqaning tishlari, tishlagan yeridan bo'shab ketdi. Ikkovi betma-bet kelib, sapchib turib bir-biriga yopishdi. Endi biri-biridan ajrab ketishlarining iloji yo'q edi. Bu holda birovi ikkinchisining ostiga tushishi bilan yakunlanishi muqarrar edi.

Hali badaniga tish tekkani uchun Oqqashqa alamiga chidamay oʻrtanib borayotgan edi. Boʻrilarga koʻp marta duch kelgan-u, biroq bunaqasini koʻrmagan edi. Oqqashqa odatda, boʻyniga tish tekkandan keyingina jon-jahdi bilan yopishadi. Hozir shunday boʻldi. Tirnogʻining uchigacha gʻazab toʻlib ketgan edi.

Koʻkyol ham oʻzining keyinidan qolmagan itga butun hunarini koʻrsata boshlagan, ikkovi ham sapchib turganicha bir-biriga quloq-chakkasidan yo halqumidan olishga yoʻl qoʻymas edi. Oldingi oyoqlari bilan ushlab, payt poylab turganlarida ikkovi ham tezda ish bitmasligini anglagandek boʻldi.

Qoni qiziganda Oqqashqa qarshisida ungurday ochilib turgan ogʻizga shaq etib tishlarini urdi. U boʻrining pastki jagʻi bilan tilini qoʻshib chaynaganda boʻrining yuqori qoziq tishlari Oqqashqaning tumshugʻining ikki yonidan oʻtib, yuqorigi lunjiga gʻarch-gʻarch qadaldi.

Jon achchigʻida tishlar qisir-qisir qiladi, gʻarch-gʻarch chaynashadi, hamon ikkovi sapchishgancha tikka turibdi.

Xuddi shu payt jardan pastga qarab saman ot bilan oq biya tushib kelayotgan edi. Hasan bilan Beysenbay “Ha, Xudo”lab soʻyillarini oʻqtalib, chopib kela boshlashdi.

Oqqashqa yuqoriroqda: chaynashib turgan ogʻizlardan soʻlakay qon aralash betoʻxtov oqadi.

Oqqashqa Hasanning ovozi eshitib oq pastga qarab yulqib yuborganida koʻk chinqning beli buralib, gursillab yerga yiqildi. Ammo ikkovining ham uni chiqmadi. Chaynasha berib yelimday qotib qolganga oʻxshaydi. Ularning ogʻizlari shu qadar ayqashib ketgan ediki, hatto nafas olganlari ham sezilmas edi.

— E Xudo!.. Yo Xudo!.. Yo arvoh!.. — deya ikki otliq oʻzlarini it bilan boʻrining ustiga tashlashdi. Otlar boʻshab ketdi.

— Yopiray! Yopiray! Ogʻzini!.. — deb kelib Hasan yoʻgʻon qamchining sopini Koʻkyolning ogʻziga tiqdi-da, kuch bilan bosib turib, uning tumshugʻini yuqoriga qayirib yubordi. Oqqashqaning qon bosgan tushmugʻidan koʻk chinqning tishlari bitta-bittadan sugʻurilib chiqdi. Shundan keyingina Oqqashqa biqinini tortib nafas oldi. Shunday boʻlsa ham u hamon boʻrining joni chiqquncha

pastki jag'ini kirt-kirt chaynar edi. Bu kez Beysenbay qora pichog'ini Ko'kyolning o'pkasiga tiqib-tiqib oldi.

— Shu... shu it! — deyishdi ular.

Ko'kyolning joni obdan chiqqandan keyin ham Hasan bilan Beysenbay ikkovlashib Oqqashqani undan bazo'r ajratib olishdi. Quyrug'idan burab, ancha joyga sudrab borganlaridan keyingina Oqqashqa esini yig'di. Biroq toza darmoni quriganlikdan, o'sha olib borilgan joyda sulayib yotib qoldi.

Ovchilar bari yig'ilishgach, ko'k chinqoqning yirtiq qulog'iga qarab turib, uning burungi Ko'kyol atalgan kuchuk ekanini tanib qolishdi. Qurmashni eslashib, ba'zi birovlar ko'zlariga yosh ham oldi. Ovulga olib kelishganda Qurmashning buvisi bo'zlab turib:

— Qurib ketkur-ey... bag'riga bosib o'stirganidan boshqa senga nima yomonlik qilib edi mening qulunim?! — deb elni tekis yig'latib, Ko'kyolning boshiga tepdi.

Toshkent 1928-yil, yanvar

KIM AYBDOR?

I

Kun bo'yi butun borliqni qizdirib turgan oftob peshinlikka og'a boshlagan. Jazirama tafti qaytib, kechki shabadaning salqin nafasi ufura boshlagan kez edi.

Tog'ning soyasi ovul ustiga to'nib, tobora quyuqlashib borar, kechki salqin shabada jonga orom bag'ishlardi. Ovuldagi barcha erkag-u ayollar tashqarida — hamma o'z ishi bilan ivirsib yurishardi. Qo'ylar yaylovdan qaytib, qo'tonlarga kiritilganidan so'ng, bolalar qiy-chuv qilishib qo'zilarni onalaridan ayirib ola boshlashdi. Ovul chetidagi tepalikdan yilqi uyurlari kishnashib, quduq boshiga chuvirib kela boshladi. O'choqboshidan ko'tarilgan ko'mko'k tutun erinchoqlik bilan osmonga o'rlardi. Bunday paytlarda ovulda baqiriq-chaqiriqlar avjga minardi. Salqin tushgach, uylaridan chiqqan qo'li bo'sh erkaklar quduq boshiga to'plana boshlaydi, u yerda bir-birlariga yangi qo'nish joylarining sero't, sersuv ekanligini aytishardi.

Quduq atrofiga hamma ovul erkaklari yig'ilsa-da, bugun negadir ovul oqsoqollaridan biri — Ismoil kelmadi. Uning tikkan o'tovi quduqqa eng yaqin joy, boy ovul hisoblanadi. Ovulning otg minari ham, boyi ham o'sha. U quduq atrofida ko'rinmagach, ovul keksalari:

— Bugun Ismoil nega ko'rinmaydi? Yo tobi qochib qoldimikan? Yo biron yoqqa ketdimikan? — deb surishtira boshlashdi.

Ismoil oqsoqolning nima uchun uyidan chiqmaganini faqat qo'shnisi Beysemboygina bilardi. U atrofdagilarga bilganlarini ayta boshladi. Uning gapiga qaraganda, yaqindagina unashtirilgan qizi Aziza: "Sizlar topgan kuyovga tegmayman", degan emish. Qizining bu gapini bugun eshitib, Ismoil uydagilarini koyiyotgan bo'lsa ajab emas. Quduq atrofidagilar Beysemboyning gapini tinglab bo'lib, har qaysisi o'zi eshitgan gapini o'rtaga tashlay

boshlashdi. Ularning ko'pchiligi "zamon ozib, yoshlarning buzila boshlagani"dan nolidilar: "Qizlarning ulg'aygani boshga bitgan balo, deyavering. Ularni tezroq erga berib qutulish kerak!" deyishib, Ismoil oqsoqolga achinishdi, "buzilgan" qizidan nolishdi.

Bu paytda Ismoil oqsoqol xotin bola-chaqasini obdon qovurib so'kib bo'lib, ovul oldidagi tepalikda asabiy o'tirar edi. Kechqurungi g'ira-shira qorong'ilikning yurakni ezuvchi rutubati xuddi Ismoil oqsoqolning dardiga hamdard bo'lganday, bu siz ham xafagarchilikdan og'ir tortgan gavdasini bosib-yanchib turardi. Hozir tosh qotgan yuragini qizining nozi firog'i, yig'i-sig'isi yumshatolmas, battar o'jarligi tutib o'tirar, o'ylab o'yiga yetolmas, xayolida faqat bitta gap aylanar edi:

— Ey tangrim, sendan farzand tilaganimda, boshingga balo yog'dirsin deb tilaganmidim? Tirmoqchalik aqli yo'q bu qizni, ota-bobolarimiz arvohini oyoqosti qildirgani berganmiding, ey, Xudo! Oshna-og'aynilarimning o'rtasida obro'-e'tiborimni bir pul qilmoqchimisan? Agar mening o'ylagan ishim xato bo'lsa, beraver jazoyimni! Chidamagan nomard! Bu aqlsiz qizning qilmishlarini ko'rib kunda o'lgandan ko'ra bir yo'la o'lib qo'ya qolay! — deb, azbaroyi asabi qo'ziganidan tomirlarida qonlari jo'sh urib, yuragi toshga aylandi-qoldi.

Ovuldagilar qo'ylardan qo'zilarni ayirib bo'lgach, boyagi qiy-chuv bosilib, atrof-tevarak sal tinchiganday bo'ldi. Otlar ham suv ichib bo'lgach, hovuridan tushishdi, odamlar ham uy-uylariga tarqalisha boshladi.

Qorong'i tushgach, Ismoil ham asta o'rnidan turib, uyiga yo'ldi. Bu payt ovulga ikki suvoriy otlarini yo'rttirib kelar, egar-to'qim, yugan-ayillariga qadalgan kumush naqshlari g'ira-shirada yalt-yult qilib ko'zga tashlanardi.

Ixcham gavdalariga, bashang ust-boshlariga qaraganda, ikkalasi ham yosh yigitga o'xshardi. Ismoil bular kim bo'ldi ekan, qayoqqa kelyapti ekan, deb tikilib turganida haligi suvoriylar otlarining boshlarini Ismoilning katta o'toviga qarab burishdi. Salqin tushgani uchunmi, ularning terlab-pishib ketgan otlari boshlarini silkib jadal yo'rtib kelar edi. Yo'lovchilarning esa ko'ngillari ko'tarinki.

Qo'noqlarni tashqarida Ismoilning katta o'g'li Qosimjon uch-to'rtta o'rtog'i bilan kutib olib, o'tovga taklif qildi... Sal vaqtdan so'ng hali ham boyagi vajohatidan tushmagan Ismoil oqsoqol kirib keldi.

Kelgan qo'noqlarning biri — qudasi Azimboyning shaharda o'qib yurgan o'g'li Islom ekan. Islom keyingi ikki yil mobaynida shahardagi o'rta maktablarda tahsil olib, eliga qaytib kelgan payti edi. U ota-onasining oldida ikki-uch kun bo'lgach, yaqin qarindoshlarini bir ko'rib kelay, deb yo'lga chiqqan ekan.

Islom istarasi issiq, uzun qora sochli, xuddi qizlarnikiday qad-diqomati nozikkina, suyakli yigit ekan. Yonidagisi o'z ovulidan, o'rtog'i Jag'ipar degan yigit.

Ismoilning oilasi qo'noqlarni qudasining o'g'li bo'lgani uchun, buning ustiga shahar ko'rgan o'qimishli yigit deb ochiq chiroy bilan kutib olishdi, hurmat-izzat ko'rsatishib to'rga o'tqazishdi.

Islomning kelganidan ayniqsa bu oilaning katta o'g'li Qosimjon xursand bo'ldi. Ular yoshligidan birga o'sgan edilar-da. Hol-ahvol so'rashib, chuldirashdi-qolishdi. Ular bundan to'rt-besh yil oldin bir-birlarini mehmondorchilikka taklif etishib, borish-ke-lish qilishar, ovulda uch-to'rt kunlab yotib qolishar, juda qadrdon-lashib ketishgan edi. Shuning uchun ham Ismoil oqsoqolning oilasi Islom uchun o'z jigarlariday bo'lib ketgan, ular ham Islomni o'z farzandlariday ko'rishar, Qosimjonning onasi Qaliman esa uni o'z o'g'liday ko'rib, hurmatlar edi. Keyingi yillar Islom shaharga o'qishga ketib, bu yaqinlik biroz sovigana esa-da, ularning hozirgi muomalalaridan, hol-ahvol so'rashishlaridan ilgari mehnat-qibat, iliqlik tiklana boshlaganidan darak berardi. Agar bu xonadonda jindek salqinlik bo'lsa — Ismoil oqsoqolning bugungi kayfiyatidan. U azaldan jiddiy odam, bola-chaqa bilan gaplashishni unchalik yoqtiravermaydi. Fe'li shunday. Buning ustiga boyagi dilxirraligi uning ko'nglini yozdirmay tirishib o'tirardi.

Choy tayyor bo'lganida Qaliman xizmatkor ayolni chaqirib:

— Azizani chaqir, bir o'zi bir chekkada burishib o'tirmay, qo'noqlarga choy quyib berib tursin, — deb tayinladi.

Islom quloqlarini ding qilib, eshik tomondan ko'zlarini uzmay o'tirganida, tashqaridan avval cho'lpining shildir-shildiri eshitildi,

so'ng Azizaning o'zi kirib keldi. Egnida qo'sh etak qilib tiktirilgan oq ko'ylak, sirtidan bellari xipcha qora kamzul kiyib olibdi. Boshida uqali taqiya. U kirib kelganda go'yo uy ichi yorishib ketganday bo'ldi. U bilan o'tovga fayz va ko'rk kirib keldi go'yo. Yosh qo'noqlar salom berib, hol-ahvol so'rashganida, Azizaning oppoq yuzlariga qon yugurdi.

Ular ikki yildan beri ko'rishmagan edilar. Islomga Aziza yana ham go'zallashib, yana ham ochilib ketganday, nim qorong'i o'tov ichi uning nurli ruxsoridan charog'on bo'lib ketganday tuyuldi. Sal o'tmay xizmatkor ayol olib kirgan choyni oldi-yu, otasining oyoq tomoniga o'tirib, mehmonlarga choy quyib uzata boshladi. Chiroqqa yaqin joyga kelib o'tirgani uchun bo'lsa kerak, boyagi husn-latofati yana ham gulf urib ketdi.

Oradan biroz vaqt o'tgach, Ismoil oqsoqol ayoliga:

— Bolalarni Qosimjonning uyiga olib boringlar, — deb amr qildi. — Uyni yaxshilab yig'ishtiringlar. Yosh-yalanglar erkin o'tirgani ma'qul.

Qaliman kelinini yuborib, uyni saranjon qildirgach, mehmonlarni o'sha yoqqa taklif etishdi. Qo'noqlar Ismoil oqsoqolning tund kayfiyatidan qutulolmay turgan ekanlarmi, taklifdan xushnud bo'lib o'rinlaridan turishdi-yu, tezgina tashqariga chiqishdi.

Qo'noqlar chiqib ketgach, bir-ikkita cho'pon-cho'liqlar ham o'rinlaridan qo'zg'alishdi. Uyda Qaliman bilan Ismoil oqsoqolgina xoli qolishdi. Ismoil oqsoqolning ichiga chiroq yoqsa yorishmasdi. Asablari qaqshab, jahl ustida turgani shundoqqina bilinib turardi. Biroz xo'mrayib o'tirgach, xotiniga qing'ir qarab gap boshladi:

— Ho'v xotin, agar biron-bir kor-hol yuz bermasin desang, anavi qizingni tiyib ol! Qizingni odamlarga o'xshab tarbiya qilish qo'lingdan kelmasa, nimaga tug'ding? Hamma balo senda! Tarbiya qilolmagansan. Mana, oqibati! — dedi.

Qizining kojligini hazm qilolmay yurgan Qaliman bu ach-chiq-chuchuk gaplarni eshitib, battar tutaqib ketdi:

— Menga nimaga zarda qilasiz, otasi? Men Azizani kimning qizidan kam qilib tarbiyalabman? Kimning bolasi mening qizimdan ortiq bo'lib yaralibdi, a? Nega menga yopishasiz? Men ona

bo'lsam, siz otasiz-ku. Menga aytgan og'u gaplaringizni o'zingizga ham ayting! — deb yig'lamsiradi.

Ismoil oqsoqol boyvuchchasining qing'iriga olib gapirayotganini ko'rib, battar tutaqib ketdi:

— Shumi tarbiyalaganing? Bolaga tarbiya bergudek aqling bormi sening, manjalaqi! Sening tarbiyang emasmi, qizingni shu darajaga yetkazgan? Qani ayt-chi, ovulimizda kimning qizi sening qizingchalik buzilibdi? Kimning qizi el-u yurt oldida ota-onasini sharmanda-yu sharmisor qilibdi. Qani, ayt! Topib bergin, bormi, shunaqa qiz? Bu ovulda sendan ahmoq xotin, sening qizingdan ham behayo qiz bormi? Qani ayt, ayt, la'nati! — dedi baqirib.

Qaliman ham eridan qolishmadi:

— Sizga nima bo'ldi o'zi, o'z bolangizni o'zingiz shunchalik yomonotliq qilib? Bu gaplarni dushmaningiz ham aytmaydi-ku, axir. Qani, ayting-chi, shu atrofda mening Azizamdaqa dilbar qiz bormi? Xonning qizi, podshoning qizi qanday bo'lsa, mening qizim ham shunday. Uning gunohi nima? “Xotini o'lgan, qari odamga tegmayman”, deganimi aybi? Bolam haq! Indamay desam ham qo'y madingiz-ku. Nima qilay, o'laymi?

Gap shu yerga kelganida Ismoil oqsoqol o'zini tutolmay baqirib yubordi:

— O'chir uningni, megajin! Qizingni shu qilig'i uchun hech ham kechira olmayman! Sen gap tushunarmiding? Xullas, agar qizingga gap uqtirib, to'g'ri yo'lga sololmaydigan bo'lsang, bilib qo'y, javobingni bermasam, otamning arvohi ursin! Mabodo, qizingni ko'ndirolmasang, ko'ndirolmadim degin-da, daf bo'l qiz-pizing bilan! Shu bugun bir yoqli qil, uqdingmi? — deb gapni shartta kesdi-da, Qalimanning gapini ham eshitmay, shartta o'rnidan turib, tashqariga chiqib ketdi.

Ismoil oqsoqolning fe'li Qalimanga ma'lum. U ko'pdan beri bunday qattiq-qurum gap aytmagan edi. Fe'li aynigan ko'rinadi. Ayniqsa, uning “otamning arvohi ursin!” degan gapidan Qalimanning yuragi muzlab ketganday bo'ldi. U o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi. O'zi ham qizining fe'lidan kuyinib yurgan edi-yu, erining gapi dard ustiga chipqon bo'lib tushdi. Shu kechasi qizi bilan gaplashib, masalani hal qilishga qaror qildi.

II

Bu mahalda Islom odamlarning uyquga ketishlarini sabrsizlik bilan kutardi. U turli xayollar og'ushida u yonidan-bu yoniga ag'anab, uxlayolmay qiynalardi. Bunaqa paytda, odatda, vaqt juda imillaydi. Xona ichidagi nim qorong'ulik shundoq ham ezilib yotgan yigitni battar iskanjaga olardi. Shu taxlit biroz yotgach, u choponini yelkasiga tashlab oyoq uchida asta tashqariga chiqdi. Oydin kecha, jimjit tun, uyquga ketgan ovul va musaffo havo uning siqilgan yuragiga biroz ora kirganday yengil tortdi. Eshik oldiga chiqdi-yu, mung'ayib turgan oyga tikilib qoldi.

Qo'radagi barcha jonivorlar uyquga ketgan, qo'ylarni kuzatib yotgan hushyor to'batlar ham boshlarini oyoqlari ustiga qo'yib, pinakka ketishgan...

Mung'ayib turgan bu oydin kechada tungi kuzatuvchilar ham qalin guppilariga o'ranib cho'zilib yotishar, ahyon-ahyonda xo'jako'rsinga charchoq va mudroq tovushi bilan "Hoyt!" deb qo'yar, bu tovushga zim-ziyo kecha erinchoqlik bilan aks-sado berar edi.

Islom chiqqan o'tovning o'ng tomondagisi — oy yorug'ida oppoq bo'lib ko'rinib turgani — Oyshalarniki. Bu yerdagilar haliyam yotishmabdi. Tuynugi yopilmagan bo'lsa-da, o'tov keragasidan chiroqning yorug'i shundoqqina ko'rinib turibdi. Islom tashqarida biroz tin olib turdi-da, ovul odamlari tekis uyquga ketganiga ishonch hosil qilgach, Oyshalarning o'toviga qarab yurdi. U avvalo astagina eshik oldiga kelib, o'tov ustiga yopilgan kigiz tirqishidan ichkariga mo'raladi. Kichkinagina lampa chiroq yonib turardi. Oysha yozig'lik to'shak oldida mudrab o'tirar, Aziza bo'lsa yostiqaqa yonboshlab yotardi. Ko'rinishdan turli o'ylar og'ushida obdan charchagan, ko'zlarini bir nuqtaga tikib jimgina xayol surardi. O'tovda bulardan boshqa hech kim yo'q. Islom astagina eshikni ochib, ichkariga kirib keldi. Ayollar hushyor tortishib, u yoq-bu yoqlarini tartibga solishib, o'rinlaridan turib o'tirishdi. Islom asta Azizaning yoniga borib o'tirib, hol-ahvol so'rashganidan so'ng o'rtadagi sovuqlik jindek ko'tarilib, qalblariga iliqlik indi.

Oysha Azizadan ilgari gap boshladi. U hazil-mutoyiba aralash:

— Bizlarni unutilib ketdingiz, yigit. Va'dalar shundoqmidi? Shaharda yurib bu yoqlarni esingizdan chiqarib yubordingizmi, deyman? — deb hazil aralash qayinsinglisining ko'nglidagi bor gapni aytib, har ikkalasining tilini bog'lab turgan o'rtadagi hayo pardasini ochib berdi. Sal vaqt o'tmay, Aziza bilan Islom bir-birlaridan tortinmay emin-erkin gaplasha boshlagach, Oysha yonbo-shiga yostiq qo'yib yotarkan:

— Mendan uyalmayoq qo'yaqolinglar, ko'ngillaringda bor gaplaringni aytib olinglar. Bunaqa qulay fursat endi bo'lavermaydi, — deb quvlik bilan kuldi.

Bu paytda ikki yosh ko'ngillaridagi barcha armonlarini bir-birlariga aytar, bir-birlarining gaplarini jon quloqlari bilan tinglar edilar. Islom ikki yildan beri shaharda ko'rgan-kechirganlarini batafsil gapirdi. Aziza ham hamma gapini aytdi. Ular gaplashgani sayin o'rtadagi gina-kudurat, ayblarning salmog'i Islomning zim-masiga tusha boshladi.

Islom Azizaning noz-u karashmalarga yo'g'rilgan mantiqli, dalillarga to'la ginalarini eshitar ekan, unga bo'lgan muhabbati yanada qulf ura boshladi. Qizning o'rinli ginalarini ko'ngliga olmadi ham.

— Azizaxon, Xudo haqqi, sening bu gaplaringni eshitib yig'lagim kelib ketayapti. O'zimni zo'rg'a ushlab o'tiribman. Endi meni o'zing ovut. Men senikiman, de! — deb Azizani suymoqchi bo'ldi.

Aziza uning qo'llaridan qo'llarini astagina tortib olib, gap boshladi:

— Islom, ilgari men qayoqqa ketsam ham, faqat siz bilan bo'lsam, deb orzu qilardim. Hozir siz bilan gaplashib o'tirganim, o'sha orzularim tufayli. Mening bundan boshqa fikrim bo'lmagan. Afsuski, endi men sizni ovuta olmayman. Men sizni kutgan edim. Men siz bilan ketishga rozi edim... Endi vaqt o'tdi.

— Nima, endi shafqat qilmaysanmi? Hamma aybimni bo'ynimga olib, oyog'ingga yiqilganimda "endi keraging yo'q" demoqchimisiz?

— Yo'q men sizga ket deyolmayman. Biroq ilgari davrlar o'tdi, bilib qo'ying, demoqchiman. Boshim bog'liq, endi qimir

etishga haddim sig‘maydi, demoqchiman. Haligina onam kelib, hamma gapni aytib, dilimni vayron qilib ketdi. Endi menga baribir, “aytganingizga ko‘ndim, haydagan tomoningizga yuraverman”, deb va‘da berdim. Endi siz ham meni qiynamang.

— Aziza, avvalga va‘dalarining puchmida? O‘zgalarga tosh qotgan yuraging menga talay-talay muruvvat ko‘rsatmaganmida? Sizni sevaman, degan gaplarning yolg‘onmida, ayt! — Islom Azizaning ko‘zlariga tikildi, uning javobini kutdi.

Qiz yonginasida yonboshlab yotgan Islomning sochlarini mayin qo‘llari bilan asta silab o‘tirarkan:

— Afsuski, u davrlar qaytib kelmasga ketdi. Endi bu gaplarning foydasi yo‘q. Taqdir shu ekan... — dedi-yu, eshik tomonga tikilib, jim bo‘lib qoldi. Islom bu mahalda jimgina mo‘ltirab sevgilisining ko‘zlariga yolvorgansimon tikilib o‘tirar edi. Aziza uning ahvoliga achinish bilan boqib, so‘zida davom etdi. — Undan ko‘ra, ertaga anavi kuyov bo‘lmish kelar ekan... Shu yerda bo‘lib, kuyovpochchangizni ko‘rib keting.

Qizning pichingga yo‘g‘rilgan bu gapidan yigitning dili vayron bo‘ldi, kuyov degan gapni eshitib, rashki tomirlaridagi qonni jo‘sh tirib yubordi. Aziza uning ko‘ziga yana ham qimmatliroq, yana ham azizroq ko‘rinib ketdi.

— Ertaga o‘rnimdan turaman-u, jo‘nayman. Kuyoving boshingda qolsin!

Biroq saldan keyin u bu gapidan qaytdi, kuyovlar kelib-ketgunlaricha shu yerda qoladigan bo‘ldi. Ilgarilari Aziza bilan kechirgan nash‘ali kunlarini qanchalar esiga solmasin, uni o‘zi tomonga og‘dirishga qanchalar urinmasin, baribir, Islom qo‘lidan hech narsa kelmasligaga ko‘zi yetdi. Endi ikkalasining ham fikri bir joyda to‘xtadi; taqdirning yozig‘ini ko‘rish kerak! Qani kutaylik-chi, bu dunyoyi falak boshimizga yana qanday savdolarni solarkan?

Otasining bu motamsaro uyida yoshlarning tilaklari ro‘yobga chiqmasliga aniq. Kelajak nimalarni siylarkan bularga. Nima bo‘lganda ham hozirgi vaziyatdan eson-omon chiqishga ikkalasida ham na imkon bor, na darmon!

Shuning uchun hozircha birining qayg‘usiga biri suyanchiq bo‘lib, dardkash bo‘lib turgani ma‘qul. Aziza bo‘lajak kuyovga

ko'ngli yo'qligini ertaga to'planadigan qarindosh-urug'larga, hatto, kuyov bo'lmishning o'ziga ham oshkor qilmoqchi bo'ldi. Qizning bu qarori Islomga jindek bo'lsa ham umid bag'ishladi. Kuyov kelganida faqat Islom bilan birga yurishga, faqat Islom bilan birga bo'lishga va'da berdi. To qo'l-oyog'i bog'lanib, zo'rlik bilan uzatilmagunicha, qiz Islomni deyishga qasd qildi.

Azizaning seviklisi uchun qiladigan yaxshiliga hozircha shugina. Shunga qaror qilishgach, Islom qizni o'ziga tortib, uning kechadan beri ko'rgan qiynoqlari, azoblari tufayli siniqib qolgan mungli yuzlaridan bo'sa oldi. Bu gal qiz qarshilik bildirmadi. Aksincha, shu paytgacha ko'rib kelgan qiynog'-u azoblaridan forig' bo'lganday sezdi o'zini, so'ng Islomni bag'riga qattiq bosdi...

Islom Oysha yanganing uyidan chiqayotib, tag'in Azizani bag'riga oldi.

— Menga shu kungacha biron-bir muruvvat ko'rsatmading. Erta-ga unashtirilganing kelganida o'sha muruvvatingdan umidvorman.

Aziza jimgina kulib, Islomga tikilib turar edi. Yigit qayta-qayta termulib, haligi fikrini takrorlayvergach, Aziza astagina:

— Ko'rarmiz... Erta bo'laversin-chi, — dedi.

Islom sal bo'lsa-da, ko'ngli taskin topib uydan chiqdi. Tong yorishay deb qolgan ekan. Oyning yorug'i holsizlanib, ufqqa boshlabdi. Tong yorug'ida yulduzlar ham birin-ketin so'na boshladi. U tashqarida, salqinda biroz turib hovurini bosgach, ancha o'ziga kelib boya o'zi chiqqan o'tovga sho'ng'idi-yu, o'rtog'ining yoniga kirib cho'zildi.

III

Oqshom salqini ina boshlaganida Ismoil ovuli kuyovlarni kutib ola boshladi. Ot bog'lanadigan qoziqlar allaqachon band bo'lgan. O'choq boshida odamlar gavjum, u yoqdan-bu yoqqa yugurishadi. Islom kuyovlar o'tirgan o'tovda. Endi nima bo'lar ekan, degan tashvish asablarini kemirar, ammo sir bermay, kuyovlar bilan birga choy ichishib o'tirar edi. Allamahaldan so'ng Oysha asta oyoq uchida kirib Islomni imlab chaqirganday bo'ldi. Biroz o'tgach, u tashqariga chiqdi. Oysha uni kutib turgan ekan, nariroqda turgan o'tov oldiga chaqirib:

— Huv anavi o'tovda erkam yolg'iz o'tiribdi. Haligina oldilariga kirgan edim, sizni yo'qlayaptilar. Boring, — dedi.

Islom atayin ovul tashqarisiga chiqqan bo'lib, nariroqdan aylandi, keyin o'sha o'tovga borib kirdi. O'tov ichida Azizadan boshqa hech kim yo'q ekan. Chiroq ham yoqilmabdi. O'rtadagi o'choqqa yoqilgan tezak cho'g'i ham o'chay-o'chay deb qolibdi. Nim qorong'u. Yo'qlaganidan minnatdor bo'lgan Islom astagina Azizaning yoniga kelib cho'kdi. Go'yo uning qalbidagi barcha g'ubori ko'tarilganday edi. U Aziza uchun har qanday qiyinchilikka ham tayyor edi. Faqat sevgilisi bilan birga bo'lsa bas, boshqa barcha aziyatlarga chidaydi. U Azizasini kechadan beri hammadan rashk qilardi. Hozir ham o'sha rashki tufayli bo'lsa kerak, kallasi-ga biron-bir tuzukroq fikr kelmas, sevgilisi bilan birga yonma-yon o'tirgani uchunmi, butun a'zoyi badani dir-dir titrar, bu tuyg'u, bu asov hissiyot ularni tuzukroq gaplashishga izn bermas edi. Hade-ganda qiz aytganiga ko'navermagach, yigit yorildi:

— Aziza, men bugun umrimda chekmagan aziyatimni chekib, jon qiynog'ida o'tiribman. Bilmadim, bu qiynoqdan xalos bo'la-manmi, yo'qmi? Agar gapimga ko'nmasang, meni suymaydigan bo'lsang, shu bugun yo kuyoving o'ladi, yo men!.. — dedi.

Birozdan so'ng o't so'ndi, uy ichiga qorong'ulik cho'kdi. Oyning nimjon shu'lasi o'tov keragalaridan, kigizlarning tirqish-laridan xuddi daraxtlarning yaproqlari orasidan tushgan shu'lalar kabi u yer-bu yerda yaltirab ko'rinardi. Islom bu qorong'ilikdan foydalanib, nariroqda yig'uvlik turgan to'shaklar ustidan bir-ikkita yostiq olib yonboshiga tashladi-yu, qizni og'ushiga tortdi. Yig-itning bu jur'atidan, qaynoq bo'salaridan qiz ham erib ketdi. Bu asov tuyg'u yigitning ixtiyorini tamoman olib qo'ygan, bir so'z deyolmas, hamma gapini bo'sa bilan, hansirash bilan aytayotgan-day edi. Ular shu taxlit ancha vaqt unsiz gaplashishgach, qiz qoni jo'sh urib, qaytadan yigitni quchib o'pa boshladi. Xayrlashadigan payt ham yetdi. Aziza yigitdan: "Kuyovlar ovuldan ketmagunlari-cha, men ham bu yerdan ketmayman", — degan va'dasini oldi.

Birozdan so'ng Islom o'zini bosib tashqariga chiqqanda, nari-roqda jadal ketib borayotgan odam qorasini ko'rib qoldi. U odamni ilgari ko'rmagani uchun kim ekanini payqay olmasa ham kiyim-

laridan bugun o'zi bilan gaplashib o'tirgan mehmon yigitlardan biri bo'lsa kerak, deb tasmolladi.

Islom bu tungi sharpaning o'z xufiya ishlaridan ogoh bo'lganini bildi. Bildi-yu, parvo ham qilmadi. Qaytanga bilgani yaxshi, deb qo'ya qoldi. U shu taxlit o'tovga kirib kelganida, mehmonlar ovqatlanib bo'lishgan ekan. Ovqat olib kirilganida ular Islomni yo'qlabdilar, bir-ikkita odam yuborib qidirtiribdilar ham. Topisholmabdi. Barcha uchun hurmatli bo'lib ko'ringan bu yigitning ovqat tortilishi oldidan yo'q bo'lib qolgani o'tovdagilar uchun shubhali tuyulibdi. Nima qilib yuribdi u bemahalda?

Kuyovto'raning do'stlaridan bo'lmish Sulaymon Islomga uchiriq qildi:

— O'qimishli yigitlar bizni tushunadi deysanmi? Hamma gap qozoqlardan chiqadi. O'qimishli yigitlar shuning uchun bizni g'iybatchi deyishadi. Keyin bir-birimizni tushunisha olmay, orqavarotdan yomonlaganimiz-yomonlagan. Qay birimiz haqmiz — buni hech kim surishtirib o'tirmaydi, — deb yolg'ondakam qiqir-qiqir kuldi.

Kuyovto'ra tomondagilar unga xushomad qilib qo'shilishdi.

Islom uning bu kesatig'iga, azbaroyi jahli chiqqanidan, munosib javob ham qaytarolmadi. Bu kesatig'i Islomga qanchalik ayil botgan bo'lsa, Jaqipga ham yengil tekkani yo'q. U tashqariga chiqib, o'zining jo'ralari bilan shivir-shivir gaplashib kirdi-yu, qovoqlarini uyib indamay o'tiraverdi. Uning bu kayfiyatidan bir shumlikni boshlash uchun o'tirgani shundoqqina bilinib turar edi. O'rtoqlari ham shuni payqab jimib qolishdi.

Yotadigan mahal bo'lganida mehmonlarning hammasi tashqariga chiqishdi. Jaqip xizmatkor yigitni yuborib Oyshani chaqirtirib keldi. Oysha kirib kelganida Jaqip zo'r-bazo'r jilmayib:

— Nima balo, qayinsingling mendan o'zini olib qochayaptimi desam, sen ham mendan o'zingni tortyapsan shekilli? Qani, beri-roq kel-chi! — deb yangasini yoniga o'tirishga taklif qildi.

Oysha o'tirayotib kuldi:

— Hali bu ovul udumiga o'rganmay turib ginaxonlikka o'tdingmi? Nimadan xafa bo'lding, kuyovjon? Bugun sen xafa bo'ladigan kun emasdi, shekilli?

— Xafa bo'lganim rost. Sovuq munosabatda bo'layotganlarindan so'ng men xafa bo'lmay, kim xafa bo'lsin. Endi mening yagona iltimosim shuki, qanday bo'lmasin, hozir mening oldimga Azizani olib kelib uchrashtirasan. Gap shu! — dedi.

Oysha uning bu ters gapidan hayron bo'ldi.

— Chirog'im-ov, xuddi el udumini bilmaydigan odamga o'xshab gapirasan-a. Bu gapni nima deb aytayotibsan? O'zing bu yerga qachon kelganingni bilasanmi?

— Bilaman qachon kelganimni. Kesatmayoq qo'yaqol. Gapning indallosini aytsam, bugun ko'nglinga qilday gap ham sig'maydi. Elning irim-sirimini, qozoqlarning udum-pudumini qo'yib tur. Qayinsingling menga yaxshi qayliq bo'lsa, ana shundagina yarashadi mening bu ovulga yaxshi kuyovligim, bildingmi?

— Nimalar deb valdirayapsan o'zing? Gaplaringni hazil desam — hazilga o'xshamaydi, chin desam — chinga?!

— Hazil qilayotganim yo'q, jiddiy gapirayotibman. Agar meni jindek hurmat qilsang, chaqirib kel qayinsinglingni! Bundan boshqa iltimosim yo'q sendan. Gaplashmoqchiman. Agar ko'ngli bo'lmasa, to'rt tomoni qibla, ketaveradi, — dedi.

Oysha uning bu iltimosi nojo'ya ekanini aytib, o'zini u yoq-bu yoqqa tashlab ko'rdi. Bo'lmadi. Kuyov bo'lmish aytgan so'zidan qaytmay, o'jarlik qilib turib oldi:

— Yo'q, hozir kelib, menga dilidagi gaplarini aytsin. Shunday qilsa, o'ziga ham yaxshi bo'ladi. Men bir-ikki kungagina kelgan qo'noqman. Yo mening bu yerga kelganimni yoqtirmayotgan bo'lsa, unisini aytsin. Balkim uning kayfiyatini buzmay, ertagayoq qaytib ketarmiz. Ketsak, unga yaxshi-ku axir, o'ylab ko'rsin!

Oysha Jaqipga gap uqtirolmasligiga ko'zi yetgach, u bilan adi-badi aytishib o'tirishni behuda bilib, agar ko'nsa, Azizani olib kelish uchun tashqariga chiqib ketdi.

Tashqarida Jaqipning jo'ralari bir joyga to'planib gurunglashib turishganida, ularning yoniga boyadan beri Islomning bosgan qadamini kuzatib, poylab yurgan Musa keldi.

— Azimxonning o'g'li bu yerda nima qilib yurganini bilasanlarmi?

— Ha, darvoqe, u nima qilib yuribdi bu yerda? — deb bir-birlaridan so'rab-surishtira boshladi.

Ba'zilar Islom bilan Aziza haqida uzunquloqdan eshitgan gaplarini o'rtaga tashlashdi: "Xuddi shunday, bu gaplarda jon bor ekan! Rost gap!"

Musa ularning yonida turib bu g'iybatlarning nishabi qayoqqa og'ayotganini fahmladi. So'ng u:

— E, bu gaplar hali holva. Bugun men guvoh bo'lgan gaplardan eshitinglar! Hammasini bildim, — dedi dabdurustdan.

Hamma uning og'ziga tikildi. So'rab-surishtira boshlashdi.

Musa bilganlarining hammasini tugal aytmadi.

— Fursati kelganida bir boshdan aytib berarman. Bugungi ko'rganlarim tepa sochimni tikka qilib yubordi. Gapning po'skallasini aytadigan bo'lsam, haligi Azimxonning o'g'li — harom! — dedi.

Shu gapdan so'ng hamma narsa ayon bo'ldi-qoldi. Ular Musaning sir tutib aytmagan gaplarini har qaysisi o'zlaricha taxmin qilishib, to'qib-bichishdi. Ba'zi yigitlarning astoydil jahli chiqdi. Hatto bu gap ba'zilarining nafsoniyatiga tekkanini, o'zlarini zo'rg'a tutib turganini sezgan Musa:

— Men Jaqipga bu gaplarning ba'zilarini shipshib qo'ydim, — dedi unga achingan bo'lib. — Endi nima qilsa ham o'zi biladi.

U go'yo o'zining insonlik, do'stlik burchini ado etgandek, gerdayib turar edi.

Birozdan keyin "ko'rpa-to'shak solindi", degan xabar kelgach, yigitlar o'tovga qarab yurishdi.

Oysha Azizaning oldiga borib, gaplashib qaytganida, o'tovdagilar o'ringa kirib yotib qolishgan edi. Yolg'iz Jaqipgina egni-boshini yechmay, to'shak ustida yonboshlab, Azizaning kelishini kutardi.

Bir mahal Oysha kirib:

— Qani, birpas tashqariga chiqib tursang o'rin solardim, — dedi.

— Avvalo nima javob olib kelding, shuni aytsang-chi, meni qiynamay, shuncha qiynaganlaring yetar endi, — dedi Jaqip qovog'ini uyib.

— Qarog'im-ov, "berdi"sini aytguncha sabr qilsang-chi. Muncha shoshilmasang. Sening taklifingni eshitib, qayinsingil-

ginam: “El-u yurtning udumini buzsam ham mayli, boray uning oldiga”, dedi. Ana, gaplashinglar, kim aybdor-u kim oppoq, bilinglar-qo‘yinglar. Tushunarlimi? Tushungan bo‘lsang, chiqib tur, tashqariga. Men ko‘rpa-to‘shak solib berib ketaman.

Jaqip go‘yo Oyshaning so‘zidan qanoatlangan kishi bo‘lib:

— Shunaqa demaysanmi? Hech bo‘lmasa sen begonalik qilma! — deb o‘rnidan turdi-yu, tashqariga chiqib ketdi.

Kuyovto‘ra tashqaridan kirib, solig‘lik turgan o‘ringa cho‘zildi, biroz vaqt o‘tgandan so‘ng, Oysha ichkariga Azizani boshlab kirib keldi. U chimildiq sirtida kuyovto‘ra bilan nimalarnidir shivir-shivir gaplashdi-yu, so‘ng chiroqni o‘chirib, ularni yolg‘iz qoldirib chiqib ketdi. Xoli qolishgach, Jaqip Azizani yoniga taklif qildi. Kelin bo‘lmish indamaygina to‘shakning oyoq tomoniga kelib o‘tirdi. Jaqip, Aziza yonimga kelib yotar, deb umid qilgan edi, yo‘q, unday bo‘lmadi, qiz miq etmay o‘tiraverdi. Nihoyat, qizning ko‘ngli o‘ziga moyil emasligini fahmlab, unga qo‘rslik qilmoqchi bo‘ldi.

Aziza qaylig‘ining oldiga kelib o‘tirgani bilan, takabburligi tutib, ko‘nglidagi bor gapni to‘kib solmoqchi bo‘lib turganida Jaqip birdan Azizaning qo‘lidan shappa ushladi-yu kuch bilan o‘ziga tortdi.

— Sen bugun Islomimdan ayirdi, deb meni yozg‘irib o‘tiribsan-da, a? Tiling kesilganmi, nimaga miq etmaysan, gapir! — dedi.

Busiz ham Aziza bor gapni aytishga shaylanib turgan edi, shunday bo‘lsa ham biroz istihola qilib:

— Nima balo, bugun bir narsa bo‘lganmi sizga, hammaga zahringizni sohasiz! Bu qilig‘ingiz bilan hech narsaga erisholmaysiz, yosh bola emasman-ku, do‘q-po‘pisangizdan cho‘chiydigan! — dedi.

— Xo‘sh, qani ayt-chi, kimga orqa qilyapsan? Nima, mening oldimga urishgani keldingmi? Gapir ko‘nglingdagi gaplaringni! — dedi.

— Menga endi baribir. Bugun chaqirdingiz nima-yu ertaga chaqirdingiz nima. Bo‘lganim shu! Umr bo‘yi shundoq o‘taman. Sizni baxtiyor qilolmayman, — dedi Aziza o‘jarligi tutib.

Shundan so'ng Jaqip Aziza haqida eshitgan barcha mish-mishlarning rostligiga shubhasi qolmadi. Endi qiz bilan ochiqchasiga gaplashmoqchi bo'ldi.

— Sening barcha yaxshi gaplaring Islomning quchog'ida qolganga o'xshaydi. Buni takaburliging aytib turibdi. Shundoq ekan, nega bu gaplaringni otangga aytmading? Azimxonning bolasiga orqa qilyapsan-da, a? Nima, bu “senga tegmayman” deganingmi? Gapir! Men seni hamma gapini aytib olsin, deb oldimga chaqirdim.

— Nima ham derdim, sizga?

— Ko'nglingda nima gap bo'lsa, hammasini ayt. Bu — birinchidan. Ikkinchidan esa, Islomga ko'ngli bormish, deyishadi. Shu gap rostmi yo yolg'onmi, shuni ayt!

— Unaqa bo'lsa eshitib qo'ying: men sizni deyoilmayman. Ko'nganday bo'lib yurganim esa, anchayin taqdirga tan berib yurganimdan, qolaversa, ota-onamning ra'yiga bo'ysunganimdan... Islomni yoqtirib qolganim rost. Bundan tonmayman. Xudodan yashirmagan sirimni bandasidan nega yashiray? — dedi.

Jaqip Azizaning barcha gapini eshitib bo'lgach, birpas jimib, xayolga tildi. Bu qaysar qizni nima qilsa bo'ladi? Uning fikricha: qilib yurgan nomaqbul ishlaridan uyalish o'rniga Islomga orqa qilib, u o'rgatgan gaplarni sayrayapti. Ularning maqsadlari ko'pchilikning oldida Jaqipni sharmandayi sharmisor qilish. “Jaqipni Ismoilning qizi mensimabdi, o'qimishli yigitni yoqtirib qolganmish”, degan gaplarni elu yurtga oshkora qilmoqchi. Ismoil ham, Azimxon ham kechagina uning otasiga tobe odamlar edi. Bugun esa ularning bolalari Jaqipni mazax qilmoqchi... Bu xo'rlikka chidab bo'lmaydi...

Jaqip mana shular haqida o'y surar edi. Bu qaysar qizning popugini bosib qo'yish qo'lidan keladi, ha, qo'lidan keladi.

U hamma gapni aytib bo'lib jimgina o'tirgan Azizaning qo'lidan shartta ushlab, amr qildi:

— Qani, bu yoqqa kel, yonimga yot!

Aziza to'satdan aytilgan bu gapni eshitib, hangu mang bo'lib qoldi. Jaqip esa qiz kamzulining tugmalarini yecha boshladi.

— Bugun menga bir erkalik qilmoqchi bo'lib kelgan ekansan. Mayli, erkaligingni ko'targanim bo'lsin. Hechqisi yo'q, bir-

inchi erkalingni ko'tarmay bo'larmidi? Seni o'zim yechintiraman, — deb qizning egnidagi kamzulini yechib oldi.

Kamzulini yechib olayotganida Aziza qarshilik ko'rsatmadi-yu, ammo uning yoniga ham yotmadi. Ilgari qanday o'tirgan bo'lsa shunday o'tiraverdi. Allamahal o'tgach, tilga kirdi:

— Men yoningizga yotmayman. Avvalo mening boyagi gaplaringga javob bering. Nima deysiz? Gaplashaylik, deb chaqirtirgan ekansiz. Gaplashsak, gaplashaylik. Men oldingizga siz bilan birga yotish uchun emas, gaplashgali keldim.

Qizning gaplarini eshitib, Jaqipning nafsoniyati og'ridi, bundan ortiq xo'rlikka chidab bo'lmaydi. U Azizaning qo'lidan mahkam ushlab, jon-jahdi bilan qattiq siltadi va ko'kragiga mushtlab dedi:

— Nimalar deyapsan o'zing? Juda indamaganga haddingdan oshib ketyapsanmi!

U shunday deb qiz sho'rlikni bir musht tushirib yiqitdi-yu, tepkilay boshladi.

Umrida bunaqa xo'rlikni, bunaqa tepki zarbini totib ko'rmagan Aziza o'ksib-o'ksib yig'ladi. Shu asnoda Jaqipni jinidan battar yomon ko'rib ketdi.

— O'ldirsang ham senga tegmayman! Senga xotin bo'lguncha, qora yerga kirganim ma'qul! Men sendan jirkanaman! Ablah! — dedi.

Jaqip tinimsiz tepkilar, Aziza o'z gapidan qaytmas edi.

— Rasvo! Men ham seni xotin qilaman deb o'lib turganim yo'q... Xotin qilaman deb yurganim — seni qiz deb yurganimdan edi. Sening qiz emas, juvon ekanligingni endi bildim. Endi bir tiyinga ham keraging yo'q, — deb tag'in bir-ikki bor tepdi-da, so'ng hansirab o'rniga cho'zildi.

Kaltak, tepki zarbidan Azizaning a'zoyi badani qaqshar edi. O'rnidan bazo'r turdi. Shu alpozda kamzuli bilan choponini kiyib, tashqariga chiqmoqchi edi, Jaqip kiyimlarini bermadi.

— Bor, shundoq ketaver!

Aziza tashqariga chiqqanida, tong endi yorisha boshlagan, g'ir-g'ir shabada esib turar, havo ajabtovur salqin edi. Oy nurlari xira tortib, ufqqa qarab yonboshlay boshlabdi. Tevarak-atrof go'yo nafasini ichiga yutganday jimjit. Hamma uyquda, jon-jonvorlar

uyquda. Azizaning dardi alamidan, ko'zlaridagi alamli yoshlaridan hech kimning xabari yo'q. U o'tov oldiga zo'rg'a chiqdi-yu, ko'krigidagi o'ksik, alamli o'ylari iskanjasidan qaddi dol bo'lib, eshik kesakisiga suyangancha majolsiz turib qoldi. Ovul atrofidagi jimjitlik xuddi o'lim oldidagi sukunatga o'xshab ketdi.

Yuzlarida qon qolmagandi, u eshik oldida qimir etmay yum-yum yig'lab anchagacha turdi.

Azizaning badan-badanidan sovuq o'tib qaltiray boshladi. Shu paytgacha jon achchig'ida yupqa ko'yلاغidan sovuq o'tganini payqamagan ekan. Shu alfozda bironta o'tovga kirishni o'ziga ep ko'rmadi, chunki bu paytda hamma shirin uyquda edi. Shu zayil tong ottirishga qaror qildi.

Buning boisi shu ahvolda hech kimning ko'ziga ko'ringisi kelmas, ko'z yoshini hech kimga ko'rsatishni istamas edi. Birozdan so'ng yig'idan to'xtab, o'pkasini bosib olgach, oyoqlarini zo'rg'a sudrab bosib katta o'tovga kirdi-yu, yotib qoldi.

U ertalab ko'zini ochgan mahalda, hamma uyg'ongan ekan. Badanlari sirqirab og'rir, etlari junjikib zo'rg'a ko'zini ochib o'tirar edi. Tuzukroq uxlay olmadi ham. Ko'zlarini yumsa bas, allam-abalo qo'rqinchli tushlar ko'rib, uyg'onsa vahima bosib, alahsirab... xullas, oromi bo'lmadi.

Ertalab uyg'onganida ikki beti duvillab qizarib, a'zoyi badani qaqshab, boshlari sirqirab og'riy boshladi. Boshlarini ko'taray desa chog'i kelmas, xuddi yer tortayotganday gavdasini ko'tarolmas edi. U qayta yotdi.

Sal vaqt o'tib uning oldiga onasi keldi. U qizining "boshim og'riyapti", deganini eshitdi-yu, rang-ro'yiga qaramadi ham.

— Uchungan bo'lsang kerak-da, bolam, — deb to'shak-o'rnini tuzatib solib qayta yotqizdi.

Aziza rostakamiga yotib qoldi. Ko'zlarini yumsa bas — qo'rqinchli tushlar ko'rib alahsir, beto'xtov ingranar edi. Otasi Ismoil oqsoqol esa qudalari olib kelgan qalin mollaridan ko'ngli to'lib, tezroq to'y boshlash taraddudida. Qizining xastalanib qolganini eshitib: "Uchunib qolgan bo'lsa kerak, hech narsa qilmas" deb parvoyi palak yuraverdi. Atrofdagi ovullarning hammasiga chopar jo'natib, to'yga aytirdi. Azizaning dardi jiddiy ekaniigidan

faqat Islomgina boxabar edi. U qizning kasal bo'lib qolganini eshitgach, oldiga kirib hol-ahvol so'rab, choy-poy berib, ko'rpalarini tuzatib qarab turdi.

To'yga boshqa ovullardan kelishgan xotin-xalaj-u erkaklar qiy-chuv qilishib, qimiz ichishib, et yeb, bir o'tovdan ikkinchi o'tovga zuv qatnashib yurishar edi. Do'mbirachi yigitlarga o'lan aytirishib, ko'ngillarini xushlab, ovozlarning boricha baqirishib, so'zlashib, bir-birlari bilan hazillashib kulishar edi. To'y avjida. Peshin oqqanida to'yga kelgan erkaklar otlariga minishib ko'pkari tortishdi, kurash tushishdi... Shunday qilib, vaqt o'tganini sezishmadi ham.

Islom esa, bularning bariga aralashmadi, Azizaning oldida bo'ldi.

Kechga yaqin odamlar tarqay boshladi. Ovulda faqat yosh-yalanglar, qizlar, bo'z yigitlarga qolishdi. Ular o'yin-kulgi qilishmoqchi. Bu mahalda Azizaning dardi kuchayib, badanining harorati oshib, to'xtovsiz alahsiray boshladi. Kimlarningdir otlarini aytib chaqiradimi-ye, bir narsadan cho'chiganday bo'ladi-mi-ye, kimlardandir yordam so'raydimi-ye... Dastlab uning dardiga ahamiyat bermagan qarindoshlari endi astoydil cho'chishib, yopirilishib kela boshlashdi.

Oxiri, quda tomondagilar ham, kuyovjo'ralar ham qizning kasali jiddiy ekanligiga ishona boshlashdi. Azizaning kasali zo'raygandan zo'rayib borardi. Yoniga ko'p odam kelib turganini payqadi shekilli, avval nimalarnidir gapira turib:

— Islom... Jonginam! Ketma, ketib qolma! Shu yerda bo'! Sen ketsang qo'rqaman, — dedi.

Uning bu gaplaridan odamlar hayron bo'lib qolishdi. Qaliman esa qizining bu gaplaridan uyalib, odamlar oldida xaspo'shlashga tushdi:

— Islom bilan yoshligida birga o'qib, birga yurib, o'rganib qolishgan-da... o'shani alahsirayapti...

Bu gapdan so'ng kuyovjo'ralar orasida turgan Musa yonginasida turgan Sulaymonning biqiniga ma'noli turtdi.

Islom ham shu yerda edi. Azizaning gapidan u uyalgani yo'q, qaytanga ich-ichidan suyundi, uning yoniga o'tirib, taskin bera boshladi.

Aziza boshqalarning gaplariga javob qilmasa ham Islomning soʻroqlariga toʻgʻri javob berishga harakat qildi. Shundan soʻng uning boshida turgan qoʻnoqlar asta tashqariga chiqib ketishdi.

Azizaning oldida Qaliman-u Islomgina qolishdi... Kuyovjoʻralar tashqarida qizning haligi soʻzining maʼnosini oʻzlaricha yoʻriy boshlashdi. Ular kechasi Jaqip bilan kelin boʻlmishning orasida sodir boʻlgan voqealarni kuyovtoʻradan eshitishgan edi. Kuyovtoʻra:

— Sal esi kirdi-chiqdiroqqa oʻxshaydi. Birontasi boshini aylantirib qoʻygan koʻrinadi. Bu Islomning ishi boʻlsa kerak, — dedi.

Azizaning alahsirab: “Islom, Islom” deyayotgani ham shundan emasmikan?

Kuyovjoʻralar ham bu taxminga qoʻshilishdi: “Shunaqa boʻlsa kerag-ov! Boʻlmasa ajabtovur qiz edi-ku! Nega birpasda aynidi-qoldi?” — deb ajablanishdi.

Oxiri yigitlarning boshlarini qotirayotgan muammoni Musaning oʻzi aytib berdi. U Islomning barcha kirdikorlarini izohlab:

— Boshqasi bilan ishim yoʻgʻ-u, ammo men kecha senlarga bir sirni aytmagan edim. Buning ustiga tagʻin bir gapni eshitgan edim, shuni ham aytib beray, — dedi. Yigitlar uning atrofini oʻrab olib, quloqlarini ding qilishdi. — Kecha kechqurun Islom bilan Aziza huv anavi qora oʻtovda xoli oʻtirishdi. Bizning oldimizdan chiqib yoʻq boʻlib ketganida oʻshayoqda oʻtirgan edi. Men oʻtov sirtida poylab oʻtirib hamma gaplarini eshitdim. Gapining mazmuni shu boʻldiki, “agar mening gapimga kirmasang, yo men oʻlaman, yo sen oʻlasan, yo esa kuyoving!” dedi. Shundan soʻng indamay qolishdi. Bu — birmi? Ikkinchidan, boya ehtiyotsizlik qilib bir gapni aytib yuborganini oʻzi ham payqamay qoldi. “Har qanaqa qizga tamakining ichiga dori solib bir chektirsam, orqamdan oʻzi ergashadigan boʻladi!” — dedi. Oʻsha aytgani bosh aylantiradigan dori emasmikan? Shunga qaraganda, dori berib, qiz shoʻrlikning boshini aylantirib qoʻymadimikin, deyman-da?!

Kuyovjoʻralar, xuddi bir haqiqatning tagiga yetganday chuvillashdi: “E, boʻldi, boʻldi! Xuddi shuning oʻzginasi! Bunga shubha qilmasa ham boʻladi. Shu vaqtgacha u rasvoni yoniga

ham yo‘latmagan qiz bugun kuyovi kelganda nega bunchalik yovvoyi bo‘ldi-qoldi desak, gap bu yoqda ekan-da!”, — deb g‘ovur ko‘tarishdi.

Bu gaplar o‘sha zahotiyoyq ovuldagilarga tarqadi. Kuyovlar bilan qudalarning qulog‘iga: “qiz kuyovni mensimadi”, degandan ko‘ra mantiqliroq va jo‘yaliroq bo‘lib eshitildi. Shuning uchun bu gapni hammadan ilgari qudalarning o‘zlari elga ovoza qila boshlashdi.

G‘iybat gapning qanoti bo‘ladi, deyishadi. Islomning ham qulog‘iga chalindi. Biroq u bunga qarshi biron-bir chora topolmadi. Chora ko‘rishning mavridimi hozir? Bu yoqda Azizasi kasal bo‘lib yotgan bo‘lsa!

Shu taxlit oradan ikki kun o‘tdi. Azizaning dardi tobora og‘irlashib borardi. Nafas olishi qiyinlashib, gavdasini ham ko‘tarolmay qoldi, choy ichishi ham qiyinlashdi. To‘y kuni boshlangan oldi-qochdi g‘iybat hozir ham avjida, Ismoil oqsoqolning ovulidan chiqib, o‘zga ellarga ham tarqay boshladi. Qaliman garchi bu gaplarning rostligidan shubha qilsa ham, Islomni Azizaning oldida ko‘rsa, jahli chiqadigan bo‘ldi. Nafaqat Qaliman, hatto ovuldagi boshqa odamlar ham Islomdan shubhalana boshlagach, u Aziza bilan xayrlashib eliga jo‘nab ketdi. Islom ketgandan so‘ng Azizaning dardi battar og‘irlasha bordi. Oxiri odam tanimaydigan ahvolga kelib qoldi. Qarindosh-urug‘lari undan umidlarini uza boshladi. Xullas bir kuni, kechqurun Qaliman bilan qudasi qizining boshida kuzatib o‘tirgan edi, birdan Azizaning mazasi qochib, uzilib borayotganini payqab qolishdi. Ular qo‘rqib ketishib, darhol erkaklarni chaqirishdi. Ko‘pchilik to‘planishib, unga mungli tiki-lishib turganlarida, Aziza astagina ko‘zlarini ochdi. Ko‘z qaroqlarida nur yo‘q edi.

Qaliman umidini uzib, yuraklari ezilib yum-yum yig‘lab, qizining ustiga engashdi.

— Chiroqqinam, senga nima bo‘ldi? Qanday balo yopishdi senga? Qo‘rqitib yubording-ku bizni, — dedi. — Islom biron narsa qildimi? Rostini ayt, bolam.

Islomning nomini eshitganida qizning yuzlariga sal qon yugurganday bo‘ldi-yu, ohistagina “Islom... Islom...” dedi.

O'tirganlar bir-birlariga ma'noli qarashib qo'yishdi. O'sha kuni tong pallasida qarindosh-urug'lar orasida Aziza uzildi. To uzilganiga qadar uning yuzlarini qizillik tark etmagan edi, endi esa oqarib, allaqanday sovuq tus ola boshladi.

Shunday qilib, Aziza qarindoshlari nazdida qandaydir jumboq sabab bilan bu yorug' dunyodan ketdi.

Ertalab yoshgina qizning bevaqt o'limidan hamma xabar topdi. Bu shum xabar Islomning ham qulog'iga borib yetdi. Odamlar orasida: "Aziza vafot etibdi", degan shum xabar bilan birga "uni Azimxonning o'g'li sehr-jodu bilan o'ldiribdi", degan sovuq xabar ham birga ovoza bo'ldi. Ertasiga ovul tashqarisidagi ota-bobolari yotgan qabristonga Azizani olib borib qo'yib kelishdi.

Qudalar-u kuyovjo'ralar bir-ikki kun yig'i-sig'i qilishib, Azizani yo'qlab turishdi-yu, ovullariga qaytib ketishdi.

Aziza tirikligida Islom haqidagi bo'lmag'ur mish-mishlar ovul orasidan nariga chiqmagan edi. Endi esa, bu g'iybat gap bolalab hamma yoqqa, hatto, uzoq-uzoq ovullarga borib yetdi. Nodon odamlar nazdida hamma balo el orasida bittagina karj fe'li, o'qimishli bolaning emin-erkin, shubhali yurishida edi. Bu ham mayli, yiqilgan ustiga tepgan deganday quda tomondagilar o'sha yoqdagi bir posyolkada yashovchi qandaydir o'ris kampirga fol ochdiribdi. U Jaqipga: "Qaylig'ing sehr-jodu bilan o'libdi, bir soch qo'ygan chiroyli yigit uning boshiga yetibdi", deganmish. Bu xabarni ham Jaqipning ovulidagilar oqizmay-tomizmay Ismoil oqsoqolning ovuliga yetkazibdi.

Odamlarga bu gaplarning hammasi to'g'ri, ayni haqiqat bo'lib eshitilar edi. Islom bu g'iybatlarga qarshilik ko'rsatolmaydigan, bo'shang bir yigit bo'lib chiqdi. Qo'lidan hech narsa kelmadi. Buning ustiga Azizaning o'limi dard ustiga chipqon bo'ldi. Uyida mukkasidan tushib yig'laydigan odat chiqardi. Lekin uni boshqalar bu yoqda tursin, o'z ota-onalari ham tushunishmadi. O'g'lining o'zini tutishini ko'rib: "Odamlarning gaplari to'g'ri bo'lsa-ya", degan gumonga borishdi. Islom o'z uyiga ham begona bo'la boshladi. Buni sezgan Azimxon, bordi-yu bu g'iybatomuz mishmishlar el orasida bolalab ketsa, oqibati yomon bo'lishini payqab, oldini olishga bel bog'ladi. U elidagi kazo-kazolarni yoniga olib, Ismoil oqsoqolnikiga bordi, ilgarigi yaqinligini o'rtaga solib, bir-birla-

rini tushunishib qaytishdi. Azimxon borganida, Qaliman qizini yo‘qlab yig‘i ko‘tardi:

— Islom yuzi qoraning basharasi qursin. Azizam unga begona emasdi-ku, axir! Nega qizginamning joniga qasd qildi? — deb barcha ginasini to‘kib soldi. Onaizorning bu achchiq ginasini eshitib qaytgan Azimxon ikki gapning birida o‘g‘liga kesatadigan, unga zarda qiladigan bo‘lib qoldi.

Xullasi, Islom ovuli bu yoqda tursin, o‘z uyiga ham sig‘may, hamma undan xuddi harom taomdan jirkangandek jirkanadigan bo‘lib qoldi.

Kunlarning birida Islom sal og‘ir xayollardan nariroq bo‘lish niyatida uzoq bir qarindoshinikiga borgan edi, o‘sha ovulning ulkan kampiri uni oldiga chaqirib olib:

— Chirog‘im, to‘g‘ri so‘zning to‘g‘anog‘i yo‘q, deyishadi. Senga bir gap aytmoqchiman, aybga buyurma. O‘tgan yili tushirgan kelinim o‘rtog‘ing Jumaqonni mensimay, allakim bilan shivir-shivir gaplashib yurganmish. Men buni sezib yuribman. Bir kuni bizlarni sharmandayi sharmisor qilib ketmasa deb qo‘rqaman. O‘shanga, haligi odamlar gapirib yurgan emingdan qilib tuzatib bergin. Xudo xayringni bersin... — dedi.

Islom azbaroyi jahli chiqqanidan nima deb javob qilishini bilmay qoldi:

— Ko‘p boshni qotirmang, kampir! — dedi-yu, bu yerdan jo‘nab ketdi.

Kampir uning bu muomalasini tushunmasa ham, bu bolada bir gap borligiga imon keltirib, anqayganicha qolaverdi.

Islom ovuliga qaytib kelgach, atrofda uni tushunadigan hech kim qolmaganiga, endi ovulda turish do‘zaxda yashash bilan baravar ekanligiga ko‘zi yetib, bu yerdan ketishga qaror qildi. Bir necha kun ilgari elini sog‘inib, qanchalik shoshilib kelgan bo‘lsa, endi bu yerdan — odamlarning nazaridan shunchalik tezroq qochishga bel bog‘ladi. Qarorini otasiga bildirdi, uni tushunadigan yakka-yolg‘iz onajoniga aytib, u bilan quchoqlashib xayrlashdi. Yoniga bir izvoshchi olib, qo‘sh otda shaharga otlanib ketdi.

Choshgohda ovuldan otlangan yo‘lovchilar garchi teskari bo‘lsa ham Islomning qistovi bilan Ismoil oqsoqolning ovuliga olib boradigan yo‘lga burilib, peshin oqqan mahalda yetib kelishdi.

Saratonning jazirama kunlaridan biri. Yo'lovchilar kun obdan qizigan mahalda ovulga yetib kelishdi. Islom izvoshti to'xtatmay, ot boshini ovul sirtidagi to'rt quloq tomli qabristonga qarab burdi.

Haroratning zo'ridan dala-yu dashtdagi o't-o'lanlar qovjirab qolgan, yer-u ko'k hansirar edi. O't-o'lanlari sarg'ish tortgan dalalarda uyulgan g'aramlar saraton issig'ining taftidan mung'ayib turar, qandaydir mungli kuyni esga solayotganday yo'lovchilarning yurak-bag'irlarini ezardi. Saraton jazirasida, bu kimsasiz dashtda haroratdan kuyib, yolg'izsirab turgan qabrlarga go'yo bu biyday dala o'zining mungli muhrini bosganday edi. Islom izvoshtidan tushdi-yu, sherigiga ham qaramasdan qabriston hovlisiga kirdi.

Uch-to'rtta eski qabr sarg'ayib, tuproqlari oqarib turardi. Azizani o'sha qabrlarning oyoq tomoniga qo'yishgan ekan... Yaqindagina kavlangan qabr tuprog'i hali yangi. Qabrning bosh tomoniga qandaydir sur tosh qadalibdi. Uning yonginasida ko'hnaoq, sahifalari yirtilgan Qur'on.

U qabriston darvozasidan kirishi bilan Azizaning qabri yoniga borib o'tirdi. Qur'onga ko'zi tushdi. Taniganday bo'ldi. Ismoil oqsoqolning ovulidagi maktabda Aziza bilan o'qib yurganlarida qizning qo'lida ko'rgan qizil muqovali Qur'on mana shu edi. O'ziyam obdan eskirib, sahifalari titilib ketibdi. Qur'onni ko'rganda Islomning esiga qiz bilan birga bo'lgan tabarruk onlari jonlaganday bo'ldi. U ohistagina Qur'onni qo'lga olib, ehtiyotlik bilan varaqlagan edi, sahifalarining bir-ikkita joyida: "Islom, Islom..." degan yozuvga ko'zi tushib, ko'zlaridan yosh tirqirab ketdi. So'ng o'sha sahifani lablariga bosdi-yu, ho'ngrab yig'lab yubordi.

U shu alfozda ancha vaqtgacha qabrni quchib yotib, qalbidagi g'ubori sal tarqagach, bazo'r o'rnidan turdi. Xayolan Azizasi bilan vidolashdi, qabr yonida o'sgan nimjongina giyohning yaprog'ini uzib olib, qayta-qayta iskadi. U qabristondan chiqqanda, yig'layverib, ikki ko'zi qizarib, shishib ketgan, obdan majoli qurigan edi. U zo'rg'a kelib izvoshta mindi...

KEK YO'LIDA¹

Bozoralining elga qaytib kelganiga bir oy bo'lib qoldi. Bu kunlarda uni ko'rgani kelib, shodligini izhor qilgan qarindoshlar ko'p edi. Ota tomondan yaqin ovullar to'y qilmoqchi ham bo'lishdi. Lekin o'z oilasi va yaqin qarindoshlarining holi xarobligini ko'rgan Bozorali to'y-tomosha qildirmadi. Dastavvalgi o'n-o'n besh kun davomida uning eson-omon kelganiga xursand bo'lgan Jigitek elidagi qarindoshlar erta-yu kech ovuldan-ovulga chiqirishib, ziyofat qilishdi. Yolg'iz Jigiteklargina emas, uni ziyofat qilib shodlangan Bo'kenshi, Kotibaq, Ko'kshelar ham oz emasdi.

Bozorali Irg'izboylardan faqat Abayning ovuliga mehmondorchilikka borib keldi. Avvalo Abayning o'zi uni ko'rgali kelib, bir kecha-yu bir kunduz birga bo'ldi.

So'ngra Abay Bozoralini uning o'ntacha yaqin qarindoshlari bilan qo'shib taklif qilib, o'z ovuliga olib ketdi.

Aygerimning keng, issiq uyida Bozoralidek aziz mehmonni jon-u dil bilan kutishmoqda. Gilamlar, guldor namatlar solingan. Abayning atrofidagi yosh-yoronlarning hammasi ham Bozoralining hikoyalariga, askiyalariga quloq solishib, qosh-qovog'iga qarashib, boshida parvona bo'lishayotir. O'zlarini sog'ingan do'stlarcha tutishayotir. Kunduzi tushlik ovqat ustida Abayning iltimosiga ko'ra, Bozorali ko'rgan-kechirganlari haqida qisqa-qisqa hikoya qilib berdi. O'zi ko'rib kelgan yerlar, ellar haqida so'zlab berdi. Lekin chekkan aziyati, ko'rgan azobu uqubatlarini mana bu ko'pchilik oldida izhor etmadi. "Azob ko'rdim, qiynalдим" dey-digan emas...

Kechki o'tirishda Abay majlis mavzusini boshqa yoqqa burdi. Ichida: "Bozorali uchun o'tmishdagi og'ir kunlarni eslay berish ozor baxsh etsa kerak, aksincha, o'shani unuttiradigan bir sabab

¹ "Abay yo'li" romanidan.

bo'lsa, o'sha durust bo'lar" degan andishaga bordi-da, yoshlardan o'yin-kulgi qilib o'tirishni iltimos etdi.

Shundan keyin Bozoraling ham chiroyi ochilib, Ko'kboyga do'mbira uzatdi.

Ko'kboy biroz tortinib, do'mbirani zo'rg'a oldi.

— Bozekejon, bu kunlarda men kuylashdan chiqib qolganman. Mana bu o'tirgan Mug'a, Almagambet degan ashulachilarning oldida ashulani asti xor qilmay deb yurgan edim!.. — dedi.

— Yo'g'e, yangi ashulachilarni hali ham eshita beramiz! — deb Bozorali qo'yarda-qo'ymay do'mbirani tutqazdi.

Abay ham Bozoralinga qo'shilib:

— Ko'kboy bugun Bozekengning boshidan sochgan sochuvlaringiz kuy bo'lsin... Yolg'iz sen emas, shu uydagi san'atkorlarning hammasi aytadi. Qani boshlay ber! — dedi.

"San'atkorlarning hammasi aytadi" deganda, ashulachi yoshlar ko'pdan buyon uning kuylarini eshitmaganlari uchun sog'inib qolishgandek yalt etib, Aygerimga qarashdi.

Bir nafasdan keyin Ko'kboy shirali ovozi bilan cho'zib kuylay boshladi. O'sha bir vaqtlarda, Birjon aytgan noyob kuy... "Tovshin cho'zar Birjon qo'ng'ir g'ozday" deb, to'lqinlantirib ketdi.

Ko'kboy kuylab bo'lganda, Bozorali yengil tortib, qaddini rostlab olgandek bo'ldi.

— Yasha-a! — deb, biroz xursand bo'lib o'tirdi. — Huv o'sha, bir yaxshi yozda... yashnagan kunlarda kelgan... bo'lgan ekan-da!.. — deb turib, xo'rsindi.

Yiroqlab ketgan o'tmish ham sog'intiradi. Davr o'tib, yosh ham yetib kelayotir. Bugina emas, Bozorali shu choq O'rolboyni ham o'ylab qolgandi. Bir nafasgina boshini quyi solib, so'nib, sinib qoldi.

Shu choq do'mbirani Mug'a oldi-da, majlis ahlini sergak tortdirgudek qilib, yangratib kuylab yubordi. O'zgacha beg'ubor, baland, tiniq ovoz ashulachining chin san'atkor ekanligidan darak berdi.

Abayning "Salom, senga, qalamqosh"ini avjidan boshlab cho'zib ketdi. So'zlari Bozoraling ko'nglini haligi ranjlardan xalos etadigan, haqiqiy intiqlik, intizorlikni tarannum etuvchi otashin nozlarga to'la so'zlar. Ashulachi uch bandini aytib to'xtatmoqchi edi, Bozorali ko'nmadi.

— Ayt, jonim, ayt!.. Oxirigacha ayt! — deb, hammasini aytirdi.

Mug‘adan keyin Almagambet ham Abay she‘riga solingan “Ko‘zimning qorasi” kuyini aytdi. Bularning hammasi ham ko‘ngilni mana bu g‘amgin, ko‘ngilsiz kuz kunlaridan yashnagan, farahbaxsh bahor kunlariga yetaklardi.

Abayning hushyor, xushfahm birodarlari ham em topib, sinig‘ini silayotgandek bo‘ldi.

— Yog‘dek yoqayotir!.. Ko‘ngil jarohatlariga malham-ku bu!.. — deb Bozorali zo‘r ishtiyoq bilan tingladi.

Yana bir navbati kelganda, Bozorali o‘z qo‘li bilan do‘mbira uzatib, Aygerimga qaradi-da:

— Qani, shunchalar fig‘on qilib, rozidil aytdirayotgan faqat o‘zing bo‘lsang kerak deyman... — deganda, o‘tirganlar kulib yuborishdi. — Lekin, bu gaplarni aytdirayotgan o‘z jinsingdan-ku... Endi o‘zingdan eshitmay iloj yo‘q! Ayt qarog‘im! — deb yaqin og‘a, qarindoshlarcha erkalatib gapirdi.

Aygerim qip-qizarib ketdi-da, sipolik bilan kulib:

— Men ko‘pdan buyon kuylamaydigan bo‘lib ketgan edim-ku, Bozeke! — dedi.

— Yo‘q, Aykejon! Bozorali aytmaganingni bilmaydi, aytganingnigina biladi. Qani, ayt, — deb iltimos qildi.

Bir nafasdan keyin Aygerim “Tatyana” kuyini boshlab yubordi. Hali ham o‘sha bir vaqtlardagidek g‘oyat sirli, nozik qilib, chuqur hayajonlanib aytar ekan, majlis ahli jim bo‘lib, erib quloq soldi. Bozorali Abayning bu aytilgan o‘lanlarini bilmas edi. U ketgandan keyin yaratilgan she‘rlar, kuylar ekan. Yonida o‘tirgan Ko‘kboyga yopishib, har o‘lan, har kuy to‘g‘risida so‘rab, bilib o‘tirdi.

“Nachora, netay, bildirmay” kuyini ham Aygerimga batamom aytdirdi. Hech kim buyurmagan bo‘lsa-da, bu kech Abayning do‘stlari o‘zaro “ha” deb olishgandek faqat Abay she‘rlari bilan kuylarini aytishdi.

Bu Bozoraliga misli ko‘rilmagan haqiqiy katta tortiq bo‘ldi. El yangilanib, el san‘ati yangidan bunyodga kelib, kamol topibdi. U endi Abayga qarab:

— Yopira-a-y, kuy bilan so‘z qanday o‘zgarib ketgan! Shu qadar sirli, shu qadar ta‘sirli, jon tomirlarigacha larzaga keltiradi-

gan qanday soʻzlar oʻzi-a!.. Tu-u!.. — deb, bosh iringʻab, jimgina tomosha qilib turib, — sheʻr bilan kuy baraka topibdi-da, lekin, Abay!... Sanʻatingdan aylanay! — dedi.

Bir payti kelganda Magʻash, Darmen yozayotgan doston haqida gap ochib:

— Darmen, Englik — Kebekni tugatay deb qolgandir, ogʻa! Oʻshani bir eshitsak deyman? — dedi.

Koʻkboy, Erboʻllar ham shu yil kuzda oʻz koʻzlari oldida Abay topshirgan masalani eslab, Darmenning dostonini tinglashga hozirlanishdi.

Abay maroq bilan Darmenga tikilib turib:

— Bitirmasang ham boshlaganing durust boʻlibdi, ozroq aytib koʻrasanmi? — dedi.

Darmen taraddud qilmadi. Goʻzal yuz, qiyilgan qop-qora moʻylovli oppoq yigit doʻmbirani sayratib oʻtirib, boshlab yubordi. Katta-katta qop-qora koʻzlari xiyol qontalashib, ilhom alan-gasini sochayotir. Joʻshqin sergak gʻayratiga gʻazabli qalbining oʻti aralashgan chin adolat homiysi tugʻilganga oʻxshaydi. Ilhom barq urgan yosh shoir yangi sozga berilgan. Bu koʻhna dunyoga, yangi boʻgʻinning tanqidini aytadigan, kek saqlovchi qiron nasliga oʻxshaydi. Bir tomoni Abay uyasidan, bir tomoni odil xalqdan chiqqan. U, dunyodagi hamma koʻksi yara kishilarning yangi yoʻqlovchisiga oʻxshaydi.

U dostonini har jihatdan goʻzal tugʻilgan, xalq qizi — Englikning latofatini madhlashdan boshlagan. Qizning otasi, keksa Ikon Xon togʻining bagʻrida, halol, osoyishta mehnat bilan kun kechirgan bir aziz jon edi. Ikki oliyjanob keksaning oʻgʻli ham, qizi ham oʻzi boʻlib, sipolik bilan oʻsgan Englikni tilga oladi.

Chingʻizning qish boshlangan paytdagi koʻrki. Ovchilar, merganlar, bosqinchiliklar — kundalik afsonalarni tugʻdiradigan gʻiybatni, sanʻatni, pastliklar, adovatlarni ham bayon etadi. Mardlik fazilati orqasida nom chiqarib, obroʻ topgan azamatni ham tilga oladi. Yolgʻiz, idrokli, sabotli goʻzal Englikning qulogʻiga har kun bir oʻzgacha nodir odamning nomi yetadi. U qizning xayolini qitiqlaydi. Tun — kechalarni bedor oʻtkaza boshlaydi. Shunday bir paytda, “toʻqson”ning boshida, burkab yogʻib turgan

qor bo‘roni ichidan bir noma‘lum odam keladi. U kechikib qolgan yorug‘ yo‘lovchi ekan. Qo‘lida boshiga qalpoq kiydirilgan qironi — qanjug‘asida haligina g‘ira-shira paytda oldirgan qizil tulkisi.

Yigit qor bo‘ronida begona ovulga bemahal kelgan bo‘lsa-da, tund yuzi yo‘lovchidek emas, o‘ynab-kulib, ochiq chehra bilan do‘stlarcha keldi. G‘aribona uyga kuldi, ov haqida qiziq hikoyalar, odobli hazil bilan quvonch olib kirdi. Englik yigitning alangali, nur sochib turpgan yuziga quvonch bilan boqib, kulimsiragancha tikiladi. Qayta-qayta qaragisi keladi.

Shu choq yigit, keksa Iqonga o‘zini tanitib, ismini aytadi. Kebek!.. Kebek shu ekan!.. Olovga yaqin o‘tirgani uchun bu holat payqalmadi. Lekin qizning yuzi “duv” qizarib ketadi. Yuragi ham shuv etib, negadir otashin bir his sharpasi chalpi b o‘tgandek bo‘ladi...

Yuragi bir lahzada sovib, qotib qolib, qaytadan jo‘sh urib ketadi!.. — dedi-da, kuylovchi erkin shoir do‘mbirani asta-asta chertib kelib, dostonni to‘xtatdi.

— Shu joyigacha keldim, Abay og‘a!

— Obbo, yigitcha-ye! Hech bo‘lmasa, bir qadam bostirib to‘xtatsang bo‘lardi-da! Qonimni qizdirib kelib, shu xilda ham noumid qilib to‘xtatasanmi! — deb, Bozorali norozi bo‘lib qoldi.

Quloq solib o‘tirgan Mag‘ashlar ham o‘kinib qolishdi. Abay ancha vaqtgacha maroq bilan Darmenga qarab turdi. Doston chindan ham ma‘qul bo‘lgan ko‘rinadi. Lekin xulosani boshqacha chiqardi:

— Faqat, ikki masala ustida to‘xtayman Darmen. Qiz haqidagi, ishq-muhabbat haqidagi gaplar faqat ehtirosni qo‘zg‘atadigan gaplar bo‘lmasin. Sof dillarga qanot bitib, xayolni yiroqlarga yetaklaydigan bo‘lsin. Bu bir. Ikkinchidan — qadimni hozirgidek qilib ayt. Xalqning bo‘g‘zida tiqilib qolgan tosh tugunini ayt. Xalqning hokimlarga chiqargan hukmini ayt... Xalqning o‘tmishdagi-yu, hozirgi zamondagi xonlar, beklarga nisbatan ko‘ksi to‘la nafrat bo‘lsa-da, aytolmay kelgan so‘zlarini yetkaz!.. Yig‘lovchilar xalqning yoshi bilan yig‘lasin. Poraxo‘rlarga, jabr-zulm egalariga, xiyonatkorlarga o‘chmas tamg‘a bos! — dedi.

Yoshlar uning gapiga o‘ylanib o‘tirib, diqqat bilan quloq solishdi.

— Abay og‘a, u jihati hali Darmenning oldida turibdi. Albatta o‘shani aytadi-da!.. — deb, Kakitoygina gapga aralashdi.

Darmen bosh irg‘ab qo‘ydi. Bozorali ham Abay gapining tagida qanday gap borligini darhol angladi. O‘zi xulosa chiqardi.

— Jabr-zulm egalarning o‘ktam hokimlarning qabih ishlarini och deganing menga juda yoqdi, Abayjon, — dedi.

— Bu yerda Kengirboyning qilmishi ochiladigan bo‘lib turibdi-ku! — dedi Kakitoy, yana o‘sha masalani oydinlashtirish maqsadida.

— Ey, yiroqdagi Kengirboy, qoshingdagi Kunanboy-ku. Bit-tasiga tegsa, bittasi omon qoladi deysanmi! Otam Kengirboy edi deb, aytgan gapidan qaytadi deysanmi! — deb, Bozorali jiddiy, salmoqli bir gapirdi.

— Men ham aytdim, shunday qilmasa, Bozeken bo‘ladimi? — deb, Abay Darmenga qaradi-da, — mana zamon ovozi, endigi mustaqil bo‘g‘inning ovozi shu!.. Shoir orqaga qarab sajda qilmay, oldindan qibla topsin! — dedi.

Mana shu so‘nggi o‘tirishlarda Bozorali o‘zining surgunda yurgan chog‘larida boshidan o‘tkazgan voqealardan ba‘zi birlarini bir-ikki marta xotirladi. Bir xonasi kelib, odamgarchilik, do‘stlik, ko‘mak to‘g‘risida gap ketganda, Bozorali o‘ziga surgundagi qismatdoshlari ko‘rsatgan odamgarchilik va do‘stona ko‘makni misol qilib, aytib berdi.

— Men qochishga qaror qilganimdan keyin, sirimni ikki keksa katorjnikka aytdim. Biri — Kerala degan rus dehqoni — keksa emandek mustahkam odam. Ikkinchisi — Sergey degan ko‘p o‘qimishli, juda aqlli, dono odam edi. Qo‘l-oyog‘ingga urilgan kishan-zanjirlarni shu ikkovi kesishdi. “Ozodlik qushidek uch, sahroingga salom olib bor”, deyishdi. Mendan ularga tegadigan ignadek foyda yo‘q. Zarar bilan xatar esa tog‘dek edi. Ulardan shu singari buyuk do‘stlikni ko‘rdim. Buni nima deb atash mumkin?

Uydagilarning hammasi ularga rahmat aytib, jon-dili bilan quloq berishdi. Shundan keyin, Bozorali ko‘rgan yaxshiliklarini batafsil aytib berdi. Abay undan qochib kelayotgan chog‘ida, yo‘l-yo‘lakay uchragan rus xalqi haqida so‘ragan edi. Bozorali bu to‘g‘risida ham ko‘p minnatdorlik bilan gapirdi.

— Urkitdan¹ bu yog'iga faqat ruslar orasi bilan qochdim, o'shanda ham ishonganim ham, suyanganim ham dehqonlar yashaydigan qishloqlar bo'ldi. Men u qishloqlardagi uy-joyi yaxshi xonadonlarning yaqiniga yo'lamaslikni chorasini qildim. Sho'rlikning holini sho'rliklar biladi-da, kech kirgan paytda shaharning chetidagi bir g'aribona kulbaning derazasini qoqdim, bas. Kunda kelib yurgan qadrdon uyidek qabul qiladi. Ahvolimni anglaydi, tilakdosh bo'ladi. Yosh-u qarisidan faqat odamgarchilik, do'stona ko'mak ko'rasan, kishi. Qaysi yo'l bilan borishni ko'rsatib, o'zlari yo'llab yuborishadi. Ba'zi bir xatarli yo'llar bo'lsa, kunduzi uylariga yashirib, tiniqtirib turib, qosh qoraygan paytda tun kechada xatardan o'zlari o'tkazib yuborgan paytlari ham bo'ldi. Shu singari har qanday hisobdan xorij ko'makni, do'stlikni ko'rgan sayin qanotim o'sib, yetilayotgandek bo'ldi! — dedi.

Bozoraling bu xildagi hikoyalari Abay bilan yoshlar behad quvonib, qiziqib quloq solishdi.

Shundan keyin yana ashula, o'yin-kulgi boshlanib, endigi kecha kelasi kunlar xursandchilik, xushchaqchilik bilan o'tdi.

¹ Irkutsk shahri.

ABAY

Uch parda, yetti ko‘rinishli fojia

Ishtirok etuvchilar:

Abay — shoir, 50 yoshda

Oykarim — Abayning xotini, 36 yoshda

Mag‘aviy — Abayning o‘g‘li, 25 yoshda

Abdurahmon — Abayning o‘g‘li, 26 yoshda

Mohira — Abdurahmonning qaylig‘i

Qaldirg‘och — Abay ovulidagi beva kelinchak

Haydar — shoir, Abayning shogirdi, 25 yoshda

Hojar — Haydarning qaylig‘i

Ko‘kboy — shoir, Abayning shogirdi

O‘rozboy — urug‘ boshlig‘i, 60 yoshda

Qanikey — uning xotini

Jiyrancha — biy, 56 yoshda

Norimbet — O‘rozboyning qarindoshi, Mohiraning akasi

Karim — shoir, Abayning yaqin kishisi

Takajon — Abayning tug‘ishgan og‘asi

Azimxon — o‘qimishli yigit, tilmoch

Boymuhammad — ertakchi, Abayning yaqin do‘sti

Zaynab — shoira, nogiron, 45 yoshda

Davlat — kambag‘al, 63 yoshda

O‘rmon — yosh yigit

Mesh — O‘rozboyning navkari

Sirtlon — oqsoqol, biy

Yigitlar, qizlar, mehmonlar, bo‘lislar.

BIRINCHI PARDA

Birinchi ko‘rinish

Zalda chiroq o‘chishi bilan parda ortidan qiy-chuv eshitiladi: ot dupuri, cho‘qmorlarning qarsillab urilishi eshitiladi...

Abay:

*Yuragimning qa‘riga teran bo‘yla,
Men bir jumboq odamman, buni o‘yla.
Changalzor, chakalakzor joyda o‘sdim,
Ming-la yolg‘iz olishdim, gina qilma.*

Otlan! Bo‘sh kelma!

— *Ushla!*

— *Bog‘la!*

— *Ur! O‘ldir! — degan tovushlar yangraydi, ovozlar orasidan: “Abay og‘a! Abay og‘a! Yordam bering” degan ayanchli ovoz eshitiladi.*

PARDA OCHILADI

Parda ochilganda ham boyagi qiy-chuvlar bosilmaydi. Sahna. Kattakon qoyatosh yonbag‘ridan tiniq ko‘l ko‘zga tashlanadi. Sahnaning chap tarafida egnidagi kiyimlari yirilgan Haydar bilan qora kiyingan **Hojarning** qo‘llarini bog‘lashyapti. Ularni o‘rab olganlar orasida **O‘rozboy**, **Qanikey**, **Norimbet**, **O‘rozboyning** navkari Meshlar bor; qo‘llarida qamchi, cho‘qmor; ba‘zilari kesak, tosh ushlab olishgan; hammalari bandilarga o‘qталishib turishibdi.

Norimbet: *(Haydarga)* Yaramas kelgindi. O‘ldiraman.

O‘rozboy: Senmisan mening ovulimdan xotin olib qochadigan. Ko‘rsatib qo‘yaman.

Qanikey: Hoy Hojar, uyatsiz, bu kuningdan o‘lganing yaxshi emasmi?!

Hojar: Agar jonimni olsang ham tilingni tiy, Qanikey:

Qanikey: Tag'in bu azador xotin, no'xtali beva emish-a!

Norimbet: Mening bevam. Ey tangrim, bu qanday ko'rgilik, bu qanday sharmandalik?!

Qanikey: Mesh, ko'zimdan yo'qot buni!..

(Mesh yetib keladi.)

Hojar: Tort qo'lingni, iflos!

O'rozboy: Chiqarma ovozingni. Urf-odatimizni bilmagan manjalaqi!

Haydar: Hoy, O'rozboy oqsoqol, birovga zo'ravonlik qilgan odamning o'zi zo'rlikdan o'ladi. Bu zo'ravonlikni bas qil. Bas qildirishga qurbing yetadimi yo yo'qmi?

O'rozboy: Yo'qotinglar buni!..

(Norimbet, Meshlar bilan birga o'zi ham ularga tashlanadi.)

Haydar: Abay og'a, Abay og'a! Qayerdasiz?

O'rozboy: Bu rasvo Xudoga emas, Abay og'asiga sig'inadi. Yo tavba.

Qanikey: Haddilaridan oshib ketibdi bu yalangoyoqlar, aya-manglar.

*(Sahnaga Oykarim, Mag'aviy,
Ko'kboy, Karimlar chopib kirib kelishadi.)*

Mag'aviy: O'rozboy og'a, Xudo xayringizni bersin, kechiring. Bo'shating ularni.

Karim: Kechiringlar. Zulm qilmanglar.

Oykarim: Karim, to'xtat bularni, Haydarni qutqar. Bo'l tez! Ko'kboy, chop, Abay og'angni aytib kel. Tez kelsin!

Ko'kboy: Men ketdim. Ehtiyot bo'linglar Haydarga ehtiyot bo'ling. *(yugurib chiqib ketadi).*

Karim: Bo'ldi, bas qilinglar! Bu yoqqa ber! *(Meshning qo'li-dan qamchisini yulib oladi).*

O'rozboy: Nima qilyapti bu? Kim u o'rtaga tushadigan?

Karim: Nima gap o'zi?

Mag'aviy: O'ldirsangiz ham bundoq tushuntirib o'ldirsangiz-chi!

O'rozboy: Nimani tushuntirar edim. Ko'rib turibsan-ku. Eri-ning o'lganiga hali yil to'lmay turib... ko'ngillari er tusab qolibdi. Norimbetning kelini-ya... Egasi mana, hali o'lgani yo'q, ko'zi ochiq! Mana shu manjalaqini Haydar olib qochibdi... Yaramas yalangoyoq! Xo'sh, nega endi indamas ekanmiz? (*Xo'rozlanadi.*)

Karim: Hoy, O'rozboy og'a, Norimbet! Axir yo'l bor, yo'riq bor, qolaversa, jamoa bor! Bundoq maslahatlashib ish qilaylik. O'zimizcha jazolamaylik.

O'rozboy: Ey, bas qilinglar-ye, qo'yib bersang, hammasi do-nishmand. Hali shoshmay turinglar! Ta'zirini berish kerak bunday-larni.

Mag'aviy: Nima desangiz deng-u; ularga qo'l tekkizmang! Haydar uchun jonimni ham ayamayman!

O'rozboy: Tushma oraga... Nari tur...

Oykarim: Nega oraga tushmas ekan?

O'rozboy: Baribir bu yalangoyoqni senlarga bermayman. Ja-zosini oladi.

(Takajon bilan Jiyrancha kiradi.)

Oykarim: Ana, vallomatlaring keldi... Chiqinglar, arz qi-linglar.

O'rozboy: Yaxshi kelding, Takajon: Xabaring bormi bu gap-lardan?

Takajon: Xabarim bor. Eshitib keldim.

O'rozboy: Ulug'imiz ham, bo'lisimiz ham o'zingsan, Qo'non-boyning farzandisan... Mana, Abay iningning qilgan ishini ko'rib qo'y. Hatto dushman ham bunday ishlarni qilmaydi. Tinchlik berasanlarmi yo yo'qmi?! Qani, javob ber. Hech bo'lmasa sen to'g'risini ayt...

Norimbet: O'ldiraman!

Mag'aviy: O'ldirib bo'psan!..

Oykarim: (*Hojarni himoya qilib.*) Tort qo'lingni, o'ldirib bo'psanlar!..

(Odamlar to'planishadi.)

Jiyrancha: Nima, bir qorindan talashib tushgan qarindoshing-midi?

Mag'aviy: Qashqir ham qarindoshiga qayriladi.

Haydar: Aylanay Mag'aviy, bor gapni aytding. Bir umr esimdan chiqarmayman.

Jiyrancha: (*Mag'aviy bilan Haydarga*) Ha, gapirib qolinglar. Senlar emasmi, "Esiz so'zim xor o'ldi, to'biqlining heziga" deb, o'lan to'qishib, yaxshilarni xalq o'rtasida badnom qilib yurgan?..

Mag'aviy: Bu gapni u aytgan emas.

O'rozboy: Xo'sh, bo'lmasa kim aytgan?

Mag'aviy: Agar aytgan odamning boshini olmoqchi bo'lsangiz topib beramiz. U gapni aytgan odam mening otam — Abay:

Haydar: Yozgan Abay, aytgan men, aytishga majbur qilganlar o'zlarining.

Jiyrancha: Nima? Nima deding? Xalq o'rtasida kimning obro'sini to'kmoqchisan, rasvo?!

Mesh: Talay-talay yig'inlarda aytib yuribdi bu gapni, yaramas.

Hojar: O'zing yaramas...

Haydar: (*Hojarga*). Parvo qilma jonginam, talayotgan itlardan o'ch olaman deb, men ham qopsam, unda og'zimda halollik qolar-midi?

Jiyrancha: Hoy, eshityapsanlarmi uning gapini? Bu la'nati qilgan ishi bilan yuzimizni qora qilgani yetmaganday, tili bilan ham kuydirib turibdi-ya! Kimni it deyapti? Eshityapsanlarmi?

O'rozboy: Nima deding? (*Mag'aviyga o'qtalib*) Bu yaramasni sen olib keldingmi? (*Oykarimga*) Gapir, senlarmi?

Mag'aviy: Nima, zo'rlik qilmoqchimidilaring. Qo'limizga topshirib jim qarab turishadi, deb o'ylabmidilaring?

Jiyrancha: Nima deyapsan o'zingcha, qalang'i-qasang'ilarni atrofingga yig'ib?.. Ulug'dan kor ketsa, xalqdan or ketadi. Xor bo'lganimiz mana shu-da, endi...

Mag'aviy: Takajon og'a, tinchitib qo'ying bularingizni.

Norimbet: Ur! O'ldir! (*Haydarga tashlanishadi.*)

Mag'aviy: (*Haydarni gavgasi bilan to'sib*) To'xtanglar!

Norimbet: O'ldiraman!

Mag'aviy: O'ldirib bo'psanlar!..

O'rozboy: Nari tur!.. Ol mana bularni. (*O'rozboyning yigitlari Oykarimni Mag'aviyni, Karimni bir chekkaga surib ketishadi*). Sol arqonni bo'yinlariga, otni olib kelinglar! (*Haydar bilan Hojarning bo'yinlariga arqon solishadi. Mesh otga minib yetib keladi.*)

Mesh: Olib keldim.

O'rozboy: Bog'la otning dumiga (*bog'lashadi*).

Haydar: Oykarim opa, bu gaplardan Abay og'ani ogoh qiling...

O'rozboy: Tort! Arvohlar madadkor bo'lsin!..

Karim: Abay, Abay og'a! Qayerdasiz?

(Sahna ortidan "Yo arvoh, tangri madadkor bo'lsin!" degan ovozlari yangraydi. **Mag'aviy** Mesh mangan otning jiloviga yopishadi. Ot dupuri, kishnagani eshitiladi. Sahnaga **Abay** kirib keladi. Yonida **Ko'kboy**.)

Abay: To'xtatinglar. Kes arqonni! (*Ko'kboy borib arqonni kesib yuboradi.*)

Mesh: Qo'lingni tort. Tegma arqonga!

Ko'kboy: Yo'qol! Arqoning boshingda qolsin, ma, ol! (*Kesilgan arqonni unga qarab uloqtiradi.*)

Haydar: Abay og'a, keldingizmi? Kelishingizni bilardim.

O'rozboy: (*Abayga*) Sen nega kelding bu yerga?

Abay: (*O'rozboyga javob bermaydi, turganlarni ta'qib qilib, Takajonga tikiladi*) E, sen ham shu yerdamiding? Qani ayt-chi, sen kimlarga erk berding? Tuzoqni kimlarning qo'liga topshirib qarab turibsan, bilasanmi? (*Takajon miq etmaydi. Abay asta uning oldiga keladi.*) Ikkalamiz ham Qo'nonboydan tug'ilganmiz. Bir otaning farzandimiz. Bu yaramaslar nayzalarini uch qilib o'zimizga sanchmoqchi bo'libdilar-da. Kelib-ketib yetgan joying shu bo'ldimi? Qorasug'urga o'xshab, iningni teskari qazimoqchi bo'ldingmi, hali?

O'rozboy: Hoy, Abay, avvalambor oq-qorani bilib gapir. Ora tushadigan joyingni bilib o'rtaga tush. Ha, bu ishga aralashma!

Abay: Ora tushaman!

O'rozboy: Xo'sh, bu yalangoyoq sening kimning bo'ladi?

Abay: Bolamdan ham ortiq jigarim...

Takajon: Nima deding, nima deding!

Abay: Nimani eshitgan bo'lsang shuni dedim.

Takajon: El-u yurtni, xalqni buzgan buzuqi jigaring bo'ldimi, hali?

Abay: Xalq deya-yotganing kim, senmi?

Jiyrancha: Nima, xalq biz bo'lmay, manavi qulvachchalar xalq bo'lsinmi?

Abay: Agar sen xalq bo'lganingda, xalq farzandiga salgina joning achirdi.

Jiyrancha: Undoq bo'lsa, bizlar bir tarafu mana bular bir taraf ekan-da?

Abay: Tuyaday toshdan tugmaday olmos afzal. Asl farzand otaniki emas, xalqniki. Agar senlarda aql-farosat bo'lganida Haydarning qimmatbaho toshligini sezar edilaring.

O'rozboy: Bolangdan ham ortiq ko'rsang, unda bu yaramasning egasi sen ekansan-da?

Abay: Mabodo, egasiz deb talamoqchi bo'lsalaring, talatmaslik uchun hozircha egasi menman.

Jiyrancha: Hoy Abay, To'biqli urug'ining Kengirboydan ardoqli, hurmatli otasi bo'lganmi? Shu tabarruk bobomizning yo'rig'ini buzmoqchimisiz? Englik bilan Kebek fojiasini unutdingmi?

Abay: Otang qilgan beboshliklarni sen ham qilmoqchimisiz? Otang qonxo'r o'tgan. Kengirboy, Kebeklar yashagan paytda xalqning qarg'ishiga qolib "qobon" atalgan. Sig'ingan odaming shumi?

O'rozboy: Ey tangrim, eshityapsanmi, bu gaplarni!..

Jiyrancha: Astag'firulloh! Gunohkor bandalaringni o'zing kechir! Hali alloma bo'lib xalqqa o'rgatayotgan gaping shumi? Ey mening Kengirboy bobom, kechir gunohkor o'g'illaringni!

Abay: Hoy, Jiyrancha, mening bobom undoq o'tgan, mundoq o'tgan deb jovraysan. Aytgin-chi, axir o'sha Kengirboy bobong mana bunday janjalli masalalarni aql-idrok bilan hal qilganmidi yo musht bilan? (*Jiyrancha indamaydi*) Qani, gapir!

Ko'kboy: Albatta, aql bilan maslahat bilan-da. Adolatli ish qilaylik.

Ovozlar: To'g'ri. O'rtaga chiqib aytsin dardini! Yo'l-yo'riq bor, udum bor. Murosaga kelish kerak.

Abay: Qani, bo‘lmasa ko‘rsatinglar vakillaringni, hakamlilik qilishsin.

O‘rozboy: Bo‘lmagan gap. Kim bilan dovlashamiz. Mana bu yalangoyoq bilanmi?

Abay: Dovlashadigan odam topiladi.

O‘rozboy: Nima, sen bilan dovlashamanmi?

Abay: Ha, men bilan.

O‘rozboy: Xolisanlillo ayt: mol-u joningni o‘rtaga qo‘yib gaplashasanmi?

Abay: Molimni ham, jonimni ham garovga qo‘yaman.

Norimbet: Unday bo‘lsa, dushmaning men o‘zimman, deb qo‘ya qol.

O‘rozboy: Agar shu gapingda tursang, men roziman.

Abay: Bo‘lmasa ayt: biz bilan dovlashadigan vakiling kim?

O‘rozboy: Dovlashadiganim — Jiyrancha: Hakamlilik qiladigan vakilim — Sirtlon oqsoqol. Xo‘sh, o‘zlariniki kim bo‘ladi?

Abay: Men keyin aytaman. Javobini ertaga olasan.

O‘rozboy: Mayli, gaplashsak-gaplashaylik. Xo‘sh, ungacha mana bu aybdorlarni nima qilamiz?

Abay: Ularni kafillikka beramiz.

Takajon: Kimga?

Abay: Hojarning hayotiga sen kafilsan. Takajonga ishonsak bo‘ladimi?

O‘rozboy: Haydarni men kafillikka olaman. Bo‘shatinglar qo‘lini.

*(Ko‘kboy, Karim Haydarning qo‘lini yechishadi,
Oykarim esa Hojarning.)*

O‘rozboy: (o‘z to‘piga qarab) Haydar o‘zi Abayga kim bo‘ladi-ki, shuncha kuyib-pishadi?

Jiyrancha: Shoir shogirdi. Ko‘rmayapsizmi, jonini jabborga topshirib himoya qilayotganini? Abay yozadi, bu esa uning bo‘lar-bo‘lmas gaplarini xalqqa tarqatadi. Shundaylarni atrofiga to‘plab olgan...

O‘rozboy: Topgan ekan otsiz, zotsiz yalangoyoqlarni!

Norimbet: Bular Abayning qanotlari.

Jiyrancha: Xalqqa yoygan o‘lanlarini eshitib tanam junjikkan edi, o‘zlarini ko‘rib qutib uchdi. Bularning qanotlarini qayirmasak, bizlarga halovat yo‘q.

Qanikey: Ha, bular haddidan oshyapti...

O‘rozboy: (*Qanikeyga Hojarni ko‘rsatib*) Anavi manjalaqi Takajonning qo‘liga tushdi. Gaplash, aynitsin. Davraga tushirmay qaytarsin ra‘yidan. Bo‘lmasa bekorga o‘lib ketadi. Itlarga yem bo‘lib o‘ladi! (*Norimbetga*) Sen chopib borib Azimxonni aytib kel. (*Shivirlashadi. Takajon Hojarni yoniga oladi. Haydar Mag‘aviylar bilan birga.*)

Mag‘aviy: Mayli, xafa bo‘lma, Haydar:

Haydar: Menga-ku, mayli-ya. Abay og‘amga jonim achiydi. Meni himoya qilaman, deb dushman orttirib oldi. O, bechora xalq, mana bu yirtqichlar talay yaxshilaringni mayib qilyapti-ku, axir!.. Bu qachongacha davom etadi.

O‘rozboy: (*o‘z to‘dasidan ajrab Abayning oldiga keladi*) Ajralib oldim deb juda xursand bo‘lib turibdilar-da, a? Yo‘q, hali ko‘ramiz. Kimning oshig‘i olchi kelishini.

Abay: Mayli, menga atagan o‘qing bo‘lsa, hammasini ot. Chidayman.

O‘rozboy: Bu xatti-harakating bilan eldan ham, otadan ham begona bo‘lding. Endi bildim. Ashaddiy dushmanim sen ekansan.

Jiyrancha: Tilaganning koriga, deganlar. Hamma gapni o‘zing tilab olding. Dushmanlikning boshi shu bo‘ladi, bilib qo‘y.

O‘rozboy: Agar parvardigorning borligi haq bo‘lsa, qanotlarini qayirib qo‘yaman.

Abay: Afsus, ming afsus! Soch-soqolingga oq tushdi. Biror yaxshi gapingni eshitolmay o‘tib ketyapman bu dunyodan. Ey shum zamon, taqdiri azalning buyrug‘i — shu yaramaslar bilan olishib, yulqishib o‘tish ekan, yirtqichlarga emas, inson farzandiga duch qilsang bo‘lmasmidi?! Mayli, peshonamdan ko‘rdim taqdir buyurganini!

Karim: Abay og‘a, boya bizning vakilimiz bo‘lib sen tushasan dovga, dedingiz. Qo‘limdan kelarmikan? Meni shu ishga aralash-tirib nima qilardingiz?

Abay: Ha, Karim, sen himoya qilasan ularni. Haydar bilan Hojarning, ikki sevishganning hayot-mamoti sening qo'lingda. Sening mahoratingga bog'liq ularning taqdiri. Omadingni bersin. Oqlaysan, yengasan. "Don tashiyotgan qumursqaga tegmang, u tirikchilik uchun kurashyapti", degan ekan buyuk Firdavsiy. Ularda ayb yo'q. Sevish, sevilish ayb emas.

PARDA

Ikkinchi ko'rinish

Tush payti. Yaylov. Ovul. Sahnaning bir chekkasida Abayning o'tovi. Ikkinchi chekkasida esa Oq o'tov — mehmonxona. Unda **Ko'kboy**, **Haydar**lar gaplashib o'tirishibdi. Uzoqda uylar orasidan ko'l ko'zga tashlanadi. **Oykarim** mehmonxona tomon kelmoqda. Uning oldidan bir guruh ayollarni ergashtirib Qanikey chiqadi.

Qanikey: Oykarim, men bu yerga mehmon bo'lib kelganim yo'q. Bilib turibsan nimaga kelganimni.

Oykarim: Shunday bo'lsa ham mayli, hurmatli mehmonim bo'l.

Qanikey: Agar mehmon deb hurmat qilging kelsa, menga Hojarni qaytarib ber. Ovulga qaytishiga yordam qil.

Oykarim: Afsus, Qanikey, o'zing juda go'zal ayolsan-ku, g'alati fe'llaring bor-da.

Qanikey: Nima balo, nuqsonimni qidira boshladingmi?

Oykarim: Hojar, nima bo'lganda ham ayol, shafqat qilsang bo'larmidi?

Qanikey: Ko'p gap — eshakka yuk. Ana, Hojarning o'zi kel-yapti, xo'sh, qaytarib berasanmi?

Oykarim: Qaytarib beraman. Ammo qani, bir boshdan gapir-chi, men ham eshitay.

Qanikey: Mayli eshit, ammo gapimni bo'lma.

Oykarim: Bo'пти.

(Hojar keladi. Uning yonida qorovul kampir.)

Qanikey: Iltimos, gapimni bo'lmay jim o'tirib eshit. Sizlarga ruxsat. *(Boshqalar chiqib ketadi.)*

Oykarim: Hojar, o'tir chirog'im... Qalay, salomatliging yaxshimi?

Hojar: Xudoga shukr.

Oykarim: Qanikey sen bilan gaplashmoqchi ekan...

Qanikey: Hojarxon, men bu yerga bekorga kelganim yo'q, kechagina sen obro'sini yer bilan yakson qilib ketgan ovuldan vakil bo'lib keldim. Ovuldagilar sendan xafa. Qaytib keladimi yo or-nomusimizni tuproqqa qorishtirib ketaveradimi, biror jo'yali gap aytsin, deb yuborishdi meni ular.

Hojar: Ovulim — elim ekani rost. Ammo men ulardan nima yaxshilik ko'rdim? Ular menga shafqat qilishdimi? Biror kishi meni tushundimi? Axir, men ham odamman-ku...

Qanikey: Shafqat qilishmagan bo'lsa, ayb o'zingda. Gapning qisqasi, meni ular olib kel, deb jo'natishdi. Ra'yidan qaytsin, deyishdi.

Hojar: Qaytadigan yo'limni o'zlari kesib tashlashdi-ku.

Qanikey: Agar qaytadigan bo'lsang, adashganning aybi yo'q, aylanay.

Hojar: Yetim qo'zi onasi esidan chiqqach, o'tlab ketaveradi, derdi Abay og'am. Ammo mening esimdan hech narsa chiqqani yo'q: u ovuldan ko'nglim qolgan.

Qanikey: O'ylab gapir, chirog'im. Ovuldagilarning jahli yomon. Seni Haydarga qo'shib qo'yib, jim qarab turisholmaydi.

Hojar: Peshonamdan ko'rdim.

Qanikey: Hoy, o'ylab gapiryapsanmi, naq boshing ketadi-ya!

Hojar: Muhabbatim yo'lida har qanaqa jazoga ham roziman.

Qanikey: Hmm, muhabbat degan bir balo chiqibdi-da. Ko'rarmiz hali. So'nggi pushmon — o'zingga dushman. *(Shu payt Haydar kirib keladi. Haydarga.)* Hoy, senga nima bor bu yerda?

Oykarim: Haydar!

Qanikey: Yaqinlashma, ket nari!

Oykarim: Odam ham shunaqa bo'ladimi? Nega ket deysan?

Qanikey: Gapni ko'p cho'zaverma. Xo'sh, nima deysan? Javob qil.

(Boymuhammad kiradi.)

Boymuhammad: Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadimda bir Italiya degan mamlakat bo‘lgan ekan. O‘sha mamlakatda Mingetak va Ko‘petak degan ikki odamning bolalari bir-birlari bilan ashaddiy dushman bo‘lib yashashar ekan. O‘sha g‘anim ovullarning birida go‘zallikda tengi yo‘q, Ro‘meo degan yigit, ikkinchisida Jo‘letta degan paripaykar qiz bir-birlarini sevib qolishibdi. Ammo ularni xuddi biznikilarga o‘xshab tushunishmabdi. Ahvolari chatoq bo‘libdi.

Abay: Boymuhammad, bu gapingni avval ham eshitganman. O‘sha Romeo va Julettalarning urug‘ini Mingetak, deding. Nima, ularni o‘zingning Uysin urug‘ingga o‘xshatyapsanmi? Montekki, Kapuletti deb tushuntirmaganmidik senga?

Boymuhammad: Ey, Abayjon-ey, o‘rni kelib qolganda aytdim-qo‘ydim-da. (*Ketadi.*)

Abay: Ha, boyvuchcha, qalay? Hojarning ahdi mustahkammi?

Oykarim: Mustahkam bo‘lganda qandoq. Qanikey qancha do‘q-po‘pisa qilsa ham bo‘sh kelgani yo‘q.

Abay: Muhabbat yolqin bo‘lsa, Qanikeylarning do‘q-po‘pisasi bamisoli shabada. Shabada yolqinni o‘chiraman, deb harakat qiladi-yu, o‘chirolmaydi. Qaytangga alangalatib yuborishini tushunisharmidi ular!

Oykarim: Sho‘rliklar, nuqul bir-birlariga termilib yig‘lashadi. Ammo Haydaringiz Hojarni he yo‘q, be yo‘q, opqochib xato qilibdi. To‘g‘ri, opqochish udumimiz bor, ammo bunaqa ishlarni bamaslahat qilsa yaxshi bo‘ladi-da. Ota rozi — Xudo rozi degan gap bor.

Abay: To‘g‘ri aytasan, lekin (*She‘r o‘qiydi.*)

Sevgi tili — so‘zsiz til,

Ko‘z bilan ko‘r, dildan bil.

Bir qarash yo bir imo bilan bog‘lanar ko‘ngil...

Hojarning ahdi mustahkam ekan. Yaxshi. Demak, bu — bizga ham mustahkam bo‘linglar, degani. (*Abayning yolg‘iz o‘zi.*) Vo darig‘, nur bo‘lib bu zim-ziyo hayotni yoritmoqni niyat qilgan bir bechoraga shunchalar zulm. Qani endi bu hasrat dostonini yozib,

el-u elatlarga, bu yog‘i Olatovu u yog‘i Yoyiq bo‘ylariga oshkor qilsang!

(*Haydar, Mag‘aviya, Karim kiradi.*)

Haydar: Abay og‘a, to‘da boshqa-yu, xalq boshqa. Xalq biz tomonda. Nimadan qo‘rqamiz? Nega o‘zimizni o‘zimiz shuncha qiynaymiz?

Abay: Barakalla. Juda to‘g‘ri aytding. Muhabbatli ko‘ngilda hasratga o‘rin bo‘lmasligi kerak. (*Kulishadi.*)

Haydar: Abay og‘a, judayam kuyinavermay, qiziq-qiziq gaplardan gapiring. (*Yana kulishadi.*)

Abay: Buni qarang-a. Muhabbat uni bulbulday sayratib qo‘yibdi-ku!

Haydar: Nima, endi, O‘rozboy o‘ldirar ekan, deb hazil-mutoyiba ham qilmaylikmi?

Abay: Barakalla, e, bormisan! Biz hayotni madh etishimiz kerak. Muhabbat degan oliy tuyg‘u bu hayotning gultojisi. Kayfiyating yomon emasga o‘xshaydi. Ko‘nglingda she‘r tug‘ilyapti, shekilli! Yozsang-chi?

Haydar: Topdingiz. She‘r yozgim kelyapti. Kechagina o‘zingiz hikoya qilib bergan Englik va Kebekning mungli dostonini yozgim bor.

Abay: Marvarid suv tagidan olinadi, she‘r esa toza va sof ko‘ngilda tug‘iladi. Niyating yo‘ldoshing bo‘lsin, chirog‘im. Yoz, Englik va Kebek dostonini. Yoz!

Karim: Abay og‘a, kecha siz bizlarga o‘sha dostonni hikoya qilib berganingizda, mening ham yozgim kelgan edi. Biz ham yozsak-chi? Faqat Haydargagina topshirganingiz nimasi? Men bu gapingizda adolat ko‘rmayapman, Abay og‘a.

Abay: Zo‘ravonlik bilan zulmga dunyo tor-u, yaxshilikka hamisha dunyo keng. Mayli, yozging kelsa yozaver...

Karim: (*o‘ylanib, orqasiga burilar ekan*) Shundayku-ya, eting tor bo‘lsa, dunyoning kengligidan nima foyda?

Mag‘aviya: Ie, manavi rostakam xafa bo‘lganga o‘xshaydi-ku. Muhabbat haqida doston yozadigan odam uni boshidan kechirishi lozim emasmi?

(Azimxon kirib Abayga xat topshiradi.)

Azimxon: Abay og‘a, Abdurahmondan xat keldi. Yaqinda bo-
raman, deb yozibdi.

Oykarim: Voy, rostmi?

Abay: Norimbet Haydar sabab bizdan xafa. Tag‘in ular: “Sing-
lim, bizning or-nomusimizni o‘yla”, deb Mohiraning ko‘ngliga
sovuqlik solib qo‘ymasaydi.

Oykarim: Shunaqa gaplar ham yo‘q emas. Eshitib yuribman.
Nima qilsak ekan-a?

Abay: Qaldirg‘ochni jo‘nat, Mohirani chaqirib kelsin. Meni
aytdi, desin. Qozoqlarning irimi-yu urf-odatlariga parvo qilmasin.
Erining ketganiga uch yil bo‘ldi, kelyapti. Erini ovulimizda kutib
olgani yaxshi. Shunda men undaʼn xursand bo‘laman. Tez yetib
kelsin.

(Oykarim ketadi, Azimxon shu yerda.)

Azimxon: Hali Abay bu gapi uchun o‘z boshini yeydi. Bu gal
Abayni sog‘ qo‘yishmaydi. Bilib qo‘y, kim Haydarning tarafini
olsa sog‘ qolmaydi.

Karim: Xo‘sh, nima qil deysan? Niyatlaring buncha sovuq
bo‘lmasa!

Azimxon: Sendan ulug‘larning umidi katta... Xullasi kalom,
el-u yurt egasi Abay emas, Karim deb yurishibdi ular. Ota-bo-
bolarimizning or-nomusini, dini islomning taqdirini o‘ylaydigan
yagona odam faqat Karimgina, deb tushunishadi ular. Kallangga
bir o‘ylab ko‘r. Xalq uchun xizmat qilgan yaxshimi yo bitta odam
uchunmi? O‘yla! Sinovda turgan Haydarning yoki Abayning boshi
emas, seniki sinovda! O‘zing o‘ylab ko‘r. Ammo javob berishga
shoshilma. Ertaga o‘rtaga tushasan-a...

PARDA

Uchinchi ko‘rinish

Tush payti. **Abayning** ovuli yonidagi tepalik. Keng, yoziq dala. Olis-olislarda behisob mollar, qo‘ylar yoyilib yuribdi. Yaylov, o‘tovlar. Qabriston, qubbali dahmalar — shu yurt ajdodlarining maqbaralari. Parda ochilib, **Qanikey**, **Norimbetlar** chiqishadi. Ular nimagadir bezovta.

Norimbet: Oltin boshli ayoldan jez boshli erkak ortiq, deganlari haq gap ekan. Bu rasvo qiz emas, o‘g‘il bo‘lib tug‘ilganida-ku, yonimga kirib Abay bilan olishgan bo‘lar edi. Men, bevamni bermayman, deb jon olib, jon berib yuribman-u, u bo‘lsa, o‘sha yoqqa ketish taraddudida.

Qanikey: Ana, kelishyapti. Ketmasin, ruxsat berma!

Qanikey: Ilonday avrashyapti ular. (*Mohiraga qarab*) Mana buni ham yo‘ldan urishdi. Gapir, nasihat qil, bormasin u yoqqa!

Norimbet: Ha, Mohira, esing joyidami? Qayoqqa ketyapsan bizlarni tashlab? (*Mohira jim*)

Qaldirg‘och: Men uni olib ketgani keldim.

Qanikey: O‘zing shunday olib ketgani keldingmi yo birov olib kel deb tayinladimi?

Qaldirg‘och: Yo‘-o‘q, o‘zimmas...

Qanikey: Xo‘sh, kim?

Qaldirg‘och: Meni hurmati ulug‘ odam yubordi.

Norimbet: Hurmati ulug‘ odaming kim bo‘ldi, tag‘in?

Qanikey: Abayni aytyapti. Ana, aytmaganmidim!

Norimbet: Jin ursin seni, jin urgur. Mohiraga o‘zingni yaqin tutib, opalik qilganing shumi, hali?

Qaldirg‘och: Jin o‘zingni ursin... Nega muncha tergab qolding...

Norimbet: E, bas qil-e... O‘z singlim bilan gaplashgani qo‘yasanmi-yo‘qmi? Bizlarni xoli qoldir, Mohiraga aytadigan bir-ikki og‘iz gapim bor.

Qaldirg‘och: Aytaqol. (*Ketadi.*)

Norimbet: Mohira, Abayning oldiga borma, uyga qayt.

Mohira: Nega, og‘a, nima gap o‘zi?

Norimbet: Nima gapligini o‘zing juda yaxshi bilasan.

Mohira: Nima, sizlarni arazlashib qoldi, deb men ham taxta-o‘qlog‘imni yig‘ishtirib qo‘yaymi?

Norimbet: Abay — mening ashaddiy dushmanim, buni tushunasanmi-yo‘qmi? U sening azador yangangni olib ketdi, qo‘ynim-dagi xotinimni tortib oldi. Shunday yuzsizlik qilsa ham, men u bilan qarindoshlik qilaymi? O‘sha dushmanimga seni berib qarab turaymi?!

Mohira: Voy Xudoyim-ey, nimalar deyapsiz, og‘ajon?

Qanikey: Norimbetday og‘angga shafqat qilmagan Abay senga muruvvat ko‘rsatarmidi?

Norimbet: Bugun dov boshlanadi. Hojar bilan Haydarning taqdiri hal bo‘ladigan kun. Aminmanki, bugun Abayning beli sinadi, mag‘lub bo‘ladi bu dovda. Tanom-vassalom. Kasofat in qurgan ovulda senga nima bor. Mohira?

Mohira: Bizlarda nima ayb? Men Abdurahmonni kutib olgani ketyapman.

Qanikey: Uni juda ham sevasan, a?

Mohira: Axir uni uch yildan beri kutaman-a!

Qanikey: Chirog‘im-ov, nega gapga tushunmaysan? Senga aniq qilib aytyapti-ku — Abdurahmon seni allaqachon ko‘nglidan chiqarib yuborgan...

Mohira: Kim aytdi bu gapni?! Yo‘-yo‘q, ishonmayman, ishonmayman!

Qanikey: Ishonmaysanmi?.. Ana, Azimxondan so‘ra, o‘sha topib keldi bu gapni. Keyin pushaymon bo‘lasan. Ishonmasang, bor, so‘ra! Cho‘qinibdi u yaramas. Peterburgda bir o‘ris qiziga uylanibdi.

Mohira: Ey Xudo... Abdurahmon... Jonginam... Bu yaramaslar nima deyishyapti? Nahotki rost bo‘lsa? Nahotki sen...

Norimbet: Esing borida etagingni yop. Qayt uyga!

Mohira: Ishonmayman!

Norimbet: Qayt deyapman, senga?!

Mohira: Yo‘q, qaytmayman! Qaldirg‘och, qayerdasan?
(Ketadi.)

(Oykarim, Mag'aviya, Ko'kboylar kirishadi. Norimbet bilan Qanikey chiqib ketadi. Odamlar yig'iladi. Dov boshlanadi.)

Sirtlon: Birodarlar! Tinchligimiz buzildi. Bir-birimizga yovlashib qoldik. Gapimiz gapimizga tushmayapti. Bu yog'i nima bo'ladi, bilmayman. *(Odamlarga qarab)* Nima bo'ldi o'zi sizlarga, og'aynilar? Tinch-totuv, qadrdon bo'lib yashardinglar, bir-birlaringga qarindosh, yor-birodar edinglar. Nima jin urdi sizlarni? Ko'z tegdimi, bilmadim, teskari bo'lib qoldinglar. Udumlarimizga rioya qilmayapsizlar yo ular eskirdimi? Yo zamon o'zgarib, hamma narsa ayqash-uyqash bo'lib ketdimi? Bir-birlaringga shamshir yalang'ochlab o'qtalasanlar. Aytinglar, og'aynilar, bundan kim naf ko'radi? Maqsadlaring nima o'zi, bayon qilinglar! *(Pauza.)* Gapinglar!

Jiyrancha: *(o'rtaga qamchisini tashlaydi)* Ha, bir-birimizga dushman bo'lib qoldik. Yana janjal, ur-to'polon boshlanadi. Ha, qiyin ahvolga tushib koldik. Bamisoli cho'qqidamiz-u, qilt etsak, tubsiz jarga qulay deb turibmiz. Xo'sh, bu kimning aybi bilan yuz berdi? Nima uchun yuz berdi? Bilishimcha, bu — ashaddiy dushmanning ishi. Yo'q, zamon izdan chiqqani yo'q. Udumlarimiz ham eskirgani yo'q. Ha, hali ham bolaning oti bola — kuchuk emas! Xotinning oti xotin — qanjik emas! Yo xalq yo'ldan ozdimi? Yo'q, ozgani yo'q. Haliyam otam — qozoq, urug'im To'biqli. Bilib qo'yinglar, biz o'z bevamizni Abaylarga berib qo'yib, elimizning udumlarini, nomus-orini oyoq osti qildirib qo'ya olmaymiz. Ular bugun bevamizga og'iz solsa, erta qo'ynimizdagi xotinlarimizni ham tortib olishadi. Xo'sh, buning otini nima deymiz? Bu dushmanlik bo'lmay nima? Shunga yarasha javob qilmay qarab turaveraylikmi? Berib bo'pmiz! O'lsak o'lamizki, ammo bevamizni bermaymiz. Qarorimiz qat'iy: ikkalasiga ham jazo — o'lim! O'ldirganda ham ikkalasini otning dumiga bog'lab, xaloyiqning ko'zi oldida sudrab o'ldiramiz. Toki bu yo'ldan ozganlarning qismati boshqalarga ham ibrat bo'lsin. It azobida o'lsin... Farzandlarimiz ko'rib qo'ysin!.. Ota-onaning rizoligini olmay ish qilgan odam, u kim bo'lishidan qat'i nazar, ko'karmaydi.

(Karim o'rtaga qamchisini tashlaydi.)

Sirtlon: Gapir, Karim:

Karim: Qozoq-qozoq, deb kekirdaging yirtilguncha ayyuhanos solguncha, bundoq tevarak-atrofigga razm sol. Qozoqlar ham boshqalar kabi el, odam. Faqat zamon izdan chiqmasin. Kechaning kunduzi bo'lganiday, yilning ham fasllari bor: chechaklari ochilgan savri, qahraton sovuqni boshlab keladigan qantari bor. Sen o'sha qantarga o'xshaysan. Yoshlarning yoz chuvog'ini, iliqligini qo'msashini sen tushunmaysan. Muhabbat degan buyuk tuyg'uni idrok etmaysan. Sevish, sevilish nimaligini bilmaysan. Dunyoda Layli va Majnun, Yusuf va Zulayho, Ko'rpash va Bayon... Boy-muhammad aytganday, Romeo va Julietta degan oshiq-ma'shuqalar o'tgan. Ha, ularning ohu-zorini eshitgan qaysi jon titramaydi? E, To'biqli bo'lmay chulchit bo'lgur, burningni jiyirmay, bu gaplarga quloq sol. Dunyoda Hojar boru Haydar bor. Hojar bir yetimcha edi. O'zlaringga ma'lum, yetim qiz tortinchoq bo'ladi. Bu bechorada nima ayb? Haydar-chi, dersan-da. Xo'sh Haydar kim o'zi? El farzandi, u — tug'ma iste'dod, uchqur tulpor! Shundoq ekan, qanday qilib unga qo'l ko'tarasanlar? To'g'ri, etiging tor bo'lgandan keyin, dunyoning kengligidan nima foyda, dersanlar: u udumimizni buzdi, nomus-orimizni oyoq osti qildi, bizga do'st bo'lganda bu ishlarni qilmagan bo'lar edi, dersanlar. Ammo Haydar shoir-laring-ku. O'zlaringniki. U yosh, ha, yoshligiga boribdi, sevidi. Xo'sh nima bo'пти? Sevgani uning aybimi. Yoshlikda odamning boshidan nimalar o'tmaydi. Yo o'zing yoshligingni unutdingmi? Huvaydo bobomizning "Muhabbatdan muhabbat bo'lur paydo, muhabbatsiz kishidan qoch, Huvaydo", degan so'zlarini eshitmaganmisan?

Jiyrancha: Yo'q, bu o'qigan she'ringni eshitgan emasman. Biror narsani unutganim ham yo'q. Kerak gaplarni sen unutganga o'xshaysan. Unutmaganingda haligi aytgan oshiq-ma'shuqlar qatoriga "Qiz Jibek"ni ham qo'shgan bo'larding. Uni aytish o'rniga qay-qaydagi biz uchun yot Julettalarni gapirmagan bo'larding. Oila qurgan emas, oila buzgan afzal, demoqchisan-da, a? Hatto kofirning ham bu gaplarni aytishga tili bormaydi.

Mesh: Astag'firullo...

Jiyrancha: Sen talay-talay mamlakatlarni kezib chiqqansan. Men senga o'xshab uzoqqa bormayman, kechagina o'zimizda bo'lib o'tgan voqealarni esingga solib qo'ya qolay: Qalqaman degan zot Ma'murani yo'ldan urib, xuddi hozirgi Haydar bilan Hojarga o'xshab el-u yurt yuziga oyoq qo'yganida, tabarruk Anet bobom nima qilgan edi? Buzuqchi deb Qalqamanni qiz tomonning odamlariga bog'lab bermaganmidi? Englik bilan Kebek arg'in bilan naymanning o'rtasiga xuddi bugungiday nifoq solganida muhtaram Kengirboy bobom nima qilgan edi? Ikkalasing ham bo'yinlariga arqon solib, sudratmaganmidi? Haydaring o'sha Qalqamanu Kebeklardan ortiq bo'ptimi? Shoir deysan. Shoir bo'lsa nima bo'пти? Shoirlar elga o'rnak bo'lishlari kerak emasmi?! Sen ham aybdorsan, Karim: Senlar sheriksanlar bu aybga! Senlarning ham bo'yinlaringga arqon tushishi kerak. Sen ham aybdorsan, Abay: Negaki, unga ta'lim-tarbiya bergan ustozni sensan. Sen ham javob berasan.

O'rmon: (*Jiyranchani ko'rsatib*) Iya, bu nimalar deb valdirayapti o'zi?

Davlat: Aytmabmidim. Hovliqishini qara! E, Xudo, o'zing madad ber.

Mesh: Battar bo'lsin.

Sirtlon: Nega gapirmaysan? Qani gapir! (*Karim yerga qaraydi.*)

Abay: Muhtaram oqsoqol, hech zamonda bir nikoh kechasida ikkita yor bo'lganmi? Dovda bir masala hal qilinayotganda ikkinchi masalaga besabab o'tilganmi?

Sirtlon: Yo'q, nima edi?

Abay: Unday bo'lsa, mana bu Jiyrancha faqat Haydar bilan Hojarnigina tergayotgani yo'q. Bularga qo'shib meni ham tergay boshladi. Shu insofdanmi? Ko'pni ko'rgan oqsoqolimizsiz, shu to'g'rimi?

Sirtlon: Yo'q, to'g'ri emas.

Abay: Unday bo'lsa, ruxsat bering, Jiyranchaning gaplariga javob beray.

O'rozboy: Ruxsat bermang, oqsoqol.

Ko'kboy: Nega ruxsat bermas ekanlar.

Tovushlar: Gapirsin.

— Gapirmasin.

— Bo'ldi, bas.

— Ruhsat bering...

Sirtlon: Bas qilinglar. Da'voying o'rinli, Abay: Qani, gapir.

Abay: Hay Jiyrancha, sen Qalqaman bilan Kebek, Anet bilan Kengirboy haqida gapirding. Bu gaplarni bekorga aytganing yo'q. Marhumlarning arvohlarini shohidlikka chaqirmoqchi bo'lding. Demoqchisanki, u zamonlarning cho'ponlari uyquda-yu, qo'ylari bo'rilar bilan yaylovda apoq-chapoq yoyilib yuradigan zamon. Hamma yoq osuda, tinch edi. Shundaymi? O'sha zamonlarni tinch qo'yaylig-u, hozir shu yerda o'tirgan xaloyiq sening bu fikringga qo'shilarmikan? Nima, o'sha shafqatsizlik oddiy xalqdan chiqqan-midi? O'sha shafqatsizlik bizlarga nimani meros qoldirib ketdi? Shafqatsizlik bilan nodonlikni! Ekkaning tikon bo'lsa, atirgul unib chiqadi, deb o'ylama. Nimani eksang o'shani o'rasan. Ular o'g'liga no'xta-yu qiziga tushov meros qoldirib, birini gungu ikkinchisini qul qilib ketdi.

O'razboy: Tushovi, no'xtasi nimasi?

Jiyrancha: Ularning pok niyati, oq fotihasi no'xta bo'ldimi endi senga?

Abay: Hoy O'rozboy, sen otga minib olishadigan dushman qidirmayoq qo'yaqol. Sening ashaddiy dushmaning o'z ichingda. Bu — johilliging, nodonliging. Xo'sh, endi Jiyranchaning gaplariga kelsak: Ko'kenoy Qalqamanning otgani rost. Ammo oqibatda nima bo'ldi? Buni Jiyrancha ataylab aytmedi, yashirdi. Aslida, Qalqaman xafa bo'lib bosh olib ketayotganida xalq yum-yum yig'lamaganmidi? Otining jilovini mahkam ushlab, uzangisiga yopishib, kechirim so'rab yalingan kim edi? Xaloyiq, u sizlarning ota-bobolaringiz edi. Xo'sh, ular Qalqamanni qarg'adimi shunda? Yo'q, ular zolim Ko'kenoyni qarg'ashdi, u qarg'ish urgur dunyodan la'nat libosini kiyib, zurriyotsiz ketdi- ku, axir!

Davlat: Tilginangdan aylanay, baraka top. Xuddi shunday bo'lgan!

O'rmon: Xuddi shunday...

Abay: Masalan, Haydarni bamisoli Qalqaman desak, unda la'nat tang'asini ko'tarib ketgan Ko'kenoy kim bo'ladi? Qani, men o'shanga o'xshayman, deb o'rta qadriga chiqadigan mard bormi? Qani, chiqsin bor bo'lsa!..

Davlat: E, o'zi bilan daf bo'lsin! O'ti o'zidan chiqsin.

Tovushlar: Qurib ketsin!

— Gapirmang uni...

— La'natlar bo'lsin unga!

Abay: Jiyrancha Kebekni tilga oldi-yu, bu ishning ham oqibati nima bilan tugaganini yashirdi. Englik bilan Kebek o'ldirilgan kuni o'sha bechoralardan yodgor bo'lib qolgan ikki norasida yo'rgakda chirqiraganicha qolgan edi. Qani, aytinglar-chi, ularning nima aybi bor edi? Ikkalasi ham benom-u nishon yo'qoldi. Qani, xalqdan so'ranglar-chi, Kengirboyning bu ishi vahshiylik emasmidi?! Xalq Kengirboyning zolimligini la'natlab, Kebekning taqdiriga achinib, haligacha yum-yum yig'laydi. Mana ularning basharalari. Xaloyiq, bilib qo'yinglar, nohaq qon to'kilishiga yo'l qo'ymanglar.

Davlat: Abay juda to'g'ri aytyapti.

O'rmon: Baraka top, Abay:

Sirtlon: Endi so'z navbati senga, Jiyrancha:

Jiyrancha: O'tgan tabarruk ota-bobolarimizning sha'nini rosa bulg'ading. Anet bobong bilan Kengirboylardan qo'lingni yuvib qo'ltiqqa urding. Mayli, ular shunaqa bo'la qolsin. Xo'sh, o'z otang Qo'nonboyning kirdikorlaridan nega gapirmaysan? Qo'dar bilan Qamqani el tinchligini buzgan buzuqi deb, ikkalasining ham bo'yniga arqon bog'lab, nortuyaga sudratib o'ldirtirgan sening mehribon otang emasmidi? Yosh kezingda men bilan birga borib tomosha qilgan sen emasmiding?

Abay: Barakalla, yaxshi esga solding. Tomosha qilganim rost. O'sha voqeani eslasam, hanuzgacha badanlarim jimirlashib ketadi. O'sha jaholat qurbonlarini o'z ko'zim bilan ko'rganim uchun ham Haydar bilan Hojarning omonligini tilayapman. O'sha voqeani sen ham tomosha qilgan eding, Jiyrancha: O'rozboy, sening otang ham bor edi. To'g'ri, ularga mening otam rahbarlik qilgan. Xo'sh, men o'sha johillarning yonini olaymi endi? Xaloyiq, u qulog'ing

bilan ham, bu qulog‘ing bilan ham eshitib qo‘y, men ularni oqlay-olmayman! Oqlasa, mana bu Jiyrancha oqlay qolsin. Men esam, Jiyrancha, O‘rozboy, otalarimizning o‘sha shafqatsizliklari uchun o‘zimni hamon xalq oldida aybdor deb bilaman. Agar umrim vafo qilsa, bir yetim qizingizni oqlab, mana bularning qo‘lidan ozod qila olsam, o‘sha niyatimga yetgan bo‘laman. O‘sha Anet bilan Kengirboy kabi kelgusi avlodlarning ta‘nasiga qolmaslik uchun ularni oqlashga harakat qilyapman! Mening gapim bitta: ular ozod etilsin!

Sirtlon: Yana kim gapiradi? Gapiringlar. (Hech kimdan sado chiqmaydi.)

Qaldirg‘och: Xayriyat, uh, tamom. Tag‘in bir yaramas chiqib ishning pachavasini chiqarib qo‘yadimi, deb xavotirlanib turgandim. Sadag‘ang ketay, oppoqdadam-ey. Nosvoyingdan ol!

Ko‘kboy: Tek tursang-chi!

Sirtlon: Abay, chirog‘im, beri kel-chi. Hamma gap aytildi. Soch-soqolimga oq tushib, to‘rimdan go‘rim yaqin bo‘lib turganida gunohga botmay. Narigi dunyoga nima deb boraman? Mayli, Haydar bilan Hojar omon bo‘lishsin!

Ko‘kboy: Suyunchi, suyunchi. Ular ozod bo‘lishdi!

Abay (*she‘r o‘qiydi.*)

*Qozog‘im, sho‘rlik yurtim, vayron yurtim,
Qorong‘ida yo‘l topolmay, hayron yurtim!
Yomon bilan yaxshini farq qilolmay,
Og‘zida ham qon, ham moy, sarson yurtim!*

Ko‘kboy: Abay og‘a! Yigitlar, qaranglar kimdir changitib kelyapti.

Qaldirg‘och: Ha, jadal kelyapti.

Ko‘kboy: Abay og‘a, bu Abdurahmon-ku! Voy, Abdurahmon kelyapti.

Qaldirg‘och: Suyunchi! Suyunchi! Oykirim opa, suyunchi! Abdurahmon kelyapti!

Abay: Xudoga ming qatla shukr. Bir o‘g‘lim bu yog‘imda-yu ikkinchi o‘g‘lim u yog‘imda. Qanot yozganday bo‘ldim. Qo‘shqanotim. Xudoga shukr.

Abdurahmon: Ota, otajon... Yetib keldim-a, elimga!

Oykarim: Aylanay sendan, bo'talog'im! Eson-omon yetib keldingmi? Manovi qarindoshlaringni tanidingmi?

Abdurahmon: Nega tanimas ekanman, oyi?

Oykarim: Mana buni-chi? Buni tanidingmi? Kelayotganingni eshitib, atayin chaqirtirib keldim. Nega ko'rishmaysan? O'zingning Mohirang-ku! Seni kuta-kuta ko'zlari to'rt bo'ldi.

Abdurahmon: Oyi, men sizdan shuni so'rganmidim?

Mohira: E, Xudo... bu qanday xo'rlik? Qani, Norimbet og'am? Qayoqqa ketdi? Norimbet og'a.

Norimbet: Ha, aytmabmidim senga, singlim. Mana, sening kutganing.

Mohira: Bo'ldi, bas, shundog'am o'rtangan yuragingga tuz sepmang.

(O'rozboy, Jiyranchalar kirishadi.)

O'rozboy: Ha, nima gap?

Norimbet: Anavi kelmay turib ko'ksimga tepdi. Mohirani haydadi, Abayning erkatoysi-da. E voh! Hozir borib yuz yigitni yig'amanu o't qo'yaman bu rasvoning ovuliga! Yo hayot, yo mamot!

O'rozboy: To'xta, qizishma!

Norimbet: Boshqa gaplashadigan gapim qolmadi.

O'rozboy: To'xta deyapman, senga! Bunaqa ekan, kuchingni boya ko'rsatsang bo'lmasmidi? Bo'ldi, bas qil. Biz hammamiz sening g'amingni o'ylab yuribmiz. Endi Abayni ayash yo'q! Eng ashaddiy dushmanim shu! Endi unga o'lim! Ota-bobolarimizning arvoqlariga til tekkizib, haqorat qilgani uchun, tirik birodarlaringning qalbini yaralagani uchun u o'limga mahkum. Mana, mana bu — zahar! Buni ichgan odam tarashaday qotib, tirishib o'ladi.

Norimbet: Qani, bu yoqqa ber! Menga ber! Men o'zim beraman unga. Hozir beraman.

O'rozboy: To'xta, hovliqma. Uni sen bermaysan. Qo'lga tushib qolishing mumkin. Kim orqali bersak ekan-a?

Jiyrancha: To'xta, bo'ldi, bo'ldi. Abayni qopqonga tushiradigan odam o'z ichimizda yuribdi.

Norimbet: Kim u? Kimni nazarda tutyapsan?

O'rozboy: Kim bo'lardi. Azimxon ham aytuvdi-ya, hali umid uzilgani yo'q, deb. Aqlingga qoyil, Jiyrancha!

Jiyrancha: Qani zahar, menga beringlar. Men o'zim topshiraman beradigan odamga! Gap shu! Og'izlaringga ehtiyot bo'linglar!!

O'rozboy: Ehtiyot bo'linglar!

PARDA

IKKINCHI PARDA

To'rtinchi ko'rinish

Qo'shaloq tikilgan o'tov ichi. Sahna ortida kimdir she'r o'qiyapti. Ahyon-ahyonda kulgi, qiyqiriq yangraydi.

Azimxon: Kim u vaysayotgan?

Karim: Haydar: "Englik bilan Kebek" degan doston yozibdi. O'shani kechadan beri eshitishyapti.

Azimxon: Ha-ya, aytmoqchi... juda rasvo qilib yozganmishmi? Sen uni eshitib ko'rdingmi?

Karim: Tingladim. Rasvo ekani rost. Turgan bitgani ig'vo. Kengirboy bobomizni to'ng'izga o'xshatibdi.

Azimxon: Ha, shuning uchun ekan-da, O'rozboy og'alarning g'azabi qo'zib yurishgani. Bevasini tortib olishgani ustiga bunisi oshib tushibdi.

Karim: Abay uni himoya qilib turibdi-da. Bo'lmasa...

Azimxon: Hay... Kel, o'zimizning gapimizni gaplashaylik. Xo'sh, kechagi gapni o'ylab ko'rdingmi?

Karim: U gapnimi? (*Azimxonga tikilib o'ylanib qoladi.*) U gapni... Qani, menga ber-chi? (*Qo'lini cho'zadi.*)

Azimxon: Yasha, azamat! (*U cho'ntagidan kichkina shishacha olib Karimga beradi. Bu shisha avvalgi sahnada O'rozboyning Jiyranchaga bergan shishachasi.*) Mana bu boshqa gap.

Karim (*Azimxonga sinchkov qarab.*) Sen buni Abayga ichir, deb beryapsanda, a? Bekorlarni aytibsanlar! Berilmaydi Abayga!

Azimxon: Ie, bu qanaqasi bo'ldi?

Karim: Sen Abayni faqat To'biqli urug'igagina tegishli odam, deb tushunsang keraqda, a? Ovora bo'lasanlar, berilmaydi bu!

Azimxon: Nima, tarixda odamlarni to'g'ri yo'ldan ozdirganlar kam bo'lganmi? Buning yo'li...

Karim: Yo'li bunaqa bo'lmaydi!

Azimxon: Hoy, sen bilan nima deb kelishgan edik?

Karim: Abayni o'zim bu yo'ldan qaytaraman. Tushuntiraman.

Azimxon: Unga gap uqtirib bo'psan. Borgan sayin qanot-quyrug'i o'sib, tarafini oluvchilar ko'payib ketyapti.

Karim: Ko'paymaydi, tez kunda to'zg'ib ketadi.

Azimxon: U tirik ekan, to'zg'ib bo'pti.

Karim: Men Abayning ba'zi fikrlari bilan kelisholmayman, ammo uning joniga qasd qilish niyatim yo'q. Xo'p, mayli, bu haqda keyin bafurja gaplashamiz. Biroq shuni yaxshi bilib qo'yinglarki, men sizlar o'ylagan g'alamislikni qilmayman! Qildirmayman ham! (*Jahl qilganday bo'lib chiqib ketadi.*)

Azimxon: E, shoshma. Hali shoshmay tur. Nog'oramga shun-aqa o'ynaysanki...

(Azimxon nariroq ketadi. Abdurahmon, Oykarim, Qaldirg'ochlar chiqishadi.)

Oykarim: Bo'talog'im, bu sening to'ying, Hojar bilan Haydarning to'yi...

Abdurahmon: Rahmat, oyi.

Oykarim: Niyatim: to'y ustiga to'y bo'lsin, devdim. Ammo Mohiraga nisbatan qilayotgan muomalangga sira ham tushunolmayotibman-da, o'g'lim.

Abdurahmon: Yana shu gapmi, oyi?

Oykarim: Nima qilay, o'g'lim. Tunov kungi sovuq muomalangdan so'ng ich-etini yeb yuribdi. Ozib ketdi sho'rlik.

Abdurahmon: Bo'ldi-da, oyi. Muncha cho'zavermasangiz.

Oykarim: Sen Mohirani yaxshi bilmaysan. Bunaqa qobil qizni topib bo'psan. Ha, bundoq ochiqroq aytgin-da, dardingni!

Abdurahmon: Qo'ying, meni qiynamang, oyi.

Mag'aviya: Endi nima qildik? Norimbet turibdi bu yoqda g'azab otiga minib. O'rozboylar turibdi pichog'ini qayrab. Ustiga ustak Mohirani nari tur, desak, qandoq bo'larkin? Bu gaplar-

ning og'irligi kimga tushadi? Otamizga tushadi, bilasanmi sen shuni?

Abdurahmon: Bilaman. Ha, qiyin bo'ladi. Ammo mening ahvolim shu gaplardan ortiq bo'lsa ortiqki, kam emas. Anavi o'lan aytayotgan kim o'zi?

Mag'aviya: Haydar: Englik va Kebek haqidagi dostonini o'qiyapti. Odamlar iltimos qilib, qayta-qayta o'qitishyapti.

Abdurahmon: Shunaqami? Zo'r-ku!

Mag'aviya: Bir-ikki kun ichidayoq hamma uni yodlab oldi. Yaylovdagilarning hammasi bilishadi. Elga taralib ketdi.

Abdurahmon: Haydar baxtli yigit.

Mag'aviya: Men borib eshitaman.

Abdurahmon: Hech bo'lmasa sen baxtli bo'lg'in, Haydar! Menchi? E, bevafo dunyo!..

Qaldirg'och: Qaynijonim, menga qara. Sen Mohirani kim deb o'ylab yuribsan? Nima, shaharda o'qib yurib, elimizning urf-odatlarini esingdan chiqarib qo'ydingmi? Go'yo u senga xotin, sen unga er emasdek tutyapsan o'zingni. Yo o'rgatib qo'yaymi nima qilishingni. Uyat-e! Bor, so'rash... Gaplash... Sizlarning madaniy odatlaringizda nima qilardi? Avval quchib so'ng suyarmidi yo... hidlab ko'rarmidi. Qanaqa bo'lardi? Qani, bir gaplashinglar-chi...

Azimxon: Ana xolos...

Abdurahmon: Mohira, bularning ikkalamizdan boshqa ishlari yo'qmi? Shunday qilishlari yaxshimi?

Mohira: Yaxshi emas. To'g'ri aytasiz, Abdurahmon: Har kimning ko'ngli, ixtiyori bor. Unga mana bunday qil, bunday qilma, deb o'rgatib bo'larmidi?

Azimxon: Voy, Mohira-yey, ko'ngli ixtiyori deysan. Bu odam ko'ngli bilan ixtiyorini allaqachon boshqaga boy berib qo'ygan.

Mohira: Gapingiz rostga o'xshaydi. Bunaqaligini qayerdan bilay...

Qaldirg'och: Qo'y-e! Birini ko'ndirsang ikkinchisi qochadi, ikkinchisi endi yon beray deganda birinchisi ko'zyoshi qiladi. Nima bo'ldi sizlarga o'zi? Mohira, ko'nglinga bir gap keldi! Eringning uch-to'rt tola sochini olib menga ber. Boya men bir domla bilan gaplashib kelgan edim, dam soldirib isitib beramiz.

Mana ko'rasan. Xafa bo'lma, xayolingni bo'lmay o'ynab-kulib yuraver...

Ko'kboy:

*Qaldirg'ochim, qalamqoshim,
Ko'ngil berar kuning bormu?
Daryo bo'ldi ko'zda yoshim,
Niyatinga o'zing yormu?*

(Abay bularning gaplarini eshitib turadi).

Qaldirg'och: Turqing qursin!

Ko'kboy: Ie, nima bo'ldi senga, jonginam?

Abay: O, sho'rlik Ko'kboy: Senga qiyin... Nima deyapti bu, Qaldirg'och?

Qaldirg'och: Nima derdi, Abay og'a. Gapining maza-matراسi yo'q.

Abay: Rostini ayt, nima dedi.

Qaldirg'och: Kuydim, yondim deydi-da, boshqa nima ham derdi.

Abay: Shunaqami? Unday bo'lsa ayama, Qaldirg'och, boplab ta'zirini ber.

Ko'kboy: Abay og'a, mening ko'mochimga kul tortasizmi desam... Bu nima deganingiz? Sizdan buni kutnovdim.

Abay: O, Ko'kboy, Ko'kboy! Talay-talay ayollarni haliginaqa gaplaring bilan boshini aylantirganingni ko'zim bilan ko'rib, qulog'im bilan eshitmasam ham mayli edi. Xudodan qo'rqmay-sanmi? Ularning qaysi biriga vafo qilding? Endi Qaldirg'ochni yo'ldan urmoqchimisani?

Ko'kboy: Voy, og'ajon, bamisoli bu sham bo'lsa, men parvonaman. Shamning yallig'ida kuyib o'lsam maylimi?

Qaldirg'och: Turqing qurg'ur... Parvona degani nimasi yana?

Abay: "Men kapalakman, Qaldirg'ochning ishqı o'tida yonib ketyapman", deyapti. Kapalak degani sal ixchamroq bo'lardi, mana bunaqa beso'naqay kapalakni umringda ko'rganmisan, Qaldirg'och?

Qaldirg'och: Voy turqing qurg'ur-ey...

Ko'kboy: "Ey, chechan til, teran o'y, O'sha paytda qayda eding? Oshiqliging tan olgil, yengilding sen, yengilding..." degan gapni men emas, o'zingiz aytgan edingiz-ku, Abay og'a. Hozirgi gaplaringiz do'st odamning gapi emas... Qaldirg'och, jonginam, parvo qilma bu gaplarga! Nima deysan, sevgimga ishon, javob qil?

Qaldirg'och: E, bor-e...

Ko'kboy: Omadi yo'q yigitni tuyaning ustida ham it talaydi, deganlari rost ekan. Ha, aytganday, Abay og'a, mashhur shoir Zaynab kelibdi ovulimizga!

(Zaynab kirib keladi).

Abay: O, Zaynab, marhabo, kel, kel! Yo'l bo'lsin, qayoqlardan so'raymiz?

Zaynab: Olatov tomonlardan... U yerdan sizlarga she'riy tuh-falar olib keldim. Bu yerdan Olatovga eltmoqchiman.

Abay: Yasha, baraka top, Zaynab: Qadamlaringga hasanot, hurmatli mehmonim bo'l.

Zaynab: Faqat tuzingizni totgani emas, yaxshi-yaxshi o'lan-laringizni eshitish uchun keldim.

Abay: Zaynab, bu yerda sen kabi o'sib kelayotgan oqinlarning boshi dovda, xabaring bordir.

Zaynab: Sizning o'lanlaringiz bilan birga Haydarning ham o'lanlari biz tomonlarda mashhur bo'la boshladi. Uning o'lan-larini ham eshitish orzusida kelgan edim. Afsuski, boshiga kulfat tushibdi.

Abay: Ertaga uni o'z qulog'ing bilan eshitasan. Yur, ketdik.

Haydar:

*Yupanch yo'g'u, armon ko'p,
Inson nechuk kun ko'rar?
Pastlik ko'pu, rostlik yo'q,
Ishq ahli nechuk kun ko'rar?
Maskan yo'g'u maqsad yo'q,
Mardlar nechuk kun ko'rar?*

*Tarovatu orom yo‘q,
Yurtim nechuk kun ko‘rar?
Ey, kindik qonim to‘kilgan yurtim.
Men sening farzandingman.
Yurak-bag‘rim bamisoli o‘t,
O‘lanimda zor ila nola!*

Mag‘aviya: She‘rlarida mungli nola bor. Ilhom bor.
Ko‘kboy: Eshitganni larzaga soladi...

Zaynab:

*“O‘lan — so‘zning podshosi, so‘z sarasi.
Tog‘dan tushgan tiniq suv sharsharasi.
Tilga yengil, yurakka iliq tegib,
Ravon bo‘lsin ohangi, sharora” —*

degan edi-ku, Abay og‘am. Uni mana shunaqa dilni yayratuvchi o‘langa aytgan bo‘lsa ajab emas.

Mag‘aviya: Yashang, Zaynab opa! Zaynab opaga ma‘qul bo‘libdimi, bas. Hammaga ma‘qul bo‘ladi.

Abay: Shunchaki yashash, yeb-ichishdan iborat emas. Kurashlardan iborat. G‘alaba bilan mag‘lubiyat hamisha yonma-yon yuradi. Ammo bu kurash O‘rozboylar boshlagan g‘arazli ishga o‘xshamaydi. Bahslashmoqchi odam halol, odil bo‘lmog‘i kerak. Eslaringda bo‘lsin, adolatli fikr g‘arazli o‘ylardan fisq-fasoddan tug‘ilmaydi, aksincha, toza, sof ko‘ngildan tug‘iladi. Munozaraga g‘araz, hasad aralashdimi, undan yaxshilik kutmanglar. Oxiri voy bo‘ladi. Shunaqa. Qani, Zaynab, sen bu haqda qanday fikrdasan?

Ovozlar: Eshitaylik. Gapirsinlar!

Zaynab:

*O‘lan aytki, orom olsin ko‘ngillar,
Har satringiz go‘yoki jon ozig‘i.
Ohangidan saboq olsin bulbullar,
Aytilmagan fikrlarning to‘zig‘i!
Niyatim shu: eshitgim bor, Haydarjon...
Bul o‘lanim bo‘lsin senga suyunchim!*

Ovozlar: Yashang, bor bo'ling! Tabriklaymiz, Haydarjon! To'y ustiga to'y bo'lsin! Yana eshitaylik.

Zaynab: Men bugun o'zim kabi ayollarning dardini aytmoqchiman. Ha, ularning dardi og'ir. Zo'ravonlarning zulmidan yurak-bag'irlari ezilib ketgan. Qani, aytinglar-chi, bu bechoralarni kim himoya qiladi. Ushalmagan orzu-armonlarini kim o'langa soladi. Sizlar bo'lsa, nuqul "kuydim, yondim, o go'zallar" deyishdan nariga o'tmaysizlar. He, o'rgildim sizlardan.

Boymuhammad: Obbo, juda nozik joydan tutdi-ku!

Abay: Barakalla, Zaynab, juda to'g'ri gapirding! Mana qaranglar, Pushkin rus qizining o'y-yu fikrini, dard-u hasratini qanday chiroyli tasvirlagan! Tolstoy ham shunday qilgan. Biz-chi? Biz ham shunday yozadigan paytimiz keldi. Xalqning qalbi, dardi, orzu-umidi aks etmagan o'lanning ta'siri bo'lmaydi. Haydarning dostoni mana shu ezgu niyatning boshi bo'ldi. Bundan juda xursandman. Bugun Haydar ko'kka parvoz qildi: Englik o'zining boshidan kechgan bu mungli muhabbatini yozolmay olamdan o'tgan bo'lsa, Haydar uni tiriltirdi. Haydar hozirgi zamonning Kobegi!

Haydar: Rahmat, Abay og'a, juda meni osmonga olib chiqib qo'ydingiz-ku...

(Abay, Zaynablar gaplashib o'tirishadi).

Karim: Gapning ochig'i, Haydar, men sening dostoningdan Abay og'am aytganchalik qanoatlanganim yo'q.

Mag'aviya: Nega? Qayeri yoqmadi senga?

Karim: Bir yalangoyoq bevani shunchalar e'zozlash shartmi? Elu yurtimizning faxri bo'lgan marhum oqsoqollarimizni tuproqqa qorasanlar. Shu ham gap bo'ldi-yu. Xo'sh, bunga odamlar rahmat aytarmikan? Nima qilasanlar xalqning nafsoniyatiga tegib.

Haydar: Yopiray, shunaqa qilibmizmi? Ana xolos...

Mag'aviya: Ie, manovining gaplarini qaranglar. Hasad-ku, bu.

Karim: *(jahli chiqib)* E, bo'ldi-ye. Gaplaringni eshitishni ham istamayman!..

Boymuhammad: Buni qaranglar-a... Bor ekanda yo'q ekan, och ekanda to'q ekan. Qadim-qadim zamonda, Italiya degan

makonda Matsar, Salgeri degan sozandalar o'tgan ekan. Matsar degani barmog'idan bol tomgan, hatto yaratganning o'zi oshiq bo'lgan sozanda ekan. Salgeri esa shunchaki cholg'ichi. U qancha harakat qilmasin, qancha urinmasin mahoratda Matsarga yetolmabdi. Kunlardan bir kuni Salgeri Matsarning oldiga kelsa, u yangi yozgan kuyini chalib o'tirgan ekan. Matsar bu kuyini azador bir ayolning iltimosiga ko'ra yozgan ekan. Salgeri kuyini eshitib o'tirib, azbaroyi yoqqanidan: "Ey Xudo, nega bu kuyini men yozmadim? Bu qanday atolatsizlik bo'ldiki, tilagan-ga bermaysan!" deb nola qiladi. Shu payt ko'ngliga mash'um fikr kelibdi. Alqissa, Matsarni uyiga taklif qilib, zahar berib o'ldiribdi. Rashk va hasad jahannamdan yomon, deganlari chin bo'lsa kerak.

Ko'kboy: Bizning Haydar xuddi o'sha sen aytgan Matsarning o'zi.

Haydar: Qo'y-ye...

Mag'aviya: Rost.

Azimxon: U holda Salgeri kim? Balki, uni ham aytib berar-sizlar.

Abay: Bo'ldi, bas qilinglar. O'tgan zamonning ishi bu. Hozir unaqalar yo'q. Haddilaringdan oshmanglar...

(Qiz-juvonlar qurshovida Hojar kiradi).

Ko'kboy: O, barakalla, barakalla. Men betochar aytaman.

*Hoy, kelinni ko'ringlar,
Ko'rmanasin beringlar.
Topganingiz yashirmay,
Qo'lga ola kelinglar.
Ot bersangiz tulpordan
Yoli bo'lsin ufordan...
Abay qaynotasiga salom!*

Abay: *(kelin-kuyovni quchib)* Umrlaring uzoq bo'lsin. Baxtli bo'linglar, chirog'larim.

(Kelin xursand, Abayga ta'zim qiladi).

Ko'kboy:

*Qo'chqor bersang to'qlisin ber,
Semizgina, miqtisin ber,
Qaynag'asi Abdurahmonga salom!
Tuya bersang qutlisin ber,
Yelin to'la sutlisin ber...
Qaynonasi Oykarimga salom!*

Oykarim: (*Hojar bilan Haydarni quchadi.*) Qutlug' bo'lsin!
Baxtli, saodatli bo'linglar!

(Kelin salom qiladi. Hamma xursand.)

Ko'kboy:

*Echki bersang yakkasini ber,
Ma'raydigan takasini ber!*

Ey, sizlarga nima bo'lgan o'zi? Bersalaring-chi!

Abay: Hoy, bu ta'magirga kim betochar ayt, dedi?

Ko'kboy: Ha, alam qilyaptimi? Mana shunday qilib o'chimni olmasam sizlardan! Abay og'a, boyagi gapingiz uchun o'chimni olyapman. (*Kulgi.*)

Abay: Voy yaramas-ey. Sening jazoyingni Qaldirg'och bersin.

Haydar: Karim, kechirasan, nazarimda, sen mendan xafa ko'rinasan. Nima, mendan bir gap o'tdimi?

Karim: Xafa bo'lish ham gapmi...

Haydar: Bo'lmasa, bundoq tushuntirib gapirsang-chi, axir. Nima bo'ldi o'zi?

Karim: Sen bizning Kengirboyday tabarruk bobomizni haqorat qilding.

Haydar: Englik bilan Kebekni, ikki begunoh oshiqni ot dumiga bog'latib, sudratib o'ldirgan o'sha sening Kengirboy bobong-nimi? Dovda Abay og'am hammasini tushunarli qilib aytib berdi, shekilli.

Karim: Aytilgan gap — otilgan o'q. Pang etdi-yu chiqdi-ketdi. Sen-chi, sen. O'tgan ulug'larning sha'nini yerga urding. Yomon gap qilding. O'ylab ko'r — ularning ham bola-baqralari, avlodlari

bor. Men bu aybingni kechirolmayman. Arvoh kechirolmaydi. Hali uvoli tutadi seni!

Haydar: Hmm, men seni endi bildim. Tunov kuni dovda dovdirab qolganingni ko'rib, hayron bo'lgandim. Bekorga emas ekan-da. Jiyrancha bilan tortishayotganingda gap topolmay qolganing, Abay og'amning yuzini yerga qaratganing chog'ing kel-maganidan emas, ataylab qilgan dushmanliging ekan!

Karim: Tuhmat qilma! Marhumlarimizni haqorat qilganing yetmaganday, tiriklarga ham til tekkiza boshladingmi?

Haydar: Sho'rlik Abay og'a sening bu ishingni, Jiyranchaning salobati bosib, gapirolmay qoldi, deb yuribdi-ya! Essiz...

Karim: Odamlarni bir-biriga dushman qilib bo'lding. Endi og'a bilan inining o'rtasiga rahxa solmoqchimisani? Qoyil-e! Seni urmagan arvoh — arvoh emas, seni urmagan qarg'ish — qarg'ish emas...

(Hojar bilan Qaldirg'och chopib kirishadi.)

Hojar: Haydar, jonginam. Nima, shunday xursandchilik kunlarni rasvo qilmoqchimisani. Bas qilinglar... Yuringlar...

Haydar: Hojar, azizam, xafa bo'lma... Ayb menda.

Hojar: *(Karimga.)* Karim, sen ham oppoq emassan. Jiqqilla-shadigan joyni topganingni qaraya... *(Haydarni olib chiqib ketadi.)*

Qaldirg'och: *(Karimning yoniga o'tiradi.)* Ha, qaynijonim, qovoq tumshug'ing buncha osilib ketdi? Bir nimadan xafamisan? Yo mening hazil gaplarim yoqmadimi? *(Karimdan sado chiqmaydi.)* Qani, nosvoyingni ol-chi, o'zim bir chektirib qo'yay. *(Karim indamagach, o'zi uning cho'ntagiga qo'l tiqib shishachani oladi. Shishani aylantirib tomosha qiladi.)* Voy-vo'y, muncha chiroyli bu shisha? *(Shishachaning tiqinini olib kaftiga nos solmoqchi bo'ladi.)* Shishang zo'r ekan...

Karim: *(O'ziga kelib, shoshib.)* Hoy, to'xta, bu yoqqa ber!

Qaldirg'och: *(cho'chib.)* Voy, turqing qurg'ur-e... Tuf-tuf... Cho'chitib yubording-ku. Qo'rqma, olmayman shishangni.

Karim: E, bu yoqqa ber! *(uning qo'lidan yulib oladi.)* Bu nos emas, ichadigan dorim... Nos mana! *(Nosqovog'ini olib uzatadi. Qaldirg'och og'ziga nos solib chiqib ketadi.)* Bo'ldi bas. Endi

men boshqa odamman. Men bo‘lar-bo‘lmas o‘lan yozib, yoshlarni chalg‘itadigan Abay emasman. Men — Karimman. Endi yo‘limiz boshqa. Mening yo‘lim ravon, qiblam aniq! Umrimning o‘rta yo‘liga kelib qolibmanu, haliyam adashib yurgan ekanman. O‘tgan umrim adashishdan, yanglishishdan iborat ekan. Endi ortimga qayrilmayman. Senlar boshi berk yo‘lni tanladilaring, ayb o‘zlaringda. Endi men senlar uchun yo‘qman. Hamma ishga nuqta qo‘yaman. (*Qo‘lidagi shishachaga qarab*) O‘sha nuqta sensan...

(*Azimxon kiradi*)

Azimxon: (*Karimning qo‘lida tanish shishani ko‘rib.*) Bir qarorga kelishingni bilardim, esing kirishidan umidvor edim, Karim:

Karim: (*qo‘lida shishacha.*) Ha, mana endi esim kirdi...

Azimxon: Hozir ayni payti...

Karim: Nimaning payti? Men nima deyapman-u sen nima deyapsan?

Azimxon: Qo‘lingdagini aytyapman.

Karim: Bekorlarni aytibsan, tushunmabsan. Shunchaki o‘zimga bir narsadan jahlim chiqib... Hamma yomon xayollarni boshimdan quvdim.

Azimxon: Qanaqasan o‘zing? Bir tayinli gap aytsang-chi, axir?

Karim: (*Haydarga zahar solingan kosani uzatib.*) Kelinglar, mayda-chuyda gaplarni bas qilaylik. Yaxshiliklardan gaplashaylik (*mug‘ombirona*). Haydar bilan Hojarning baxti uchun qadah ko‘taraylik (*Haydarni quchoqlaydi*). Kel, do‘stim, senining uchun ichaman. (*Ichadi. Haydar ham ichadi.*)

(*Hojar bilan Haydar ikkalasi qolishadi.*)

Hojar: Azizim, jonginam... Karim bilan yarashdilaringmi?

Haydar: O‘zi bir-birlarimizdan gina qilmaylik, dedi-ku. Sal bo‘lmasa Abay og‘amga aytib yuboray depman. Yaxshiyam aytmaganim...

Hojar: Nimani?

Haydar: Endi og‘a bilan inining o‘rtasiga nifoq solmoqchimisani, deb dag‘dag‘a qiluvdi-da, boya. Yaxshiyam aytib yuboradim.

Hojar: Bo'пти, hammasi orqada qoldi...

Haydar: Orqada qoldi, xafa bo'lma, jonginam...

Hojar: Ohimizni Xudoning o'zi eshitdi... Ko'zyoshlarimni qabul qildi... Jonim... (*Quchadi.*)

Haydar: Hojarginam... Endi bizning baxtimizga hech kim raxna sololmaydi, eshityapsanmi?!

Hojar: (*o'padi.*) Omin...

Haydar: Jonim... Azizam...

Hojar: Baxtim, yupanchim...

PARDA

Beshinchi ko'rinish

Sahnaning bir tomonida Haydarning o'tovi. Nariroqda boshqa o'tovlarning tepalari ko'rinish turibdi. Tashqarida, sahnaning ikkinchi chekkasida Oykarim, Mohira, Mag'aviyalar o'tirishibdi. O'tov ichi ilgari day. Qalin qilib to'shalgan ko'rpa ustida Haydar behol yotibdi. Ahvoli yomon. To'shak yonida Abay, Abdurahmon, Hojar:

Oykarim: Tabib ham ketdi.

Abay: Ha, ketdi.

Haydar: U bekorga ketgani yo'q, mening dardimni bilib ketdi.

Oykarim: O'zi hech narsani bilmaydigan tabib ekan.

Abdurahmon: Shunday paytda durustroq tabib topa olmaganimizni qarang-ga!

Haydar: Bu ham mening sho'rim (*jindek pauza*). Abay og'a, qo'lingizni bering! (*Abayning qo'lini ushlaydi.*) Og'ajon, qiynalib ketdim... Ichim yonyapti. Ajalim yaqinga o'xshaydi...

Hojar: Ey Xudo, rahm-shafqat qil. Muncha zorlatmasang meni! Yorug' yulduzim... Meni dog'da qoldirib so'nmoqchimisan! Sensiz mening holim nema kechadi?!

Oykarim: Hojar, chiroqqinam, sabr qil...

Abay: Ey, shum taqdir. Munchalar beshafqat bo'lmasang? Nega shuncha adolatsizsan?!

Haydar: Qo‘limdan tutib olovga birga tushgan edingiz, Abay og‘a. Siz bilan kechirgan umrim eng charog‘on saodatli kunlarim edi. Afsus, juda oz bo‘ldi bu kunlar. Shu ham adolatdanmi? Adolat bormi o‘zi?

Hojar: (*Haydarni quchib, yig‘lab.*) Yo‘q, o‘lmaysiz, siz menng yorug‘ yulduzimsiz, o‘chmaysiz... Yo‘q, gapirmang, gapirmang, meni tashlab ketmang. Bizning nima yozig‘imiz bor edi, ey parvardigor! (*Unsiz quchoqlagancha qoladi. Abay yig‘lab o‘tiribdi. Boymuhammad kiradi.*)

Oykarim: Nima gap? Bu qanaqa shovqin?

Boymuhammad: Norimbet kelibdi. Mohirani so‘rayapti.

Mag‘aviya: Ovozini o‘chiringlar u yaramasni!

Mohira: Men ketmayman. Mana bu ahvolni ko‘rib turib qanday ketaman.

Oykarim: Chiqib aytinglar, bormaydi, denglar unga.

Norimbet: (qichqiradi.) Qani bo‘l, tez chiq, Mohira!

(*Takajon kiradi.*)

Mag‘aviya: O‘chirsangiz-chi, anovining ovozinini!

Takajon: Nega o‘charkan uning ovozi. Singlisining oldiga kelgan. Nima, masxara qilmoqchimi Abdurahmon uni?

Abay: (*uyda.*) Abdurahmon, o‘g‘lim, bor, anovi kasofatni tinchitgin.

(*Abdurahmon tashqariga chiqadi.*)

Mag‘aviya: (*Takajonga.*) Yopiray, Takajon og‘a, gapga tushunasizmi o‘zi?

Abdurahmon: Bo‘ldi bas qilinglar! Qanaqa odamsanlar...

Takajon: (*Mag‘aviyaga.*) Haydardan ayrilib qolaman, deb zor-zor yig‘laysan. Jon yangang, yaqining ketmoqchi bo‘lib turibdi-yu, uni xayolingga ham keltirmaysan?

Abdurahmon: (*Ularga yaqinlashib.*) E, bo‘ldi qilinglar. Nima balo bo‘lgan bu odamlarga!

(*Tashqaridan Norimbet, Sirtlonlarning tovushlari: "Olib ketaman dedimmi, olib ketaman Meni to‘xtata olmaysanlar!" Abdurahmon Mohirani oldiga borib.*)

Abdurahmon: Manavi rasvolarga, qo'y, degin. Haydaging, bu kasofatlarni. Nima kerak, bu yaramaslarga?!

Abay: (*ularning oldiga chiqadi.*) Nima gap, uyat degan narsa bormi o'zi?

Mag'aviya: (*Abdurahmonga.*) Meni shuncha masxara qilgani yetar, bas, endi Mohirani olib ketaman deyapti.

Abdurahmon: Shu paytda-ya! Yo'qot, unday bo'lsa hammasini yo'qot!

Abay: (*Abdurahmonga.*) To'xta, Bu kim o'zi? Norimbetmi?

Abdurahmon: O'sha.

Abay: Nima kerak ekan?

Abdurahmon: Shunchaki valdirayapti-da.

Abay: Shunchaki emasdir-ov. Mohiraga kelgandir.

Abdurahmon: Ota, Haydarning oldiga kiraylik.

Abay: Hozir. Mohiraga qiyin bo'ldi...

Abdurahmon: Hozir shu gapning mavridimi, ota. Haydarning oldiga kiraylik...

Abay: Sabr qil, hozir... Mohiraga osonmi? Hozir ketsa, mutlaqo ketadi. Ketadi. Unga jo'yali bir gap aytish kerak-ku, axir, o'g'lim...

Abdurahmon: Aytolmayman...

Abay: Nega aytolmaysan, o'g'lim?

Abdurahmon: Sizni xafa qilgim kelmayapti... Aytolmayman.

Abay: Mayli, men xafa bo'lmayman. Bor gapni ayt o'g'lim.

Abdurahmon: Mayli, aytsam... Haydaringiz o'lim to'shagida yotibdi. Mening ahvolim ham unikidan kam emas, ota. Men ham o'linga mahkum etilganman.

Abay: Nimalar deyapsan, bolaginam?!

Abdurahmon: Men tamom bo'lganman. O'pkam chirib bo'lgan. Mohiraga ham yuqtirib, uni adoyi tamom qilaymi?

Abay: Sen o'qishni bitirib kelgan kuning quvonchim cheksiz edi. Umr bo'yi qorong'ilikda, nodonlikda kun kechirib kelayotgan elingga bilim, ma'rifat nurini socharsan, deb boshim osmonda edi, o'g'lim. Haydar ikkalangni yangi zamonning boshi bo'ladi, degan umidda edim... Ey tangrim, shunchalar shafqatsizmisan! Qo'shqa-notimdan ayirib... Shunchalar zulm!..

Abdurahmon: (*otasining quchog'ida.*) Men o'limdan qo'rqa-yotganim yo'q, otajon. Afsuslanaman, xolos. Shuncha o'qib, bilganlarimni el-u yurtimga berolmay ketayotganimdan xafaman. Otajon, bergan tarbiyangizni oqlamoqchi edim... Nachora, safarim qarib qoldi, Haydarning umri qancha qolgan bo'lsa, meniki ham shuncha...

Abay: O'g'lim unday bo'lsa, senda ayb yo'q. Mohiraga ham ginam yo'q. Hech bo'lmasa u bizni qarg'amasin, bor gapni ochiq-oydin ayt unga! Bizdan rozi ketsin, Bor, xayrlash...

Norimbet: Hoy qayoqqa, Mohira! Chi q bu yoqqa, ketdik!

Mohira: Qulog'im sizda.

Abdurahmon: Mohira, azizam, yaqinroq kel (*Mohiraning oldiga keladi.*) Hozir bu gaplarning mavridi emasdi. Ko'rib turibsan, Norimbet og'ang tiqilinch qilyapti. Jonginam, mening senga zarracha ginam yo'q. Bilaman, sen meni uch yil kutding. Rahmat. Ammo ne qilaylik, shafqatsiz taqdir meni ayamadi. Hozirgina otamga hamma sirimni aytdim. Ana, alamiga chidolmay o'tiribdi. Haydarning dardi ustiga meniki chipqon bo'ldi. Senga ham aytay: men kasalman. Tuzalmas dardga uchraganman. Ozingina umrim qoldi. Sog'-salomat bo'lganimda sendan boshqani demasdim, Ne qilayki, kasalman... Senga ham bu dardni ilashtirib qo'yamanmi, deb qo'rqaman. Men baxtiqaroni kechir, Mohira:..

Mohira: Men sizni tushunmagan ekanman. Meni mensimaydi, ko'ngli yo'q, deb yurgandim. Ammo baribir, sevardim. Sizning dardingiz mening dardim. Mening qalbim sizniki... Boshqa hayot men uchun begona! Yoningizda qolib, dardingizga sherik bo'lay...

Abdurahmon: Mohira, jonginam. Mening umrim oz qoldi. Sen yoshsan hali. Jabr bo'ladi senga, azizam.

Mohira: Menga sizdan boshqasi kerak emas.

Abdurahmon: Yosh joningga jabr qilma, Mohira:

Mohira: Meni quvmang...

Zaynab: Chirog'im Haydar, o'lanlaringni eshitib mehrim tovlangan edi. Yurt baxti uchun tug'ilgan o'g'lon eding. Elingning peshonasiga sig'mading, bizni tashlab qayoqqa ketib bo-ryapsan?

Karim: Shunaqa gap, Abay og'a. Haydarning holidan xabar olay, so'ng siz bilan xayrlashay, deb keldim. Uzoq safarga otlanmoqchiman...

Abay: Ozingina sabr qilsang bo'lardi. Haydarni ko'rmaysanmi, axir? Hozir mening qalbim bo'm-bo'sh, xayollarim parishon. Men endi kim bilan qolaman?

Karim: Ovuldagi mayda-chuyda gaplar bilan o'ralashib umrim o'tib ketyapti, Abay og'a. Boshqa yurtlarni ham ko'rsam, musulmon olamini aylanib, dunyoda nima gap, nima so'zlar bor bilsam, gunohlarimdan forig' bo'lib, odam bo'lib qaytsam, degan niyatdaman. Men ham tarbiyangizni ko'rganlardan biriman. Dunyo ko'rib, el-u yurt ko'rib, xalqimga, o'zimga yo'l topib qaytaman.

Ko'kboy: Hoy, Norimbet, muncha tiqilinch qilmasang. Odamisan o'zing?

Norimbet: Haydaring o'lsa o'lar. Qarg'ish tekkan unga. Bilsin u yaramas, qarg'ish tekkanini!

Haydar: Qarg'ish? Kim aytdi bu gapni? Qayoqdan eshitdim?... Shu so'zni ilgari ham bir eshitgan edim. Qarg'ish? Chaqiring... Chaqiringlar, Abay og'amni?

Oykarim: (*Abayga*) Sizni chaqiryapti, yuring, bir nima demoqchi shekilli.

Abay: Ha, Haydarjon?

Haydar: Abay og'a... qarg'ish... Qarg'ishdan ham odam o'ladimi?

Abay: Yo'q, chirog'im. Bu bekor gap. Bekor...

Haydar: Unday bo'lsa... Oh, tamom bo'ldim... Attang... (*Azimxonni, Karimni ko'rsatib.*) Senmi? Senlarmi?... (*Shilq etib tushadi.*)

Hojar: Nima dedi? Nima demoqchi edi?! Ayta olmay ketdi... Armonda ketdi. Ey, Xudoyim!

Karim: Mana bu Azimxonni yomon ko'rar edi, kiritmaslik kerak edi, bu yerga yaramasni...

Ko'kboy: Hoy, Azimxon suyak poylagan itga o'xshamay chiq bu yerdan!

Azimxon: O'h-o', yig'ining kattasini endi ko'rasan. Shoshmay tur, qulvachcha!

Ko'kboy: Yo'qol ko'zimdan!

Abay: Nimani aytolmay ketting?... Nima demoqchi eding, o'g'lim. Armoning ichingda ketdi... Zim-ziyo tun bag'rida armon bo'lib men qoldim. Qanday chidayman bunga! Kimga dod deyman, kim madad beradi menga!

Karim: Abay og'a, o'zingizni qiynayvermang. Hech bo'lmasa bizlarga rahmingiz kelsin, Abay og'a! *(bu gaplarni u kesatib gapiradi.)*

Abay: Nega meni tashlab ketding, Haydarjon! Endi men kimga suyanaman...

Karim: *(Mug'ombirlik bilan.)* Qasam ichib aytayki, Abay og'a, Haydaringizning yo'qligini bildirmayman, og'a, faqat yig'lamang. Menga ishoning.

PARDA

UCHINCHI PARDA

Oltinchi ko'rinish

Saylovoldi taraddudi. Olisda qator tikilgan o'tovlar. Tog' tizmasi qorayib ko'rinib turibdi. Yaylov. Odamlarning harakatida qandaydir xufiyalik, sir borday: bir-birlari bilan shivirlashadi... Bo'lislar to'planishmoqda. Kechasi.

O'rozboy: Hov, Takajon, senga bir ikki og'iz gapim bor. Abay ining bo'lsa, men jon ayamas qudangman. Tiyib qo'yasanmi o'zing yo yo'qmi?

Takajon: Qiziq gapirasiz-a, O'rozboy og'a. U mening gapimga quloq solarmidi?

O'rozboy: Unday bo'lsa, sen aralashma. Biz o'zimiz...

Takajon: Shoshmang, yana bir oldidan o'tay... Oxirgi marta og'alik qarzimdan qutilay.

O'rozboy: Shunda ham to'xtamasa-chi?

Takajon: Unda bilganingizni qiling. Men ham jonimdan to'yib ketdim.

O'rozboy: Joningdan to'yib ketgan bo'lsang borib ayt. Endi biz bilan o'chakishmasin. Bordi-yu, bu o'ydan qaytmasa, bizdan xafa bo'lmasin, mayib bo'ladi. Gapim shu. Ha, aytganday, Azimxon kelar ekan.

(Azimxon kirib keladi.)

Jiyrancha: O, kelsinlar, kelsinlar, qadamlariga hasanot, Azimxon: Hozir sening gapingni qilib turuvdik.

O'rozboy: Mansablaring muborak bo'lsin!

Azimxon: Qulluq! Xo'sh, ahvollaringiz qalay, Norimbet, tuzukmisiz? Bu gal Chingiz eli sizni saylaydi deb eshitdim. Shu gap rostmi?

Norimbet: Ha endi, Azimxon, nasib qilsa. O'zingiz ham bundoq ha-halashib deganday.

O'rozboy: Shunaqa, nomzodini ko'rsatmoqchi bo'lib turibmiz.

Azimxon: Durust, durust. Unday bo'lsa, ellikboshining ham, xalqning ham xohishi bir ekan-da.

Jiyrancha: Ey, chirog'im-yey, xalq aytganimizga qachon ko'ngan edi. Xalqda fikr bor deysanmi?

O'rozboy: Abay omon bo'lsa, fikrimiz bir joydan chiqib bo'пти.

Azimxon: Nima, Abay hali ham o'jarlik qilyaptimi?

O'rozboy: El-ulusni yo'ldan urib, buzayotgan bosh buzuvchi o'zi-ku. Hayronman shu ulug'larga ham. Bitta buzuvchini tiyib qo'yish qiyin ish bo'ptimi?

Azimxon: Buning uchun ulug'ni ayblamang. Men ham, ulug' ham, general-gubernator ham Abayni o'lguday yomon ko'radi.

Jiyrancha: Ey, og'zingga moy.

O'rozboy: E, baraka top, inim Azimxon, xudo xayringni bersin! Shu gapingni o'zi bizga katta madad bo'ldi. Endi bu yog'ini o'zimizga qo'yib beraver...

Azimxon: Ilgaridan shunday. Bilmasmidilaring... Faqat yaylovda, dala-tuzda obro'si zo'r deb, unga tegishga hech kim jur'at qilolmas edi-da. Ammo hozir eng obro'li kishi Abay emas, boshqa kishi bo'lay deb turibdi, nazarimda.

O'rozboy: Xo'sh, xo'sh kim ekan u?

Azimxon: Umi? U — o'zlaring biladigan Karim: Dunyo aylanib ko'p narsani bilib kelganga o'xshaydi.

O'rozboy: Endi, harqalay, Azimxon inim, ot aylanib qozig'ini topadi, degan gap bor. Takajonni bo'lislikdan tushirib turganimda... Bu gapni Karimga aytmaganing ma'qul.

(Mesh kiradi.)

Mesh: Ho'v, O'rozboy og'a, nima qilib o'tiribsizlar bu yerda?

O'rozboy: Ha, chinoq, nima bo'ldi?

Mesh: Hamma balo anavi yoqda bo'lyapti. Odamlarni ham, ellikboshini ham yo'ldan uryapti?!

Jiyrancha: Nima deyapti bu? Kim yo‘ldan uryapti? Kimni yo‘ldan uryapti?

Mesh: Kim bo‘lar-di, Abay-da....

Norimbet: Yana Abaymi? Ana, aytmabmidim?

O‘rozboy: Nimalar deyapti u?

Mesh: Norimbetni bo‘lislikka saylamanglar, elga zarracha joni achimaydi. Agar saylasalaring keyin pushaymon bo‘lasanlar, deyapti.

Norimbet: Dod, Abayning dastidan! Meni tinch qo‘yadimi yo yo‘qmi?

O‘rozboy: Ertaga saylov... ammo biz ishni shu bugun kechasi boshlashimiz kerak. Norimbet, haligi yigitlar qayoqda. Hammasi shay bo‘lib turishsin!

Norimbet: Hammasi shay turishibdi.

(Abay, Takajon kirishadi.)

Takajon: Hoy, Abay, sabr qil, qayoqqa ketyapsan?

Abay: Nima ishing bor edi. Majlisga ketyapman.

Takajon: Mening so‘zimga kirsang, borma u yoqqa... Borma o‘sha majlisga.

Abay: Bu nima deganing?

Takajon: Bormagin o‘sha yoqqa.

Abay: Nega bormas ekanman? Ko‘ryapsanmi bu odamlarni? O‘g‘li uyda, qizi qirda zor yig‘laydi? Ularga hech kimning rahmi kelmaydi. Ulug‘lar odamlarni hibis qiladi, undan berilari yurtni bo‘lib talashadi. Qanday qilib yana bir rasvoni bo‘lislikka saylaymiz?

Takajon: Iltimos, o‘sha yoqqa borma.

Abay: Bunaqangi bexosiyat, bemuruvvat aka-ukkaligimizdan men allaqachon kechganman. Boraman dedimmi — boraman! Anovilar bilan bir gaplashib qo‘yay. Norimbetni saylatib bo‘pman! Yo‘limni to‘sma!

Takajon: Ixtiyoring. Men akalik burchimni ado qildim. Tag‘in nega aytmading, deb yurma!

Abay: Bu nima deganing!

*(Tashqaridan “Qayt, orqangga qayt.
Ur! Majaqla!” — degan ovozlari eshitiladi.)*

Ko'kboy: Abay og'a! Abay og'a!

Karim: To'xta! To'xtanglar! Bas qilinglar!...

*(O'rozboylar to'dasi Abayni kaltaklab,
sulaytirib ketishadi.)*

O'rozboy: Ha, battar bo'lmaysanmi! Bir alamimdan chiqdim...
Yo aziz-avliyolar! O'zing madad ber...

Mesh: Voy, O'rozboy og'a, ehtiyot bo'ling! Ana, odamlar chopib kelishyapti. Qoching, qochib qoling.

Jiyrancha: Ketskik!

Odamlarning ovozlari: Nima bo'ldi? Bu qanday sharmandalik? Kim u Abayga qo'l ko'targan. Bu qanday yovuzlik? La'natlar!..

Ko'kboy: Bu O'rozboy ko'ppak bilan Norimbet yovuzning ishi! Qani ular?

Davlat: Hoy, xaloyiq! Abayni ayagan jonimiz — jon emas! Uringlar la'natlarni!

Hojar: Oppoqdadam, yolg'izim.

Ko'kboy: He ulug' bo'lmay rasvo bo'lgur... Hammasiga mana bu sababchi. Hamma baloning boshi shu! Hamma baloning boshi shu!

(Azimxonning yoqasiga yopishadi.)

Azimxon: Jon og'a, og'ajon! Xudo ursin men emas!

Hojar: Ko'kboy og'a, rahmat sizga. Mana bu itga bir og'iz so'zim bor. Bu rasvoni shu yerda deb eshitib, ataylab kelgan edim. Haydar o'limi oldida mana shu itga ishonma, degan edi. Haydarning joniga qasd qilgan mana shu emasmikan? Shuni aytsin! Shuni aytdir, og'a!

Ko'kboy: Qani yovuz, gapir! Gapir, joning borida! Haydarning joniga qasd qilganmisan?

Azimxon: Jon og'a, agar qasd qilgan bo'lsam, til tortmay o'lay... Men emas...

Hojar: Men emas?!

Ko'kboy: Sen bo'lmasang kim? Ayt tez!

Azimxon: Men emasman. Balki boshqa odamdir, izlanglar...
Izlanglar...

Ko'kboy: Yo'qot bu itni! Saylov bo'lmaydi... Yo'qot, qorasini ko'rsatmasin...

(Zaynab keladi.)

Zaynab: Abay og'a, Abayjon! Nima bo'ldi? Qo'ling singur, qaysi nomardning qo'li tegdi...

Abay: Ha, Zaynab... Shunaqa gaplar... Takajon! Takajon! Meni chaqadigan zaharli ilon qo'ynimda yurgan ekan... Men bu yerlarda endi qanday yashayman, Boymuhammad!... Ketaman, ketaman, bu yerdan. Meni olib ketinglar!

Zaynab: Mehribonim, Abay og'a, kimlarga tashlab ketmoqchisiz bizni? Kimga? Xalqingizni kimga ishonasiz. Ketmang! Yig'latmang bizlarni!

PARDA

Yettinchi ko'rinish

Abayning boshqa xonalar bilan tutashgan xonasi. Parda ochilganda chap tomondagi xonada Abay yolg'iz.

Abay:

*Ko'zlarimga yosh bergin, yig'layin,
Bardosh bergin, sabr qilayin.
Xunob bo'lgan bu yuragimga
Davo bergin, asta silayin.*

Mag'aviya: O'zicha ko'zlarimga yosh bergin, yig'layin, Bardosh ber, sabr qilayin. Xunob bo'lgan bu yurakka, Davo ber, asta silayin. Otam sho'rlikning ahvoli nochor... Tez-tez o'limini o'ylaydigan bo'lib qoldi.

Oykarim: Tunov kuni, gaplarim ham, kulishlarim ham o'zim-niki emas, alla kimlarnikiga o'xshaydi, deb nolidi.

Mag'aviya: O'sha kaltaklab ketishgan mash'um kundan beri xayoli joyida emas. Xuddi umidlari chilparchin bo'lgan odamday garangsib yuribdi.

Oykarim: Chirog'im Mag'aviya, qaysi birini aytay, u paytlarda Haydar bilan Abdurahmon tirik edi. Hammasi o'shalarning dardi... Abdurahmon:.. O'g'ilginam!..

Mag'aviya:

*Ichim to'la og'u, o't, sirtim, butun,
Oh desam otilar achchiq tutun.
She'rlarim qanot bog'lab oshkor qilar,
Qo'y, yoymayin sirlarimni elga bu kun.*

Oykarim: Oh, ilgarilari ko'rganlarimiz qanday yorqin, xushchaqchaq kunlar edi-ya! Nahotki shularning hammasi tushdek o'tdi-ketdi!

Mag'aviya: O'sha mudhish tun... Hammasi qora bulutday bostirib kelishdi... Otamni, otajonimni beayov kaltaklab yiqitishdi, ablahlar! Men bo'lsam, o'z boshimni o'ylab, otamni ularning qo'lidan ajratib ololmadim-a!

Oykarim: Chirog'im, tag'in darding qo'zib qoldimi?

Mag'aviya: Sekin, otam bezovta bo'lmasin!

(Mohira kiradi.)

Mohira: Jindek pinakka ketgan ekanman... Abdurahmon tushimga kiribdi. Xuddi tirik paytlaridagiday, menga joni achib: "Mohiraginam, seni kimlarga ishonib tashlab ketdim-a!" deydi sho'rlik. Ey, Xudo, biz senga nima yomonlik qilib edik!.. Nega buncha zor yig'latasan?!

Abay: Yig'lama, Mohira, yig'lama! O'zingga Xudodan o'lim tilama. Qo'lingdan uchgan oqshunqor qaytib kelib qo'nmaydi!

*Bizni tashlading ketding,
Jigarporam, quvonchim.
Chidaymiz-da, nachora,
Erkatoyim, yupanchim...*

*Ayanglar, hey, yoronlar,
Ota-ona, qarindosh.
Chidaymiz-da, nachora,
Erkatoyim, yupanchim...
Ayanglar, hey, yoronlar,
Ota-ona, qarindosh.
Dilbandimdan ayrildim,
Nechuk qilay men bardosh?*

Karim: Assalomu alaykum, Abay og'a!

Abay: Va alaykum... Hozir.

Karim: Mana, Abay og'a! Mana, Mag'aviya, she'rlarim chop etildi. Suyunchi beringlar!

Abay: Qayerda chop etildi?

Karim: Qozonda. Aytgandim-ku, haqiqiy iste'dod yerda qolmaydi deb.

Mag'aviya: Tiling ham o'zgarib ketibdi-ku. Xuddi moylanmagan aravaning g'ildiragiday... odamning qulog'iga erish eshitilyapti... Ha, tunov kuni Haydarning "Englik va Kebek" dostonini olib ketgan eding. Bittagina nusxa edi, olib kelib bergin o'shani. Ko'chirmoqchi edim...

Karim: Men uni tuzatmoqchi edim. Tahrir qilib...

Abay: Yo'q, uni sen tuzatolmaysan. Tahrir qilaman deb, taxirini chiqarasan. Birovning mulkiga tegma, buzib qo'ysan. Qaytarib ber, Mag'aviyaga.

Karim: Mayli unaqa bo'lsa...

(Hojar bilan Qaldirg'och kiradi.)

Qaldirg'och: *(Hojarning oldiga kelib.)* Rasvolar... Buni qara, hamma yoqni ostin-ustun qilib ketganini! *(shishachani ko'rib.)* Iya, Hojar, mana bu qayerdan chiqdi?

Hojar: Men bu shishachani to'yimiz kuni uydan topib olgan edim. Bilmadim, kim esidan chiqarib qoldiribdi?

Qaldirg'och: To'xta, to'xta... Men bu shishachani qayerda ko'rgandim?... Kimning qo'lida ko'rgandim?..

Hojar: Kimda ko'rgan eding? Nimaning idishi bu?

Qaldirg'och: Ichida dori bor deganday bo'lib edi-ya!.. Ammo uni kimning qo'lida ko'rgandim?

Hojar: Dori?! Dori dedingmi? Ayt, kimda ko'rganding? Ayt...

Qaldirg'och: (*o'ylanib.*) Birovning qo'lida ko'rganday bo'lib edim-ku... Kallam qursin, kim edi u...

Karim: (*Abayga.*) Abay og'a, mana shunday og'ir kunlaringizda yana bir yordam qo'lini cho'zay. Yakkalanib qolmang, keling safimizga! (*Abayda un yo'q.*) Dunyo bir kattakon ko'l, zamon esa esib turgan yel! Oldingi to'lqin og'alar bo'lsa, keyingi to'lqin bamisoli inilar, degan edingiz-ku, o'zingiz. Yangi bo'g'inining kuchli to'lqini kelayotganini nega sezmaydiz, axir?!

Abay: E, Karim, Karim! Agar haqiqatan ham, yangi bo'g'inining kuchli to'lqini kelayotgan bo'lsa sezgan, payqagan bo'lar edim. Biroq kuchli to'lqin oldida hamisha ko'pik oqib kelishidan xabaring bormi? Kuchli to'lqin unsiz keladi-yu, ko'piklar yorilib puch bo'lib, to'z'g'ib ketadi (*sukunat*).

Hojar: Voy sho'rim... Sho'rlik Haydarginam... Qaysi yash-shamagur berdi bu zaharni!.. Hamma balo mana shu shishada. Kim, kimning qo'lidan keldi bu vahshiylik? Azimxonmi? Yo'q, u, "men emas, izla, qidir", degandi-ku! (*Narigi xonadan Karim chiqadi.*) Karim, Karim, sen mana bu shishani biron joyda ko'rgan emasman?

Karim (*seskanib*). Yo'g'-e, qo'y-e... Nima deyapsan o'zing?

Hojar: Rost aytyapsanmi?

Qaldirg'och: Bo'ldi, bo'ldi, topdim... Hoy, qaynijonim, hov anovi kuni, Hojar bilan Haydarjonning to'yi kuni... sen mana shu shishachani mening qo'lindan yulqib olganmiding? Esingdan chiqdimi...

Karim: E, u boshqa shisha edi. Nimalar deyapsan o'zing? E, nari tur!

Qaldirg'och: Yo'q-yo'q, Xudo ursin, xuddi mana shu shisha edi...

Hojar: Bo'ldi, bas qil! Qani, ikkalang ham mana bu uyga kiringlarchi! Yur deyaqman!

Karim: Nima deb valdirayapsanlar o'zlaringdan o'zlaring? (*Hammasi uyga kirishadi.*)

Hojar: Oppoqdada, meni kechiring, bilamiz sizga oson emas. Ammo nima qilay, yana dardingizga dard qo'shay deb turibman. Yuragimni g'ijimlayotgan, kemirayotgan qurtini topdim.

Karim: Nimalar deyapti bu o'zi?

Hojar: Karim, iltimos qilaman, so'zimni bo'lma. Haydarimning badani o'limidan bir kun avval, ko'kimtir bo'lib ketgan edi. Uni zaharlashgan.

Oykarim: Voy Xudoyim-ey...

Hojar: Mana, endi bu shishacha sirni fosh qildi.

Karim: Hoy, sen o'zingcha gapni qayoqqa buryapsan?

Mag'aviya: Karim, to'xta, sabr qil..

Hojar: Bu shishacha to'yimiz kuni... Karimning cho'ntagida ekan. Qaldirg'och ko'rgan ekan... Sho'rlik Haydarginam (yig'laydi).

Qaldirg'och: (Karimga) Rost, shu shishani senda ko'rganman, qotil!

Karim: Bas qilinglar-e, nima deyapsanlar o'z'laringdan o'zlarining! Aybsiz odamga tuhmatlaring nimasi?

Abay: (Karimga) Voy ablah.. O'chir uningni! Essiz senga qilgan yaxshiliklarim. Qo'lingni qonga botirdingmi, yaramas! Sening yuzing do'zaxdan ham battar jirkanch... Sen o'z inisini qatl qilgan yovuzsan! (Gandiraklab ketadi) Haydarim, o'g'ilginam... Yonmay so'ngan yulduzim!

Karim: Mening gunohim nima?

Mag'aviya: Og'zida Oллоh, qo'llari qon. Sen itga ishongan do'stingning qoni. Sen iblisning qo'lidan har narsa keladi. Sen sotqinsan. Boyla, bo'yniga arqon bog'la! O'ldirish kerak bu ablahni! (Tashlanadi. Oykarim Karimni sudrab olib chiqadi.)

Abay: (Qiyinalib) E, bevafo dunyo! Menda yana qanday qasding bor? Men tortmagan dard, chekmagan azob, ichmagan zahar qoldimi? Yuragim pora-pora bo'ldi. Yaqinlarimdan ayirding. Jigarlarimni o'zimga dushman qilding. Gunohim nima edi? Nima qilgan bo'lsam, o'lanlarimda nimalar degan bo'lsam, xalqim uchun, elimning ma'rifati, elday bo'lib yashashi uchun qildim. Odamlarni, yoshlarni to'g'ri yo'lga, ahil-inoqlikka boshladim. (Sahna ortidagi kengliklarga tikilib) Ey, dasht-u dalalar, ey, beg'ubor osmon. Ey,

mehribon tangrim. Ayting-chi, men qanday gunoh qildim? Zulmga, adolatsizlikka qarshi kurashdim. Yaxshini yaxshi, yomonni yomon dedim. Oqinlik nomimga dog' tushirmadim. Adashganlarni kechirdim, to'g'ri yo'l ko'rsatdim. Ota-bobolarimizning nasihatlariga amal qildim. Shumi mening aybim? Shumi adolat? Dunyo dunyo bo'lganidan beri bir-birlariga dushmanlik qilganlar, yovlashganlar, bir-birlariga choh qaziganlar, bir-birlarining ko'ksiga xanjar urganlar nimagaga erishdi? Nimaga? Begunoh to'kilgan qonlarning, xazon bo'lgan jonlarning, kuylanmay qolgan muhabbat qo'shiqlarining uvolini kim o'ylaydi? Kim? E, tangrim... *(Boshini ushlab o'tirib qoladi.)*

Zaynab: *(Asta yurib Abayning oldiga keladi)* Abay og'a. Sizda gunoh yo'q. El-ulus, jamiki yaxshilar sizning tarafingizda. Yoshlar sizning tarafingizda. Yomonlarning yomonligi, g'animlarning qilmishlari o'zlariga qaytadi. Ha, ha, albatta qaytadi. Xalq sizdek yo'l boshchini hech qachon unutmaydi. Shogirdlaringizning dostonlarida, yoshlarning qo'shiqlarida, el-yurt xotirasida abadiy yashaysiz. Men bunga ishonaman.

Boymuhammad: Abay, kuyunma. So'zlarimga quloq tut, yuragimdagi gapni aytaman: sening vijdoning toza, imoning but. Ulug' niyatlarini kelajak avlodlar ro'yobga chiqaradi. Odamlar bir ota, bir onaning farzandlariday og'a-ini bo'lib yashaydigan, bir-birlariga mehr ko'zi bilan qaraydigan zamonlar keladi. Ana o'shanda Sen yana elning oldi bo'lasan, adolat yo'lida chiroq bo'lib porlab turasan... Shunday bo'lishiga men ham ishonaman.

Abay: *(Boymuhammadning so'zlaridan ta'sirlanib.)* "Bir-birlariga mehr ko'zi bilan qaraydigan zamonlar..." Qachon keladi o'sha zamon? Qachon? Nahotki, uning poydevoriga bitta g'isht qo'ya olmay ketsam bu dunyodan?

Zaynab: Og'a, siz bu g'ishtni allaqachon qo'yib bo'ldingiz. Do'stlik, og'a-inilik, yaxshi qo'shnichilik imorati qad rostlamog'da. Siz buni ko'rasiz, albatta.

Boymuhammad: Ha, shunday zamonlar keladi. Elimizning ko'ksiga shabada tegadi.

(Sahna qorong'ulashib, so'ng yorishadi. Purviqor tog'lar, musaffo osmon. Sahnada Abayning o'zi. U avvalgidan ko'ra salobatli, qat'iyatli ko'rinadi.)

Abay: Qush qo‘nmagan ko‘l yetim, boshchisi bo‘lmagan el yetim. Ha, yaxshi zamonlar keladi. Ulug‘ yo‘lboshchilar elni elga, dilni dilga bog‘laydilar. Yaxshi qo‘shnichilik, do‘st-qadrdonlik, sevgi, sadoqat, mehr-oqibat odamlar hayotining mazmuni bo‘lib qoladi. El-ulus o‘z hayotidan rozi bo‘lib, bir-biridan o‘rganib, bir-birini siylab, hurmatlab, uyining to‘riga o‘tqazib yashaydi. O‘sha kunlar kelganida, men ham, ulug‘ Navoiy aytganidek, bu yorug‘ kunlarga o‘lanlarim, ozod xalqim, baxtli yoshlarimiz bilan labbay deb javob beraman.

PARDA

Tamom

.

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| Muxtor og'a haqida muxtasar so'z (<i>Muhammad Ali</i>)..... | 3 |
| Abay (romandan parchalar) <i>Zumrad tarjimasi</i> | 6 |
| Qarash-qarash voqecasi (qissa) <i>Irisali Qo'chqortoyev tarjimasi</i> .. | 89 |

Hikoyalar

| | |
|--|-----|
| “O'qimishli yigit”. <i>Nosir Fozilov tarjimasi</i> | 150 |
| Ovchi. <i>Abduvohid Mullamuhamedov tarjimasi</i> | 167 |
| Ko'kyol. <i>Sunnatilla Anorboyev tarjimasi</i> | 191 |
| Kim aybdor? <i>Nosir F'ozilov tarjimasi</i> | 219 |
| Kek yo'lida. <i>Zumrad tarjimasi</i> | 242 |
| Abay (<i>pyesa</i>). <i>Nosir F'ozilov va Ahmadjon Meliboyev tarjimasi</i> | 249 |



MUXTOR AVEZOV

74-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Iroda Umarova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*
Islom Azamatov

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.

Bosishga 18 oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $\frac{1}{16}$.

Ofset qog'oz. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 19,0. Nashriyot-hisob tabog'i 18,09.

Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 141-1/22 Buyurtma raqami № 22-357

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining

"O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

M 93 Muxtor Avezov [Matn]: nasr / to'plovchi va nashrga tayyorlovchi
Risolat Haydarova. – Toshkent: “O‘zbekiston nashriyoti”, 2022. – 304 b.
ISBN 978-9943-8734-1-4

UO‘K 821.512.122-3
KBK 84(5Qoz)



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

MUXTOR
AVEZOV

